TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

OZARBAYJON ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI

70

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

OZARBAYJON ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI

70

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.162-1
KBK 84(5Ozar)-5
O-33

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton — hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Karim Bahriyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8733-7-7
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT

Ozarbayjon adabiyotining bilimdoni, professor Boboxon Muhammad Sharif aytganlariday: "Insonning baxt-saodat uchun kurashi har qanday adolatli jamiyatning gumanistik mohiyatini belgilab beruvchi mezondir. Adolatli jamiyat insonga muhabbat, uning taqdiri va istiqboli to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatish bilan cheklanib qolmay, shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo'lgan barcha sharoitlarni yaratadi. Zero, insondan qimmatliroq boylik yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Mamlakat, davlat va jamiyat insonning haq-huquqlari, erkinligini, bir so'z bilan aytganda, adolatni ta'minlashga xizmat qilmog'i lozim". Adabiyot, jumladan, ozar adabiyoti va she'riyati ham millat haq-huquqlari, inson qadr-qimmati borasida adolatli va insonparvarlik tamoyillarini istab, da'vo va da'vat qilib yaratilgandir.

Mazkur jildda ozarbayjon she'riyatining XX asr va XXI asr boshlarida ijod qilgan va ijod qilayotgan zabardast shoirlari ijodidan namunalar imkon qadar qamrab olingan.

O'tgan asr tarixi va bugungi istiqlol davri tarixi o'zbek va ozarbayjon xalqlari tarixida umumiy asoslarga egadir: chorizm zulmi, inqilobiy o'zgarishlardan umidlar, keyin sarob bo'lgan ozodlik, muxtoriyat, erk umidlari, urushlar va qatag'onlar, turg'unlik, sho'ro saltanatining qulashi va mustaqillikning mashaqqatli va farahbaxsh yillari, shu hayot ichida ijod qilgan va qilayotgan so'z san'ati fidoyilari.

Ozarbayjon jadidlari Turkiston jadidlari bilan hamnafas edilar. Ular millatning dunyoga chiqishini, dunyo bilan teng taraqqiy qilishini istadilar, taraqqiyotning dushmani jaholat ekanini angladilar, ilm va bilimning millat uchun qadrini tushungan holda ma'rifatga da'vat qildilar.

Sobir (Aliakbar Tohirzoda) loqaydlik, eskilikka yopishib olgan inson tilidan yozdi:

Millat qancha talosh bo'lsin, ne ishim bor?!
Dushmanlarga muhtoj bo'lsin, ne ishim bor?!
Qo'y, men to'q bo'lay, o'zgalar-la ishim yo'qdir,
Dunyo-yu jahon och bo'lsin, ne ishim bor?!

Har millat etar dunyo sahnida taraqqiy,
Aylar har bir manzil-u ma'voda taraqqiy,
Yurgan-yotganimda tushar yodga taraqqiy,
Biz ham etaylik olami ro'yoda taraqqiy.

Ali Nazmiy umid bilan so'roqlar beradi: "Doim qolajakmi asoratda musulmon? Zanjirni uzib, ul-da yo ozod bo'lajakmi? Boshlarga balo yomg'iri har dam yog'ajakmi? Yo kun chiqar-u bizga-da imdod bo'lajakmi?"

Albatta, chor imperiyasida sodir bo'lgan fevral va oktabr to'ntarishlari muayyan umidlar uyg'otdi va shoirlar hurriyat umidiga berildilar. Lekin hurriyat kimga nima berdi, degan so'roqni o'ziga bergan Ali Nazmiy, bu hurriyat turkiy xalqlarga erk keltirmaganini 1917-yildayoq yozdi:

O'lkamizga kirib keldi hurriyat,
Millatlarga bo'lgay endi shu qismat:
Fin xalqiga — yirtiq-yamoq istiqlol,
Polyaklarga — bir qop va'da, pok-halol!

Ukrainga — muxtoriyat, suv, tuproq,
Turkistonlik muslimlarga shapaloq.
Litvalikka — istagancha ixtiyor,
Buxorolik, xivalikka — zahri mor.

Kazaklarga — ne'mat to'la Kuban, Do'n,
Lazginlarga, cherkaslarga — "Pasho'l von!"
Latishlarga — biroz ulush bo'lsa, bas,
Juhudlarga, tatarlarga — bo'sh qafas.

Xoxollarga — yer ber, yangi buyruq ber,
Qrimlig-u qirg'izga musht yumruq ber.

Ruminlarga — yurt va uy-joy, yo'l, iqbol,
Yerli-yurtli gurjilarga — his-xayol.

Greklarga — ne bersang ber, sep sepkin,
Ozarbayjon turklariga — ming tepki.
O'ruslarga — muxtoriyat, og'alik,
Armanlarga — imperyada darg'alik.

Shirvoniy, Sobir Ali Nazmiy, Ahmad Javod qatorida Muhammad Hodiy hurriyat uchun inson huquqlari, so'z erkinligi, fikr maydoni kengligi lozimligini ochiq bayon qiladi:

Huquq isbotiga lozimdir — bo'lsin fikrlar ozod,
Ki, hosil aylasin vijdonlar imtihoni hurriyat.
Gadoning boydan, boyning gadodan bo'lmasin farqi,
Hamma avlodi insondir, deyar har oni hurriyat.
Kimi taxti saodatda, kimi qolsa safolatda,
Bunga rozi emasdir, shubhasiz, vijdoni hurriyat.

Afsuski, real hayotda "Nimamiz bor?" deya shu nomli she'rida Muhammad Hodiy afsuslanadi: "Na iste'dodi ulviyat, na-da irfonimiz bordir, Qadrsiz, xayrsiz yuz ming suruv nodonimiz bordir. Emas inkori qobil, pok baytmiz insoniyatdan, Juda ozdir bizda inson, juda ko'p hayvonimiz bordir! Bu iblisona ishlar kim, ko'rursan, qilmas iztirob, Avom bu kimsalar aytar: "Bizning shaytonimiz bordir".

Ozarbayjon adabiyoti va she'riyatining o'zak mavzusi turkchilik g'oyasi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Ahmad Javod yozadiki: "Turon shunday bir muqaddas Ka'badirki, har bir toshi qarshisida egilgaydir har bir turkning mag'rur boshi".

Albatta, inqilobdan qilingan muxtoriyat va erk umidlari puchga chiqqanini ko'rgan millatlar shoirlari mislsiz ta'qib va qatag'on sharoitida ham dardlarini aytishga harakat qildilar, Erkin Vohidov ta'biri bilan aytganda, "Vatanda bevatan bo'lgan" xalqlar shoirlari majoz tilida, so'z san'ati orqali, ba'zan oshkora zulmga qarshi chiqdilar.

Sulaymon Rustamning "Isyon ko'tar" degan she'ri bor:

— Isyonchi bo'l, isyonchi bo'l, isyonchi bo'l beomon!
Sharqning yongan chirog'ini qayta yondir, ey inson!
Tur, yig'lama, yoshlaring art, qiynalmasin, axir, jon.
Isyon ko'tar, isyon ko'tar, do'stlaring-la yonma-yon!
Zanjirlarni parchalab ot, seni kutar hurriyat,
Isyon bilan, isyon bilan, yo'l topadi haqiqat!

Albatta, so'raganlarga shoir: "Men bu yerda Afrika va Osiyoning mustamlaka xalqlarini nazarda tutganman!" — der edi. Ammo she'rning zamirida sho'ro mustamlakasi ostidagi xalqlarning dardlari ham mujassamdir.

Mikoyil Mushfiqlar safida bo'lgan Rasul Rizoning 1964-yilda yozilgan "Menda ixtiyor bo'lsa..." she'ri: "Men istarman: bulutlar yig'lasin, go'daklar yig'lamasin; onali va onasiz. Men istarman: gullar ochilsin, o'qdonlar ochilmasin, omonli va omonsiz", — deb boshlanadi va she'r oxirida shoir:

Men istarman:
sevinch, saodat bor bo'lsin.
Yurakdan yurakka,
o'lkadan o'lkaga
ochiq yo'l bo'lsin.

Bu biqiqlikka, yopiqlikka, dunyodan uzilishga tushgan sho'ro saltanatining ochiqlikka, xalqlarni dunyoga va, jumladan, dunyo turklari bilan do'stona aloqalariga da'vat etish nidosi edi.

Xalil Rizoning turkchilik, turk millatsevarligi hurkitgan kaslar haqida "Turk so'zidan qo'rqqan gado" nomli she'ri bor. Unda turkchilikdan xavotirga tushgan shaxslar tasvirlanadi: "G'alati bir fe'ling bor: Turk so'zin eshitsang, bas, shart o'rningdan turasan, Ovsarlanib, so'zingni boshqa yoqqa burasan. Jiyanim ismi — Turkel, Yashar qishlog'im — Turkan, She'rimda ko'rsang, darhol o'chirarsan, buzarsan, Yo Mardakan yozarsan, Yo Shavalan yozarsan, toki Turkan bo'lmasin. Ichingda g'o'ldiraysan, Boladay mo'ltiraysan". Shoir boshini yuksak tutadi:

Turkman.
Bitta to'lqinman — dengiz ichra buyukman,
Sen kimsan?
Bor, onangdan so'rab bil kimligingni.

Ozarbayjon she'riyati "hatto haykallarni tiriltiradigan" she'riyatdir. Fikrat Quja shunday bir so'z aytishga chog'lanadiki, yuragi hayqiradi: "Dalli yuragim, hayqirsang-chi, bu kecha bedorligimni hamma bilsin, yelga hayqir, haykallar ham tirilsin..."

Albatta, mustamlaka davrining turg'unligi, toriqarli hayotini isyon ila tasvirlaganlar qatorida ko'plab shoirlar isyonini satrlar orasiga joylagan edi. Qachay Ko'charli go'yoki qarilik haqida yozgan she'rida gapni "Holsizman-u biroq holim so'rgan yo'q, Qaytib chiqmas ko'ksimga har kirgan o'q, Hamma qarar, faqat meni ko'rgan yo'q, Menga o'xshab hamma ko'rmish bu yerda", — deb boshlaydi. "Hamma ko'r" bo'lgan, ko'rib-ko'rmaganlikka olayotgan, bir-birlaridan hadiksiraydigan sharoit. Sho'ro hayotining ichkin tasviri:

Meni bo'g'ar uyimdagi devorlar,
Har devorda bir vahima, qo'rquv bor.
Bir tobutdir g'ira-shira bu g'ubor,
Shu o'z uyim menga go'rmish bu yerda.

Shu singari Voqif Samad o'g'li aytadiki: "Bizmas, Alloh ishonar bizga... Ishonmas qo'limiz qonga botganda, inson insonga tosh otganda. Bir on ko'k yuzi go'dak tabassumi kabi ko'ringanda ko'zga, inson "Dunyo go'zaldir" deganda yuzini tutib dengizga, biz emas, Alloh ishonar bizga". Butun umid Allohdan, biz Allohga ishonmaymiz, lekin Alloh bizga ishonadi, bizda imon, insof, insoniylikdan umid qiladi.

Xuddi shu "turg'unlik davri" hayotini Romiz Ravshan go'zal tasvirlagan:

Bu qandayin charchoqdir,
Axir, bundoq kim zerikar?!
Cho'ntakda qo'lim zerikar,
Og'zimda tilim zerikar...

Qayga otay bu qayg'uni?!
Na boshi bor, na yakuni...
Bilaman, jim poylab meni
Qaydadir o'lim zerikar.

Albatta, istiqlol davri ozarbayjon she'riyati, bugungi yosh avlod she'riyati meros mavzularni yoritish barobarida globallashgan dunyo shoirlariga aylanmoqdalar. Ular bugunning nafasini, muammolarini, shu bilan birga, abadiy muammolar va tuyg'ularni — sevgini, yaxshilik va yomonlik, ezgulik va jaholat kurashini aks ettirmoqdalar.

O'zbek xalqi ozarbayjon xalqi bilan do'stona aloqalarda bo'lib, shu jumladan, ozarbayjon adabiyotini sevib o'qiydi.

Mazkur jildga kiritilgan she'rlarning bir qismi oldingi davrlarda Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Shuhrat, Zulfiya, Jumaniyoz Jabborov, Rauf Parfi, Razzoq Abdurashid, Nosir Muhammad, Fayzi Shohismoil, Usmon Qo'chqor singari shoirlarimiz tomonidan tarjima qilingan. Shu bilan bir qatorda, to'plamdan joy olgan ko'pgina she'rlar iste'dodli tarjimonlar Miraziz A'zam, Tohir Qahhor, Muhiddin Omon, Xosiyat Rustamova, Shahlo Qosimova, yosh mutarjimlar Alisher Tursunov, Rahmat Bobojon, Sevinch Norqobilova tomonidan ilk bor o'zbek tiliga o'girildi. Beminnat xizmatlari uchun ularning barchasiga, shuningdek, to'plamni tayyorlashda yordam bergan barcha do'stlarimizga, jumladan, ozarbayjonlik professor, filologiya fanlari doktori Yashar Qosimbeyliga, shu paytgacha ozarbayjon she'riyati to'plamlarini tayyorlagan Boboxon Muhammad Sharif ustozga, Shahlo Qosimovaga samimiy minnatdorchilik bildiramiz.

Endilikda adabiyotlarimizning bugungi avlodlari o'rtasida adabiy aloqalarning kuchayishi uchun yaxshi imkoniyatlar yaratildi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ozarbayjon Prezidenti I. Aliyevning keyingi yillardagi uchrashuvlari adabiyot maydonida ham yangi ufqlarni ochdi. Yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish qardosh xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishga, adabiyotlarimizni o'zaro boyitishga xizmat qilishi shubhasizdir.

Karim Bahriyev,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
shoir va tarjimon

MIRZA HASAN QORABOG'IY

(1841–1904)

XIX asrning ikkinchi yarmida Ozarbayjonning Qorabog' viloyatiga qarashli Shusha shahrida tug'ilib, yashab, ijod etgan bu dilbar shoir g'azallarida uning o'zbek xalqiga, she'riyatiga, xususan, hazrat Alisher Navoiy, Bobur ijodiyotiga nisbatan bo'lgan cheksiz mehr-muhabbati va ehtiromi ufurib turadi. Shunisi e'tiborliki, Mirza Hasan Qorabog'iy Fuzuliy va Navoiyni birdek o'ziga ustoz deb biladi. Unig ijodiy merosida Navoiy va Bobur she'riyatining ohanglarini ilg'ash u qadar mushkul emas.

Qorabog'iy ozarbayjon, fors va hatto o'zbek tillarida ham g'azallar ijod etgan. Uning fors va ozarbayjon tillarida bitilgan g'azal, masnaviy, ruboiy, qit'a, tarkiband, tarjiband, taxmis va tamsillaridan tarkib topgan umumiy hajmi olti ming baytdan oshiqroq keladigan devoni mavjud.

Shoirning o'g'li xalil Yuzbashov ham Xalil taxallusi ila dilbar g'azallar meros qoldirgan, shuningdek, Navoiy asarlarini ozarbayjon tiliga o'girgan mohir tarjimonlardan sanaladi.

G'AZALLAR

Shavqi — mehri orazing, jismim aro jondan laziz,
Shavqi — shahdi la'ling, ey, moh, obi hayvondan laziz.

Mohi ruxsoring ziyosi, mehri anvardan munir,
Inja og'zing g'unchasi gulbargi xandondan laziz.

Yodi gulzori ruhing firdavsi a'lodan go'zal,
Gulshani ro'ying safosi bog'i rizvondan laziz.

Ey, nigorim, bir daf'a gulzori ro'yingni ko'rish,
Haq bilarkim, men uchun sayri gulistondan laziz.

Jilvayi ruxsori oling barcha guldan dilpazir,
Ifori zulfing guliston ichra rayhondan laziz.

Noladan bo‘lma xalos, hajrida yorning ey, ko‘ngul,
Yo‘qdurur, darmon g‘ami hijronga afg‘ondan laziz.

Gar Hasan jonni berib vasling tilar, bir vajhi bor,
Yodi vasling ey, nozanin ungadur jondan laziz.

* * *

Mendan arz et, ey, sabo, xalq ichra jonon chiqmasun,
Badnazar ko‘pdur, yetar husniga nuqson chiqmasun.

Ey, falak, gar qilsa yorim mehri ruxsorin, ayon,
Sen nihon et ofitobing, ayla pinhon, chiqmasun.

Soqiyo, sa’y etkim, ul moh sarxush uydan chiqmasun,
Jismi afkorimda mehring gar to‘lanmas jon ila.

Chiqsa jon chiqsun tanimdan, mehring ey, jon chiqmasun.

Partavi husning ko‘rganlar ariza aylar mudom,
Jilva qilsun orazing, mehri – duraxshon chiqmasun.

Nozanin yorim bugun, noz ila mehmondur, mana,
Soqiyo, bir dam kerak, paymona yoddan chiqmasun.

Ey, Hasan, har kimsa istarkim, parishon o‘lmasun,
Kirsun ul jom ichraki, to undan pushaymon chiqmasun.

* * *

Afsuski olamda bir imdodga yetgan yo‘q,
Faryod qilgan ko‘pdur, vale dodga yetgan yo‘q.

Tanho emassanki, kam de muyassar, ey dil,
Maqsud-u murodina bu dunyoda yetgan yo‘q.

Har rahguzori umrda ming xavf-u xatar bor,
Sarmanzili matlubiga ozoda yetgan yo‘q.

Har bir kimsaga holi diling aylama izhor,
Ko‘p chekma abas, nolaki, faryodga yetgan yo‘q.

Xalq ichra, ko‘ngil, ko‘r na yamon jang-u jadal bor,
Bir matlabga bu sho‘rish-u g‘ovg‘oda yetgan yo‘q.

O‘z naf’ini o‘ylar ekan har matlabi ijod,
Bul muammoning tubiga dunyoda yetgan yo‘q.

Ko‘p dod-u fig‘on etma, Hasan, aylama faryod,
Faryodi fig‘oni dili noshodga yetgan yo‘q.

* * *

Falak qilmish mani har bir baloga mubtalo, ey, dil,
Vale, ag‘yor maqsudin etar doim ravo, ey dil.

Baloyi hajra sabr et, gar muroding vasli jonondur,
Bul mashhuri jahondur: “al – baloyu-lil valo” ey dil.

Falakdan ta’ma qilma, istama mehr-u vafo undan,
Xilofi rasmdurkim, charxdin kutmak vafo, ey dil.

Ketib ishqida bir ra’no nigorning sabr-u oromim,
Bildim, turmas muqobil shoh ila har bir gado, ey dil.

Jahon ahlidek ko‘p dunyoga qilma ruju zinhor sen,
Magar, oqil kishi har dam qadrin aylar bebaho, ey dil.

Xayol etmas behishtni hech, agarki topsa ishq ahli
Farog‘at kunji uzra bir anisi beriyo, ey dil.

Agar baxtli bo‘lay dersan, o‘zingni qat’iy ulfat qil,
Jahon dardin Hasandek tark etib bo‘l podisho, ey dil.

* * *

Sari ko‘yida yorning, ey ko‘ngil, bir nola bunyod et,
Bu pinhon dardimi ul mahliqog‘a sharh qil, yod et.

Ko‘ngil koshonasi vayronadir bedodi hajridan,
Bu mulk axir, seningdur, sevgilim, rahm ayla, obod et.

Eshitdim, ul sanam nolam sevar, ashkim ravon istar,
Bu yo‘lda jahd qil, ey ko‘z yoshim, ey nolam, imdod et.

Qaro zulfing havasidan ko‘ngil asiri mehnatdur,
Anga rahm ayla, ey moh, benavodur, g‘amdin ozod et.

Agar vasli nigor istarsan, ey dil, tarki lazzat qil,
Sari ko‘yinda doim ul nigorning dod-u faryod et.

Jafo-vu dardi hijron ila ko‘pdandurki, noshodmen,
Mani vasling-la bir dam, mahvashim, yod ayla, dilshod et.

Raqiblar tuhmatin, begona zulmin, do‘st ta’nasin,
Hasan, sol yodga, bir-bir, nola qil, faryod chek, dod et.

* * *

Kel, ey, hayoning timsoli, yori g‘amguzorim kel,
Kel, ey, anisi, dili zori beqarorim kel!

Kelur navoga ko‘ngil furqatingda shom-u sahar,
Tutib jahonni sarosar fig‘on-u zorim kel!

Ketibdur sabr-u qarorim, yo‘qolmish tob-u tabon,
Kel, ey, ko‘zum, azizim, toqatim, qarorim, kel!

Na noz-u g‘amzadur, yorab, na ishvadur, bilmam,
Bu noz-u ishvani tark ayla, ey, nigorim, kel!

Samumi hajr ila gulzori ayshim bo‘ldi xarob,
Buzildi gulshan-u gulzor-u navbahorim, kel!

Ne na’v sabr etay mehnati firoqingga men,
Do‘nibdi qonga, azizim, dili figorim kel!

Qo‘yubdur sidq ila jon naqdini yo‘lingda Hasan,
Nisori qomati sarvinda har na borim, kel!

* * *

To sabo zulfin u yorning yuzda afshon ayladi,
Ozurda ko‘nglim holin o‘shal parishon ayladi.

Qaysi bir gul g‘unchasi bog‘ ichra bo‘ldi jilvarang,
Oqibat bodi xazon bag‘rin aning qon ayladi.

Qaysi nargis kim, chamanda ichdi ishrat jomini,
Sarsari davron uni oxirda giryon ayladi.

Ko‘p shahanshohi falak taxt uzra bo‘ldi sarbaland,
Xor qildi oqibat, xok ila yakson ayladi.

Kimniki qasrini qildi me’mori gardun feruz,
Ul qasrni charxi dun zulm ila vayron ayladi.

Dahr ko‘yiga aldanma, ul behad makkoradur,
Kim uning ilkin tutar, oxir pushaymon ayladi.

Ishqda ham yanglishma, ey, dil, ishq yo‘li oson, debon,
Demaki, Farhod-u Majnun ani oson ayladi.

Biri Majnuni g‘amgindur, bo‘ldi rasvoyi jahon,
Biri Farhodi hazindur, qon ichra pinhon ayladi.

Ishq sahrosinda bisyor, ey Hasan, sargashtalar,
Kim seningdek jonini jononga qurbon ayladi?

* * *

Bir malakrif'at, mohi tobonni ko'zlar ko'zlarim,
Bir duraxshon gavhari yaktoni ko'zlar ko'zlarim.

Podishohi taxti ismat, majlisni bazm aylagan,
Shahbozi gulshani ehsoni ko'zlar ko'zlarim.

Aylaram payvasta xurshidi jamolini orizu,
Bir qamartal'at, malaksiymoni ko'zlar ko'zlarim.

Xiyla muddatkim, ul mohdan kelmadi hech bir xabar,
Bir malakmengzar, mohi davrǫnni ko'zlar ko'zlarim.

Furqatidin jismi zorim notavon o'lmish manim,
Sendan, ey koni sihat, darmonni ko'zlar ko'zlarim.

Maskanim bir baytul xazon o'lmish manga Ya'qub kabi,
Ko'p zamondur, ul mohi Kan'onni ko'zlar ko'zlarim.

Har qaysi xunxorga mutloq iltijo etmas Hasan,
Bir shahanshohi, malak barnoni ko'zlar ko'zlarim.

* * *

Qomatingdek bo'y otib sarv xiromon bo'lmas,
Orazingdek, ey sanam, bir guli xandon bo'lmas.

Na bo'lur qaro zulfing kabi bir sunbuli tar,
Na dudog'ing kabi bir la'li Badaxshon bo'lmas.

Na qoshingdek falak uzra bo'lmag'aydur yangi hilol,
Na jamoling kabi bir mehri duraxshon bo'lmas.

Na ko'zing gavharidek topilmagay bir tiyrandoz,
Mijgoningdek jon oluvchi novaki paykon bo'lmas.

Husni ruxsoringga sening tashnalar ko‘pdur, vale,
Ey, malakzoda, sanga, man kabi hayron bo‘lmas.

Gar sari ko‘yingda zohid demasa, baxshida tan,
Injima, ey sevgilim, ulardaki, iymon bo‘lmas.

Netong, ko‘rsatsang, azizim, manga bir lahza yuzing,
Mehri ruxsoringga bir zarraki, nuqson bo‘lmas.

Garchi olamda nazokatli go‘zal ko‘pdur, Hasan,
Lek, yoringdek ishvasi zo‘r, g‘amzali jonon bo‘lmas.

* * *

Chashmingmidur, bilmam, yana paymonalanibdur,
Yo, nargisi shahlomidi, mastonalanibdur?

Zanjiri balodur sori zulfing, saqlasin undan,
Ko‘rgach dili zorim uni devonalanibdur.

Men masti xarobi mayi sahboman azaldan,
Zohid na so‘ylasa manga afsonalanibdur.

Holi dili zorim qaytadan bo‘ldi parishon,
Zulfi gajaking, ey yor, yangidan shonalanibdur.

Qo‘y boshingga ey sho‘x, to‘lg‘onsin tola tori,
Sargashta ko‘ngil shamiga parvonalanibdur.

Har yerda agar zikr o‘lsa tavsifi jamoling,
Bir bazmi dilorodurki, shohonalanibdur.

Hech vajh ila g‘amxonamiz o‘lmaz dog‘i obod,
Chunki g‘ami hijron ila vayronalanibdur.

Ul sho‘xi parichehra nadir boisi, bilmam,
Qahr ila Hasandan yana begonalashibdur.

* * *

Ko‘zim gar sendan o‘zga yorga boqsa, ashkbor o‘lsun,
Agar bir o‘zga ko‘z ham ko‘rsa, ruxsoring figor o‘lsun.

Agar ko‘nglim sening-la bo‘lmasa, jism anga tor o‘lsun,
Va gar bir o‘zga dil ishqing istarki, qayg‘udor bo‘lsun.

Jamoling mehrini tark etsam, baxtim qaro bo‘lsin,
Va gar bir g‘ayri kas mehring istarki, dil figor o‘lsun.

Saning xobgohingdan o‘zga manzil etsam,
maskanim yonsin,
Mendan o‘zga boshin qo‘yŝa, bunda doim nizor o‘lsun.

Tilim lol o‘lsun, gar vasfingdan o‘zga zikr etsa hargiz,
Agar bir o‘zga til ham vasfing aylar, sharmisor o‘lsun.

Agar sensiz kezay gulzor, gulzorim xazon bo‘lsun,
Agar bir g‘ayri hamdam ham senga yor o‘lsa, xor o‘lsun.

Zalil o‘lsun Hasan sendan o‘zga yora moyil o‘lsa,
Ham andin o‘zga kas gar senga yor o‘lsa, zor o‘lsun.

* * *

Parishonlig‘ u zulfga doimo bodi sabodandur,
Manga oshuftalik har doim u zulfi mushkosodandur.

Dema begonalardan xasta ko‘nglim nolasi hargiz,
G‘ami-hajri-la faryod etmog‘im bir oshinodandur.

Hazar qil otashi ohi dilimdan kim, yonar jisming,
Bu oh-u nola baskim, ey, falak, bir benavodandur.

Jafo rasmin unut, ahli vafo bo‘l, nozanin yorim —
Ki, husn ahlig‘a, billoh, bevafo o‘lmoq jafodandur.

Sabo, yetgach o‘shal yora, o‘p oyog‘in, arz qil holim,
Anga izhor etib dardim, degil, bir mubtalodandur.

Dudog‘iga labim tegsa, o‘luk tanda jondur hosil,
Magar meros, Masihodan, labin obi baqodandur.

G‘ubori to‘tiyoni ko‘z uchun mardum shifo so‘ylar,
Ziyoyi chashmi bemmorim, manim bir xokipodandur.

Bo‘lubdur qomatim xam, ey, Hasan, bir vajhi bor, billoh,
Anga bori malomat doimo zulfi dutodandur.

* * *

Har zamon noz ilakim, yorim chiqar koshonadan,
Xasta jonim chiqmoq istar bu tani vayronadan.

Rishtayi jonimdurur bilmamki, bo‘lmish pich-u xam,
Yo, sori zulfi — nigorimdur, kechibdur shonadan.

Tarki jon et, ey, ko‘ngul, gar ishqni aylarsan havas.
Rohi rasmi — ishqni o‘rgan shevayi parvonadan.

Zohidlar afsonasindan behud o‘lsam, ne ajab,
Uyqu kasb aylar ko‘zum, shaksiz yolg‘on afsonadan.

Senda, zohid, ko‘rmadim hargiz olmoqni dardi dil,
Chorayi dardim topildi murshidi mayxonadan.

Men kabi Majnun vafo rasminda mashhur o‘lmadi,
Ishq asrorin, azizim, so‘rma har devonadan.

Xoli o‘lmas zor ko‘nglim dard-u g‘amdan bir zamon,
Yo‘qdur bir g‘amkim, kanor o‘lsun bu mehnatxonadan.

Yor agar zahri halolin bersa, no‘sh aylar ko‘ngul,
Oshiq uldir kechmasa, albatta shul paymonadan.

Oshinolar tuhmati olamda xor etmush sani,
Ey, Hasan, qayg‘urmagil hech ta’nayi begonadan.

* * *

Ko‘ngul, ko‘p qilma nola, etma faryod,
Falakning gardishidan aylama dod.

G‘ussadur — shodligi, ayshi — marorat,
Bo‘libdur zulm ila bu dahr bunyod.

Sevar g‘am ko‘ngilni, ko‘nglim baloni,
Balo-yu g‘amdan bo‘lmadim bir dam ozod.

Bo‘yla, bir lahza Shirin etmadi kom,
Qulatsa-da, tog‘larni zori Farhod.

Azal mashshotasi chizmish jamoling,
Ayondir suratingdan maqomi ustod.

Na mushkuldir ko‘zingdin jon asramoq,
Turkona qaroqlar g‘amzasi jallod.

Etmasun dod necha mujgon o‘qindan,
Ko‘ngil bir parcha qon, paykoning po‘lod.

Fanodir oxiri, yo‘qdur baqosi,
Bu dunyodan, Hasan, kim bo‘ldi dilshod?

MIRZO ALIAKBAR SOBIR

(1862—1911)

Sobir (Aliakbar Tohirzoda) taniqli hajvchi shoirdir. Shamaxeda savdogar oilasida tug'ilgan. Eski maktabda o'qigan, arab va fors tillarini mukammal o'rgangan.

1883–1885-yillarda sayohatga chiqib, Xuroson, Nishopur, Samarqand, Buxoro shaharlarida yashagan, qavmdoshlari va dindoshlari turmushi bilan yaxshi tanishgan. Bu sayohat uning keyinchalik o'z millatdoshlarining og'ir, qoloq, fojiali hayotini teran anglashida va hajviy she'rlarida mohirona aks ettirishida qo'l kelgan.

1906–1911-yillarda Jalil Mamadqulizodaning "Mulla Nasriddin" jurnalida "Xo'pxo'p" taxallusi bilan bosilgan asarlari Ozarbayjon adabiyotida yangi davrni — realizm davrini boshlab berdi.

Jurnal butun Sharqqa tarqalardi, shu bois Eron, Turkiya va Turkiston o'lkalarida Sobir mashhur bo'lib ketdi, o'nlarcha izdoshlari paydo bo'ldi. Shamahida kichik do'konda bir umr sovun sotish bilan kun kechirgan buyuk shoirning hayotligida birorta kitobi bosilmadi.

Ammo "Xo'pxo'pnoma"ning o'nlarcha bor nashr etilishi (1912, 1914, 1922, 1948, 1954, 1960, 1961, 1976, 1980, 1992), chet ellarda, masalan, Tabriz (1941), Istanbul (1976), AQSH (1977)da bosilishi uni dunyoga tanitdi.

Shuningdek, shoirning "Muntaxobot" (1927), "She'rlar majmuasi" (1927), "She'rlar" (1934), "Butun asarlari" (1934), "Asarlar" (3 jildda, 1962–1965), rus tilida "Tanlangan hajviy asarlar" (Moskva 1962, 1969), "Tanlangan asarlar" (Leningrad 1983) kitoblari ham nashr etilgan.

MILLAT QANCHA TOR-MOR BO‘LSIN, NE ISHIM BOR?!

Millat qancha talosh bo‘lsin, ne ishim bor?!
Dushmanlarga muhtoj bo‘lsin, ne ishim bor?!
Qo‘y, men to‘q bo‘lay, o‘zgalar-la ishim yo‘qdir,
Dunyo-yu jahon och bo‘lsin, ne ishim bor?!

Sas berma, yotganlar bid’atda, qo‘y, yana yotsin,
Yotganiga rozi bo‘lmasa, kimsa uyg‘otsin,
Bitta-bitta botsa-da, haq dodimga yetsin,
Man omon bo‘lay, jumla jahon botsa-da botsin;

Millat qancha tor-mor bo‘lsin, ne ishim bor?!
Dushmanlarga muhtoj bo‘lsin, ne ishim bor?!

Solma yodimga suhbati tarixi jahonni,
Ayyomi salafdin dema so‘z bir-da falonni,
Bor bo‘lsa, keltir, olayin do‘lmani, nonni,
Istiqbolni ko‘rmoq ne kerak, umr, axir, foniy;

Millat qancha tor-mor bo‘lsin, ne ishim bor?!
Dushmanlarga muhtoj bo‘lsin, ne ishim bor?!

Vatan-u avlodni qo‘y holiga, ovora to‘lg‘onsin,
Chirkin razolatda qo‘li, boshi bulg‘onsin,
Til avrat bo‘lsa, battar bo‘lsin, o‘tda yonsin,
Faqat mening ovoza-yu shonim yuksalsin;

Millat qancha tor-mor bo‘lsin, ne ishim bor?!
Dushmanlarga muhtoj bo‘lsin, ne ishim bor?!

Har millat etar dunyo sahnida taraqqiy,
Aylar har bir manzil-u ma’voda taraqqiy,
Yurgan-yotganimda tushar yodga taraqqiy,
Biz ham etaylik olami ro‘yoda taraqqiy;

Millat qancha tor-mor bo‘lsin, ne ishim bor?!
Dushmanlarga muhtoj bo‘lsin, ne ishim bor?!

BOKU QASHSHOQLARIGA

Bu charxi falak teskari davron etar endi,
Qashshoq ham o‘zin doxili inson etar endi.

Bo‘lmas bu ki, har amrga bir g‘orat etar endi qashshoq,
Davlatli bo‘lgan yerda jasorat etar qashshoq,
Osuda nafas olmoqqa ham jur’at etar qashshoq,
Yoinki huquq uzra adovat etar qashshoq...

Bu charxi falak teskari davron etar endi,
Qashshoq ham o‘zin doxili inson etar endi.

Qashshoq, menga bir so‘yla, nedan hurmating bo‘lsin?
Axir, ne sabab so‘z demoqqa qudrating bo‘lsin?
Qo‘l tort, nechuk davlatlilarga xizmating bo‘lsin,
Oz-ko‘p senga berganlariga minnating bo‘lsin!..

Bu charxi falak teskari davron etar endi,
Qashshoq ham o‘zin doxili inson etar endi.

Davlatli omondir, o‘zingni solma baloga,
Qashshoq so‘zi haq bo‘lsa-da, boqma u sadoga,
Yo‘l berma nafas olmoqqa hargiz fuqaroga,
O‘z sha’ningni puch aylama har besar-u poyga!..

Bu charxi falak teskari davron etar endi,
Qashshoq ham o‘zin doxili inson etar endi.

Aldanma, faqirning bo‘lolmas aql-u zakosi,
Chun yo‘qdir uning sening kabi libosi,
Yo‘q sarvati, yo‘q davlati, yo‘q don-u dunyosi,
Bor eski chorig‘i, tag‘in bir yetim navosi...

Bu charxi falak teskari davron etar endi,
Qashshoq ham o‘zin doxili inson etar endi.

Istasang agar bo‘lishni osuda jahonda,
Tokim bo‘lmassan g‘amlarga oluda jahonda —
G‘arib yuziga boqma bu behuda jahonda,
O‘z fikringni bil, bo‘l tag‘in osuda jahonda...

Bu charxi falak teskari davron etar endi,
Qashshoq ham o‘zin doxili inson etar endi.

Ko‘r millatning dardini, axtarma davosin,
Qo‘l tutma yetimning boshiga, kesgin sadosin,
Zinhor qo‘yib dahrda bir xayr binosin
Yod aylama, shod aylama millat fuqarosin...

Bu charxi falak teskari davron etar endi,
Qashshoq ham o‘zin doxili inson etar endi.

FAQIR, O‘ZINGNI SEN HAM BIR INSON BILASANMI?!

Faqir, o‘zingni sen ham bir inson bilasanmi?!
Pulsiz kishi, insonlikni oson bilasanmi?!

Inson bo‘lganning joh-u jaloli kerak bo‘lsin,
Inson bo‘lganning davlati, moli kerak bo‘lsin,
Himmat demasman, uylari oliy kerak bo‘lsin;
Olchoq, kazzob bo‘lmoqni ravon bilasanmi?!
Ahmoq kishi, insonlikni oson bilasanmi?!

Har majlisi oliyda suqilma tez aroga,
San tur poygakda, dema bir so‘z umaroga,
Joiz emas insonday tanishmoq fuqaroga,
Davlatlilarga o‘zingni yakson bilasanmi?!
Ahmoq kishi, insonlikni oson bilasanmi?!

Faqr ila gina ahliga kim berdi musovot?
Ma’noda ham, suratda ham bor bunda xilofot,
O‘z fazlingni pulsiz etmassan kimsaga isbot,

Buni mumkin-u qobili imkon bilasanmi?!
Ahmoq kishi, insonlikni oson bilasanmi?!

Ket, yut saqiching, ishla ishing, chiqma poyingdan,
Maqsud musovot esa ayrilma joyingdan,
Bor nisbati arbobi dunyoga ne xo‘yingdan?
Bir kun kelib, aqchangni milyon bilasanmi?!
Ahmoq kishi, insonlikni oson bilasanmi?!

Davlatlimiz, albatta, sharofat ham bizniki,
Amlak bizniki bo‘lsa, maishat ham bizniki,
Devon bizdan, arbobi hukumat ham bizniki,
O‘lka tarafimda deya, xon-xon bilasanmi?!
Ahmoq kishi, insonlikni oson bilasanmi?!

Osuda to‘lmoqda toshib cho‘ntak davlatimizdan,
Orzumand bo‘larsiz hali ne’matimizdan,
Shundoq chiqa olasizmi bizning minnatimizdan?!
Ehsonimizning shukrini kufron bilasanmi?!2
Ahmoq kishi, insonlikni oson bilasanmi?!
Hech bir uyalarsan?!
Yo bir kuyunarsan?!
Al-minnati lilloh,
O‘tlarda yonarsan!

ALI NAZMIY

(1878–1946)

Ganja yaqinidagi Sarob qishlog'ida tug'ilgan. Eski maktabda tahsil olayotganida, otasi vafot qiladi va savdogar qishloqdoshi bilan 1885-yilda Buxoroga keladi. Do'konda ishlaydi, o'qiydi, rus tilini ham o'rganadi, matbuotga qiziqadi va ilk she'rlarini yozadi. Bir muddat Samarqandda yashagach, 1901-yilda qishlog'iga, onasining yoniga qaytadi. 1904-yilda Tiflisga boradi, J.Mamadqulizoda kabi ozariy ma'rifatparvarlar bilan tanishadi, matbuotga qatnasha boshlaydi, "Sharqiy Rus" gazetasida she'rlari bosiladi. 1907-yilda Bokuga keladi, "Mulla Nasriddin", "Zanbur", "Mazali", "To'ti" kabi hajviy jurnallardako'plab asarlarini e'lon qiladi. 1916-yili Ganjaga qaytadi. Bir muddat maktabda dars beradi, 1926-yildan keyingi hayotini matbuotga bag'ishlaydi, asosan gazeta va jurnallarda xizmat qiladi. 1946-yil 4-yanvarda Bokuda vafot etgan.

U bir necha taxallus bilan ijod etgan. Dastlabki ikkikulliyoti Sijimquli taxallusi ostida bosilgan. Ali Nazmiyning Ganja za Bokuda o'nlarcha kitobi nashr etilgan: "Sharobchi" (1908), "Sijimqulinoma" (1927), "Balki shu yaxshi bo'ldi" (1930), "Uch Mashhadiy" (1935), "Hajviyot o'qlari" (1946), "Tanlangan she'rlar" (1950), "Tanlangan asarlar" (1959), "She'rlar" (1963), "Mulla Nasriddinchi shoirlar" (1986). Shoirning ushbu she'rlari o'zbek tiliga ilk bor o'girildi.

BO'LAJAKMI?

Fahmingcha sening, millatimiz shod bo'lajakmi?
Vayrona shu yurt, mulkimiz obod bo'lajakmi?
Barbod-u talon haqqimiz, insonligimizdek,
Qul bo'lgan oti qul yana, barbod bo'lajakmi?

Qurbon bo‘layin, menga shu jumboqni tushuntir:
Shul eski papaxlar yana ijod bo‘lajakmi?
Doim qolajakmi asoratda musulmon?
Zanjirni uzib, ul-da yo ozod bo‘lajakmi?
Boshlarga balo yomg‘iri har dam yog‘ajakmi?
Yo kun chiqar-u bizga-da imdod bo‘lajakmi?
Hurriyat, adolat va musovotni jamoli
Bul o‘lkada ham jilvalanib, dod bo‘lajakmi?

ADOLAT

Ey, dunyoda o‘zi yo‘q-u oti bor,
Insonlarning dardlariga darmon sen.
Ey, yo‘lingda hamma ko‘zlar intizor,
Shu hayotda shirin orzu-armon sen.
Mansub bo‘lsin har ne kasb-u har dinga,
Har kim uchun sensan suyanch, muddao.
Har yer to‘liq yomonlik, zulm-u kinga,
Qaydasan sen? Yo‘qsan, puchdir iddao.
Ey adolat, ey muborak kalima,
Bor bo‘lsang, kel! Yo‘qman, dema, yo‘q dema...
Bor bo‘lsayding, sen ey otning qashqasi,
Kimdir kulib, yig‘lamasdi boshqasi.

1919-yil

TOPISHMOQ

Top, ko‘ray, qaysi
viloyatdir ul,
O‘ljani olgan kim? Bola-chaqami?
Har ahli jahl-u jaholatga qul,
Xoni, mullasi — ilon, baqami?
Nomi ozod yurt, o‘zi istibdod,
Qayda hokim, bek — barchasi jallod?

1912-yil

HURRIYATDAN KIM QANDAY ULUSH OLDI?

O‘lkamizga kirib keldi hurriyat,
Millatlarga bo‘lgay endi shu qismat:
Fin xalqiga — yirtiq-yamoq istiqlol,
Polyaklarga — bir qop va’da, pok-halol!
Ukrainga — muxtoriyat, suv, tuproq,
Turkistonlik muslimlarga shapaloq.
Litvalikka — istagancha ixtiyor,
Buxorolik, xivalikka — zahri mor.
Kazaklarga — ne’mat to‘la Kuban, Do‘n,
Lazginlarga, cherkaslarga — “Pasho‘l von!”
Latishlarga — biroz ulush bo‘lsa, bas,
Juhudlarga, tatarlarga — bo‘sh qafas.
Xoxollarga — yer ber, yangi buyruq ber,
Qrimlig-u qirg‘izga musht-yumruq ber.
Ruminlarga — yurt va uy-joy, yo‘l, iqbol,
Yerli-yurtli gurjilarga — his-xayol.
Greklarga — ne bersang ber, sep sepkin,
Ozarbayjon turklariga — ming tepki.
O‘ruslarga — muxtoriyat, og‘alik,
Armanlarga — imperyada darg‘alik.

1917-yil

AHMAD JAVOD

(1892—1937)

Ozarbayjonning atoqli shoirlaridan. Ganja yaqinidagi Sayfali qishlog'ida, ziyoli oilada tug'ilgan. Arab, fors, rus tillarini o'rgangan. Madrasani bitirgach, Istanbulga ketadi. 1912-yilda Bolqon urushida, Qafqaz ko'ngillilari qo'shini safida Trakya jabhasida janglarda qatnashadi. Keyin Ganjaga qaytadi, Batumida o'qituvchilik qiladi.

U jasur, kurashchan ijodkordir. U Ozarbayjon istiqloliga faqat she'rlari bilangina emas, balki shaxsan fidokorligi bilan ham xizmat ko'rsatgan. U turk o'rdusi safida 1918-yilda Bokuga keladi, Ganjada milliy Ozarbayjon Jumhuriyati qurilishida qatnashadi. 1920-yil Ozarbayjon sho'rolar tomonidan istilo etilgach, uning og'ir kunlari boshlanadi. Qamalib chiqadi. Pedagogika institutini bitiradi, Adabiyotchilar jamiyatiga raislik, "Inqilob va madaniyat" jurnalida mas'ul mudirlik qiladi. Oliy o'quv yurtlarida ishladi. 1936-yilda Turkiya matbuotida she'rlari bosilgani sababli ishdan quviladi, 1937-yilda "aksil inqilobchi va panturkist" sifatida ayblanib, stalinizm jallodlari tarafidan otib o'ldirilgan. 1955-yilda ayblarning soxta ekanligi isbotlangan va oqlangan.

Shoirning quyidagi kitoblari bosilgan: "Qo'shma" (1916), "Dolga" (1919, Boku), "She'rlar" (1958, Boku), "O'kirarding", "Qoradengiz" (1991, Izmir), "Salom Turkning bayrog'iga" (1992, Izmir).

OZARBAYJON BAYROG'I

Turkiston yellari o'par ol yuzing,
So'ylaydir dardini sanga, bayrog'im.
Uch rangli aksingni Quzg'un dengizi,
Armug'on etsin har tongga, bayrog'im.

Turonga borarkan, chiqding qarshimga,
Ulkan — davlat qushi, qo‘ndi boshimga,
Izn ber, ko‘zdagi qaynoq yoshimga,
Dardin aytsin qona-qona bayrog‘im.
Ranglaring — Qayixon, qiyot tug‘idan,
Qadim elxonlardan, muslim begidan;
Elxonlar avlodi, din tiragidan
Keltirding kuch, sevinch yana, bayrog‘im.
Ko‘nglimda to‘fonlar, bosay ilgari,
O‘ngimda — muqaddas otalar yeri;
Tangrining yulduzi, u go‘zal pari
Sig‘inmish qo‘yningda oyga, bayrogim.

1919-yil

SHE’RIM

She’rim — siniq turk cholg‘usi,
Yangratib soz tillarini
Yayrab-sayrab kezmoq istar
Ko‘ngil Turon ellarini.
Men bir Turon yo‘lchisiman,
Qo‘limdadir nurli mayoq,
She’rim, mayoq bo‘lib porla!
Burgut ruhim, qalq, qanot qoq!
Har ne avval Xudodandir,
Har bir turkning yozug‘i bor,
Yurtsevar va millatsevar
Ko‘ngillarni bosmas g‘ubor.
Turon shunday bir muqaddas
Ka’badirki, har bir toshi
Qarshisida egilgaydir
Har bir turkning mag‘rur boshi.

1919-yil

KELMA

Bu tog‘lar — meniki, yangi kun ko‘rdi,
Yoqar seni ohim, ey tuman, kelma!
Inonma falakka, burmishdir yuzin,
Endi u yuz bermas har zamon, kelma!
Yomg‘irsiz bulut, hey! Hey, qora ko‘lka!
Alishtirmam gulni u sovuq do‘lga,
Suyukli shu yurtim, shu charchoq o‘lka,
Boqar yot ko‘zlarga ko‘p yomon, kelma!
Ko‘ngillar bir dengiz, jo‘shdirma uni,
Jo‘shqin ko‘ngillarning to‘fondir so‘ngi,
Sen, ey, Shimol yeli, anglagil shuni:
Amringga bo‘ysunmas bu to‘fon, kelma!

1919-yil

SULAYMON RUSTAM

(1906—1989)

Ozarbayjon xalq shoiri Rustamzoda Sulaymon Aliabbos o'g'li (Sulaymon Rustam) No'vxoni qishlog'ida temirchi oilasida tug'ilgan.

1928-yili Ozarbayjon Davlat universitetining sharq fakultetiga kirgan, so'ngra 1929-yilda Moskva Davlat universitetining adabiyot va san'at fakultetiga o'tkazilgan.

Ozarbayjon Davlat akademik drama teatri direktori, "Adabiyot gazetasi" bosh muharriri, Ozarbayjon Oliy Kengashi raisi bo'lib ishlagan.

1989-yil 10-iyunda Bokuda vafot etgan.

TUG'ISHGAN SHAHAR

Maqsud Shayxzoda tarjimasi

Toshkent, qadim shahar, quloq sol biroz,
Qardoshing, Bokuning shoir o'g'liga.
"Jon", deydi, bag'ringda kuylagan bu soz,
Bog'ingda, bog'changda joy ko'rsat unga.
Tilimdan tushmaydi shuhrating, oting,
Suhbatda men nuqul sha'ningni deyman.
Ko'zimdan bir lahza yiroq bo'lmading,
Men seni har qayda Vatan atayman.
Birdir bayrog'imiz, birdir orzumiz,
Birdir qo'shig'imiz el orasida.
Payqar sof ishqimni har yigit, har qiz,
Shoir ko'ksimdagi so'z daryosida.
Ey, zangor do'ppili, gul kiygan shahar,
Ona beshigisan qahramonlarning,
Manglayda qushday porlaydi zafar,
Issiq quchog'isan mard insonlarning.

Men senga maftunman yillardan beri,
Mening armonimda, tilagimda sen.
O‘zbek qardoshimning dilbar shahari,
Tug‘gan shaharimday yuragimda sen.

O‘RNINI BOSA BILMAS

Zulfiya tarjimasi

Men qo‘llari qabariq, Vatanimda bir bog‘bon,
Bog‘chamning gullarini yot qo‘llar uza bilmas.
Kezib yursin jonimday aziz yorim xiromon,
Ishqimning sharorasin ko‘r ko‘zlar ko‘ra bilmas.

Yuragimning ko‘zidir mening dunyoga darcham,
Ko‘rganlarim naqsh bo‘lib dilga yozilar har dam.
Dunyoning qo‘shiqlari bari bo‘lganda ham jam,
Bir ona allasining o‘rnini bosa bilmas.

ISYON KUTAR

Shuhrat tarjimasi

Uzoq ellarning mehnatkash yoshlariga
Vujudingni ezar ekan qayg‘u alam, asorat,
Bas qil bunday yotmonlikni,
qo‘zg‘al, tur, bu na holat!
Yana ofat changal solar, ana ko‘rib turibman,
Nahot seni uyquda-yu, g‘aflat aro ko‘rib turibman,
Qani go‘zal, olov yoshlik, dushmaningga hamla qil,
Isyon ko‘tar, yana isyon, bu kurashni sharaf bil!
Ruhlaringni kemirmasin u “madaniy” zotlar, tur.
Ko‘zlaring och, ey qardoshim, atrofga boq, qani yur!
Yana dahshat tuzog‘ini qo‘ymoqdalar, ana boq.
Yana senmi qon qusarsan?
Qanday dahshat, bu evoh!

Mana bizda bahor fasli, gul-chechag-u nur, quyosh...
Nega sening ko‘zlaringdan yosh oqadi, achchiq yosh?
Nega boyqush yayrab yurar sening ona yurtingda?
Haqqing olmoq niyat bo‘lsa yosh qalbingda,
qaddingda.
Oyoqqa tur, uni yo‘q qil, g‘animatdir har bir dam.
Ko‘r-chi, nima talab etar sendan yangi bu olam:
— Isyonchi bo‘l,
isyonchi bo‘l, isyonchi bo‘l beomon!
Sharqning yongan chirog‘ini qayta yondir, ey inson!
Tur, yig‘lama, yoshlaring art, qiynalmasin axir jon.
Isyon ko‘tar, isyon ko‘tar, do‘stlaring-la yonma-yon!
Zanjirlarni parchalab ot, seni kutar hurriyat,
Isyon bilan, isyon bilan, yo‘l topadi haqiqat!

NE HOJATDIR...

Oydin Hojiyeva tarjimasi

Maroqli o‘tarkan majlisda suhbat,
Palov ne hojatdir, osh ne hojatdir?
“Og‘zi bo‘sh” odamlar oldida gullab
Etmak o‘z siringni fosh ne hojatdir?
Axir u Vatanga ko‘ngil bermagan,
Bir gul undirmagan, bir gul termagan,
Fitna-yu fasoddan yuz o‘girmagan,
Qabrining ustiga tosh ne hojatdir?
Bodani qo‘lidan sira qo‘ymagan,
Maqtov-u shuhratdan ko‘zi to‘ymagan,
Vatanni tuymagan, elni tuymagan —
Yuraksiz odamga bosh ne hojatdir?

MAMMAD RAHIM

Husaynov Mammad Abbos o'g'li Ozarbayjon xalq shoiri, xizmat ko'rsatgan san'at arbobi. Bokuda baqqol oilasida tug'ilgan. Ozarbayjon Pedagogika institutining sharqshunoslik fakultetini bitirgan. Ilk she'riy kitobi "Orzular" (1930) bosilgan. Yozuvchilar uyushmasida (1938–1940), mudofaa bo'limi rahbari (1941–1946) bo'lib ishlagan. 1977-yil 6-mayda Bokuda vafot etgan. "Xoqoniy"(1955) dramasi, "Sayot Nova" (1956),"Notavon" (1962) dostonlari muallifi. Sh. Petefi, P. Beranje, A. Tvardovskiy, A. Blok, F. Shiller, N. Nekrasov, O.Tumanyan asarlarini ozarbayjon tiliga tarjima qilgan.

YOLG'IZ MOZOR

Egnimda bo'z shinel, qo'limda yarog',
Oyog'im ostida yarador tuproq.
Yelkamga askarlik xaltasin ortib,
Odimlayman yo'llar tanobin tortib.
Tepamda aylanib uchar bir shunqor,
Osmonga to'sh urib qanotin qoqar,
Men-chi, qanotsizman, tushganman tuzga,
Horg'in oyoqlarim kirmaydi so'zga —
Sudrab bosayapman ularni zo'rg'a,
Manzil esa olis, vujud qovurg'a.
Mador yo'q askarning oyoqlarida,
Bir tepa ko'rindi sag'al narida.
Safar shinelimni yerga solish-chun,
Biroz non-tuz tatib, nafas olish-chun,
O'sha tepa tomon yo'l soldim shu dam,
Yuksakka intilar hamisha odam.

Ana yetib keldim do‘nglikka, qara,
O‘ngimda namoyon g‘arib manzara.
Men tepa deganim bir mozor ekan,
Qonli jang-jadaldan bir yodgor ekan.
Shu tuproq ostida bir askar yotar,
Qirg‘in-barotlardan bexabar yotar.
Qayd etib urushda u o‘lganini,
Yozishgan taxtaga kim bo‘lganini:
“Bu yerda jim yotar bitta nafardir,
Ozarbayjon o‘g‘li jangchi Safardir.
Gullar hid taragan chog‘i har yoqqa,
Biz uni topshirdik qora tuproqqa”
Qo‘shin ilgarilab ketdi suv misol,
Suruvdan ayrilgan bir qo‘zi misol,
U orqada qolib ketgan yiroqda,
Charchadim, turibman zo‘rg‘a oyoqda.
Egilar ko‘ksimga qadarli boshim,
Go‘yo yotar bunda og‘am qardoshim.
Tark etib ketolmam qabrdan nari,
Shu payt o‘tayotgan onaxon qari,
Kelib o‘ng tarafda, yonma-yon turdi,
Cho‘qinib xochiga qo‘lini urdi.
Bilmasdan marhumning u millatini,
Shunday bajo aylar o‘z hurmatini.
So‘ng ketdi tugunni olgancha qo‘lga.
Men ham chiqdim hasrat-la yo‘lga.
Mozor olislarda qoldi xol kabi,
Nazardan yo‘qoldi bir xayol kabi.
Yo‘q, yo‘q gapning rostin aytmayin nechun
O‘sha go‘r xotira bo‘lar men uchun...
Aylanar haftalar, o‘tadi oylar,
Qulab tushadilar qadim saroylar.
Oqar shaharlarda seldek qizil qon,
O‘qlardan go‘daklar bo‘ladi qurbon.
Ne bo‘lsa, ne ko‘rsam o‘shandan beri,
Ul mozor xayoldan ketmaydi nari.

Ko‘zlarim o‘ngida jonlanar har on,
Xoch tutib cho‘qingan o‘shal onaxon.
Yo‘llarning horg‘ini, g‘amgin nazari
Hamda notanishning tanho mozori.

QISH

Qor qopladi tog‘larni,
Qir-adir-u bog‘larni.
To‘ngdi daryo, buloqlar,
Muz bog‘ladi butoqlar.
Qish shunday davron surar,
Chorlab sovuqni — qorni,
Qirsa zararkunandani
Qish yomon degan bormi?
Bug‘doyni yopmasa qor
Ko‘rpadayin agarda.
Sunbullar ummon kabi
Chayqalarmi bahorda?
Qish bizga ne’mat berar,
Ta’m berar, lazzat berar.
Qor tushmasa cho‘llarga
Yetarmizmi gullarga?
Qishsiz bahor ham bo‘lmas
Bog‘lar mevaga to‘lmas.
Qish bizga ne’mat berar,
Ta’m berar, lazzat berar.

MUHAMMADHUSAYN SHAHRIYOR

(1906–1988)

Muhammadhusayn Shahriyor (Said Muhammadhusayn Behjatiy Tabriziy) 1906-yilda Tabriz shahrining Bog'mesha tumanida, zamonasining taniqli huquqshunosi bo'lmish Hoji Mirog'a Xushkinob oilasida dunyoga kelgan.

Shahriyor Tabrizda o'rta maktabni tugatgandan so'ng Tehronga kelib, 1921-yilda Tehron Dorilfununida, so'ng esa Tibbiyot oliygohida tahsil ola boshladi. Biroq fakultetning oxirgi kursida tahsilni chala qoldirib, davlat xizmatiga kirishga majbur bo'ldi.

Shahriyorning ilk she'riy kitobi 1931-yilda Tehronda uch yirik olim — Malikushshuaro Bahrom, Said Nafis va Paymon Baxtiyorlarning muqaddimalari bilan nashr etildi. Buyuk Ozarbayjon shoiri Shahriyor o'z she'rlarini Ozarbayjon va fors tillarida yozgan. "Haydarboboga salom" dostoni shoirning eng ommalashib ketgan asarlaridan biridir.

HAYDARBOBOGA SALOM

Haydarbobo, yildirimlar chaqqanda,
Sellar, suvlar shovqin solib oqqanda,
Qizlar unga saf tortishib boqqanda,
Salom bo'lsin bu shavkatli elingga,
Mening ham nomimni bir ol tilingga.

Haydarbobo, kakliklaring uchganda,
Ko'l bo'yidan tovushqonlar qochganda,
Bog'chalaring gul-chechaklar ochganda,
Mumkin bo'lsa, bizni ham bir yod ayla,
G'ussali bu yuraklarni shod ayla.

Bayram yeli chordoqlarni yig‘ganda,
Boychechag-u binafshalar chiqqanda,
Oq bulutlar ho‘l ko‘ylagin siqqanda,
Bizlarni ham yod aylagan sog‘ bo‘lsin,
Dardlarimiz osmono‘par tog‘ bo‘lsin.

Haydarbobo, kun terskayni dog‘lasin,
Yuzing kulsin, buloqlaring yig‘lasin,
Bolalaring dasta gullar bog‘lasin,
Olib kelsin gullar atrin yelvagay,
Balki g‘ofil baxtim shunda uyg‘ongay.

Haydarbobo, sening yuzing oq bo‘lsin,
To‘rt tomoning buloq bo‘lsin, bog‘ bo‘lsin,
Bizdan keyin sening boshing sog‘ bo‘lsin,
Dunyo qazo-qadar, o‘lim-yitimdir,
Dunyo azal tirnoqqa zor, yetimdir.

Haydarbobo, yo‘llar sendan kechildi,
Umrim kechdi, borolmadim, kech bo‘ldi,
Go‘zallaring qay bog‘larda ochildi,
Bilmas edim, ortga qaytar yo‘lim bor,
Yo‘qotish bor, ayriliq bor, o‘lim bor.

Haydarbobo, yigit baxti yotmagay,
Umr o‘tgay, afsus foyda etmagay,
Nomard inson kabi yashab o‘tmagay,
Biz ham zinhor unutmadik sizlarni,
Ko‘rishmasak, ma’zur tuting bizlarni.

Haydarbobo, Mirajdar bersa ovoz,
Qishloq ichra kuy yangrasa sarafroz,
Yangraganda Oshiq Rustam chalgan soz,
Yodingdadir, qandoq qaynab-jo‘shardim?
Qush singari qanot bog‘lab uchardim.

Shangilova yurti, bog‘da yurishlar,
Kentdan borib unda mehmon bo‘lishlar,

Toshlar otib olma-behi terishlar,
Shirin tushdek qolib ketgan yodimda,
Izi qolmish ruhimda-yu zotimda.

Haydarbobo, Quruq ko‘lning g‘ozlari,
Izg‘irinning tog‘da chalgan sozlari,
Qishloq-kentning kuzlari-yu yozlari,
Ko‘z o‘ngimdan o‘tar xuddi kinodek,
Men tomosha qiladirman qotib tek.

Haydarbobo, Qorachaman havosi,
Chovushlarning yangrab turgan sadosi,
Karbaloga yo‘l olganlar nidosi —
Adashganga bo‘lsin nuri hidoyat,
Tamaddunning yolg‘onidan shikoyat.

Haydarbobo, shayton yo‘ldan ozdirdi,
Ko‘ngillardan ishqni quvdi, bezdirdi,
Peshonaga qora kunlar yozdirdi,
Qasd ayladi el bir-birin joniga,
Murosani bo‘yadi o‘z qoniga.

Insof bo‘lsa, oqmasdi ko‘z yoshlar sho‘r,
Asl inson ko‘tarmagay qurol-qo‘r,
Ammo, afsus, tutganini qo‘ymas ko‘r,
Behishtimiz jahannam bo‘lmoqdadir,
Zulhijjamiz muharram bo‘lmoqdadir.

Xazon yeli yaproqlarni to‘kkanda,
Bulut tog‘dan qishloq sari oqqanda,
Shayxulislom dilga otash yoqqanda,
Jonbaxsh so‘zlar dil toriga tegardi,
Daraxtlar ham Ollohga bosh egardi.

Toshlibuloq tosh-qum bilan to‘lmasin,
Bog‘-rog‘lari sarg‘aymasin, so‘lmasin,
Undan kechgan otliq tashna qolmasin,

Jo‘shqin buloq, to‘lib-toshib oqarsan,
Ufqlarga xumor-xumor boqarsan.

Haydarbobo, tog‘-u toshlar sarasi —
Kaklik sayrar, ko‘kka yetar nolasi,
Qo‘zilarning oqi, bo‘zi, qorasi,
Bir ko‘rsaydim tog‘-dalalar yuzini,
Kuylar edim: “Cho‘pon, qaytar qo‘zini”.

Haydarbobo, Suluv dala-tuzinda,
Buloq qaynar daryo-chaman ko‘zinda,
Buloq o‘ti suzar suvning yuzinda,
Go‘zal qushlar ul maskandan kecharlar,
Xilvatlanib buloqdan suv icharlar.

Pichan uzra sunbul o‘rgan o‘roqlar,
Go‘yo zulfni tarayotgan taroqlar,
Shikorchilar bedanani so‘roqlar,
O‘rimchilar ayronlarin icharlar,
Rohatlanib yana pichan bicharlar.

Haydarbobo, qishloqda kun botganda,
Shom ovqatin yeb bolalar yotganda,
Oy bulutdan chiqib nozlar otganda,
Bizlardan ham sen ularga qissa ayt,
Qissamizda ko‘proq g‘am-u g‘ussa ayt.

Qari momo tunlar ertak aytganda,
Shamol turib eshiklarni chertganda,
Tog‘da bo‘ri echkini yeb ketganda,
Men qaytadan yana bola bo‘lsaydim,
Koshki guldek yashnab, so‘ngra so‘lsaydim.

Ammajonning bol-halvosin yeyardim,
Keyin turib choponimni kiyardim,
Bog‘lar aro qo‘shiq aytib yurardim,
Oy yuzimga g‘ussa yopgan kunlarim,
Yog‘och otni minib chopgan kunlarim.

Hoji xola daryoda kir yuvardi,
Mamadsodiq tomlarini suvardi,
Devor oshib, tog‘lar oshib quvnardik,
Har to‘siqni pisand qilmay oshardik,
Tangrim, qandoq g‘am-g‘ussasiz yashardik.

Shayxulislom aytar edi munojot,
Mashadrahim yaktaklari yelqanot,
Mashdajali bo‘zboshini ichib shod,
Biz shod edik bo‘lsin bayram, to‘ylar deb,
Qolganlari nima bo‘lsa bo‘lar deb.

Malikniyoz dilga otash solardi,
Ot chopdirib yonboshidan chalardi,
Qirg‘iy kabi cho‘qqidan joy olardi,
Derazadan qizlar qiyo boqardi,
Bu manzara jonlarga o‘t yoqardi.

Haydarbobo, qishloq to‘yga yetganda,
Qiz, juvonlar xino, popuk sotganda,
Yigit qizga tomdan olma otganda,
Mening ham ul go‘zallarga ko‘zim bor,
Oshiqlarning sozlarida so‘zim bor.

Haydarbobo, buloqlarning yalpizi,
Polizlarning bodringlar-u tarvuzi,
Attorlarning xo‘rozqand, chanqovuzi,
Hali-hamon tomog‘imda toti bor,
Ayro tushgan kunlarimning yodi bor.

Bayram edi, haqqush sayrab chiqardi,
Qiz sep uchun kuyovbelbog‘ tikardi,
Har chetidan qizlar igna tiqardi,
Go‘zal odat — belbog‘ga kashta chatmoq,
Bu belbog‘ga hadya solib jo‘natmoq.

Belbog‘ istab men ham uyda yig‘ladim,
Belbog‘ olib o‘z belimga bog‘ladim,
G‘ulomga bu belbog‘ni ko‘z-ko‘zladim,

Fotma xola menga paypoq to‘qidi,
Xon buvimni esga olib o‘ksidi.

Haydarbobo, Mirzamadning bog‘chasi,
Bog‘chalarning nordon, shirin olchasi,
Kelinlarning sep yoyilgan tokchasi,
Hamon turar ko‘zlarimning rafida,
Meni o‘rtar xotiralar safida.

Bayramlarda tilla kukun ezarlar,
Naqsh beribon xonalarni bezarlar,
Tokchalarga topganlarin tizarlar,
Pista, bodom mo‘l kelinchak xonasi,
Havaslanar onasi, qaynonasi.

Folbinlarning irim-sirim qog‘ozi,
Sigirlarning bulamasi, og‘izi,
Chorshanbaning qand-qursi-yu mayizi,
Qizlar aytar: “Sochqingni soch, chorshanba,
Oyna kabi baxtimni och, chorshanba”.

Tuxumlarni turfa rangga bo‘yardik,
Urishtirib, singanlarin yeyardik,
O‘yin bo‘lsa, uyga kelmay qo‘yardik,
Ali menga yashil oshiq berardi,
Irzo men deb boychechaklar terardi.

Navro‘zali xirmonda xo‘p haydardi,
Don sovurib zap qo‘shiqlar aytardi,
Tog‘da cho‘pon iti hurib yotardi,
Eshak cho‘chib, yerdan uzmas oyog‘in,
Tog‘ga boqar ding qilgancha qulog‘in.

Kechqurunlar biz podadan qaytganda,
Mol-hollarni qo‘rada tinchitganda,
Qir-adirdan qishloqqa yo‘l tutganda,
Ulovlarni yaydoq minib chopardik,
Zerikkanda turfa ermak topardik.

Bahor tuni daryo tinmay shovullar,
Irmoq suvi kun nurida lovullar,
Zulmat ichra bo‘ri ko‘zi porillar,
Bo‘ri hidin olib itlar hurardi,
Bo‘ri o‘zin jarliklarga urardi.

Qish kechasi qo‘ralarning so‘l-sog‘i,
Suhbatlarning ko‘rinmasdi adog‘i,
Ho‘l o‘tinlar jizillab yongan chog‘i,
Qotgan noni, turshagi-yu jiydasi,
Tinmas edi o‘yin-kulgilar sasi.

Shujo tog‘amizning Boku sovg‘ati,
Tomda qurgan samovari, suhbati,
Yodimdadir chinor kabi qomati.
Gunammaning to‘yi azaga do‘ndi,
Sho‘rlik qizin baxti ham chil-chil sindi.

Haydarbobo, Onaqizning ko‘zlari,
Raxshandaning shirin-shirin so‘zlari,
Turku aytdim, o‘qisinlar o‘zlari,
Bilsinlarki, odam o‘tar, ot qolar,
Og‘izlarda yaxshi-yomon tot qolar.

Qish adoqlab, qorayganda dalalar,
So‘ng bor qorto‘p o‘ynaganda bolalar,
Kurakchilar qor kuragan pallalar,
Mening ruhim chirqiraydi zor aro,
Go‘yo kaklik botib qolgan qor aro.

Qari momo uzaytganda ishini,
Yechganida quyosh bulut loshini,
Bo‘ri qarib, takillatsa tishini,
Suruv turib qir-adirdan oshardi,
Govmishlarning suti oshib-toshardi.

Hojisulton tishin tishga qisardi,
Mullabag‘ir tutaqardi, to‘zardi,
Tandir yonib, uyni tutun bosardi,
Chovgumimiz o‘choq uzra qaynardi,
Qovurg‘alar qozon ichra o‘ynardi.

Dalamizdan hosil yig‘ib kuz chog‘i,
To‘ldirardik omborlar-u qaznoqni,
Tandirlarda pishirardik qovoqni,
Mag‘zini yeb, urug‘ini chaqardik,
Bo‘kib yerdik, uydan zo‘rg‘a chiqardik.

Varzigondan nok sotuvchi kelganda,
Bola-baqra shovqin-suron solganda,
Bu shovqinni biz eshitib qolganda,
Toydek kishnab, irg‘ishlashib qolardik,
Bug‘doyga nok ayirboshlab olardik.

Mirza Tog‘i bilan bordik daryoga,
Men boqardim oy nur sochgan dunyoga,
Olis bog‘lar cho‘mgan edi ziyoga,
Nogoh “bo‘ri!” deya qo‘rqib qochdik biz,
Bir lahzada qir-adirdan oshdik biz.

Haydarbobo, daraxtlaring yuksaldi,
Ammo, afsus, yigitlaring keksardi,
Qo‘ylar yemish topmay ozib-to‘zardi,
Quyosh botdi, o‘chdi ko‘kdan izlari,
Tun bag‘rida yondi bo‘ri ko‘zlari.

Eshitgandim, yongay Olloh chirog‘i,
Qaynar edi masjidlarning bulog‘i,
Tin olardi yurtning kent-u qishlog‘i,
Mansurxonning umri poydor bo‘lsin,
Qayda bo‘lsa, Olloh unga yor bo‘lsin.

Haydarbobo, Mulla Ibrohim sog‘mi,
Maktab ochib, qilgan ishi saboqmi,
O‘rim payti to‘xtatmasmi saboqni,
Mendan o‘sha mulla oxundga salom,
Omon bo‘lsin hargiz malikulkalom.

Hoji Sulton amma ketdi Tabrizga,
Bir xabar olgani kelmadi bizga,
Derdi, barin qo‘yib qaytaylik izga,
Eri o‘ldi, borish-kelish uzildi,
G‘ariblikda azob chekdi, ezildi.

Haydarbobo, dunyo yolg‘on dunyodir,
Sulaymondan, Nuhdan qolg‘on dunyodir,
Farzandlarin dardga solg‘on dunyodir,
Kimga neki bergan bo‘lsa, olibdi,
Aflotunning faqat nomi qolibdi.

Haydarbobo, yor-u yo‘ldosh ketdilar,
Meni bunda qo‘yib, qayga yetdilar,
Chashmam qurib, quyoshlarim botdilar,
G‘ussalarda kunduzlar oqshom bo‘ldi,
Dunyo bizga xarobayi shom bo‘ldi.

Do‘stim bilan borgan kecha Qipchoqqa,
Oy nurida otlar tushdi suvloqqa,
Oshib o‘tdik tirmashib tog‘dan tog‘ga,
Mashmamixon bo‘z tulporin o‘ynatdi,
Miltig‘idan gumburlatib o‘q otdi.

Haydarbobo, Qorako‘lning darasi,
Xushkinobning yo‘li, toshlar orasi,
Unda tushar chil kaklikning sarasi,
Undan oshsak, yurtimizga yetamiz,
Yurt yaxshi-da, bunda axir netamiz.

Xushkinobni yomon kunga kim soldi?
Saidlardan kimlar o‘ldi, kim qoldi?
Amir G‘affor tomin toshi yo‘qoldi,
Buloq tag‘in qaynab, ko‘llar to‘larmi,
Yoki qurib, bog‘-u chaman so‘larmi?

Amir G‘affor saidlarga bosh edi,
Shohlar shikor etsa, u ko‘z-qosh edi,
Nomardga yov, mardlarga yo‘ldosh edi,
Mazlumlarning undirardi molini,
Tang qilardi zolimlarning holini.

Mirmustafo tog‘a, baland bo‘y bobo,
Soqol uzun, go‘yo Tolstoy bobo,
Qilar edi azani ham to‘y bobo,
Xushkinobning obro‘si, nomus-ori,
Masjidlarning, majlislarning sardori.

Majdussadot yashnardi bog‘lar kabi,
Guldurardi bulutli tog‘lar kabi,
So‘z og‘zida erirdi yog‘lar kabi,
Qo‘li ochiq, yaxshi, odamning mardi,
Ko‘k ko‘zlari doim chaqnab turardi.

Mening otam saxiy bir kishi edi,
Elga madad bermoqlik ishi edi,
Hamisha ezgulik qilmishi edi,
Keyingilar ezgulikdan do‘ndi-ku,
Mehr-oqibat chiroqlari so‘ndi-ku.

Mirsolihning goh tentaklik etishi,
Mirazizning ibodatga ketishi,
Mirmammadning qurib-qurib bitishi,
Endi aytsak, hech kim ishonmas magar,
Bari o‘tdi, qolmadi hech bir asar.

Mirabdulning oynakka qosh qoqishi,
Chorcho‘plarning o‘ziga ham yoqishi,
Tom-devordan ko‘cha tomon boqishi,
Shoh Abbosning durbini yodimdadir,
Xushkinobning xush kuni yodimdadir.

Sitor amma shirin kulcha yopardi,
Mirqodir ham bu kulchani topardi,
Bitta tishlab, toychoq kabi chopardi,
Kulgilidir bu tirmizak, ko‘p chatoq,
Ammamizdan yerdi nuqul shapaloq.

Haydarbobo, qaydadir Amir Haydar?
Kelin hamon qaynatarmi samovar?
Yo keksayib, tishdan qolmagan asar,
Qulog‘i tom bitgan, ko‘zlari xira,
Sho‘rlik amma, esi qolmagan sira.

Xonim amma Mirabdulning so‘zini
Eshitganda burishtirar yuzini,
Malkomida xush his etar o‘zini,
Urush davri, ko‘chalarni bosgan qor,
Qorinlar och, hamma parcha nonga zor.

Fizzaxonim Xushkinob guli edi,
Amir Yahyo qo‘shni qiz quli edi,
Ruxsora artist, ko‘p sevgili edi,
Said Husayn Mirsalohga ergashar,
Amir Ja’far g‘ayratdan jo‘shib-toshar.

Tong saharda podachilar kelardi,
Qo‘y-qo‘zilar qo‘ralarda ma’rardi,
Ammajonim go‘daklarin belardi,
Tandirlarning tutuni o‘rlar edi,
Bosib ketar chor atrofni non hidi.

Kabutarlar ko‘k yuzida charx urar,
Kun chiqqanda oltin parda ochilar,
Zarrin nurlar olam bo‘ylab sochilar,
Yashnab ketar tog‘-u toshning jaloli,
Yasharardi tabiatning jamoli.

Haydarbobo, qorli tog‘lar oshganda,
Kecha turib karvon yo‘lga tushganda,
Qayda bo‘lmay, Tehrondami, Koshonda,
Uzoqlardan ko‘z o‘ngimda namoyon,
Xayol olib uchadi o‘sha tomon.

Bir chiqsaydim Tomqoyaning toshiga,
Bir boqsaydim o‘tmishiga, yoshiga,
Bir ko‘rsaydim, nelar tushmish boshiga,
Men ham uning qorlari-la yig‘lardim,
Qish muzlatgan yuraklarni dog‘lardim.

Haydarbobo, gul-g‘unchalar xandondir,
Ammo, afsus, yurak-bag‘irlar qondir,
Tiriklik ham bir qorong‘i zindondir,
Bu zindonning eshigini ochgan yo‘q,
Bu tor joydan qutulgan yo‘q, qochgan yo‘q.

Haydarbobo, osmon yuzi tumandir,
Kunlarimiz bir-biridan yomondir,
Ajralmang bir-biringizdan, omondir,
Yaxshilikni qo‘limizdan oldilar,
Biz yaxshini yomon kunga soldilar.

So‘rab ko‘ring siz bu zolim falakdan,
Nima istar domga tushgan yurakdan?
Yulduzlarni bir-bir o‘tkaz elakdan,
Oqib tushsin, yer yuzi xarob bo‘lsin,
Bu shaytanat vayron bo‘lsin, yiqilsin.

Uchsam edi bu quyun, bu yellarda,
Charx ursaydim tog‘dan tushgan sellarda,
Yig‘lasaydim ayro tushgan ellarda,
Bir ko‘rsaydim, bu hijronni kim soldi?
O‘lkamizda kimlar ketdi, kim qoldi?

Men sen kabi tog‘ga soldim nafasni,
Sen ham qaytar, ko‘klarga sol bu sasni,
Buzilmasin boyqushning ham qafasi,
Bunda bir sher iloj topmay bo‘kirar,
Insonlarni muruvvatga chaqirar.

Haydarbobo, g‘ayrat qoning qaynarkan,
Burgutlaring osmoningda o‘ynarkan,
Qoyalarda goh uchib, goh qo‘narkan,
Qo‘zg‘ol, manim elimni oq qorda ko‘r,
Egilib boq, qomatimni dorda ko‘r.

Haydarbobo, tunda turna uchganda,
Go‘ro‘g‘lining ko‘zidan xob qochganda,
G‘irotini minib jangga tushganda,
Men ham balki matlabimga yetmasman,
Lekin Avaz kelmaguncha yotmasman.

Haydarbobo, mard o‘g‘lonlar tug‘ilsin,
Nomardlarning og‘zidan qonlar kelsin,
Daralarda bo‘rini tut, bo‘g‘ilsin,
Qo‘y-qo‘zilar xatar bilmay o‘tlasin,
Qo‘ylaringning quyruqlari etlasin.

Haydarbobo, sening ko‘ngling shod bo‘lsin,
Bu dunyoda og‘zing to‘la tot bo‘lsin,
Sendan kechgan, xoh tanish, xoh yot bo‘lsin,
Aytsin, mening shoir o‘g‘lim Shahriyor,
Umri faqat g‘amda o‘tgan chor-nochor.

MIKOYIL MUSHFIQ

(1908–1939)

Asli ismi Mirzo Abdulqodir o'g'li Ismoilzoda bo'lgan Mushfiq Boku shahrida ziyoli oilasida tug'ilgan. Otasi she'rlar yozgan. Mushfiq bir yarim oyligida onasidan, olti yasharligida otasidan yetim qoladi. Hayot mashaqqatlarini kichikligidan tortadi. Buvisi Qizhayit bibidan ertak, qo'shiq va bayotlar eshitib, kichikligidan she'r yozishni mashq qila boshlaydi. O'rta maktabni bitirgach, universitetga kiradi va uni 1931-yilda tamomlaydi. Maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydi, ayni vaqtda matbuotda faol qatnashadi. Shoir Vatanparvarlik, mardlik, muhabbat tuyg'ularini mahorat bilan tarannum etdi. "Ullar", "Kun tovushlari", "Janglar", "Shangul, Shungul, Mangul", "Sharshara" singari 11 kitobi, jahon klassik adabiyoti namunalaridan besh jildlik tarjimalari nashr qilingan. Shoir 1939-yil 12-martda fojiali halok bo'lgan.

ISHQIM

Ota-yu onasiz Ofeliya kabi
Sochlari parishon bir qizdir ishqim.
Qalbimning bulutli samolarida
Titragan bir g'arib yulduzdir ishqim.
Eh oshkor bo'laroq bu ona yerdan,
Buyuk tangri kabi tushib nazardan,
Chehrasi kulmagan xarobalardan
G'amliroq, bo'm-bo'shroq, baxtsizdir ishqim.
Hayotga boqmagay telbalar kabi,
Har bir hodisadan bexabar kabi,
Yot ellarda qolgan yetimlar kabi
Boshi balolidir, yolg'izdir ishqim.

1929-yil

YASHA KO‘NGIL

Oh, bu uzun ishqim yo‘li
Yetarmi hech boshga, ko‘ngil?!
Mo‘ljal oldim, kamon tortdim,
Tegdi o‘qim toshga, ko‘ngil!
Olov tushdi bulutiga,
Duchor bo‘lding ishq o‘tiga,
Qolding hijron umidiga,
Ayo singan shisha ko‘ngil!
Tarlonsan, yerga qo‘nmaysan,
Bu tuproqda quvonmaysan,
Men to‘ngdim-u, sen to‘ngmaysan,
Yasha ko‘ngil, yasha ko‘ngil!

OQIM

Baland tog‘ning moviy ko‘zidan balqib —
Quyilgan ul sevinch yoshlari misol —
Oqarkansan, dilim qinidan chiqib,
Vujudim uchgaydir go‘yoki shamol.
Ey buyuk oqim, ey pokiza yurak,
Yo‘qmi oramizda bir ko‘ngil bog‘i?
Sasingga sasdosh bir bastakor kerak,
Ey quvvat bulog‘i, ey nur bulog‘i!
Sen ham shalolasan tabi o‘yimda.
Yuraklar, aqllar, ruhlar sharqirar,
Sening qo‘shig‘ingda, o‘lmas kuyingda.
Fikrlar tuprog‘i, hislar tuprog‘i,
Obihayoting-la chechaklar ochar,
Ey havas bulog‘i, qo‘shiq bulog‘i!

1937-yil

BIR QUYOSH-U, BIR NIGOH

Hamma yoqda sovuq, qor-u qahraton,
Chillaning joni ham kelmish bo‘g‘ziga.
Kechki izg‘irin-u shomgi bu bo‘ron
Tushmish naql bo‘lib xalqning og‘ziga.
Borliq sokin, borliq go‘yo lol,
Va lekin yaqindir fasli guliston.
Yashil manzaralar xuddi bir xayol,
Halitdan o‘ngimda bo‘lur namoyon.
Qorga tegib subhiy quyoshning qo‘li,
Sharqirarkan so‘lim suvlarning yo‘li,
Har yondan bahorga yog‘di olqishlar.
Sen ham o‘t nigoh-la menga boqqan on
Erib dilda hijron, bu qish, gulandom,
Senga quchoq-quchoq gul etar in’om.

1936–1937-yillar

RASUL RIZO

(1910–1981)

Ozarbayjon xalq shoiri Rasul Ibrohim o'g'li Rizayev (Rasul Rizo) Go'ychoy tumanida tug'ilgan. 1927–1937-yillarda Zakavkazye universitetida, Moskva Millatlar institutida o'qigan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi raisi, Ozarbayjon Kinematografiya qo'mitasi raisi, Ozarbayjon Ensiklopediyasi Bosh muharriri, Xabar agentligi raisi bo'lib ishlagan. 1981-yilda Bokuda vafot etgan. U shoira Nigor Rafibeylining umr yo'ldoshi, yozuvchi Anorning otasi, yozuvchi Gunel Anorqizining bobosidir. Shoirning ilk she'ri 1927-yilda "Qizilqum" to'plamida chop etilgan. "Derazamga tushgan yog'du", "Tuyg'ular, tushunchalar", "To'zim", "Janublar, shimollar", "Qizilgul bo'lmasa edi", "Bir kun ham inson umri", "Xalq hakimi"kabi o'nlab she'riy kitob va dostonlari nashr qilingan. Bulardan tashqari u bolalar uchun ham asarlar, ilmiy-tanqidiy, publisistik maqolalar ham yozgan, chet tillardan Ozarbayjon tiliga o'nlab badiiy durdonalarni tarjima qilgan.

KO'NGIL

Nosir Muhammad tarjimasi

Omon ko'ngil, sening dastingdan omon!
Meni bu savdoga solgan sen o'zing.
Visol ohanglari yangragan zamon,
Hijron torlarini chalgan sen o'zing.
Umidlar yosh kabi to'kildi-ketdi,
Ishqim chok-chokidan so'kildi-ketdi,
Men yondim hajrida, u kuldi, ketdi,
Ayriliqda bo'zlab qolgan men o'zim.
Fuzuliydan o'rgan muhabbat nadir,
Sevinchdir, g'ussadir, g'amdir, noladir,
Bir kun firoq dardi uzun yilchadir,
Ahdiga vafoli qolgan men o'zim.

IRODA

Nosir Muhammad tarjimasi

Bu kunning kechasi,
ham ertasi bor,
Kelib ketdi
kunlar.
Kelar, yana ketar bir zamon.
Umidlar, orzular
Bor edi kecha,
Bugun ham bor,
Ertaga ham bo‘lur begumon.
Quyosh porlagandi kecha,
Bugun ham,
Ertaga ham bo‘lur nurafshon.
Kechani umid-la yakunlab doim,
Ertani umid-la boshlaylik har on.

YODIMGA TUSHDI

O‘g‘lim Anorga

Shahlo Qosimova tarjimasi

Dengizda to‘lqinlar, tog‘da bulut bor,
Kunda turna o‘tar ko‘kdan yuz qator,
Boqdim ufqlarga hazin oqshomlar,
Ul malul turmog‘ing yodimga tushdi.

Boq, yashil Qrimning so‘lar yaprog‘i,
Go‘yo tabiatning qolmadi holi.
Ma’yus-ma’yus to‘lib ko‘zlaring gohi,
Yuzingni burmog‘ing yodimga tushdi.

Har kunim bir yildir sensiz, ey, bola,
Ko‘rmayin, yo‘liqma hech bir zavola.
Yumib ko‘zlarimni, toldim xayola —
Ming o‘yin qurmog‘ing yodimga tushdi.

Tong chog‘i ochilib ko‘ylak yoqasi,
Terdan peshonangda inju donasi,
Uyg‘onganda xuddi qirning lolasi,
Ul lo‘ppi yonog‘ing yodimga tushdi.

Otamga, onamga sevimli avlod,
Onang alla aytsin, beshikda tinch yot!
G‘oz bolasi misol sen qoqib qanot,
Suvga talpinmog‘ing yodimga tushdi.

So‘rmang dardli qalbdan ahvolin hech ham,
Men seni ko‘rgandim uyqumda kecha.
Qayrilib qolguvchi o‘sganda picha,
Zig‘irdek tirnog‘ing yodimga tushdi.

Ko‘nglim sensiz yig‘lar, sening-la kular,
Ota bo‘lmaganlar qaydan ham bilar.
Tutib chorpoyaning yonidan sahar,
Oyoqqa turmog‘ing yodimga tushdi.

Ko‘pdan beri sendan kelmaydi so‘roq,
Ul zolim onangning insofiga boq!..
Bir go‘dak qo‘lini boya ko‘rgan choq,
Jimjiloq barmog‘ing yodimga tushdi.

Qrim-Yalta, 1938

SHE’R TILI

Shahlo Qosimova tarjimasi

Har kim ne desa, desin!
She’r tili oydindir.
Istasang yoz sevinchdan,
Gar istasang g‘amdan yoz.
Shunchalar oydin bu til,
Nodon yuz bor o‘qisin —
Yana hech ne anglamas.

1958

VATANDAN UZOQDA

Karim Bahriyev tarjimasi

Deydilar,
Oqshom kadar keltirar.
Deydilar,
Jon yonar qorong‘u tunda.
Deydilar...
Deydilar...
Ne yorug‘ kunda?

Kunduzlar
kutamiz sabrsizlik-la,
bir oqshom bo‘lsin,
bir kelsin tun-da!..

Qohira, 1959

MENDA IXTIYOR BO‘LSA...

Karim Bahriyev tarjimasi

Men istarman:
bulutlar yig‘lasin,
go‘daklar yig‘lamasin;
onali va onasiz.
Men istarman:
gullar ochilsin,
o‘qdonlar ochilmasin,
omonli va omonsiz.
Men istarman:
eshiklar yopilsin faqat
sovuq bo‘lganda havo.
Ko‘zlar yopilmasin,
so‘zlar yopilmasin.
Men istarman:
yong‘inlar so‘nsin,
umidlar so‘nmasin.
Mevalar tugsin o‘z faslinda.

Yuraklarga so‘z tegmasin.
Hosildan bosh egsin butoqlar.
Inson boshini egmasin
xijolatdan yo kuchsizlikdan.
Oqsin buloqlar ko‘z yoshi kabi,
tuproqning yuzlarida.
Ko‘z yoshi buloq kabi oqmasin
dunyoning hech bir yerida.
Har ne insonga boqsin.
Inson qo‘lga boqmasin.
Kechasi yulduzlar uyg‘oq bo‘lsin.
Insonlar yotib dam olsin;
quvvat to‘plasin tongning
xayrli ishlâriga.
Ochsin ko‘zlarini
kelajakning umidli sahariga.
Men istarman:
sevinch, saodat bol bo‘lsin.
Yurakdan — yurakka,
o‘lkadan — o‘lkaga
ochiq yo‘l bo‘lsin.

1964-yil

NIGOR RAFIBEYLI

(1913–1981)

Ozarbayjon xalq shoiri Nigor Rafibeyli (Nigor Xudodat qizi Rafibeyli) 1913-yilda Ganja shahrida tug'ilgan. Boku pedagogika texnikumini, keyin Moskva Pedagogika institutini bitirgan. Boku kinostudiyasida, "Ozarnashr","Ushoqganchnashr" nashriyotlarida muharrir bo'lib ishlagan. Shoira va tarjimon. Ilk she'ri "Chodra" 1928-yilda, birinchi she'riy to'plami 1934-yilda nashr etilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. U Ganjaviyning ruboiylarini, Yevripidning "Ifigeniya", Shillerning "Makr va muhabbat", A.P. Chexovning "Vanya tog'a", "Albali bog'i" dramalarini, Y. Voynichning "So'na", O. Goncharning "Bayroqdorlar" romanlarini, Alisher Navoiy, A.S. Pushkin, M.Y. Lermontov asarlarini tarjima qilgan. 1981-yilda Boku shahrida vafot etgan.

U shoir Rasul Rizoning turmush o'rtog'i, yozuvchi Anorning onasi va yozuvchi Gunel Anor qizining buvisi.

ANORGA

Xosiyat Rustamova tarjimasi

Hijroning og'irdir, bo'lmaydi o'lchab,
Baland tog'lar qolsin, Sen kel, Anorim.
Nozik oyoqlaring yomon yaralab,
Siynamning ustida tinch bo'l, Anorim.
Sensiz na kecham bor, va na kunduzim,
Sen ketgandan buyon kulmaydi yuzim.
Kel, uzun kiprikli beg'ubor qo'zim,
Anorim, Anorim, erkam Anorim.
Sen jayron ko'zlisan, tutash qoshimsan,
G'animlaring yo'qdir, yor, yo'ldoshimsan.

Balki mendan ayri ko‘zi yoshlisan,
Bitsin bu ayriliq, kel, kel, Anorim.
Tog‘larning siynasi lola, binafsha,
Yaylovlar mehmoni bo‘l Sen hamisha.
Yo‘l qo‘yma tog‘larga bir xazon tushsa,
Notekis yo‘llarga tirgak Anorim.

DO‘STIMGA

Xosiyat Rustamova tarjimasi

Yoshlik qiyofamga boqding:
— Qanday go‘zal eding, qanchalar nafis, —
deding.
O‘yga toldim. Ko‘zlarim to‘ldi.
— Nimaga yig‘laysan? — dedim.
Allohga shukur, o‘lmadim.
Ko‘zlaridan oqdi tomchi-tomchi yosh,
Yonog‘iga tushdi tomchi-tomchi yosh.
Va nogoh tushundim. Sen go‘zallikning,
Navnihollikning va qaytmas yoshlikning
O‘limiga yig‘larding tinmay —
Yoshlikning bir nusxasi kabi...

SENSIZ

Xosiyat Rustamova tarjimasi

Yana bir bahor ketdi
Umrimning taqvimidan.
Senga na muhabbatim,
Va na hasratim yetdi.
Hayotni bilmadim hech,
Umr nelarga soldi.

Ko‘zim yo‘lda erta-kech,
Sening yo‘lingda qoldi.
Qani ulkan tog‘ bo‘lsang,
Seni izlab borardim.
Yuragimdan eng nafis
She’r bilan yolvorardim.
Dunyoda go‘zallar ko‘p,
Go‘zal yuraklarda ko‘p.
Shirin-shirin orzular,
Toza tilaklarda ko‘p.
Bir sen olding bu ko‘nglim,
Yaqin do‘st-u hamdamim.
Sen bo‘lmasang bo‘lmasdi
Qo‘llarimda qalamim.
Sen bo‘lmasang bahorning,
Yozning atri bo‘lmasdi.
Sen bo‘lmasang bu dunyo
Sevging bilan to‘lmasdi.
Bahorim chechaklari,
Kurtak kulmasin Sensiz.
Umrim Sensiz o‘tmasin,
Shirin bo‘lmasin Sensiz.

MENING SHOIR QARDOSHLARIM

Karim Bahriyev tarjimasi

Goh asabiy, goh yurg‘undir,
Goh to‘fonli, goh turg‘undir,
Goh oshiqdir, goh vurg‘undir,
Mening shoir qardoshlarim.

Har suhbatda so‘zi bordir,
Go‘zallarda ko‘zi bordir,

Yer yuzida bir bahordir,
Mening shoir qardoshlarim.

G‘ururning jonli haykali,
Ozodlikning hur mash’ali,
Kechirmas yovuz amalni
Mening shoir qardoshlarim.

Uzoqlardan kelar uni,
Salomlashar nurli kunni,
Xalqqa berar o‘z umrini
Mening shoir qardoshlarim.

Asrlardan berdi so‘roq,
Zulmatda yondirdi chiroq,
Tushdi Vatanidan uzoq
Mening shoir qardoshlarim.

Qorong‘uda nur ayladi,
Xalqqa ozodlik tiladi.
Tarix bo‘yi shunaqadir
Mening shoir qardoshlarim.

Tovonidan so‘yildilar,
Ko‘zlaridan o‘yildilar,
Zulm dastida ezildilar
Mening shoir qardoshlarim.

Zolimlarga bosh egmadi,
Gulning bargiga tegmadi,
Zulm yukini chekmadi
Mening shoir qardoshlarim.

O‘z yurtining nafasidir,
Zamonaning haq sasidir,
So‘z mulkining ustasidir
Mening shoir qardoshlarim.

BOLOSH OZARO'G'LI

Abizoda Bolosh Alloh Bahish o'g'li — Ozarbayjon xalq shoiri. 1938-yilda oilasi bilan Janubiy Ozarbayjon(Eron)ning Ardabil shahriga ko'chib ketadi. U yerda fors boshlang'ich maktabida tahsil oladi. Milliy ozodlik harakatiga (1941) qo'shiladi. Eron xalq partiyasiga (1942) kiradi. "Ozarbayjon antifashist jamiyati" Ardabil viloyati bo'limiga rais (1943) bo'ldi. "Shoirlar majlisi"ning Ardabil bo'limini (1943–1945) boshqardi. Ilk she'riy kitoblari Tabrizda (1943–1945) nashr etildi. Bir qancha gazeta va jurnallarda faoliyat ko'rsatdi, turli adabiy va ilmiy lavozimlarda ishladi. Xilma-xil unvonlar va mukofotlar sohibi Bolosh Ozaro'g'lining asarlari turli tillarga tarjima qilingan.

INQILOB SHOIRIMAN

Men na shohman, na sulton,
na bezakman, na ziynat,
Na afsona, na malak, na saroy, na saltanat,
Na o'tgan asrlarni yodga olib yig'layman,
Na umrimni g'azalga, masnaviyga bog'layman.

Na davrim hokimini pul uchun madh etaman,
Na jallodlar qoshida jonni deb past ketaman.
Na paymona, na soqi, na sarob shoiriman,
Ozodlikning jarchisi — inqilob shoiriman.

Men egilib hokimning qo'llarini o'pmadim,
She'rimni gullar kabi oyoqlarga sepmadim.
Na ojiz bir bandaman, na sotilgan bir qulman,
Na saroy maddohiman dargohlardan quvilgan.

Men ellarning o‘g‘liman, ellar o‘stirgan meni,
She’rim xalqdan olgandir bu ilhom, falsafani.
Men na sham, na parvona, na rubob shoiriman,
Ozodlikning jarchisi — inqilob shoiriman.

Mening ko‘ngil daftarim o‘xshaydi gulistonga,
Unda joy berilmagan qorli qishga, to‘fonga.
Bahoriy ifor bordir har she’rimda, so‘zimda,
Bahor hasrati bilan yashayapman o‘zimda!

Qo‘l ochib samolardan tilamadim ozodlik,
Mening suyanganlarim ulardan ancha ortiq.
O‘lkalar orzu qilgan ofitob shoiriman,
Ozodlikning jarchisi — inqilob shoiriman.

ORZU

Ba’zan o‘z-o‘zimcha o‘ylar ekanman,
Xayollar qalbimni olar qalbimdan,
Shunda deyman: Men ham askar bo‘lsaydim.
Qaniydi umrimning shu yosh chog‘ida,
Otash o‘lkasining keng quchog‘ida
Cheksiz sahrolarga rahbar bo‘lsaydim.
Tursaydim sarhadda qo‘limda miltiq,
Zulmatni yoritgan bir mayoq kabi,
Asrlar-la ko‘rishgan qorli tog‘ kabi.
O‘psaydi siynamni yellar har sahar,
Tushsaydi ustimga gulgun shafaqlar,
Quyoshning rangidan olsaydim ming rang.
Qorong‘i kechaning qora qalbiga
Lochin boqishlari oqib o‘tsaydi,
Quyoshning rangidan olsaydim ming rang.
Burgutli tog‘larning cho‘qqisida man
Bir posbon singari turganda ba’zan,
Bo‘ron shiddatiga ko‘krak kersaydim.

Menga taqdirini topshirsa gar el,
Uni ko‘zim kabi qo‘riqlayman bil.
Kerakmas na nishon, na shon, na jalol.
Agar ishonmasang o‘quvchim bunga —
Bo‘z shinel kiyguvchi Ozaro‘g‘liga
Menga orzu bo‘lsin, senga bir xayol.

MEN HAM BIR ASKAR KABI

Shoirga qog‘oz-u qalam beringlar,
She’rlarim saflansin bir lashkar kabi.
Yana misralarim tizilsin safga,
Janglar maydonida safarbar kabi.
Quyosh, oy qiziydi o‘chog‘imizdan,
Sharqqa yorug‘ tushar yarog‘imizdan.
Kecha tulki misol qabog‘imizdan
Qochganlar qaytadi yana shar kabi.
Xayoli boshqadir noshi yog‘iyning,
Ko‘rinsa sarhaddan boshi yog‘iyning,
Qolmas tosh ustida toshi yog‘iyning,
Elim qurollangan bir nafar kabi.
Egilmoq yarashmas bizning millatga,
Yurak ham ko‘nmaydi har “muhabbat”ga,
Bu tez — deganlari “husn-u niyat”ga,
Hamma nafratlanar shum xabar kabi.
Ko‘zingni tikkaning olov yurtidir,
Ko‘rganing bu tog‘lar, qirlar o‘rdudir,
Kechasi, kunduzi posbonlikdadir,
Har el qahramoni bir askar kabi.
Arslon yalinarmi qo‘rqoq tulkiga?
Quyosh sig‘inarmi qora ko‘lkaga?
Saodat maskani bizning o‘lkaga.
Kelsangiz o‘lasiz o‘lganlar kabi.

NABI HAZRI

Ozarbayjon xalq shoiri Boboyev Nabi Alakbar o'g'li (Nabi Hazri) Boku yaqinidagi Xirdalan qishlog'ida 1924-yil 10-dekabrda tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgach, Ozarbayjon Davlat universitetiga qabul qilingan.

Ozarbayjon radio qo'mitasida diktor, "Vatan yo'lida", "Adabiyot va inja san'at" gazetalarida adabiy xodim, Yozuvchilar uyushmasi kotibi, Ozarbayjon Davlat teleradio qo'mitasi raisi, Madaniyat vaziri o'rinbosari, Chet mamlakatlar bilan do'stlik jamiyatining raisi, "Ozarbayjon dunyosi" baynalmilal aloqalar markazining prezidenti bo'lib ishlagan. Asarlari ko'pgina xorijiy tillarga tarjima etilib, chop qilingan. 34 dan ortiq kitobi nashr etilgan.

O'ZGA SOHILLARNING AYNI TO'LQINI

Mirtemir tarjimasi

Umrning har yili
Bir ummon dedim.
Nega ayirdilar bu yillar bizni?
Sen shoshilsang,
Men ham kechikmasaydim,
Balki ayirmasdilar sohillar bizni.
Yaqin bir sevgining bu olis uni
Yurakka chaqmoqdek o't qo'yib o'tar.
O'zga sohillarning ayni to'lqini
Qalbimizni ezib va o'yib o'tar.

Kecha shirin-shirin
Sayr etar oy seni, kahkashon seni.
Men sahar yeliga: "Jim!" deganimda,
Kimdir uyg'otadi begumon seni.
Qo'shaloq o'tasiz...
Yaqin kelmayman.
Men yo'qman...
Yoningda u tayyor har dam,
Ko'zimni ko'tarib qaray olmayman,
U esa, istasa ko'tarar qo'l ham.
O'tasan, qush bo'lib —
qanot bog'layman,
Ammo, yuksalmoqqa
Ufq tor, yetmas.
Seni malaklarga malak chog'layman,
U bo'lsa,
Qonuniy xotin sanar, bas!
Ko'z solarman hayron har ko'rgan uzoq,
Yo tinar yer bilan samoda birga?
Birga tepishmagan yuraklar, qandoq,
Ko'raylik, yo'l yurar dunyoda birga?
Kechikmish orzular oshib-toshganda,
Qarayman,
Ko'nglimdan ol qonlar oqar...
Qonunsiz bir nikoh qonunlashganda,
Qonuniy muhabbat
Chekkadan boqar...

SOKIN SATRLAR

Nosir Muhammad tarjimasi

Insonlar sevilar,
Sevar dunyoda,

Umidlar umr-chun
Mag‘rur qanotdir.
Sevgi garchi kichik
Qalbga sig‘sa-da,
Cheksizligi uning
Bir koinotdir.
Uning ufqlari
Bilmagay poyon,
Uning orzulari
Ko‘ngil boridir.
Dilbar, nurga to‘la
Ko‘zlaring, inon
Ushbu koinotning
Yulduzlaridir.
Yurak-la bog‘langan
So‘qmoqda, izda,
Xayollar girdobga
Oladi yolg‘iz,
Har toza tuyg‘uni
O‘z qalbimizda
Yangi sayyoraday kashf
eturmiz biz.
Intilib umid-la
Yo‘l ocha-ocha,
Ko‘zlaymiz eng nurli
Sabohimizni.
Dunyoning muhabbat saroyida to,
Tole o‘zi o‘qir nikohimizni...
Olar og‘ushiga
Bahor-yoz meni,
Sening ishqing qalbni
Qanotlantirar.
Tropik issiq ham
yondirmas meni,
Sovuq loqaydliging

Goho yondirar.
Orzumiz tug‘ilar
Oydin saharda,
Tug‘yonlari uning bo‘lar.
Daryocha
Bizning visolimiz
Daqiqalar-u
Hijronimiz esa
Dunyocha bo‘lar.
Sen quyosh,
Men esa boshi qorli tog‘.
Sensiz aylanurman jonsiz bir muzga.
Garchi biz bir-birdan
Bo‘lsak ham yiroq,
Begona emasmiz bir-birimizga.
Ko‘rishdik,
To‘lqinlar qo‘zg‘oldi birdan...
Tinglading,
Mehr-la men ham boqdim jim.
Dedimki, baxtliman,
Chunki sen bilan,
Yagona ko‘chadan
Tashlayman odim.
Yil o‘tdi,
To‘lqinlar qo‘zg‘oldi
Tag‘in...
Sensiz o‘tgan har kun
Yildir men uchun.
Deymanki baxtliman,
Chunki sen bilan
Bitta shahar ichra
Yashayman bugun.
Yil o‘tar,
To‘lqinlar qo‘zg‘olar
Sho‘x-sha’n...

Ishqing meni etar manguga asir.
Deymanki baxtliman,
Chunki sen bilan
Yagona zaminda tug‘ildim axir.

QOYA USTIDA EMAN

Fayzi Shohismoil tarjimasi

Tog‘ boshida viqor-la turibdi eman,
Yorib chiqibdi-ya, qoya toshini.
Poyidan arimas erta-kech tuman,
Ko‘kda bulutlarga urar boshini.
Uning urug‘ini qaysidir bir kun
Burgut olib kelib bu yerga “ekkan”.
U hayot oshig‘i, hayotga maftun,
Toshlar ichra qancha yotibdi ekan?
Faqat tabiatga yoz kelganda, u
Uyg‘ongan uyqudan toglar-la birga.
Jarlikdan yuksalgan tosh makonda u
O‘sibdi qoyada bahor-la birga.
Mayli borib uni yaqindan ko‘ray,
Guvohi necha yoz va necha qishdir.
Hikmatdir: shu mitti bir urug‘ hay-hay,
Buyuk bir qoyani parchalamishdir!
O‘sgan muhabbat-la, quyoshga qarab,
Boshidan hech qachon arimagan nur.
Qutursa-da, shamol, bo‘ron yovsirab,
Qoyada ulg‘ayib qilmoqda huzur.
Bugun gullab turar tip-tik qoyada
Uning tog‘ yuragi, uning tog‘ ishqi.
Ne bilan mezonni topgan dunyoda,
Hayotga muhabbat — yashamoq ishqi?!

GUVOH

Fayzi Shohismoil tarjimasi

Ular uchrashdilar... Oydin tun edi,
Yigit shivirladi: “Sevaman”, dedi.
— Ahdidan qaytganning ko‘zi o‘yilsin!
— Mayli, sevgimizga oy guvoh bo‘lsin...
Ular ajrashdilar... Oydin tun edi.
Yigit boshqasiga: “sevaman”, dedi.
Oy bulut ortiga asta berkindi,
Qo‘rqdi yana guvoh bo‘lishdan endi.

VATAN VA G‘URBAT

Fayzi Shohismoil tarjimasi

Ko‘ngil ayrilmaydi o‘z bahoridan,
Ilhom bahoridan, so‘z bahoridan.
Shubhasiz Vatanning bitta qish kuni
Yaxshidir g‘urbatning yuz bahoridan.

OTIF ZAYNALLI

(1927–1991)

Otif Zaynalli 1927-yilda Bokuda tug'ilgan. 1944–1949-yillarda Ozarbayjon Davlat universitetining Sharqshunoslik fakultetida o'qigan. 1953-yilda Moskvada SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining aspiranturasiga kirgan. 1957-yilda nomzodlik, 1971-yilda esa doktorlik ilmiy darajasiga ega bo'lgan. U uzoq yillar mobaynida Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot institutida ishlab, umrining oxiriga qadar ushbu institutda ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan.

"Dengiz farzandlari" (1963), "Muz qal'a" (1965), "Ko'nglim sadosi" (1967), "Uch dengiz ortida" (1970), "Xazar, senga so'zim bor" (1976), "Abadiyat" (1979) kabi she'riy kitoblari, "O'tilmagan yo'llar bilan" (1970), "Sulaymon Rustam" (1976), "Xalq shoiri Mammad Rahim" (1984) va boshqa ilmiy nashrlarning muallifidir. Otif Zaynalli tarjimon sifatida ham faoliyat yuritgan. XX asr Eron shoirlarining she'rlarini Ozarbayjon tiliga tarjima qilgan. Otif Zaynalli 1991-yilda Bokuda vafot etgan.

XAZAR MENGA AZIZDIR

Qora dengiz nahangdir,
Qora dengiz qashangdir.
Dolg'alari tog' kabi,
Sohilida to'lqinlar
Tunlarda ham olovrang —
Lovullar o'choq kabi.
O'rmonlari, bog'lari,
Yam-yashil o'tloqlari
Zumrad erur qishda ham.

Qahratonda ham go‘zal,
Go‘zaldir yog‘ishda ham.
Boy tabiati bilan,
Kuchi, qudrati bilan
Qora dengiz, ehtimol,
Bor azamati bilan
Dengizlar orasida
Eng birinchi dengizdir.
Biroq so‘lim sohili
Qumloq mening Xazarim
Menga Qora dengizdan
Milyon daf’a azizdir!
Milyon daf’a azizdir!

1968

NOMSIZ SHE’R

U bir nay emas,
Tog‘ bag‘rida bo‘zlaydi,
Fuzuliyim, Sobirimning qorachig‘idir.

U chechak emas,
Dara-tepa o‘z boshiga ko‘tarar,
Nigorimning, Hojarimning bir o‘rpagidir .

U chaqmoq emas,
Dushman ko‘ksin dog‘laydi —
Bobakimning, Go‘ro‘g‘limning bilagidir!

U shamol emas,
Xazar kabi guvranar —
Ja’farimning, Mushfiqimning yuragidir!

1969

"NAQADAR YARASHGAY MUG'ONGA JAYRON"

Maysani toptadim, gullarni ezdim,
Keldi Oraz kabi tug'yonga jayron.
Vurg'unni so'radim, Vurg'unni izladim,
Boqdi hasrat bilan sayhonga jayron.

Har so'qmoq shoirning oyoq izidir,
Atrofi loladan qon dengizidir,
Ulkim yuraklarning eng azizidir,
Seni tashlab ketdi qayonga, jayron?

Ishqi daryo edi, yuragi tog'dir,
Ko'ngli g'azab ila kindan uzoqdir,
Har kuz, har bahorda senga qo'noqdir,
Shodligi sig'magan dostonga, jayron!

Qo'shiqlar aytardi yangrab ovozi,
Ko'l siyohi edi, qirlar qog'ozi,
Hurkak boqar edi kelini, qizi,
Ko'rgan o'xshatardi jayronga, jayron!

Jayron go'yoki gul ko'lida suzdi,
Yoy kabi egilib, o'q kabi o'zdi,
Vurg'unning bu so'zi hamon azizdir:
"Naqadar yarashgay Mug'onga jayron".

1969

XAVOTIR

Sozimning har bir tori —
Xazarimning sevinchi,
Orazimning g'amidir,
Chala bilarmikanman?

Quchib to‘fonni, selni,
Ilhomimga xazridan,
Gilovardan bir qanot
Ola bilarmikanman?

Kezib qishloqni, elni,
Bir go‘zal qo‘shiq kabi
Yurtimning dudog‘ida
Qola bilarmikanman?

1970

MADINA GULGUN

(1926–1992)

Madina Gulgun (Alakparzoda Nurulla qizi) Bokuda tug'ilgan. Ozarbayjonda xizmat ko'rsatgan san'at xodimi.

1938-yilda uning oilasi Janubiy Ozarbayjonning Ardabil shahriga ko'chgan, keyin Tabrizda yashagan. Bo'lg'usi shoira Tabriz drama teatrida, "Ozarbayjon" gazetasida ishlagan. Ozarbayjon Pedagogika institutini bitirgan. Ilk she'rlari Tabrizda ekanida gazetalarda chop etila boshlagan. Ko'plab qo'shiqlar muallifi sifatida tanilgan bu shoiraning "Savalan bo'ylarida" (1950), "Dunyo ovozi"(1951), "Muqaddas uzuk" (1953), "Parvona" (1955), "Tabriz qizi" (1956), "Umr ham bir orzudir" (1976) she'riy to'plamlari e'lon qilingan. Shoira 1992-yil 17-fevralda Bokuda vafot etgan.

HAYOTDAN ISTAGIM

Bir qultum suv, bir hovuch tuproq,
Bir chinor soyasi kifoya menga.
Bir suluv binafsha, bir yashil yaproq,
Hazin bir nay sasi kifoya menga.
Bir boshoq donasi, bir yorug' osmon,
Tugamas xotirot kifoya menga.
Firoqsiz inson-u vafo to'la jon,
Bir umrlik hayot kifoya menga.
Bir go'dak kulgisi, bir to'y sadosi,
Bir do'st sadoqati kifoya menga.
Qaldirg'och chug'uri, bahor nafasi
Hamda el shafqati kifoya menga.

* * *

Bir hovuch don bo‘lsaydim,
Men bu jonbaxsh tuproqda
Ko‘karardim, yayrardim.
Qanotli qush bo‘lsaydim
Vatanim osmonida
Uchib, yayrab, sayrardim.

VISOL KEL DEDI

Dengiz sohilida turardim tanho,
Oniy tanholikdan yuragim ado.
Samodan, suvlardan keldi bir sado,
Bulut yig‘la dedi, dengiz kul dedi.

Goh jo‘shqin soy bo‘ldim, goh tilsiz oqdim,
Goho chaqmoq bo‘lib ko‘k uzra chaqdim.
Men visol hajrida yo‘llarga boqdim,
Hijron kelma dedi, visol kel dedi.

Halol mehnat bilan men yozdim qanot,
Ma’nosiz o‘tmadi umrim bir soat.
Hikmatli kitobga o‘xshaydi hayot,
Birov bilma dedi, birov bil dedi.

Har kimga ochmayman yurak so‘zimni,
Gulgunman, to‘fonlar bukmas tizimni.
Ko‘kda chaqmoq chaqdi, bosgan izimni.
Quyosh silma’ dedi, yomg‘ir sil dedi.
Hijron kelma dedi, visol kel dedi.

* * *

Ari ming gul-chechakdan
Shira yig‘ar bol uchun.

Bulbul sayrar betinim
Bir shirin visol uchun.
Ari to‘plagan sharbat
Insonga nasib bo‘lar.
Bulbulning navosidan
Chaman kular, bog‘ kular.
Mehnat qilaman men ham
Misralar manglay terim.
Insonga, tabiatga
Tuhfadir har bir she’rim.

TANHOLIK

Yana yomg‘ir yog‘di, yashin chaqnadi,
Jo‘shib, to‘lqin bag‘rin tig‘ladi dengiz.
Sohilni bo‘sh ko‘rib rosa biqnadi,
Tanholik dardidan yig‘ladi dengiz.

Tundlashdi samodek, o‘zgardi rangi.
Birpasda dengizning sochi oqardi.
To‘lqinlar chirqirab go‘daklar yanglig‘
Orqadan go‘yoki bizni chaqirdi.

Tovushlar qoyaga urilib qaytdi,
Dengiz ho‘ng-ho‘ng yig‘ladi ishon.
Qulog‘imga siniq bir sado aytdi
Meni tanho tashlab ketma, ey inson!

BILGAY

Hasrat alamini, visol g‘amini
Ayriliqda yongan ko‘p jonlar bilgay.
Dengizda g‘arq bo‘lgan yolg‘iz kemaning
Chekkan faryodini ummonlar bilgay.

Menga aytmang deya: “kam lovullab yon”,
Ishoning toshni ham yig‘latar hijron,
Tog‘larning ohidir tuman begumon,
Tog‘-u tosh dardini tumanlar bilgay.
Meni so‘roqlarga tutmang, yetar, bas,
Orzu yuragimda yashar har nafas.
Ko‘nglim asrorini tushunmas har kas,
Uni dunyo ko‘rgan insonlar bilgay.

QOBIL

(1926–2007)

Shoir Qobil — Qobil Ollohberdi o'g'li Imomberdiyev 1926-yilning 12-avgustida Bokuda temiryo'lchi oilasida tug'ilgan. 1944–1948-yillarda V.I. Lenin nomli Ozarbayjon Pedagogika institutining filologiya fakultetida o'qigan. Adabiyotga 1944-yilda e'lon etilgan "Kel, bahorim" degan she'ri bilan kirib kelgan. Eng katta asari bo'lmish "Nasimiy" she'riy romani 1976-yilda Ozarbayjon Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan. Ozarbayjonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, Ozarbayjon xalq shoiridir. "Shuhrat" va "Istiqlol" kabi yuksak davlat ordenlari bilan mukofotlangan. 2007-yilda Bokuda vafot etgan va 1-faxriy xiyobonga dafn qilingan.

MARSIYA

Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

Tutilib vahimadan nutq bu kun, til bu sahar,
Absheronni bezabon qonli chechak-gul bu sahar,
Boku faryod aylagay, ko'zdan oqar sel bu sahar,
Kemalar nola chekar, arshga chiqar zil bu sahar,
Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

Bu qizil armiyaning yurtimiza qasdiga boq,
Ustima tank yuritan fitnakorin shahdina boq,
Ko'zi qonim-la xumor dushmaniming mastina boq,
Qora bayroqlariming gardishina, dastina boq,
Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!
O'ldi yosh, o'ldi bola, o'ldi kelin-qizlarimiz,
O'lmadi! Shonli shahid bo'ldi necha yuzlarimiz,

Bu soat zaqqum erur totigan tuzlarimiz,
Nega qon yig‘lamasin yuzlarimiz, ko‘zlarimiz?!
Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

Kim ko‘rib bundoq marosim bo‘la milyonlar bilan,
Boku inson oqimidan to‘la milyonlar bilan,
Yozdi shahid nomlarin shon ila milyonlar bilan,
Onalar-la opalar soch yula milyonlar bilan,
Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

Qabraro yotgay shahid qip-qizil janda bilan,
Oq kelinlik libosi qirmizi-ol lenta bilan,
Xo‘sh, Kremlning nima farqi bor Xunta bilan?!
Bul g‘animning ne g‘ami xalq bilan, banda bilan?!
Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

Tushdi tildan tilga bu qatl-u bu motamgohimiz,
Yetdi har o‘lkaga bu sharh-u bayon-u ohimiz,
Ko‘rdi olamkim ayon jallodimizdir shohimiz,
Barchamiz bir bandamiz-ku, bittadir Ollohimiz,
Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

Har qizil gulli mozor — bu bag‘rimiz dog‘i mozor!
Egilur ustiga ko‘k qubbasining tog‘i, mozor!
Har mozor qonli beshik — allalari yig‘i mozor!
Hali mushkul yovimizning, vahki, ketmog‘i mozor!
Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

Ey Vatan o‘g‘li, Vatan avlodi, art ko‘z yoshingni,
Qon qachon yerda qolur, egma yerga boshingni,
Ko‘p kelib, Qobil, Ozarbayjonga ishg‘ol qo‘shini,
Ko‘rmagan ammo hali bundoq jinoyat ishini...
Yozdi xalq taqvimga qon birla bu Yanvar qishini,

Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

21-yanvar 1990-yil

XATO TUSHGACH YERIMIZ

Tog‘larni to‘sgay tuman,
Qiyomat bo‘lgay.
Yo‘llarni bosgay tuman,
Musibat bo‘lgay.
Musibatda qolgaymiz,
Xato tushgach yerimiz.

Ummon kemasi soyda
Botgandir, suzmas!
Soy kemasi tog‘ kabi
To‘lqinga to‘zmas!
Qolmas bizning sabrimiz,
Xato tushgach yerimiz.

Mug‘on intiq yog‘ishga,
Bulutlar xasis...
Yomg‘ir yog‘ar Tolishga
Behud, keraksiz...
Keragi yo‘q bo‘ldik biz,
Xato tushgach yerimiz.

O‘tmas pichoq jaranglar,
G‘ichirlar faqat.
Qilich qinida zanglar,
Kir bosgan qat-qat...
Hayf... biz ham zang bosganmiz,
Xato tushgach yerimiz.
Oq bilakli gul qo‘llar
Qadoqdan qotar.
G‘ayratsiz meshqorinlar
Atirgul sotar.

G‘ayratsiz qolurmiz biz,
Xato tushgach yerimiz.

Torni sozlab chertganga
Bu jonlar qurbon!
Pardani buzib qo‘ysa,
Yomondir, yomon.
Biz ham buzuq pardamiz —
Xato tushgach yerimiz.

KELTIRMA

Shundoq ham umrimning xazon chog‘idir,
Xazonning ustiga xazon keltirma!
Yurak yeldan bezgan gul yaprog‘idir...
Uni uzmoq uchun to‘fon keltirma!

Shundoq ham behuda to‘lgan ko‘zimga
Tinishni bilmagan layson keltirma!
Shundoq ham nurlari so‘ngan ko‘zimga
Zulmat keltirmagil, to‘ron keltirma!

Shundoq ham yoshlikning so‘ngandir o‘ti,
Sovuq saroyimga bo‘ron ketirma!
Tutqun osmonimning yo‘qdir hududi...
Tutqun osmonimga tumon keltirma!

Shundoq ham dillarni yoqqan bir nayman,
Nay nola qilganda... kamon keltirma!
Achchiq shikoyatman, hazin ginaman,
Taskin bermoq uchun gumon keltirma!
Shundoq ham kechikkan visolimizga
Sen vaqt-u va’dasiz hijron keltirma!
Qobilman, rahm etma ahvolimizga...
Omonlik istamam... omon keltirma!

ALI KARIM

(1931–1969)

1931-yil 22-martda Ko'kchoy shahrida ishchi oilasida tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgach, Ozarbayjon Davlat inja san'at institutining teatrshunoslik fakultetida uch yil tahsil olgan (1949–1951). So'ngra Moskvadagi M. Gorkiy nomli adabiyot institutiga o'qishga yuborilgan va uni imtiyozli diplom bilan tugatgan (1951–1955). Ish faoliyatini "Ozarbayjon" jurnalida adabiy xodim sifatida boshlagan. Umrining oxiriga qadar shu jurnalning she'riyat bo'limini boshqargan. Badiiy ijodini 1948-yilda "Ozarbayjon pioneri" gazetasida chop etilgan "Yangi muallim" she'ri bilan boshlagan. Shundan boshlab matbuotda uning asarlari muntazam chop etilgan. 1957-yilda Moskvada bo'lib o'tgan yoshlar va talabalarning VI umumjahon festivalida "Ilk simfoniya" poemasi mukofotiga sazovor bo'lgan. 1969-yil 30-iyunda Bokuda vafot etgan, Ko'kchoyda dafn etilgan. U yerda byusti o'rnatilgan.

IKKI SEVGI

Go'zal qiz, sen sof suvsan,
Ikki qalb orzusisan.
Men-ku seni sevaman
Tashnalikdan o't olib, cho'g' kabi
yonib yotgan
Dudoq suv sevgan kabi.
U esa seni sevar
Bemalol bardosh qurib:
— Kabobdan so'ng muzday suv
bo'lsaydi, — degan kabi.
Go'zal qiz, sen qo'shiqsan,
Yurtimga yarashiqsan.

Men-ku seni sevaman
Ignaning uchi qadar,
Shu'laga hasrat qilgan
Ko'z nurni sevgan kabi.
U esa seni sevar
Bir to'yning ko'z olguvchi
Chiroqlar shu'lasida
Huzurni sevgan kabi.
So'yla, yuksalsin sasing,
Siqilmasin nafasing.
Men-ku seni sevaman
Bokudan, Toshkasandan
Kelgan bir sado kabi,
Sas kabi,
Qudrat kabi.
U esa seni sevar,
O'zingga sir emaski,
Bir xona kunjidagi
G'amgin sukunat kabi.
Bu — men, bu — u,
bu — sensan,
Xo'sh, o'zing nima dersan
Bu ikki muhabbatga?
Ammo obdan o'ylabon
So'ng javob bergil puxta.
Mening boshqa gapim yo'q...
Nuqta, nuqta va nuqta...

BOKU SHAMOLI

Tinmay bu diyorni kez demagayman,
Yaproqni yulqila, uz demagayman.
Ba'zan nafas rostla, tingin suv kabi,
Dolg'a-dolg'a bo'lib kirgil qo'ynimga.

To‘qinma yuzimga bundoq asabiy,
Aylanib-o‘rgilib chirmash bo‘ynimga.
Kelgin, ko‘nglimdagi so‘zni eshitgin,
Sen ey, sovuq shamol, dilovar epkin.
Uyqudek tuyulsa senga bu hayot,
Meni kurashlarning og‘ushiga ot.
Dolg‘alar sapchirkan ko‘kka shiddatkor,
Mening-da qalbimni g‘aflat tark etsin.
To‘lqinlar meni ham, bir o‘tinchim bor,
O‘zin og‘ushida oliblar ketsin.
Qani, bor shiddat-la esgin, ey shamol,
Sochlarim yulqila, kuragimdan bos!
Senga javobim shu, menga quloq os,
Kelgil, kurashaylik halolma-halol!
To‘fon sol, uchirgil tosh-tog‘ga meni,
Qo‘yma g‘aflat ichra yotmoqqa meni.
Ey Boku shamoli, esaver mag‘rur,
Sindir derazamni, eshigimni ur!..

MENING UMRIM

Umr tanholikda abas ketardi
Agar bo‘lmasaydi go‘zal insonlar.
Manimdir ularning sevinchi, dardi,
Menga o‘zim qadar aziz ul jonlar.
Ba’zan rost kelurman o‘zimga o‘zim,
Tushganda qaygadir guzorim mening.
Ming bir balolarni ko‘rdi bu ko‘zim,
Bir emas, ko‘p erur mozorim mening.
Tuproqning ostida qiynaydi sog‘inch,
Tuproqning ustida men baxtiyorman.
Kengliklar yurakka soladi sevinch,
Har yerda men borman, har yerda borman.
Deymanki: “Buncha tez olamdan o‘tdi?”,
Qabrimga gul qo‘ydim — ozor yetmasin.

“Hayot-ku unga g‘am bodasin tutdi,
Orzusi tuproqda qolib ketmasin”.
Ko‘zlarim ichidan o‘tmoqda olam,
Hayotning arshiga tug‘ilajakman.
Agarda ko‘k qulab, yer yorilsa ham,
O‘lmasman, ming qayta tug‘ilajakman.

NARIMON HASANZODA

Narimon Alimammad o'g'li Hasanzoda 1931-yilda Ozarbayjonning Qazax tumanida tug'ilgan. 1949–1953-yillarda H.Zardobi nomli Ganja Davlat pedagogika institutining til va adabiyot fakultetida tahsil olgan. So'ng Moskvada Adabiyot institutida tahsilini oxiriga yetkazgan. 1965-yilda filologiya fanlari nomzodi bo'ldi. 1978–1991-yillarda "Adabiyot va inja san'at" gazetasiga bosh muharrirlik qildi. 1981-yilda Ozarbayjonda xizmat ko'rsatgan inja san'at xodimi unvonini olgan. 1991–1993-yillarda Davlat Matbuot qo'mitasining raisi o'rinbosari vazifasida ishladi. 1990-yilda Ozarbayjon Respublikasi Oliy Kengashining deputati etib saylangan. 1950-yillardan buyon she'riyat va dramaturgiya sohasida ijod qilib keladi. 1954-yildan Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi. 40 ga yaqin kitoblari nashr etilgan.

* * *

Elga suyanasan, elni siylaysan,
Men sening qarshingda go'yo bir toshman.
Ipak sochlaringni bir vaqt silagan
Go'yo men emasman, men o'zga boshman.
Seni do'stlarim-la, tanishlarim-la
Men tanishtirardim qachondir har gal.
Endi o'zgalarni, yot ehtirom-la
Derlarki, tanish bo'l! Naqadar go'zal!
Uyquda ko'rarding qachondir har dam
Meni yo'ldan qo'yib, so'zlab qanchalik,
Endi tushlaringdan chiqib kelmisham,
Bu ham bir tush misol, kel, tanishaylik!

Qo‘ltiqlab olardim... bu yodingdadir.
Kezardik... yo‘limiz, orzuyimiz bir...
Qo‘lim qo‘llaringning naq yonidadir,
Teginsa, biz endi so‘raymiz uzr.
Xayolingga kelsam sahar yo oqshom
Izlaysan sen meni, surishtirasan.
Endi ko‘zlaringning qabog‘idaman,
Esingda turayki,
Meni ko‘rasan.

* * *

Derlarki, bu olamning
Jannati, do‘zaxi bor.
Bu — sensiz va sening-la
Bo‘lgan chog‘imga o‘xshar.

* * *

Men qaysar bir go‘zal ila tanishayotgan bir kez
Bir talaba norozidir, menga qaraydi nuqul.
Men bilaman,
Imtihonga hozirlanar u yosh qiz,
Men bu soat imtihondan qolmoqdaman,
Bilmas ul.

* * *

Kinoda ikki joy bo‘sh qoldi bu kun,
Ikki tomoshabin yo‘qoldi bu kun.
Ketdik... ikkimizni yashirdi bog‘lar.
“Kinoga ketgandingiz...”
So‘rar o‘rtoqlar.
So‘rsalar:

“Qanaqaykin?”
Dengki:
“Qiyomat!”
So‘rsalar:
“Ne haqda?”
Dengki:
“Muhabbat!”
Chin aytmang, qo‘rqaman...
axir gap bo‘lar.
Bir gal yolg‘on so‘zlang.
Qo‘y, ishonsinlar.

* * *

Bu dunyo bir narvondir,
Chiqqanda mehribondir,
Enishda, voh, yomondir.

Ko‘rishdik pillalarda
Yo‘lning yarmisida biz.
U chiqardi bu damda,
Men enardim xabarsiz.
Uni orzulariga
Chiqarar edi narvon,
Meni xotiralarga endirar edi
Bu on,
Birimiz — kunchiqarga,
Birimiz — kunbotarga...
Men turolmasdim hali,
Na kuch bor-u, na toqat.
U ham ena olmasdi.
Haqli-haqsiz bergandi
O‘z hukmini tabiat.
Koshki yo tushmasaydi
Bu holat hech oraga.
Yo u avval kelsaydi.
Yo men so‘ngra dunyoga.

* * *

Kesishgan yo‘llarga o‘xshaydi hayot,
Hayotning ustida dovdirab bo‘lmas:
Jasorat istaydi, yoki ehtiyot,
Sekinlab bo‘lmaydi ham tezlab bo‘lmas.
Ehtiyot bo‘ldim men shunday bir vaqtda
Jasorat, jasur bo‘l, degan pallada.
Jasorat qildim men shunday bir vaqtda
Ehtiyot, bas to‘xta, degan pallada.
Bu dunyo g‘aroyib ermakxonadir,
Dunyo shum, men ba’zan bolatabiat.
Yashadim, bilmadim bu dunyo nadir,
Bilmadim dunyoda nadir saodat.
Kadarim dunyoning vajidan demam,
Qancha sevinchim, bas, tusharmi yoda?
Balki, dunyo-chun bu — hech nima emas,
Qancha sevinch bor-u, gam bor dunyoda.
Dunyo sahnasida ko‘rindim, yetar,
Haqiqat dedim men “yolg‘on dunyo‘ga.
Dunyoni ermak deb hisoblaganlar
Aylanib boqsinlar bir on dunyoga.

* * *

Sen ketding, hasrating qoldi jonimda,
Keyinroq mot qoldim bir topishmoqqa.
G‘ayrioddiy eding mening yonimda,
Kelding bamisoli soddalashmoqqa.
Senga yalinardim anchadan beri,
Eshikda qish edi, xonada bahor.
Sen ham kelib uyga so‘rding kechirim
Kech qolganing uchun takror va takror.
Seni kechirishmi... dunyoni bir ko‘r.
Bu qalbni, bu ruhni tinglashing kerak.

Seni istaganlar so‘rasin uzr,
Aslida sen uni kechirgin, malak.
Bu qalbning eng aziz shahzodasiyding,
Senga qullik uchun turgan edim shay.
Kelib uyimizda sen unga yaqin
Bir qullik ko‘rsatib, suza qolding choy.
Ketding, yuragimni solib to‘fonga,
Sadoqatning rangi asli mana shu.
Mening sevinchimni ulading unga,
Balki, sadoqatga kerakmasdi bu.

* * *

Sizning qizingiz-la uchrashyapmiz biz,
Kezamiz goh yo‘lda, goh chet so‘qmoqda.
Buni men bilaman, siz-chi bilmaysiz,
Sizning izningiz-la kelar men yoqqa.
Yo‘ldoshi talaba, o‘z xotini bor,
Ishi ham ko‘p bo‘lar, ba’zan darsi ham.
Menman qizingizning, gapirgandirlar,
“Talaba yo‘ldoshi”, “xotinli” odam.
Bilaman, onasiz, mehribondirsiz.
Yurakni to‘ldirgan... oti hayajon.
U uyga qaytguncha nigorondirsiz,
U uyga ketganda men ham nigoron.
Umrimning manzili uzoq yo qisqa,
Muhabbat, tavallud... bari qadimdir.
U sizning nozik bir qizingiz esa,
U mening yagona saodatimdir.
Siz ham hayrondirsiz, men ham bu qizga,
U qaysi eshikdan o‘tishi kerak?
Dunyo shunaqaki, bir odam topsa,
Biri, tabiiy, yo‘qotishi kerak.
Soflik timsolidir sizning qizingiz,
Ko‘zidan o‘qilar qalbi, ismati.

Sizning bu savdoda yutqizmog‘ingiz,
Sizning burchingizdir, mening qismatim.
Lozimki, bu ishqqa tegmasin ziyon,
Kimmiz, nimamiz — siz qo‘ymangiz ayb.
Tug‘ilish va tug‘ish borligi ayon,
Dunyo garoyibdir, biz ham g‘aroyib.
Sizga ehtiromim, hurmatim baland,
Ayol qarshisida bosh egar dunyo.
Men ham bosh egaman, vidolashaman,
Qizingiz keladi, men ketgum ammo.

JOBIR NAVRO‘Z

Jobir Mirzayev o‘g‘li Navro‘zov (Jobir Navro‘z) XX asr Ozarbayjon adabiyotining taniqli namoyandasi. Ozarbayjon xalq shoiri. Xizi tumanining Upa qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘rta maktabni tamomlaganidan so‘ng, pedagogika texnikumida o‘qigan, 1952-yilda Ozarbayjon Davlat universitetining jurnalistika fakultetiga kirgan, bir yildan so‘ng Moskvadagi Adabiyot institutiga qabul qilingan va uni 1957-yilda bitirgan. Mehnat faoliyatini 1958-yilda “Boku” gazetasida adabiy xodimlikdan boshlagan, so‘ngra “Ozarbayjon” jurnali, “Adabiyot va injasan’at” gazetasining Bosh muharriri bo‘lgan. “Mening maqomlarim”, “Yillar hayoti”, “Bizning asr”, “ Oddiy haqiqatlar”,”Tolening tuhfalari”, “O‘z dunyom bor” kabi o‘nlab she’riy kitoblar muallifi. Shoir 2002-yil 12-dekabrda vafot etgan.

TIRIK CHOG‘I QADRLANGIZ ODAMLARNI

Ey odamlar, bir gap aytay, ruxsat bering,
Tirik chog‘i qadrlangiz har bir jonni.
Yaxshilarni tirik chog‘i yaxshisan deng,
Yomonsan, deng tirigida siz yomonni.
Tuhmat, denglar gar so‘zlarim bo‘lsa abas,
Ranjimayman, sizdan ko‘nglim bo‘lgay rozi.
Shoirlarni tirigida qiling e’zoz,
Haykal qo‘ying borligida bo‘lsa lozim.
Siz umidlarni keyinlarga taxlamangiz,
So‘zingizni boshqa kunga saqlamangiz.
To‘ydan keyin nog‘oraga hushim yo‘qdir,

Quruq gap-u puch va'daga hushim yo'qdir.
Tirik chog'i rasvo qiling qalloblarni,
Tirik chogi tulkilarni tulki, denglar,
Qoplon denglar qoplonlarni,
Tirik chog'i baholangiz insonlarni,
Hayot chog'i o'z joyini bilsin har kim.
Bu yomonlar yomonligin poymol etar,
Bu yaxshilar yaxshiligin poydor etar.
Qanday gapki, birov o'lsa qalblarimiz
Odamlarga mehr, shafqat bilan to'lar,
O'ldimi bas. Yaxshilar ham yaxshi bo'lar,
Yomonlar ham yaxshi bo'lar.
Xotiralar yozib yana,
Ta'ziyalar tuzib yana,
Hammasini yoppasiga yaxshi atab
So'nggi yo'lga kuzatamiz.
Bu kechikkan ko'ngilchanlik kimga kerak,
Bundan qabr kengayarmi,
Yoki marhum tirilarmi?!
Hushim yo'qdir beoqibat odatlarga
Hushim yo'qdir.
Xo'jako'rsin izzatlarga, hurmatlarga
Hushim yo'qdir.
Mendan keyin bo'ladigan shuhratni
Ne ham qildim.
Bir nafaslik umrimni-ku
O'lim otliq ming-ming zarga alishmayman,
Tirik chog'i bo'lgan zarra hurmatni man
O'lgandagi ming haykalga alishmayman.
Ey insonlar, so'zlarimni tinglang atay:
Yuzlanaman go'daklarga,
keksalarga, o'g'lonlarga,
Tirik chog'i qadrlang siz insonlarni.
Tirik chog'i yaxshilarni yaxshi atang,
Tirik chog'i yomon denglar yomonlarni.

GO‘YOKI

Qachonki yozmasam, tark etsa xayol,
Nazdimda ilhomim bo‘lgan kabi lol.
Go‘yoki hammadek yotib-turaman,
Hammadek o‘zimdan mamnun yuraman.
Hammadek qarayman go‘yo oftobga,
Hammadek qarayman insonga go‘yo.
Yer go‘yo jo‘nlashib qolayotgandek,
Ko‘k go‘yo jo‘nlashib qolayotgandek.
Qichqirar poyezdlar, gavjum el-yurtlar,
Har kimga bir orzu, bir umid yordir.
Lekin so‘z mulkimda hokim sukutlar.
Barcha uchrashuvlar, suhbat, bahslarga
Men bo‘lsam uyalib, o‘ylashib bordim.
Yo‘lda kitobxonlar tez-tez tutishar:
— Yangi she’rdan bormi?
— Bor, — deb kulaman.
Biroq tuyg‘ularim chetlab o‘tishar,
Xo‘sh, kimga she’rimsiz kerak bo‘laman?
Ko‘nglim yoritmadi bu yorug‘ olam,
Oddiy shamoldan ham bebahra qoldim.
Onam oq sochidan bo‘ldim ko‘p mulzam,
Yeganim har tishlam nondan uyaldim.
Zehnimda butunlay chalkashdi dunyo.
Misoli ko‘r bo‘ldim.
Misli kar bo‘ldim.
Eng og‘ir to‘qnashuv, jang chog‘i go‘yo
O‘qlari tugagan bir askar bo‘ldim.
Shunaqa besamar turdim, o‘tirdim,
Hatto shodmon kunlar yozmadi dilim.
Do‘stlar davrasida no‘noq, tutildim,
Yoqmadi hattoki tug‘ilgan elim.
Go‘yo kamayardi kuchim, jur’atim.
Meni tark etardi ruhim, quvvatim.

Uch yarim milliardlik insonlar aro
Benaf, keraksizi men edim tanho.
Ezdi yuragimni dalalar, cho‘llar,
Nazdimda tog‘lar ham kichraygansimon.
O‘yladim, bir kuni haqtalab qo‘llar
Yoqamdan daf’atan tutgay begumon.
So‘ng meni savolga ko‘mib tashlagay.
Vijdon ham taftishin darhol boshlagay.
Boshimga bir to‘fon yog‘dirar ular,
Tiriklik chirog‘im so‘ndiradi ham,
Bekorchi qalamim sindiradi ham...
Go‘yoki tuyg‘ular jo‘sh urdi, balqdi.
Bag‘rimda uyg‘ondi bir ezgu surur
Va o‘tli misralar qog‘ozga oqdi...
Shu tarzda nizomga tushdi-ya shuur,
Shu tarzda nizomga tushdim-a, shukur.

QOSIM QOSIMZODA

(1933–1993)

Taniqli shoir va adabiyotshunos olim Qosim Qosimzoda Xonsuvor o'g'li Kubadlidagi Xo'jamsaxli qishlog'ida tug'ilgan. Bokuda universitetni bitirgach, adabiy-ijtimoiy gazeta va jurnallarda, Adabiyot institutida ishlagan, "Adabiyot va injasan'at" gazetasining Bosh muharriri bo'lgan. She'riy va ilmiy asarlari bilan zamonaviy adabiyotning rivojiga o'ziga xos ulush qo'shgan. Xususan, adabiyotshunoslikka oid ilmiy asarlari uchun unga Ozarbayjon Davlat mukofoti berilgan (1984).

Uning "Bizning tog'lar" (1955), "Yurak to'lqinlari" (1959), "So'nggi ko'rishuv" (1960), "Binafsha yaprog'i" (1965), "Bordim, ko'rdim, o'yladim" (1971), "Inson ming yil yashardi"(1973), "O'tma nomard ko'prigindan" (1975), "Tog'lar, meni qo'yvoring" (1978), "Toshni kesgan so'z" (1981), "Sendan ayrilarman" (1985) kabi she'riy va ilmiy kitoblari bosilgan.

ONAM EKAN-DA

Umrning past-baland yo'lidan o'tdim,
Yaxshi-yu yomonni ko'rib, fikr etdim,
Uylandim, joylandim, tashvishga botdim,
Bolalikning toti onam ekan-da.
Nodonga, dushmanga bo'lib yuzma-yuz,
Oh, sanchib yuragim, tang qolganim kez,
Bir ovoz kuch berar: "Bolam, biz bormiz!"
Dilimning quvvvati onam ekan-da.
Qancha onalarga onam onadir,
"Olam bir yona-yu, u bir yonadir",
U yozgan dasturxon shakarxonadir,
Hayotning lazzati onam ekan-da.

Kelinning, kuyovning bilar o‘rnini,
Bolaning bolasin chekar dardini,
Erkalab avaylar bari-barini,
Yaxshilar qismati onam ekan-da.
Gaz uncha isitmas yotog‘imizni,
Sovuq qish junjitar quchog‘imizni;
Necha bor eshitdim — o‘chog‘imizning
O‘ti, harorati onam ekan-da.
Umrning qor fasli oqartdi boshim,
Meni ota deydir singlim, qardoshim,
Qiyin payt titrayman, yetmas bardoshim,
Ota shon-shavkati onam ekan-da.

1973

INSON MING YIL YASHARDI

Okeanlar, dengizlar inson uchun yaralmish.
Qirlar-u dala-tuzlar inson uchun yaralmish.
Chaqmoq chaqqan onlarda yuzi ochilib, kulgan
Tumanli tog‘, qoyadan tomchi-tomchi to‘kilgan
Bol buloq,
Yashil o‘tloq
Inson uchun yaralgan.
Mevazor shu qishloqlar —
Ne’mat to‘la bo‘xchalar,
Qirg‘ovulli ovloqlar,
Bulbulli bog‘-bog‘chalar,
Shalolali tepalar,
Yayloqdagi kapalar,
Cho‘qqidagi qor, chechak,
Ufqdagi ming bezak,
Osmondagi ming naqsh
Inson uchun yaralmish.
Inson ming yil yashardi

Bu ne'matlar ichinda!..
Yuz yoshda yoshlikning ilk havasi-la jo'shardi,
Besh yuzida qush uchmas yuksak tog'dan oshardi,
Sakkiz yuzga yetganda, yuragi o'ynamasdi,
Kasallik qiynamasdi,
Na-da aqli shoshardi,
Inson ming yil yashardi —
Qilichini tuyg'ular solmasaydi ustiga,
Hasrat, yovlik, ayriliq tushmasaydi qasdiga.
Ilk muhabbat javobsiz qolganida,
Butoq-butoq orzular so'lganida,
Har bir kuning aylanib qaychiga, bil,
Kesar yoshlik, umringdan yuz yil, yuz yil.
Yana qoni jo'shardi,
Tog' soyidek jo'shardi,
Inson ming yil yashardi —
Bosmasaydi boshini turmushning dard-qayg'usi,
Ota-ona motami, nomardning kin, qasosi.
Bola dog'i tog' bo'lib,
Bukmasaydi belini,
Kesmasaydi umrining
Qancha-qancha yilini.
Yetimlarning haqqi, mulki talansa,
Bechoralar ta'nalarga belansa,
Olimlardan kulsa avom, qo'lansa,
Haqiqatdan yolg'on ustun kelganda,
Sanchib-sanchib og'rir yurak, teshilar,
Ovqatimga har kun og'u qo'shilar...
Yot qo'shinlar yurtimni toptaganda, ezganda,
"Yersiz keldi! Qoch, shu yerlik!" deya kulib, kezganda,
Shon-shavkatli bu xalqim bulanganda bo'htonga,
Chidamay g'azabiga, zolimga, zo'ravonga
Otmasaydi o'zini,
Qora kuniga ko'nib,
Yumsa edi ko'zini,
Chaqnasaydi boshida chaqmoq bo'lib yurt dardi,

O‘n asrni, ming yilni o‘z ko‘zi-la ko‘rardi —
Inson ming yashardi.
Qay kimsalar shon-sharafin otganda,
Kasb, g‘ururni mansab uchun sotganda,
Yuzin burib, ters bog‘ganda millatga,
Tosh-tuproq ham tushganida g‘urbatga,
Shahar-qishloq kezib, o‘tib tog‘-toshdan,
Yurtdosh ish, non tilanganda yurtdoshdan,
Urib-urmay qolar yurak...
Ne dahshat!
Jon uzilar bu tinch jangda... ne vahshat...
Qo‘shnisi yotib qolsa,
Uyidan chiqmasaydi,
Do‘stning og‘ir kunida qayrilib boqmasaydi,
Mazlum-u muhtojlarning yetmasaydi dodiga,
Chopmasaydi har olis jafokash faryodiga,
Yaxshilikning zavqidan bo‘lsa edi bexabar,
Yomonlarga ko‘ksini qalqon etmasa agar,
Badantarbiya mashqin qilsa edi butun kun,
Bilmasaydi kelganin bu dunyoga ne uchun —
Yuz yillarni tashvishsiz yashab o‘tardi oson,
Qarg‘aday go‘ng titgancha yashab o‘tardi inson.
Yaxshiyamki, umrimiz ming yilga cho‘zilmaydir —
Yaxshiki, odam, dunyo unchalar buzilmaydir.

1967-yil

FIKRAT QUJA

Qujayev Fikrat Go'yush o'g'li 1935-yilda Ag'dash tumanining Kotanarx qishlog'ida tug'ilgan. Ozarbayjon xalq shoiri, xizmat ko'rsatgan san'at xodimi. 1964-yilda Moskvadagi Gorkiy nomli Adabiyot institutini bitirgan. "Ozarbayjon yoshlari" gazetasi va "Ozarbayjon" jurnalida ishlagan. Bir qator poemalar va qissalar, she'riy kitoblar muallifidir. M. Lermontov, T. Shevchenko, E. Mejelaytis, I. Volker, X. Risal, I. Taufer asarlarini ozarbayjonchaga o'girgan.

ILK SEVGI

Fayzi Shohismoil tarjimasi

Seni sevganimdan qo'rqib qolganman,
O'zim ham o'zimga beraman savol.
Billur o'yinchoqli bola bo'lganman,
Qo'rqaman tushirib sindirsam uvol.
Ko'zlarim hamisha yuzingda bo'lar,
Qo'rqaman qarashing sovisa birdan.
O'ylasam ko'zlarim yoshlarga to'lar,
Bunday baxtiyorlik ko'rgan emasman.
Sevgilim, sen menga ko'ngil ochgancha,
Hijroning vaslingdan itqitar meni.
Baxtiyorlik menga yondashsa qancha,
Badbaxtlik shunchalar qo'rqitar meni.
Bunga ishonmaydi hatto tentak ham,
Umr uzun bo'lar, baxt unday emas.
Uzoq umr bordir oldinda hali,
Umrni baxtiyor yashamoq bo'lmas.
Har shirin damlarning achchiq oni bor,

Bizning u onimiz avval bo‘lsaydi.
Har sokin dengizning bir to‘foni bor,
Bizning to‘fonimiz avval bo‘lsaydi.
Avval qolsam edi yomg‘irda, qorda,
Zaxmatim shu qadar ishqda yoqsaydi.
Avval chiniqsaydim po‘rtanalarda,
So‘ng esa yuzimga quyosh boqsaydi.
Shunda birdaniga qarshimdan chiqding,
Dedimki: sevaman... — Sevaman deding.
Sen butun umrimni yo‘llardan yig‘ding,
Bir onning o‘zida baxtli aylading.
Yaproqdek titrayman sening yoningda,
Kunim quyoshsizdir, tunim ham oysiz.
Uchrab qolib ishqing girdibodiga
Cho‘kib ketayapman jim va dod-voysiz.

KECHA JUDA HAM UZUN

Fayzi Shohismoil tarjimasi

Ko‘zim nuriga, erkam,
Har kiprik bir yuk bo‘lar,
Kecha juda ham uzun,
Ba’zan bir umrdan ham
Bir kecha buyuk bo‘lar.
O‘ylarimda sen har zum
Xayollar shirin-shirin
Xayollar achchiq-ojiz.
Kecha juda ham uzun,
Qalb visoling muhtoji.
Shodon kecha kunduzing,
Balki tushingda o‘zing
Xumor-xumor kularsan.
Eh... qaydanam bilarsan,
Kecha juda ham uzun.

TARJIMAYI HOLIM

Fayzi Shohismoil tarjimasi

Uyim — avtobuslar,
Vagonlar, tayyoralardir.
Manzilim — qishloqlar,
Shaharlar, sayyoralardir.
Milyonlab chaqirim bilan
O‘lchanadi umrim — hayotim.
Kim biladi,
Qayda so‘nggi bekatim?!

IKKI KUNDIR YURAGIMDA BIR SHE’R TO‘LG‘ANAR

Ikrom Otamurod tarjimasi

Havo ochiq bo‘lganda
Xushnuddir ko‘nglim,
Havo bulut bo‘lganda
Ko‘nglim zimiston.
Yuragim — shodlik yo‘li, qayg‘u yo‘lidir.
Ikki kundir yuragimda bir she’r to‘lg‘anar,
Tunda tushimdan ko‘mak so‘rayman,
Kunduz kunduzimdan bezaman:
Do‘stimdan,
Qo‘shnimdan,
O‘zimdan.
Yuragimda bir she’r to‘lg‘anar.
Xotinim-la aytishib,
Bolalarni jerkiyman,
Oyog‘imni qisgan tuflimni axtarib,
Topib kiyaman qasddan,
Taqillataman eng serjahl qo‘shnimning eshigini...
Yuragimda bir she’r to‘lg‘anar.
Go‘zallarni sevaman yo‘l o‘rtasigacha,
Xafa qilaman

Yo‘l o‘rtasigacha hushim suymaganlarni.
Shu fursatda qodirman yerni aylantirishga,
Chunki, yuragimda bir she’r to‘lg‘anar.

MENI YO‘QLAB TURING

Ikrom Otamurod tarjimasi

Kechadir — dunyoning eng og‘ir yo‘li,
Dunyoning eng buyuk sevinchi — sahar.
Azoblarning so‘nggi nuqtasi — o‘lim,
Qolgan jami dardlar bari tuzalar.

Eng keksa odam ham kechasi bola,
Yolg‘izlar o‘lim-la olishar har on.
Tun ham zulumotga g‘arq bo‘lar go‘yo,
Yolg‘izlar dunyoni tark etgan zamon.

Yolg‘izlar azaldan kamsuqum bo‘lgan,
Men ham yolg‘izlarning biri olamda.
Siz meni asrangiz faqat kechadan,
Sizni asray kunduz qorachig‘imda.

Meni yo‘qlab tunda qiling qo‘ng‘iroq,
Sevinchdan, alamdan mayli yosh olmay.
Hushyor qilib meni uyg‘oting shu choq,
Toki mangu uxlab g‘aflatda qolmay.

DALLI YURAGIM

Ikrom Otamurod tarjimasi

Dalli yuragim,
hayqirsang-chi,
bu kecha bedorligimni hamma bilsin,
yelga hayqir,
shaharda haykallar tirilsin,

asfalt ostida yotgan qora tuproq seskansin.
Dalli yuragim,
menga qara,
imillama, hayqir balandroq.
Sening dalliligingdan jo‘shaman, chog‘lanaman,
sening azoblaringdan yig‘layman go‘dak kabi.
Asrayman men seni to tongga qadar...
Oyog‘imning osti tosh,
boshim usti tosh,
to‘rt tomonim tosh...
Sen tosh emassan-ku, yo‘ldoshim!
Nima istaysan, axir?
Yer taqdirini olib qo‘lidan,
Unutdik ko‘kdagi Xudoni...
Sen bir chechak izlaysan,
hali hech hidlanmagan,
dudoqlar tegmagan hech,
dog‘ tushmagan yurak izlaysan.
Siynamga o‘t qalarsan,
gapga ko‘nmas chaqaloq kabi
qiynab bag‘rimni.
Mashinalar orasidan
sog‘ chiqmoqqa yo‘qdir ishonchim
nurlar bermasa ko‘mak.
Istagingni aytishga chidamayapti yuzim,
so‘zga chek qo‘ymasak agar,
Xudo haqqi, kularlar ustimizdan.
Dalli yuragim,
hayqirsang-chi,
bu kecha bedorligimni hamma bilsin,
yelga hayqir,
haykallar ham tirilsin...

MAMMAD ORAZ

(1933–2004)

Mammad Oraz (Mammad Infil o'g'li Ibrohimov) 1993-yil 14-oktabrda Shahbuz tumanining Nursu qishlog'ida tug'ilgan. Shu yerda o'rta maktabni bitirgach, Ozarbayjon Pedagogika institutida tahsil olgan. Mehnat faoliyatini 1954-yilda o'z qishlog'idagi muallimlikdan boshlagan. So'ng Bokuga ko'chib kelib, Ozarbayjon Ministrlar Soveti huzuridagi Bosh Matbuot idorasining xodimi bo'lib xizmat qilgan. 1959–1961-yillarda Moskvada Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi Oliy adabiyot kursida tinglovchi bo'lgan. Ozarbayjonga qaytgach, "Yulduz" jurnalining mas'ul kotibi, "Adabiyot va injasan'at" gazetasi xodimi, Ozarbayjon Davlat nashriyoti Bosh muharrir o'rinbosari vazifalarida ishlagan. 1974-yildan umrining oxiriga qadar"Ozarbayjon tabiati" jurnalining Bosh muharriri bo'ldi. Uzoq yillar Yozuvchilar uyushmasi she'riyat bo'limini boshqardi.

Ko'rsatgan xizmatlariga ko'ra Ozarbayjon Respublikasining" Istiqlol" ordeni (1995), bir medal va Ozarbayjon Oliy Soveti Rayosat Hay'atining faxriy yorlig'i bilan mukofotlangan. Hoji Zaynolobiddin Togiyev nomidagi milliy mukofot laureatidir (1992). Uning nomida "Mammad Oraz" mukofoti ta'sis etilgan (1993). 2004-yil 1-dekabrda Bokuda vafot etgan.

MENDAN O'TDI, QARDOSHIMGA TEGDI

Ey sen, do'ngan tuproq toshga,
Ulug' bobom,
Bugunimdan o'tmish sari yiroqlashgan
Ulug' bobom,
Shamollarga, tumanlarga singib ketgan

Ruhing bilan
Oyoqqa tur, o‘tinaman!
Yel yetmagan,
Qo‘l yetmagan
Qadim tarix darasindan
Sado ber deb nido qildim,
Senga kelgan, sendan o‘tgan
Ul qandayin balo edi?
Shul balodan necha daf’a
Ota-o‘g‘il, qondoshlikka putur yetdi,
Bitta shahring
Besh valiahd — besh xonlikka tarqab ketdi.
O‘shandanmi paydo bo‘ldi
Tilimizda
“Saning”, “manim” degan qadoq?
O‘shandanmi paydo bo‘ldi
Tilimizda
“Qayerliksan?” degan so‘roq?..
Javob bergil, ulug‘ bobom,
Bu matalni kim to‘qigan,
Kimlar yozgan?
Qay subutsiz otaki ul —
Otalarning imzosini
Chekib, unga muhr bosgan?!
Nomingizni dostonlardan yo‘qlayman men,
Ruhingizni qiyma-qiyma to‘g‘rayman men.
Qora Cho‘pon,
Dali Do‘mrul[1],
Ey Xon Avaz,
Xizr o‘g‘li Mustafobek[2],
Nahotki siz
Ul matalga yo‘l qo‘ydingiz!
Keyin esa qay biringiz
Xalqqa kelgan zo‘r balodan

[1] “Kitobi Dada Qo‘rqut” dostoni qahramonlari.
[2] “Go‘ro‘g‘li” dostoni qahramonlari.

O‘z boshini chetga oldi —
qoldi OMON.
U balo bir zambarakday
Saggorxonning[1]
xonumonin
qildi vayron.
Mendan o‘tdi!..
Mendan o‘tdi!..
Shu ham sevinch, g‘ururmikan?
Buni yozgan el — elmikan?
Mendan o‘tdi!..
Qulog‘imdan ketmas bu sas,
Zarbalarni qondoshiga,
Sirdoshiga o‘tkazgan kas
Go‘yo bugun, ushbu kecha
Yonginasha
Mag‘lub bo‘lgan Xatoiyga qah-qah urdi.
So‘ngra, so‘ngra
Tongga qadar ishrat qildi, qadah urdi.
Ul qadahning dolg‘asidan,
Ul mastlikning bosh gangitgan
Havosidan
Toshlar ko‘chdi —
Ozarbayjon tuprog‘ida
Oraz bo‘ylab darzlar ochdi.
Mendan o‘tdi...
Shundoq dedi Shaki xoni,
Shundoq dedi Boku xoni,
Shundoq dedi Ibrohimxon,
Fatalixon, Kalbalixon...
Balo o‘tsin mendan, dedi,
O‘tib bo‘lgach, “man-man” dedi.
“Man-man” dedi bir o‘lkada
qanchalab xon,
Ular “man-man” degan yerda

[1] Milliy ozodlik kurashi qahramoni.

Sen yo‘q eding, Ozarbayjon!
Seni sendan judo aylab,
G‘aflat aro unutdilar.
Tegirmonga donday joylab,
Seni senda un etdilar.
Sopqon bo‘lib, o‘zing tegding
o‘z boshingga,
O‘gay bo‘lding o‘z tug‘ishgan qondoshingga
Mendan o‘tdi deb aytganlar kasridir bu,
Vijdonini unutganlar kasridir bu!
Ey sen, do‘ngan tuproq-toshga,
ulug‘ bobom!
Botinidan o‘tmish sari yiroqlashgan
ulug‘ bobom!
Oyoqqa tur!
Men dafn etgan bu matalning
Bosh toshiga
Bir pushaymon yodgorligin etgil muhr:
Sendan o‘tgan menga tegdi,
Mendan o‘tgan senga tegdi.
Sendan, mendan o‘tgan zarba,
Vatan, Vatan senga tegdi...

VASIYAT

Qora jildda chop etingiz kitobimni
Mendan keyin.
Qora jildda.
Qop-qora.
Bir qora maktubim bo‘lsin
U kitob do‘stlarga, tanishlarga.
Men shu rangni sevardim; boshi egilgan dardim,
Parishon sevinchim
Shu rangda kiyinardi.
Men shu rangni sevardim.

Shu rangdaydi varaqlarda
Fikrimning bitik libosi...
Shu rangga hurmatimdir
Qorako‘zlar, qoramag‘izlar.
Shu rangli kipriklar ko‘lkasida
Aksim yashardi.
Shu rangda bir uyni to‘ldirgan
Vaslim yashardi.
Bu rangning eng tinig‘i,
Eng tozasi —
Menga taskin bergan yig‘ilar.
Qizlarimning ko‘zlarida
Shu rangning o‘zi yig‘lar.
Qora jildda chop etingiz kitobimni
Mendan keyin
Qop-qora.
Faqat ismi sharifimni
Sut rangida naqsh eting unda.
Tag‘in ne deyin,
Xullas, men
Qora tuproq ustida
Ufqlar sari uzangan
Oq yo‘lga o‘xshab turay.

OTA XALQIM, ONA XALQIM, YIG‘LAMA

Derazada shamol to‘nib yig‘lasa,
Ayvoniga qushlar qo‘nib yig‘lasa,
Yuragingda nola yonib yig‘lasa,
Ich-ichdan yon, faryodlar bas, yig‘lama,
Yig‘lamoqning o‘rni emas, yig‘lama.
Bu bir jangdir — ezilgan bor, ezgan bor,
O‘lim hukmin qo‘ltiqlabon kezgan bor,
“Bizlar” bormiz, na “man” borman, na “san” bor,

Yig‘lamagin, ona xalqim, yig‘lama!
Toptaldingmi yana, xalqim, yig‘lama.
Hayqir, ko‘ngil, bundan battar chog‘ qayda,
Yonayotgan inson, tuproq, tog‘ qayda.
Singlim, endi yig‘lash uchun vaqt qayda?
Qardosh, yurtdosh deb basma-bas yig‘lama!
Yig‘lamoqning o‘rni emas, yig‘lama.
Egilmakdir yig‘lamoqning ul yuzi,
Dardga to‘za bilmaganni dard o‘zi,
Yig‘laganni izlab topar dard o‘zi,
Shuni yozmish Tangri o‘zi, yig‘lama,
Jim bo‘l endi, ona qizim, yig‘lama.
Bu tuproqda so‘nggi qurbon men bo‘lsam,
O‘z o‘timda yonib kulga teng bo‘lsam,
Yurtim sari uchgan bir o‘qdan o‘lsam,
Ona xalqim, o‘g‘lim deb, bas, yig‘lama,
Yig‘lamoqning o‘rni emas, yig‘lama!

OQARMA, SOCHIM, OQARMA

Ne uchun senga oq tushdi,
Qachon tushdi, qandoq tushdi,
Yuragimga titroq tushdi,
Oqarma, sochim, oqarma!
Orzu so‘ngsiz, umr yarim,
Ortar manglay ajinlarim,
Bormi senda insof, sharm,
Oqarma, sochim, oqarma!
Meni g‘amgin ko‘rsa agar
Dushman kular, do‘st g‘am chekar.
“Hoy amaki” deydi qizlar,
Oqarma, sochim, oqarma!
Toshdir qal’ang, toshdir joning,
Yo‘qdir tuyg‘ung, yo‘qdir qoning.

Yoshman-ku, bormi vijdoning,
Oqarma, sochim, oqarma!
Umr kechar, yomon kechar,
Qalbimdan qora qon kechar,
Go‘zallar yonma-yon kechar,
Oqarma, sochim, oqarma!
Uzoqdadir shuhrat-u shon,
Ko‘zin tikkan menga zamon,
Yurak yoshdir hali-hamon,
Oqarma, sochim, oqarma.
Istiqbolda zafarim bor,
Yo‘ldadirman, safarim bor,
Yozilmagan asarim bor,
Oqarma, sochim, oqarma!

MASTON GUNER

(1935–2006)

Aliyev Maston Rasul o'g'li (Maston Guner) 1935-yilda Tovuz tumanining Asrik-Jirdaxan qishlog'ida tug'ilgan. 1957-yilda Ozarbayjon Pedagogika institutini tamomlagan. Respublika matbuotida ilk she'rlari 1955-yilda chop etilgan. Ozarbayjon teleradio qo'mitasida xodim, muharrir, bo'lim mudiri, Bosh muharrir bo'lgan. Keyin "Adabiyot va injasan'at" gazetasida bo'lim mudiri, "Ganjlik" nashriyotida Bosh muharrir o'rinbosari bo'lib ishlagan. Shoir, publitsist. Ozarbayjon yozuvchilar uyushmasi (1959) va Jurnalistlar jamiyati (1976) a'zosi. Ozarbayjon Davlat mukofoti laureati (1980).

ISSIQ KO'YLAK

Maktubingni oldim bugun, onajon,
Sevinchdan yuragim aylanar tog'ga.
Yozasan:" Ay o'g'lim, qor yog'gan zamon,
Yuragim titrog'i ko'char yaproqqa.
Behuda qish chog'i bo'lganman men ham,
Ayozda odamga topilmas tirgak.
Onang qurbon bo'lsin, bir yoz bordimi -
Manim jo'natganim — issiq jun ko'ylak?"
Kichkina maktubda buyuk qalbingni,
Iliq nafasingni his qildim, Onam.
Onajon, bu maktub haroratlidir,
Menga yuborganing issiq ko'ylakdan.

IBROHIM GO‘YCHOYLI

(1936–2007)

Xizmat ko‘rsatgan san’at xodimi. 1936-yil 12-noyabrda Go‘ychoy tumanining Alikent qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘rta maktabni 1953-yilda tamomlagach, Ozarbayjon Davlat universitetining filologiya fakultetiga kirgan va uni 1958-yilda tamomlagan. Ozarbayjon Davlat nashriyotida muharrir, “Madaniy tijorat” gazetasi Bosh muharriri, Ozarbayjon teleradio qo‘mitasida Bosh muharrir bo‘lgan. 2007-yil 24-fevralda vafot etgan.

SAHAR

Nozlanib — noz bilan kelar bu sahar,
Aridi og‘riqlar, chekinar qadar.
Bir go‘zal nigohga yuz ochar nahor,
Ko‘zimdan ko‘rinar ko‘zi saharning.
Umid ko‘zgusida boqar o‘ziga,
Nur sochar olamga, zamin yuziga,
Yap-yangi tuyg‘ular kelib ko‘ziga,
Sehrlanib qolar o‘zi saharning.
Muncha oydin havo, muncha oppoq kun,
Firoq iztirobi topdimi yakun?
Umid-orzularim kuldimi bugun
Sevgimga so‘z berdi sozi saharning.
Dala-bog‘ uyg‘onar, tog‘lar uyg‘onar,
Gullarning, yaproqning oftobi yonar,
Dunyo yangilanar, rangga bo‘yanar,
Elanar sochimga yozi saharning.
Dunyo umidlanar sevgidan bu kun,
Yer-ko‘k jilvalanar sezgidan bu kun,
Zavq oladi shoir sevgidan bu kun,
Muncha ham nozlidir nozi saharning.

UMR O‘TAR

Hayotim, hamdamim, do‘st bilganim kas,
Qonimni istasang, qonimni bergum.
Mening iltijomga ilk qaytargan sas,
Jonimni istasang, jonimni bergum.
Oyog‘in qo‘liga olgancha zamon,
Yo‘llarni qaychidek kesarda to‘kar.
Berganin qaytarib olar hayotdan,
Dunyoning har joyi unga tiz cho‘kar.
Yaxshini, yomonni egniga kiyar,
Qaramas astar yo avra yuziga.
Insonga shundayin so‘zini deyar,
Elangan elakni tutib yuziga.
Endi yosh ham o‘tdi. Qish keldi yetib,
Bilginki, tog‘lar ham qaridi biroz.
O‘tgan umiringizdan qanchasi ketib,
Endi yaqinlar ham kamaydi oz-oz.
Orzular yashadi ko‘zda, yurakda,
O‘zlari bilmasdan qoldimi kuchdan?!
Toledan istasak, istamasak-da,
O‘tdi hayotimiz, izimiz o‘chgan.
Qarayman, bolalar, yugurar, o‘ynar,
Ishonchi, ilhomi dunyo qadardir.
Uchar qushlar kabi, havasi qaynar
Sevinchdir quvonchi, sevinchdir dardi.
Umrlar suv kabi oqadi butkul,
Umr ham ularga qaytmaydi chog‘i.
Qanchalar o‘choqni qoplaydi chang, kul,
Qanchalar do‘stimning so‘nar o‘chog‘i.
Bilgilki, ertakday o‘tib ketar yil,
Omonat samo ham, yer-u bahor ham.
Netayin, umrim ham o‘tib ketar bil,
O‘tadi oqshomim, o‘tar sahar ham.

GO‘YO BULOQMAN...

Qarshimdan ilohiy bir go‘zal kelar
Atrofga boshqacha zavq-la boqaman.
Ko‘zimdan, yuzimdan sehr yog‘ilar,
Go‘yoki buloqman, suvman, oqaman.
Maftunman omadning mujdasiga man,
Hayot bag‘ishladi ko‘ngil hushimga.
Bir yo‘la qutuldim butunlay g‘amdan,
Endi azoblarim kirmas tushimga.
O‘tar asta-asta, o‘tar bir malak,
Ustimga osmondan go‘zallik yog‘ar.
Sevinchdan to‘xtab qolguday yurak.
Oyog‘im adashib yo‘lidan og‘ar.
Men unga boqmasam, qisqarar umr.
Boqmasam bu qalbim armonda qolar.
Unga oshiqligim yashira olmas,
Qayrilib orqadan qarar go‘zallar.
Dunyoning injusi yonimdan o‘tar,
Ko‘nglim osmon qadar yana bo‘y cho‘zar.
Bu olam quyoshning shavqini yutar,
Go‘yoki mo‘jiza qo‘ynida suzar.
Unutar dardini, qayg‘u-g‘amni vaqt,
Yomonlik, o‘limga u ziddir azal.
Go‘yoki bir sevgi she’ridir hayot.
Hayotda qo‘shiqdek har narsa go‘zal.
Chekinib, yo‘qolgay gunoh, xiyonat,
Ruhim yangilanar shu kun o‘zida.
Na g‘am bor, na g‘ussa, na kin-kudurat
Na zulm, na och bor bu yer yuzida.
Qarshimdan ilohiy bir go‘zal kelar,
Atrofga boshqacha zavq-la boqaman.
Ko‘zimdan, yuzimdan sehr yog‘ilar.
Go‘yoki buloqman, suvman, oqaman.

QACHAY KO‘CHARLI

Shirinov Qachay Farmon o‘g‘li (Qachay Ko‘charli) 1936-yilda Tartar tumanining Ko‘charli qishlog‘ida tug‘ilgan. O‘rta maktabni tugatib, armiya safida xizmat qilgan, keyin neft konida operator, chilangar bo‘lib ishlagan. 1966-yilda Politexnika institutini, 1976-yilda universitetning filologiya fakultetini sirtdan bitirgan. Texnika maktabida mexanik, mudir muovini, Ozarbayjon teleradiosida muharrir, Bosh muharrir o‘rinbosari bo‘lib ishlagan. Ilk she’ri 1960-yilda “Boku” gazetasida chop etilgan. O‘ndan ortiq kitoblar muallifi. Yozuvchilar uyushmasining a’zosi.

SAROYLARDA PARISI BOR

Nechun, bilmam, bu dunyoning
To‘g‘ridan ko‘p egrisi bor.
Har zamon son-sanoqda yo‘q
Ochko‘z tulki, bo‘risi bor.
Yerdan chiqar har injusi,
Yerga kirar zar, injusi,
Ko‘chalalarda tilanchisi,
Saroylarda parisi bor.
Boylarga baxt, oltin berar,
Yo‘qsillari toshin terar,
Sevinchlari qisqa bo‘lar,
Dard, qayg‘uning barisi bor.
Dunyo yaralgandan beri
Maydonda nayrang hunari,
Tog‘ni yutgan ucharlari,
Och yurgan yosh-qarisi bor.

Ko‘rmoq uchun ko‘z yaralmish,
So‘rmoq uchun so‘z yaralmish,
Aqllilar oz yaralmish,
Aqlsizning surusi bor.

QARILIK MULKI

Kirib keldim qarilikning mulkiga,
Ulug‘ tangrim, nelar bormish bu yerda,
O‘tli quyosh o‘t purkaydi har tongda,
Osmonidan yog‘gan qormish bu yerda.
Ko‘nglim siqar har bir kunduz, har kecha,
Jon og‘ritar har bir yo‘l-u har ko‘cha,
Yurakka g‘am ildiz otar gizlicha,
Keng dunyosi yomon tormish bu yerda.
Kecha-kunduz yolg‘izlikka yemdirman,
Nolam bor-u o‘zim yo‘qman, oldim tan;
Yo‘qdir biror ingrog‘imni eshitgan,
Menga o‘xshab barcha karmish bu yerda.
Holsizman-u biroq holim so‘rgan yo‘q,
Qaytib chiqmas ko‘ksimga har kirgan o‘q,
Hamma qarar, faqat meni ko‘rgan yo‘q,
Menga o‘xshab hamma ko‘rmish bu yerda.
Meni bo‘g‘ar uyimdagi devorlar,
Har devorda bir vahima, qo‘rquv bor.
Bir tobutdir g‘ira-shira bu g‘ubor,
Shu o‘z uyim menga go‘rmish bu yerda.

G‘ARIBLIK

Ufqlarga bu oqshom
Yana cho‘kar g‘ariblik,
Yomg‘ir bo‘lib yog‘ilar,
Ko‘z yosh to‘kar g‘ariblik.

Ilohiy bu dunyoda
Bu oqshom, ko‘r, nelar bor;
G‘ariblarcha sayraydi
G‘arib daraxtda qushlar.
Soy oqar g‘arib-g‘arib,
Bu g‘arib tun ham o‘tgay.
Qaydan keldi g‘ariblik
Men tug‘ilgan bu yurtga?
Ko‘kda ko‘k yuzi g‘arib,
Yerda Yer yuzi g‘arib.
Bu dunyoning o‘zida
Dunyoning o‘zi g‘arib.
Oy ham ko‘zimda g‘arib,
Ruhim, so‘zim-da g‘arib,
Nechun axir bu oqshom
O‘zim o‘zimda g‘arib?..
Oh, yuragim siqilar
G‘ariblikning ichinda.
Bu oqshom hech bo‘lmishman
Men hechlikning ichinda.
Oqshom qani? Aytinglar,
Qayga ketmish bu zamon?
Bo‘lmish endi g‘ariblik
Bo‘sh dunyoga hukmron.
Ufqlarga g‘ariblik
Cho‘kib borar bu oqshom,
Bu g‘ariblik ichinda
O‘zimni yo‘qotmisham...

MUSO YOQUB

Muso Yoqub 1937-yilning 10-mayida Ismoyilli tumanining Buynuz qishlog'ida tug'ilgan. Ko'kchoy pedogogika bilim yurtini tugatgach, Tirjon qishloq maktabida o'qituvchi (1957–1958), Buynuz qishloq boshlang'ich maktabida ilmiy mudir (1958–1967) bo'lib ishladi. Ozarbayjon Davlat universitetining filologiya fakultetini sirtdan o'qib tugatgan (1967–1973). Bokuga ko'chib kelgach, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi badiiy adabiyot targ'iboti byurosida direktor o'rinbosari, "Ozarbayjon" jurnalida she'riyat bo'limining boshlig'i bo'lib ishladi (1974–1978). Ijodiy faoliyatini 1957-yilda "Ozarbayjon" gazetasida e'lon etilgan "Ikki qalb, ikki dunyo" poemasi bilan boshlagan. U M.F. Oxunov nomli mukofot laureatidir.

UL UMIDLARGAKI MEN ISHONARDIM

Usmon Qo'chqor tarjimasi

Ul umidlargaki, e'tiqodlargaki,
Ul odamlargaki, men ishonardim,
Ul muhabbatgaki, men ishonardim —
Ularning ortidan quvmoq foydasiz.
Baski, sen nimaning ortidan tushding,
Baski, sen kimlarning ortidan tushding.
Men saboq olganim daftar-kitobga,
O'lchab-kesishlarga, haq-ku hisobga,
Har o'r-u qirimga, tog'-u toshimga,
Har bitta yurtdoshim, do'st-yo'ldoshimga
Ishonar edim men, va lekin ular
Menga ters turdilar, yo'l qo'ymadilar,
Xayrli ishimga qo'l qo'ymadilar.

Ul umid ortidan, ishonch ortidan
Ketgali menda bir hol qo‘ymadilar.
Men kimning ortidan ketayin endi?
Balki arilardir, chumolilardir
Men uchun qadrdon, men uchun aziz,
Balki o‘shalarning ortidan tushay.
Ul umidlargaki, e’tiqodlargaki,
Ul odamlargaki, men ishonardim;
Menga ters turdilar, yo‘l qo‘ymadilar.
Xayrli ishimga qo‘l qo‘ymadilar.
Ul umid ortidan, ishonch ortidan
Ketgali menda bir hol qo‘ymadilar.
Ul muhabbatgaki, men ishonardim,
Uning ham ortidan quvmoq foydasiz.
Baski, men nimaning ortidan tushay,
Baski, men kimlarning ortidan tushay.

* * *

Usmon Qo‘chqor tarjimasi

Bu dunyoda sevinch ham bor,
Dard ham bor,
Ular har soriga chekar
Ko‘nglimni.
Yaxshiki, nomard yonida
Mard ham bor,
Biri yirtsa, biri tikar
Ko‘nglimni.

* * *

Usmon Qo‘chqor tarjimasi

Balki uzolmasman qarzimni, Vatan,
Mayli, umrim bu yo‘l azobin tortsin.
O‘lsam, ayrilmasin bag‘ringdan bu tan,
Hokimdan tuprog‘ing bir hovuch ortsin

SEN BOSHIMGA SOLGAN AZOB SINGARI...

Karim Bahriyev tarjimasi

Eshigingda savol kabi egildim,
Sindim olajagim javob singari.
Allohim hech senga azob bermasin
Sen boshimga solgan azob singari.
Uzdim har umiddan qo‘limni sensiz,
Dunyoning ketimi, kelimi sensiz,
Axir, istamayman dilimni sensiz,
Boqar begonalar xarob singari.
Tushmasmi nazari do‘stning bog‘ingga,
Ishqim chechaklari tushdi qirg‘inga,
Tavqi la’nat bo‘ldim xalqning tilinda,
Tasalli topganim sharob singari.
Bilginki, yuraklar toshdir, temirdir,
Bir yuzi oq bo‘lsa, biri ko‘mirdir,
Allohim, bu nechuk yolg‘iz umrdir,
So‘rma bu umrimni hisob singari.
O‘z ishqim yo‘lida sodiq jonman men,
Hayf bo‘ldim, ko‘p yomon,
ko‘p yomonman men,
Ehtimol birinchi musulmonman men,
Jahannamda yongan savob singari ...
Allohim hech senga azob bermasin
Sen boshimga solgan azob singari.

RAMZ MAMMADZODA

Mammadov Ramiz Yoqub o'g'li (Ramiz Mammadzoda) 1937-yilda Ag'dam shahrida tug'ilgan. 1958-yilda Boku temiryo'l maktabini tamomlab, Ozarbayjon Pedagogika institutida tahsilini davom ettirgan. Apsheron tumanida maktab o'qituvchisi, yoshlar va jamoat tashkilotlarida, Siyosiy maorif uyida turli vazifalarda ishlagan. 1993-yildan Ozarbayjon Vazirlar Mahkamasida referent bo'lib ishlamoqda. Ilk she'ri 1960-yilda "Boku" gazetasida bosilgan. Bir necha kitoblar muallifi. Yozuvchilar uyushmasining a'zosi.

KASHF

Olimlar samoga boqar beorom,
Noyob sayyoralar vasliga
mushtoq.
Olis galaktika yulduzlari ham
Sirlarin ochmoqda, bo'lib
yaqinroq.
Men esa kashf etdim bir seni
tanho,
Axir shu emasmi eng buyuk
zafar?!
Barcha yulduzlardan yaqin,
serziyo—
Eng noyob sayyora o'zingsan,
dilbar.

MENDA BIR YULDUZ DARDI

Sen o‘rmon istagaysan,
Menga bitta chinor bas.
Sen dengiz istagaysan,
Bir buloq menga havas.
Sen kahkashon ishqida,
Menda bir yulduz dardi.
Kezaman, axtaraman,
Kiprikda yo‘llar gardi...

VOQIF SAMAD O‘G‘LI

Ozarbayjon xalq shoiri Voqif Samad o‘g‘li 1939-yilda Boku shahrida tug‘ilgan. Taniqli Ozarbayjon shoiri Samad Vurg‘unning o‘g‘li. Moskva konservatoriyasida tahsil olgan. 1961–1971-yillarda Ozarbayjon davlat konservatoriyasida fortepiano fanidan dars bergan, so‘ng Ozarbayjon Ensiklopediyasida bo‘lim mudiri, “Ozarbayjonfilm” kinostudiyasida mudir, 1992-yildan “O‘g‘iz eli” Bosh muharriri. U taniqli shoir, dramaturg, publitsist. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a’zosi (1970).

* * *

Rauf Parfi tarjimasi

Mozorimga
Na qabr toshi qo‘ying,
Na haykal.
Bir juft poyabzal qo‘ying.
Oyoqyalang kiyib ketsin.

* * *

Usmon Qo‘chqor tarjimasi

Qushlar soat-la emas,
Soat-la emas, nur-la boshlashar sayrashni.
Yozda tez, qishda kech.
Shoirlar soat-la emas,
Dard-la boshlashar sayrashni
Yozda ham, qishda ham.
Yurak soat-la ham,
Nur-la ham, dard-la ham sayrar.
Sayrar nurda ham
Qorong‘ulikda ham.

Yozda, qishda.
Yozda qish bo‘lganda ham,
Qishda yoz bo‘lganda ham.

* * *

Rauf Parfi tarjimasi

Men o‘lgan kun
Bir shamol esajak
Ko‘chalarda,
Va hilpirar
Inda osilib qurigan
Bir sariq chechakli go‘dak ko‘ylagi,
Motam bayrog‘idek hilpirar
Go‘dak ko‘ylagi
Men o‘lgan kun.

* * *

Rauf Parfi tarjimasi

Bir go‘zal ayolning
yonidan o‘tdim.
To‘xtamadim.
Bir go‘zal nag‘ma aytardim,
To‘xtamadim,
Bir go‘zal dunyoning
Ichidan ketardim.
To‘xtamadim...

* * *

Xosiyat Rustamova tarjimasi

Hamma derazalar yumilgan ko‘zdir,
Bu uylar,
Ko‘chalar barisi so‘zdir...
Ko‘ksi qon bulutdan yog‘gan yog‘ishlar,
Begunoh umrini senga bag‘ishlar.
Balki bizdan nari bo‘lar shu bugun,
Xayolda suyishlar, tug‘ma qarg‘ishlar.

Va qushlar
Qoladi qafasda uyg‘oq,
Ilohim, sog‘ bo‘l!
O, yana charchadim, o, yana titroq...

* * *

Xosiyat Rustamova tarjimasi

Bu yo‘lning so‘nggi,
Yo o‘limdir, yo ozodlik.
Balki ilk ozodlik,
Ilk o‘limdir ehtimol,
Bu yo‘lning so‘nggi.
Ozodlikda o‘lim yo‘lidir,
So‘ngsiz bir yo‘l.
O‘limsiz ozodlikdir.

BIZ EMAS, ALLOH ISHONAR BIZGA...

Karim Bahriyev tarjimasi

Bizmas,
Alloh ishonar bizga...
Ishonmas qo‘limiz qonga botganda,
Inson insonga tosh otganda.
Bir on ko‘k yuzi
Go‘dak tabassumi kabi ko‘ringanda ko‘zga,
Inson “Dunyo go‘zaldir” deganda
Yuzini tutib dengizga,
Biz emas,
Alloh ishonar bizga.

SO‘NG KECHADIR BU TUN HAM YANA...

Karim Bahriyev tarjimasi

So‘ng kechadir bu tun yana,
Bu tong yana oxirgi sahar.
So‘nggi shamol to‘lar yelkanga,
Qayiq kezar darbadar...

Oxirgi yog‘ochdir bu,
Esar so‘nggi yelvizak.
Bog‘laydi oxirgi yo‘ling
Yana so‘nginchi falak...
Endi oxirgi ko‘chadan
Qo‘yilar so‘nggi qadamlar.
Yana aylanur sharpaga
Sarsari so‘nggi odamlar...
Tug‘ilar oxirgi inson,
Oxirgi inson-da o‘lar.
Shunda so‘nggi bora yig‘lagan
So‘nggi bora kulganday bo‘lar...

1963

QO‘LIMNI UZATDIM...

Karim Bahriyev tarjimasi

Qo‘limni uzatdim
Sevinch axtarib,
Ko‘rdim —
Yo‘q,
O‘rtada kadar yotardi.
Otamni chaqirdim —
Yordamga kelsin,
Ko‘rdim —
Yo‘q,
O‘rtada qabr yotardi.
Yuz tutib ketardim
Alloh tarafga,
Ko‘rdim —
Voh,
O‘rtada umr yotardi...

1980

MENGA BIROZ YOMG‘IR...

Karim Bahriyev tarjimasi

Menga biroz yomg‘ir,
biroz konyak,
biroz-da ko‘z yoshi lozimdir,
birda yana bu xona,
bu chiroq, bu qog‘oz-qalam
bugun lozimdir yomon.
Va birda
eshigining kaliti
o‘z qo‘limda bo‘lgan
bir mozor lozimdir menga,
kerakmas
bu eshikning oldida,
bu xonada o‘tirib
she’r yozmoqdan o‘zga rohat...

1982

ILOHI, QAYSI TILDA YOLVORAY SENGA?..

Karim Bahriyev tarjimasi

Ilohi,
Qaysi tilda yolvoray senga?
Bir duo yetar
Yo‘qsa senga-da
Og‘iz ochmoq kerakdir dona-dona?
Senga emas, dunyoga emas,
O‘zimga kularman,
Chunki yaratganing necha ming tildan
Faqat ikkisini bilarman.
Bularning biridan
Yer ham, ko‘k ham xabarsiz...
Ikkinchisida
Yolvoraman senga endi:
Gospodi, pomogi, gospodi...

1982

FIRUZA MAMMADLI

Firuza Mammadli (Mammadova Firuza Nuriddin qizi)1940-yilda Xochmaz tumanining Janaxir qishlog'ida tug'ilgan. Shu yerda o'rta maktabni tugatgach, Quba shahar tibbiyot maktabida tahsil olgan (1963). Ozarbayjon Pedagogika institutining til va adabiyot fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgan (1964–1968). So'ngra Naxichevan avtonom respublikasining pedagogika bilim yurtida ishladi. 1990-yildan beri hozirgi zamon Ozarbayjon tili kafedrasining dotsenti hamda Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasida Hamkorlar Qo'mitasining raisidir (1995). "Yusuf Vazir Chamanzaminlining tarixiy romanlarida til va uslub xususiyatlari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Adabiy faoliyatini 1963-yilda Xachmaz tumanining "Do'stlik"gazetasida chiqqan kichik bir she'ri bilan boshlagan. 60 dan ortiq ilmiy, tanqidiy va publitsistik maqolalari ham e'lon qilingan. "Kumush tomchi" (1972), "Yo'limga bahor tushdi" (1978),"Sening umring" (1982), "Yetuklik" (1989), "Bir qarish bolalik" (1995), "Badiiy tilning estetik manbalari" (1997), "Meni menda bo'lgan dunyo" (1999), "Saylangan asarlar" I jild (2002),"Saylangan asarlar" II jild (2002) nomli kitoblari nashr etilgan. Shuningdek, Gorkiydan, Afrika naqllaridan va G. Kubliskiydan tarjimalar qilgan.

HAR KECHA COAT UCHDA

Har kecha soat uchda
Uyqum chekinar go'yo.
Kechaning ko'zlariga
Tushadi shaklim go'yo.

Ochilar fikrlarning
Eshigi taraq-taraq,
Ko‘chib borib Orazga
Kezinaman tog‘ma-tog‘.
Shuncha cho‘qqimda turib
Lochinni shan ko‘raman.
Ruhimni Kalbajardan
Sakrab yurgan ko‘raman.
Ko‘raman: Ko‘ycha — manim,
Burchali, Darband — manim,
Yogiydan xalos bo‘lgan
Ne-ne qishloq, kent — manim.
O‘z ilk holiga qaytgan
Butun Ozarbayjonim.
Ajdodimning maskani
Buyuk Ozarbayjonim.
Bu xayollar ichida
She’rlar yoza olaman,
Haqiqatga xayoldan
Xandaq qaza olaman.
Bu xandakda men hujum
Damin kutib yashayman,
Oliy Bosh Qo‘mondonning
Amrin kutib yashayman.

BESH METR

Kuraging tog‘ga suyandi,
Tiling uzandi besh metr.
Keragining yarmini yutdim,
Qo‘ling uzaydi besh metr.
Siqdim kundalik imkonimni,
Yo‘lim uzandi besh metr.
So‘zimni havoda qoldirdim,
Qo‘lim uzaydi besh metr.

Qoldim tomning pastrog‘ida,
Zilim[1] uzandi besh metr.
Umidimga qabr qazdim,
O‘lim uzandi besh metr.

[1] **Zilim** — eshik qo‘ng‘irog‘i.

OFELIYA BOBOYEVA

1948-yil 28-sentabrda Ozarbayjonning Obsheron viloyatida tug'ilgan. Ozarbayjon Davlat Universitetining filologiya fakultetini tamomlagan. Mehnat faoliyatini muallimlikdan boshlagan. 1987–1997-yillarda Sumqayit shahar xalq tahsili bo'limining mudiri, 1997-yildan buyon esa 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining direktori bo'lib ishlaydi. Ilg'or maorif xodimi, Xalq maorifi a'lochisi, Mehnatkash ustoz faxriysi hamda "Shuhrat" ordeni laureati.

SAFARGA CHIQAMAN

Parishon nigohlar tikilar qayga,
Umidim bog'lanar kelar bahorga,
Hech qachon tugamas olis yo'llarga
Safarga chiqaman.

Bu orzu aylanar go'zal chog'larga,
Ruhim ham sig'maydi tor yotoqlarga,
Qo'l yetmas, un yetmas yuksak tog'larga
Safarga chiqaman.

Sovuq yulduzlardek sovuq boqishlar,
Hasrat yuragimga muzni naqshlar,
Menga umid to'la dunyo bag'ishlar,
Safarga chiqaman.

Qora qoyalarda oq gullar ochar,
Bu yoz qarshisida nochorman, nochor,

Yo‘llar ko‘rpa kabi ustimga qochar,
Safarga chiqaman.

Ba’zan do‘st bo‘lsam ham begonalarga,
Aldanib yurmayman bahonalarga,
O‘xshayman o‘xshovsiz devonalarga,
Safarga chiqaman.

Abadiy hamdamdir, umrimga to‘zim,
Boqib uzoqlarga yo‘l kutar ko‘zim,
Go‘yoki tugadi suhbatim, so‘zim,
Safarga chiqaman.

DUNYO, ASRA...

Ne titratar qarang yana dengizni,
Bu samoning qani oy, yulduzlari.
Zulmat tunlar qo‘rqitadi bir qizni,
Dunyo, asra tanholar, yolg‘izlarni.

Bu zulmatdan hazar, hazar, ming hazar,
Goho-goho bu dunyoni g‘am kezar,
Bu zulmatdan yurak bezar, ko‘z bezar,
Dunyo, asra ko‘zlarni, pok dillarni.

Qorong‘ulik yuraklarga to‘lmasin.
Nigohlarga yaqin hamdam bo‘lmasin,
Bu chamanning chechaklari so‘lmasin,
Dunyo, asra chechaklarni, gullarni.

Isyon qilar sho‘x dengizlar, kemalar,
Oy nurini yer yuziga sepalar,
Yemirilsa hamki tog‘lar, tepalar,
Dunyo, asra sabolarni, yellarni.

KUZATISH

Moviy dengiz, yolg‘iz mayoq, tosh qoya,
Shirin buloq, yashil daraxt bizmiz, biz.
Goh Quyoshga, goh yulduzga, goh Oyga,
Termulgancha, borayapmiz izma-iz.

Goh tomchiday ummonlarga to‘kildik,
Goh xazonli bog‘miz, goho gul chaman.
Goh zulmatda musofirday yiqildik,
Hali tonglar bizga bo‘lar chin Vatan.

Qilichi-la kesdi jim yog‘iyimiz,
Tilimizda sado bermas sas-so‘roq.
Egilmadik, dedik dunyo tog‘imiz,
Nega endi goh birgamiz, goh tarqoq…

ISO ISMOYILZODA

(1944–1997)

Shoir, tarjimon, publitsist Iso Ismoyilzoda Mustafo o'g'li 1941-yilda Gruziyaning Qorayazi (hozirgi Qardabani)tumanida tug'ilgan. O'rta maktabni tamomlagach, 1958-yilda Ozarbayjon Davlat universitetining filologiya fakultetiga kirib, uni 1963-yilda tamomlagan.

O'rta maktabda muallim, Davlat Televideniye va radio qo'mitasida muharrir, Ozarbayjon ensiklopediyasi nashriyotida ilmiy muharrir, "Adabiyot va injasan'at" gazetasida adabiy xodim, bo'lim mudiri, bosh muharrir o'rinbosari, "Ozarbayjon" jurnalida bosh muharrir o'rinbosari bo'lib ishlagan. Talabalik yillari adabiy faoliyati boshlangan, ilk she'rlari 1961-yilda "Aprel chechaklari" almanaxi va "Ozarbayjon ganchlari" gazetasida bosilgan. Bir qancha to'plamlar va dostonlar muallifi. She'rlari va dostonlari xorijiy tillarga tarjima qilingan.

"NOZIM HIKMAT" KEMASI

Kunlarning bir kunida
Nozim kemaga do'ndi.
Dunyo dengizlarida
"Nozim Hikmat" ko'rindi.
Tushdi ulkan ko'prikdek
Shaharlar orasiga,
Ko'rfazlar orasiga,
Oqshomlar orasiga.
Hasratdan chinqirib ul
To'lqinlarni yora-yora
Bir qo'lini bu sohilga,

Bir qo‘lini u sohilga
uzatdi.
Quchoqlashdi sohillar,
Quchoqlashdi ko‘rfazlar.
Dengizlarga langar soldi,
Yuraklarga langar soldi...

* * *

Dengiz ko‘zli shoir Nozim
Sevinchidan, shodligidan
Hushtak chalib uzun-uzun,
Qichqirardi uzun-uzun.
Horg‘in-tog‘in yuragini,
Yuragida pusib yotgan
Mash’um, qora o‘limini
Jangga chaqira-chaqira
U ketardi o‘limga...
...Ummonlarga xabar yetdi:
Suzar dunyo suvlarida
“Nozim Hikmat” kemasi.
Dengizlarga xabar yetdi,
Ko‘rfazlarga xabar yetdi:
Suzar dunyo suvlarida
“Nozim Hikmat” kemasi.
“Sochlarining oqlarida,
Yuragining ohlarida”
Asrab kelgan mamlakatda
Jirtak chaldi qay bir nokas.
Suzib o‘tdi Marmaradan,
Suzdi Qora dengizlarda.
Ko‘rfazlarga langar soldi,
Shuhratidan, otidan
Dir-dir titroqqa tushgan
Shubhalarga, gumonlarga

Langar soldi.
O‘zi hasrat cheka-cheka
Bir kemaga aylandi,
Nomi keldi bu yerga.
Bir xo‘rsindi Qora dengiz,
Bir xo‘rsindi Marmara...
Yo‘llar,
Yillar buncha uzun...
Ko‘zing oydin, Istanbul,
Ko‘zing oydin, Trabzon!
Ko‘rfazlaring g‘arq bo‘lsin
Ol yosh ila, Turkiya!
Nega hayron-lol turibsan,
Gul-chechak-la, tabassum-la
Chiq, qarshila, Turkiya!
Kelur, kema o‘g‘ling kelur,
Ajib visol payti kelur.
Ko‘zing oydin, og‘ushingga
Sening o‘g‘ling qaytib kelur.

ZOHID XALIL

Zohid Xalil (Xalilov Zohid Abdulla o'g'li) 1942-yilda Yevlax shahrida tug'ilgan. 1959–1965-yillarda Ozarbayjon Davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olgan. Yevlax shahar madaniyat uyida mudir, "Yealaba" tumanlararo gazetasida adabiy xodim, "Tashabbus" tuman gazetasida mas'ul kotib, universitetning "Yosh muallim" gazetasi muharriri, 1970-yilda Adabiyot tarixi kafedrasida katta o'qituvchi bo'lib ishlagan. Filologiya fanlari doktori, professor. Adabiy faoliyati 1958-yilda "Yangi Yevlax" gazetasida bosilgan "Mening Vatanim" she'ri bilan boshlangan. Keyin "Uchayotgan chiroqlar" (1968), "Chumolilar"(1971), "Men ranglarni taniyman" (1972), "Ko'kdan uch olma tushdi" (1974), "Qushlar"(1977), "To'rg'aylar kuylaydi" (1979), "Ballija" ("Bol tashuvchi mitticha"), (1981), "Chiroq Nananing naqllari" (1983),"Jirtlon ila Azmonning yangi mojarolari" (1985), "O'tlar yurtining poytaxti" (1992), "Dunyoning eng bolacha naqllari" (2002) singari kitoblari nashr etilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi. 2002-yili "Qizil qalam" mukofoti sovrindori unvoniga sazovar bo'ldi.

QOLAJAK BU SO'QMOQLAR

Zarrin nurga burkanib,
Dilni tortar yiroqlar.
Tog' bag'rida ko'rinar
Qancha-qancha so'qmoqlar.
Qushqo'nmas qoyalarning
Yo'lda go'yo ko'zlari:
Yodgor bo'lib qoladi

Bunda oyoq izlari...
Tumanlarni parchalab,
Tog‘ boshida qor kechib,
So‘qmoqlardan o‘tishgan
Sho‘x bolalar suv ichib.
Bu jar uzra echkilar
Gurs-gurs urar boshga bosh,
Tegsa jayron oyog‘i
Tosh ketidan tushar tosh.
Suv ichgan deb o‘ylamang
Bunda marol yo jayron,
Tilga kirar lol buloq:
— Bundan o‘tdi qiz, o‘g‘lon..
Chor atrofga sas, sado
Solajak bu so‘qmoqlar.
O‘tajak oylar, yillar,
Qolajak bu so‘qmoqlar.

TO‘LQINLARNING NAG‘MASI

Oq dolg‘alar hujum qilar
Oq ayiqlarday,
Bir yuksalar, birda inar
Misli chag‘alay.
Dengiz bu kun g‘azablidir,
Ko‘pirar, toshar.
Mayli, toshsin, dengizlarga
Jo‘shmoq yarashar.
Hujum qilgan dolg‘alarning
Gapi bormikin?
Sohillar-la gaplashishdan
Umidvormikin?
Quyosh oltin baliq kabi
Ko‘k suvda suzar.

Dengiz go‘zal, osmon go‘zal,
Sohillar go‘zal.
O‘zaniga sig‘may sira
Dolg‘alar toshar,
Mayli, toshsin.
Dengizlarga
Jo‘shmoq yarashar.
O‘zing kabi fikring chuqur,
Qalbing javohir.
Ko‘k dolg‘alar, ko‘k to‘lqinlar
Asarlaringdir.
Ilhoming ham ulkan buloq,
Ko‘pirar, toshar,
Jo‘sh, e dengiz, dengizlarga
Jo‘shmoq yarashar.

QO‘ZILARNI HURKITMANG

Yangi tushgan kelinchak — bahor
Ro‘molini yechib yubordi.
To‘lib ketdi ranglarga o‘tzor,
Qovog‘ari gullarga bordi.
Shudring o‘ynar o‘tlar bargida
Qo‘zi chaynar beda poyasin.
Qora-qora tumshuqlarida
O‘ynar ikki shudring donasi.
Uydan chiqing, yuguring, ko‘ring:
Qanday go‘zal bahorda tuproq!
Qovog‘ari zavqini bo‘ling,
Qo‘zilarni hurkitmang biroq.

HIDOYAT

O‘rujov Hidoyat Xudush o‘g‘li 1944-yilda Armanistonda tug‘ilgan. Shoir, dramaturg, publitsist, yirik jamoat arbobi. Ozarbayjon Davlat universitetining filologiya fakultetini tugatgan. Turli adabiy-badiiy tashkilotlarda, davlat idoralarining mas’ul lavozimlarida ishlagan. O‘nga yaqin kitoblari chop etilgan.

Hidoyatning dramalari muvaffaqiyat bilan sahnalashtirilgan. She’rlari jahonning ko‘plab tillariga tarjima qilingan.

BA’ZAN KUZ BO‘LURSAN...

Ba’zan kuz bo‘lursan, ba’zida bahor,
Qishingda sochimga elanadi qor...
Goh sig‘mas ko‘ksimga tuyg‘ular zinhor —
Nega meni sokin qo‘ymaysan, yurak?
Shirin xayollardan to‘ymaysan, yurak.
Sevasan insonni, tabiatni sen,
Qaydan topding bundoq muhabbatni sen?
Izlab tinmagaysan saodatni sen...
Men-da ingrog‘ingni tuyaman, yurak,
Sen bilan yonaman-kuyaman, yurak.
Asr asablari yelkangda yukdir,
Dard-g‘aming dunyodan yuz bor buyukdir.
Senga aytolmaslar: ishqing so‘niqdir;
Ko‘kda ming yulduzga hayronsan, yurak,
Yerda-chi, bir qizga qurbonsan, yurak.
Sirdirsan, bilgisiz koinoting bor,
G‘amgin fursating bor, xush soating bor...

Sening-da, sening-da o‘z hayoting bor,
Menga sur’at bergan to‘fonsan, yurak!
Sen — samo, sen — daryo,
Jahonsan, yurak...

* * *

Esadi sarsari kuzak yellari
Burgutli tog‘larga chang tushgan zamon.
Yuragim lovullar, yuragim yonar
Xayol osmonimga sen tushgan zamon.
Axir, ne qoladi mening izimdan?
Bilakdan kuch ketsa, quvvat tizimdan,
Qaytmasman ilk ishqim — yoniq so‘zimdan,
Qora sochga oppoq rang tushgan zamon.
Ilhom — goh holsiz soy, goh jo‘shqin kulak,
Har misra yurakdan chiqmog‘i kerak,
Qani ne tuyarkin sendagi yurak,
Uning eshigiga man tushgan zamon!

TUG‘MALIK

Aziz Xudushga — otamning ismi qo‘yilgan jiyanimga

Bir kent bag‘rida dunyoga keldim.
Bu elda azaliydir har tosh, har bir tog‘.
Ko‘p sirni keyinroq angladim, bildim,
Bunda go‘zalikka yetmagay sanoq.
Quyosh ham o‘zgacha chiqar bu yerda,
G‘urubi g‘aroyib ertakka mengzar.
Bunda poy-piyoda, bunda egarda
Chaqmoq shijoatli yigitlar kezar.
Eng toza muhabbat, ulfat, sadoqat

Bundagi insonlar orasidadir.
E'tibor, jasorat, mardlik, diyonat
Bu qora ko'zlarning qorasidadir.
Kulak — shamol.
Bunda taronadir tog' ham, chaman ham...
Gohida toliqib, ishdan bezgan kun,
Ketaman u yerga topgali ikrom,
Ketaman u yerga poklanmoq uchun.
Guldasta tizmoqqa, nargiz termoqqa.
Har kasdan minnatsiz hurmat ko'rmoqqa,
Nuroniy chollar-la ko'rishmoq uchun,
Qaynar chashmalar-la o'pishmoq uchun.
Yo'llarni sayr etib, dovon oshmoqqa,
Shirin tuyg'ular-la quchoqlashmoqqa,
Hikmat dunyosiga bo'ylanmoq uchun,
Ma'badlar oldida tayanmoq uchun,
Ming teran savolni so'rgali tag'in,
Yo'llarni arqonday o'rgali tag'in...
Borgum u yerga.
Bilsayding, unda men naqadar aziz,
O'zim pok, so'zim pok, ruhim pok, tamiz.
Ilhom-la, hikmat-la, so'z-la to'laman,
Yangidan cho'qqilar o'g'li bo'laman!..
...Shaharga qayturman, bilmayman, nega, —
Dunyodan, hayotdan qilgali gina?!
...Bir kent bag'rida dunyoga keldim,
Bu elda azaliydir har tosh, har bir tog'.
Ko'p sirni keyinroq angladim, bildim,
Bunda go'zallikka yetmagay sanoq!...

VOQIF IBROHIM

Voqif Ibrohim (Ibrohimov Voqif Aliyor o'g'li) 1945-yilda Shaki shahrida tug'ilgan. M. Azizbekov nomidagi Ozarbayjon neft va kimyo institutini bitirgan. Mehnat faoliyatini jurnalist sifatida boshlagan. Sumgait shahar radioeshittirishlar redaksiyasida (1968–1975), "Ulduz" jurnali redaksiyasida (1975—1976) ishladi. 1977–1983-yillarda bolalarning "Go'yarchin" ("Kabutar") jurnalida mas'ul kotib vazifasida bo'ldi. She'riy faoliyatini 70-yillarda boshlagan.

Voqif Ibrohim 1979-yildan Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi, yoshlarning sevimli shoiri va ustozi edi. 1970–1971-yillarda Sumgait yoshlik she'riyat klubining raisi bo'lgan va yoshlar tashkilotining 30- va 31-qurultoylarida qatnashgan hamda respublika yoshlar tashkiloti Markaziy Qo'mitasining a'zosi bo'lib saylangandi.

"SALOM, SORBON" KITOBIDAN BIR KISHI

Zulm bilan topgan nonini
har oqshom bo'lar uyida —
bir burdadan har bir jonga —
o'ziga, xotiniga, bolalariga
va sichqon uchun yasatgan qopqonga.

SEVGI

Axlat qutilaridan har kun
non burdalarini yig'adigan
uy-joyi tayinsiz odam,

bir gal tashlab ketilgan so‘lg‘in gullarni yig‘ardi
xotiniga sovg‘a qilmoq uchun.

AHVOL

Aynan vagonlarning ahvolidaman:
ular uchun po‘lat relslardan
cho‘lga, ozodlikka chiqishning
birgina yo‘li bor — BALO-QAZO.

HAYOT

To‘fondan qochib uyga kiraman,
zilziladan qochib chiqaman cho‘lga.
Boshqa hech bir sabab yo‘q edi
Kel-ket uchun.

JABROILGA TAVSIYALAR

Yana nimalar?
To‘nka poydevor ustida
hamisha yam-yashil obidalar?
Yana qayerlar?
Asfalt yo‘llar uzra
to‘lib ketgan chuqurlar.
Yana kimlar?
Derazasi kamera devoriga
taqvim kabi osilgan mahkumlar.

KO‘PRIK

Bu kun bildimki,
eng e’tiborli ko‘prik suvning o‘z sathi ekan,
hech vaqt portlatilmaydi, buzilmaydi.

SUIQASD QARORIGA KELGAN BU XOTIN

Suiqasd qaroriga kelib
to‘shlarini quchoqlagan bu xotin
qo‘llari qo‘ynida
tugun tashlayotganga o‘xshab ko‘rinar.
So‘ng bora qichqirar:
— shapaloqni siypalashdan go‘zalroq deb bilsangiz,
xotin uchun buning farqi yo‘qdir.
Suiqasd qaroriga kelib
ayvonga suyangan bu xotin
o‘yini otmoq istaydi
ko‘kda vizillab uchib o‘tgan bir yulduz ostiga.

XATLAR

Folchining qarshisida ochilgan
bu qari qo‘llarning kafti
hamon o‘sha narsani ko‘rsatadi:
“17 yoshingda muhabbatingni topajaksan...”

QISHLOQ

Qishloq ko‘cha-ko‘ylarida
birgina uchoqlarning ovozi
o‘zidan ortda qoladi.
Hech so‘yilgan qurbonlarning ham
yo‘q bo‘lmas so‘nggi xirillashi,
so‘yilgan terida qoladi.
Qishloqda aynan shunday ketadi
buzoqlar, mashinalar, odamlar.
Lozimlari etagini shimargancha
g‘isht loyini tepadigan qishloq qizlarini
to‘pig‘idan sevar qishloq o‘g‘lonlari.

XARITA

O‘rta maktab chaqirdi,
qarab xayolga cho‘mdi
inson skeletining shakliga:
— dunyoning kontur xaritasi shumidi?

BIR SAHAR

Ertami, kechmi shunday bo‘lajak,
tongdami, shomdami yo boshqa bir kun
butun yurtdoshlarimiz bir sahar
salomlashmoq evaziga
bir-birlaridan uzr so‘raydigan kun...

KO‘TARDING...

Avval “ozodlik!” deya qichqirib
Ovozingni ko‘tarding.
So‘ngra imperiyaga
Mushtumingni ko‘tarding.
So‘ngra bayroq ko‘tarding.
So‘ngra saroy devorlariga
G‘isht ko‘tarding, yog‘och ko‘tarding.
So‘ngra qarab ko‘rdingki,
Butun ko‘targanlaringdan quyida qolgan
yana sensan.

NUSRAT KASAMANLI

(1946–2003)

Nusrat Yusuf o'g'li Kasamanli 1946-yilda Qazax tumanida tug'ilgan.

Ozarbayjon Davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. Universitetda o'qigan yillari "Boku" gazetasida muxbir bo'lib ishlay boshlagan.

O'qishni bitirgach, 1985-yilgacha Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo'lib ishlagan. So'ngra "Ozarbayjonfilm" kinostudiyasining Bosh muharriri bo'lgan. 60-yillardan adabiy faoliyati boshlangan. Bir qancha she'riy to'plamlar va hujjatli va badiiy filmlar ssenariylari muallifidir. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi bo'lgan.

2003-yilda bevaqt vafot etgan.

NE BILARDIK

Xosiyat Rustamova tarjimasi

Ne bilardik biz sevgini so'ngini,
Ne bilardik dunyo qayga qo'nishin.
Ne bilardik birrov kelgan sevgini —
Ikkimizning oramizda o'lishin...
Buyuk sevgi ko'kdan tushganda yerga,
Suyamadik yo'limizning ustida.
Bu muhabbat soviguncha gapirma,
Jon bermoqda qo'limizning ustida.
Har ko'rganda toyg'anadi oyoqlar,
O, chamanlar — bir bahorlik ahvoli.
Dudoqlarni yondirganda dudoqlar
Yuragimiz uyushadi yomoni.
Injiq shamol ko'z ochgani qo'ymadi,

Har istakni armonlarga ichirdik.
Qushlar keldi bayram qilib, biz faqat —
Kunimizni xazon kabi uchirdik.
Yolg‘onlarning zahri shirin tuyuldi,
Haqiqatni yashirdik har bir ishda.
Sevishganlar yo‘l oldi — ko‘ksi to‘ldi —
Biz tunlarda qolib ketdik hamisha.
Uyqu ko‘rdik... goh sarxush, goh qo‘rqqulik,
Qumda qoldi hayotimiz sohili.
Uyqumizda qo‘llar ko‘rdik musht, yirik —
Nima ko‘rsak hijron bo‘ldi oxiri.
Ne bilardik biz sevgining so‘ngini,
Ne bilardik dunyo qayga qo‘nishin.
Ne bilardik birrov kelgan sevgini —
Ikkimizning oramizda o‘lishin...

* * *

Xosiyat Rustamova tarjimasi

Bilmayman qalbingdan o‘tgan sevgini,
Bir kuni tanholik siqadi oxir.
Nahotki, bilmading yaxshiligimni —
Muhabbat qarshingda turgandi axir.
Jim turgan sevgini ko‘rmadim hecham,
Yuragim borida quchoq ochib kel.
Axir, abadiymas sevgi, sevmoq ham,
Meni har zamon sev, sevaqol, sev, sev.

* * *

Shahlo Qosimova tarjimasi

Ismimni qalbingdan ota olarsan,
Uzoq orzularga yeta olarsan,
Mendan yaxshisini topa olarsan,
Meningdek sevganing aslo bo‘lmagay!

Umringga bir sevgi kelar, bilaman,
Sening-la u yig‘lar, kular, bilaman,
Kimdir sevinchingni bo‘lar, bilaman,
Dardingga yonganing aslo bo‘lmagay!

Bir kun so‘nib bitar bu o‘t, bu o‘choq,
Kadar uyasidir bo‘sh qolgan quchoq,
Tizingga bosh qo‘ygan topilar har choq,
Parvonang, kuyganing aslo bo‘lmagay!

Sevgi azobidan uzoqlardasan,
Bir kun qatra-qatra erib oqarsan,
Yonog‘ingdan o‘pguvchi ham toparsan,
Ko‘z yoshing artganing aslo bo‘lmagay...

* * *

Shahlo Qosimova tarjimasi

Bu sevgidan sen qo‘rqasan, aybi yo‘q,
Mayli, ikkimiz uchun men sevayin.
Bu ishq uchun bir kun dorga tortsalar,
Mayli, ikkimiz uchun men ketayin.

Ming azobdir sensiz kechgan har kunim,
Unutdim men yaxshi-yomon farqini,
Bu sevgining tog‘ eritgan dardini,
Mayli, ikkimiz uchun men chekayin.

Gul deyman-u gul qalbing etdim bezor,
Sen uchun bo‘lay Tangri yozgan ash’or,
Dudoqlaring aslo chekmasin ozor,
Mayli, ikkimiz uchun men o‘payin.

Toleyimda so‘nggi ochilgan gulim,
Suzib qora ko‘zlaring, qil tabassum,

Bu sevgining oxiri bo‘lsa o‘lim,
Mayli, ikkimiz uchun men o‘layin.

DO‘STIM

Shahlo Qosimova tarjimasi

Kel, meni do‘st kabi gapga sol, so‘zlat,
Do‘st bilsin atrofdan qaragan bizni.
Men degum: do‘stim, sen: tanishim, deb ayt,
Zinhor bildirmaylik sevishimizni.

So‘zlashsak, kulishsak, yonma-yon kezib,
Unda haqimizda so‘z deyolmaslar.
Sirli uchrashuvlar qolsa sezilib,
Deymiz, nahot do‘stlar ko‘risholmaslar?

Bir yigit suratin keltir yolg‘ondan,
Hech kim demasinki, sevishganlarmiz.
Istasang qo‘ltiqla ahyon-ahyonda,
Xo‘sh, nimasi yomon, biz do‘st emasmiz?

Qo‘ng‘iroq qil, so‘z och darslardan go‘yo,
Onangga de, bir do‘st, boshqa hech kimmas.
Qo‘y, hamma “do‘st” bilsin bizni doimo,
Deginki, hech mening sevar vaqtimmas....

Shunday yashiraylik biz mehrimizni,
Boshqalar “do‘st”, onang o‘rtog‘i desin...
“Do‘stlikka” o‘raylik hasratimizni,
Kel, jindak sevinchdan ko‘nglimiz to‘lsin.

“Do‘stlik-la” ulg‘aysin muhabbatimiz,
Hech boshqa ko‘rmaylik hasrat, ko‘z yoshi.

Kel, avval hayotda o‘rtoq bo‘lib biz,
Keyin-chi, bo‘laylik hayot yo‘ldoshi...

MENSIZ QOLAR...

Shahlo Qosimova tarjimasi

Mensiz qolib ketar bu dunyo bir kun,
Kimningdir ko‘ziga kelar tomchi yosh.
Mensiz qolib ketar bu dunyo bir kun,
Tiklanadi mungli, qayg‘uli bir tosh.

.

Ismim kulgu misol so‘nadi labdan,
Umr o‘tilgusi, poyonli yo‘ldir.
Bexabar qolgandi dunyo kelganimdan,
Ketishimdan ham balki xabari yo‘qdir.

O‘tib ketarman kunlar birida,
Asta sabza urar o‘rnimda hijron.
Kimningdir pinhoniy yon daftarida,
Telefon raqamim ham jim beradi jon.

Qora hoshiyadan boqar suratim,
Nursiz nigohimda oshyon topgay g‘am.
Ko‘ksimda tuyg‘udek yotar qo‘llarim,
Uyg‘onib so‘nggi she’rim yoza olmam...

OG‘AMALI SODIQ

(1947–1995)

Og‘amali Sodiq (Afandiyev Og‘amali Ahmad o‘g‘li) Ozarbayjonning Qazax tumani Qaymoqli (Ingichka dara) qishlog‘ida 1947-yilda ziyoli oilada dunyoga kelgan. 1964-yilda o‘rta maktabni tugatgach, mehnat faoliyatini Sumgait superfosfat zavodila elektr montyorlikdan boshladi. 1972–1977-yillarda Ozarbayjon Davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil oldi. Keyin "Yozuvchi" nashriyotida musahhih, so‘ng "Maorif" nashriyotida muharrirlik qildi. "Yulduz" jurnalida adabiy xodim, Madaniyat nozirining muovini vazifalarida ishlagan (1992–1993). 1995-yilda yurak xuruji xastaligidan vafot etgan. Asarlari: "Menga umid bering"(1982), "Ayol sendan kechay dunyo" (1996), "Vatan uchun yashagan afandi umri" (2005), "Boshsiz" (Qissa), "Qishloqdan kelgan odam" (Hikoyalar, 2007), "Boshsiz" nomli qissasi o‘zbek tiliga tarjima qilinib, "Yoshlik" jurnalida 1987-yil oktabr sonida e’lon qilingan.

BOKUNI TOG‘LARGA OBORGAN KO‘NGLIM

Ko‘p bo‘ldi tog‘larga yo‘lim tushmadi,
Zumrad suv o‘pmadim qachondan beri.
Boshimning ustidan kelib uchmadi
Ma’yus turnalarning siyrak qatori.
Ko‘p bo‘ldi osmonim burgutsiz, g‘arib,
Bahor bulutiga to‘lgandir u yon.
Tog‘lar qoyalarni kiftiga olib,
Shalola sozini chalarmi hamon?
Ko‘ngli ginalimi xonim korizning?
Ko‘p bo‘ldi, hech borib yo‘qlay olmadim.
Yo‘l uzra egilib kelin nargizning

Muattar gajagin qo‘qpay olmadim.
Eh, onatil qushning tungi chah-chahi!.. —
Hamon yo‘qotganin so‘roqlaydimi?
Bir qayin bor edi ishqim guvohi —
Xotira yozgandim yaproqlariga —
Yellar tebratarmi, varaqlaydimi?
Ay, ona, ko‘nglimda hasrat berar un,
Men tog‘dan bo‘lingan bir tosh bo‘lakman.
Oq otli o‘g‘longa aylanib bir tun
Yo‘llarda tumanga qorishajakman.
Uyqusiz ko‘zimning intizori cho‘x,
Bu sirni hilolga besas ocharman.
Chaman shabnamiga o‘yoq emas, yo‘q,
Tongda uyg‘onganda yuzim bosarman..
Ko‘klarda qolmasa bulut uyumi,
O‘zim bulut bo‘lib to‘larman unda.
Axtarib pajmurda bolaligimni
Bir ota allasi chalarman unda.
Yana yetib kelib ayriliq kuni
Kuz fasli ortimga yeldirajakmi?
Bokuni tog‘larga yuborgan ko‘nglim
Tog‘larni Bokuga keltirajakmi?

AYRIL, SENDAN KECHAY, DUNYO

Dunyo, sening onang o‘lsin,
Tulkili dunyo ekansan.
Hayf-ey, mening ko‘z yoshimga,
Kulgili dunyo ekansan.
Chirpindim, ucha olmadim,
Devordan kecha olmadim.
Shunday eshiklaring bo‘ldi,
Qilichsiz ocha olmadim.
Onang o‘lsin, xasis dunyo.

Seni deya kelganga boq,
Keladi u yig‘lab-yig‘lab.
Sendan qaytgach o‘lganga boq,
O‘ladi u yig‘lab-yig‘lab.
Bu qanday holatdir, dunyo?
Bu tuproqni kim yaratdi,
Kim yedi, tugatdi, dunyo?
Bundan nari ucholim yo‘q,
Tayanmoqqa majolim yo‘q,
Yuz daf’a o‘ldim, tirildim,
Men Odamman, ajalim yo‘q,
Uzil, sendan kechay, dunyo.

ELDOR BOXISH

1947-yilda Qubadli tumanining Dilali Miskanli qishlog'ida tug'ilgan. 1965–1969-yillarda Ozarbayjon Davlat universitetining tarix fakultetida tahsil olgan. Universitetni tamomlagach, o'qituvchilik qilgan, armiyada xizmat qilgan, so'ngra Ozarbayjon teleradio qo'mitasida muharrir bo'lib ishlagan. Yoshligidan adabiyotga qiziqqan. Ilk she'ri 1966-yilda "Ozarbayjon ganjlari" gazetasida chop etilgan. Bir nechta she'riy to'plamlari chop etilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi bo'lgan.

QIYINI

Qiyini — onadan tug'ilmoq,
onadan tugildingmi,
har holda, ulg'ayarsan
bu yer yuzida,
jonim Mammad, ko'zim Mammad.
Qiyini — ulgaymoq,
ulg'aydingmi,
kitoblar berishar qo'lingga,
o'tirib tinimsiz o'qib chiqasan.
Qiyini — kitob o'qimoq,
kitob o'qidingmi,
syeva boshlaysan.
Qiyini — sevmoqdir,
sevdingmi,
bolang tug'ilar.
Qiyini — boladir,
bolang tug'ildimi,
jonim Mammad, ko'zim Mammad,

onadan tug‘ilganing
chiqar yodingdan...
Jonim Mammad, ko‘zim Mammad,
qiyini — onadan tug‘ilmoq.

GINA

O‘zi insof bersin Sori Oshiqqa,
O‘zi insof bersin Mammad Orazga,
O‘zi insof bersin Ali Karimga,
Meni qo‘ymadilar o‘z tashvishimga.
Meni qo‘ymadilar o‘z tashvishimga,
Bayoti aytdilar, qo‘shma aytdilar,
Garoyi aytdilar meni ko‘rganda,
Qo‘shiq kuyladilar qalbimga hamroz.
Qo‘shildim ularga, berildim she’rga,
Ular bitta yozsa, men beshin yozdim.
O‘z ishlarim qoldi chala-yarimta,
Kimlarning... kimlarning tashvishin yozdim.
Tosh topay, qum topay degandim men ham,
Degandim — uy quray qavatma-qavat.
Ariq ochib kelay Oraz soyidan,
Bog‘ qilay degandim Mug‘on cho‘lida.
Degandim — uy solay odamlar kabi,
Bir yoni bog‘chali, bir yoni bog‘li,
Bir yoni chechakli, bir yoni gulli,
Bir yoni o‘rdakli, bir yoni g‘ozli.
O‘rdak qayda qoldi, g‘oz qayda qoldi,
In ham tiklolmadim o‘rdakka, g‘ozga.
O‘zi insof bersin Ali Karimga,
O‘zi insof bersin Mammad Orazga.

TOHIR TOLIBLI

1948-yil 22-fevralda Armanistondagi Kalinin tumanining Evli qishlog'ida tug'ilgan. Shu yerda o'rta maktabni tugatgach, Ozarbayjon Pedagogika institutida tahsil olgan (1968–1972). 1972-yilda ona qishlog'iga qaytib, avval til-adabiyot o'qituvchisi, so'ng maktab direktori bo'lib ishlagan (1972–1988). 1988-yildan beri Boku shahrida yashaydi. 1970-yildan boshlab poetik asarlari, publitsistik maqolalari matbuotda e'lon etila boshlagan. Ilk she'ri "Ozarbayjon yoshlari" gazetasida chop qilingan. U "Yangi fikr" gazetasining xodimi, keyinroq bosh muharriri bo'lib ishladi (1992–1993). Ozarbayjon Davlat Televideniye va radioeshittirishlari shirkatida Radio eshittirishlari tahririyatining Janubiy Ozarbayjon sho'basida muharrir vazifasida ishladi (1993). 1993-yildan boshlab Ozarbayjon radiosida "Xalq ijodiyoti" tahririyatining Bosh muharriri sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

* * *

Ayo, Tangrim, meni qush qil,
Bog'la bir qush qanotiga.
Yana takror qush aylagil —
Bir go'zal qiz inodiga.
Dunyo meni sindirsin, qo'y,
Sokin suvdek tindirsin, qo'y,
So'ngra tag'in mindirsin, qo'y,
Bitta asov jin otiga.
Suvlar jo'shib, bo'zlab borar,
Sokin maskan ko'zlab borar.

Hamma panoh izlab borar,
Ehtimol, tuproq ostiga.

* * *

Yo‘qsa men bundoq bo‘lmasdim...
Seni mendan oldilar-ku,
Qalbimga cho‘g‘ soldilar-ku,
Toptab-toptab toldilar-ku,
Yo‘qsa, men bundoq bo‘lmasdim.
Ul olqishlar, bul qarg‘ishlar —
Toleyimga ne bag‘ishlar?
Qaqragan yerga yog‘ishlar
Yog‘sa, men bundoq bo‘lmasdim.
Aytilmasa so‘z vaqtida,
Azobiga to‘z vaqtida.
Yildirimlar o‘z vaqtida
Chaqsa, men bundoq bo‘lmasdim.

DARBAND

Uzoqdir o‘zimiz qadar,
Ham yaqin Darbanddir bizga.
Ko‘ngil Qorabog‘dan kechar,
Darband ham bir darddir bizga.
Ko‘zimiz o‘tni kuydirar,
Og‘zimiz totni kuydirar,
Cho‘limiz yotni kuydirar,
Ichimiz g‘urbatdir bizga.
Keldik, yana ketar gardmiz,
O‘zimizdan kechar mardmiz,
Yarim azob, yarim dardmiz,
Dard ham bir shuhratdir bizga.

* * *

Hammadan yuksalib goho,
Sen kezasan toq-u tanho,
Nigohimdan saqlan, ayo,
Niqob — shu ro‘moling bo‘lsin.
Har tilda noming aylanar,
Ko‘klam ortingdan shaylanar,
Kularsan, yonog‘ing ollanar,
Ul ollangan xoling bo‘lsin.
Xayol surib tikilursan,
Go‘zalsan, o‘zing ham bilursan,
Bilmam, tunlar ne qilursan,
Ne qilsang haloling bo‘lsin.

VOQIF BAYOTLI O'DAR

Jabroilzoda Voqif Isib o'g'li (Voqif Bayotli O'dar) 1949-yilda Jabroyil tumanining Buyuk Marjonli qishlog'ida tug'ilgan. Ozarbayjon Inshoot muhandislari institutida tahsil olgan. 1980-yilgacha Bokuda o'z ixtisosi bo'yicha, ya'ni muhandis bo'lib ishladi. Keyin matbuot sohasiga ishga o'tdi.

"Yulduz" jurnalida bo'lim mudiri (1981–1990), "Hazar" almanaxining Bosh muharriri bo'ldi (1989–1992). Ozarbayjon teleradio kompaniyasining chet ellarga eshittirishlar studiyasining direktori vazifasida ishladi (1992). Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining boshqaruv hay'atiga saylanib, yoshlar bilan ishlash sohasiga rahbarlik qildi (1991). Uning she'riy asarlari Kutaisida she'riyat festivalida Vladimir Mayakovskiy mukofotiga, Ozarbayjon Matbuot fondining MirzaJalil mukofotiga loyiq ko'rilgan (1993). "Tanho yulduz ostida" (1982), "Unutilajak butun savdolar" (1986) "Seni sevmak ozdir" (1990), "Eng kulgili o'lik", "Yum-yumaloq bir ishq ila" kabi kitoblarning muallifidir.

BU JONIM YER YUZIDA

Bu jonim yer yuzida,
Ajin-ajin yuzlari-la,
To'rli-to'rli ko'zlari-la,
Oq-oq tolalari-la
Mashina yo'llarida
Buvilar yetim.
Bu jonim yer yuzida,
Oh, yana kimlar yetim?
Asrdan bosh olib ketgan,
Bir tiklanib, birda botgan

O‘tmishidan ham uzilgan
Bokusiz Tabriz yetim.
Bu jonim yer yuzida,
Eh, yana kimlar yetim?
Oriq siynalari-la,
Qiyshiq oyoqlari-la,
Pahmoq
Betaroq sochlari-la
Shahar-shahar qishloq qizlari yetim.
Bu jonim yer yuzida,
Voh, yana kimlar yetim?
Qora tuflisi bilan,
Oppoq libosi bilan,
Porloq bo‘yinbog‘i-la,
Binafsha tarog‘i-la
Sevgan qizin qaytargan
Jabroilning o‘g‘li yetim.
Onam ham yer yuzida,
Jonim ham yer yuzida,
Voh, yana kimlar yetim?

HAR KIM SEVGANIGA YETMAS DUNYODA

Har ishqning ham so‘ngi baxt bo‘la olmas,
Har kim sevganiga yetmas dunyoda,
Soylar axtargani dengizga oqmas,
Bulutlar suzgani tuproqqa yog‘mas,
Shamollar kezgani yaproqqa esmas.
Har kimga bir xil baxt kelavermaydi
G‘aribning kimsasi bo‘lmas yonida.
Karamni visolga bir tugma qo‘ymas.
Har kas sevganiga yetmas dunyoda.
O‘limlar ham adashar sevgilar kabi,
Har kas o‘z ahdiga yetmas dunyoda.

Har narsaning so‘ngi yarimcha qolur,
Daraxt o‘limi-la o‘lar insonlar,
Inson o‘limi-la o‘lar daraxtlar.
Faqat, faqatgina...
Yulduz o‘limi-la o‘lmas insonlar,
Har kasning yulduzi aldaydi uni.
Hamma qaraydigan bir qora tom bor,
Har sahar yangitdan so‘nib qarama.
Oldin yulduz bor edi,
Yulduz bo‘lar so‘ng ham.
Har kas sevganiga yetmas dunyoda,
Har sevgining so‘ngi baxt bo‘lavermas.

ZELIMXON YOQUB

Zelimxon Yoqub 1950-yilda Gurjiston Jumhuriyatining Kapanakchi qishlog'ida ziyoli oilasida dunyoga kelgan. O'rta ma'lumotni o'z qishlog'ida olgan. 1972-yilda Bokudagi Ozarbayjon Davlat universitetini bitirgan. 1973–1978-yillarda "Ozarkitob" sistemasida kitob sotuvchi, bosh sotuvchi, iguba mudiri bo'lib ishlagan. 1975–1985-yillarda Ko'ngilli Kitobsevarlar jamiyatida muharrir, 1986–1994-yillarda "Yozuvchi" nashriyotida bo'lim mudiri bo'lib ishlagan.

Shoirning 15 dan ortiq she'riy to'plami nashr etilgan. "Ko'nglimning ovozi" (1980), "Yo'lim eldan boshlangan" (1981), "O't olgan o'choqlar" (1989), "Biz bir ishqning rishtasimiz" (1989), "Ziyorating qabul bo'lsin" (1991), "Shoir hayqirig'i" (1995), "Bir qo'li tuproqda, bir qo'li haqda" (1997), "Bu yashil daraxtning osti bizniki" (2000), "Seni sevmak uchun keldim dunyoga" (2003) kabi kitoblari shular jumlasidandir. Uning "Shoir tolihi" nomli to'plami fransuz tilida, "So'z jomi" kitobi gurji tilida, "Zelimxon Yoqubning hayoti va bir dasta she'rlari" nomli kitobi olmon tilida chop etilgan.

MENING BITTA DINIM BOR, DINIMNING OTI SEVGI

Miraziz A'zam tarjimasi

Tillar ayirar bizni, dinlar ayirar bizni,
Shaytonlar nifoq solar, jinlar ayirar bizni,
Sevgilar emas, g'azab, kinlar ayirar bizni,
Hayotimning, umrimning, dinimning oti sevgi,

Mening bitta dinim bor, dinimning oti sevgi.
Ruh odamga berildi. Odamni ruh yaratdi,
Basharni qutqarish-chun kemani Nuh yaratdi,
Savashni, qon-qirg‘inni, qora kunni yaratdi,
Hayqirig‘im, sasimning, unimning oti sevgi,
Mening bitta dinim bor, dinimning oti sevgi.
Hizr, Dovud, Sulaymon, Muso, Iso, Muhammad,
Hammasi et-u tirnoq: ishq va sevgi, muhabbat,
“Vahdati vujud” dedi, tanga inondi vahdat,
Namoz, qiblam — yo‘nalgan yonimning oti sevgi,
Mening bitta dinim bor, dinimning oti sevgi.
Sevgi quyosh kabidir: o‘ngga, tersga bo‘linmas,
Tariqatga, mazhabga, sinf, darsga bo‘linmas,
Inglizga, olmonga, rusga, forsga bo‘linmas,
Turkimning, arabimning, chinimning oti sevgi,
Mening bitta dinim bor, dinimning oti sevgi.
Ildizim, butog‘imning, tizimning, tirgagimning,
Ruhimning, nafasimning, jonimning, yuragimning,
Tandirim, tog‘oramning, tuzimning, churagimning,
Sunbulimning, dalamning, tanimning oti sevgi,
Tug‘ilganimda sevgi, o‘lmagim ham sevgidir,
Hayotimning, qalbimning, so‘ngimning oti sevgi,
Ruhimning, nafasimning, jonimning oti sevgi.
“Mening bitta dinim bor, dinimning oti sevgi.

MENGA UMID KABI BOQ

Miraziz A’zam tarjimasi

Menga umid kabi boq: tiklayman gumoningni,
Menga bir nur kabi boq: tarqatgum tumaningni,
Menga inonch kabi boq: yo‘l bermay xiyonatga,
Menga sevgi kabi boq: aylanay muhabbatga.

Menga sahar kabi boq: o‘girilay sabohingga,
Menga sevinch kabi boq: nuqta qo‘ygum ohingga,
Menga bahor kabi boq: yashillanay, ollanay,
Menga kuzak kabi boq: shiralanay, bollanay.
Menga hayot kabi boq: qaynay, yosharsin yoshim,
Boq, menga ko‘z tikishgan: otam, onam, qardoshim.
Basharti menga boqsang barmoqlar orasidan,
Qutulolmam hech qachon yuragim yarasidan...
Demak, qalbimga qadar, demak siynam dog‘isan...
Bu ketishda ey inson!
Na men balandlashaman, na sen yuksalajaksan!

XALIL RIZO

Miraziz A’zam tarjimasi

Qorabog‘ urushida halok bo‘lgan shoir,
general Xalil Rizo 23.06.
1994-yilda tuproqqa berilarkan:
Senga qanday alla aytay, sof imonim Xalil Rizo,
Sensiz kuylab o‘tgan emas biron onim Xalil Rizo.
Ostim ustimga aylandi, tuman tutunga aylandi,
Dunyo qasdimga aylandi, oqdi qonim Xalil Rizo.
Saroylarim vayron bo‘ldi, jon erigan shamga do‘ndi,
Tim qorong‘i shomga do‘ndi nurli tongim Xalil Rizo.
Sensiz qancha tog‘lar yarim, butun edim, qoldim yarim,
Guldan shira tortmas arim, to‘lmas shonim Xalil Rizo.
Ovchi otgan bir ov bo‘lding, sochimdagi qirov bo‘lding,
Jonimdagi olov bo‘lding, yondi jonim Xalil Rizo.

PORTRET

Usmon Qo'chqor tarjimasi

Men bir tog' daryosi, tog' bulog'iman,
Goh jo'shib, gohida ozaymog'im bor.
Tabiat farzandi, do'st-o'rtog'iman,
Bu yerda o'z fe'lim, o'z aymog'im bor.
So'zdan o'z umrimga bir haykal yo'nib,
Go'zallik oldida hayratdan do'nib,
Aridek chechakdan chechakka qo'nib,
Otam o'chog'idan cho'g' olmog'im bor.
Suvman — tomchi-tomchi toshdan chiqqanman,
Ko'zman, ko'z yoshiman, yoshdan chiqqanman,
Bir qorli, bo'ronli qishdan chiqqanman,
Tag'in chechaklanib yoz bo'lmog'im bor.
Tuyg'ular bog'ida gullar undirib,
Bir umr ichida ming umr surib,
Shoirdek qo'liga qalam qo'ndirib,
Baxshidek ko'ksimga soz olmog'im bor.
Xayolimiz o'xshar uchgan qushlarga,
Tarix baho berar oltin boshlarga,
Ulug' qoyalarga, tilla toshlarga
Qadim alifbodek yozilmog'im bor.

SEN TOLIQMADING

Usmon Qo'chqor tarjimasi

Yo'llarga boqmoqdan ko'zim toliqdi,
Seni chorlamoqdan so'zim toliqdi,
Iroda toliqdi, to'zim toliqdi,
Mening e'tiqodim, sen toliqmading.
Yerlarga, ko'klarga solding sas-sado,
Yuksak cho'qqilarni eslatding goho,

Ufqlar bo‘lsa-da cheksiz, noado,
Ey qo‘lim, qanotim, sen toliqmading.

Butun umrim bo‘yi yozding, yaratding,
Orzularga yetding, matlabga yetding,
Ruhim-u ko‘nglimni o‘zing zabt etding,
Zahmatim, ustodim, sen toliqmading.

Dushman gulzorimga nuqul tosh otdi,
Goho qattiq otdi, goh yuvosh otdi,
Poklig-u halollik senga hayotdir,
Mag‘rur iste’dodim, sen toliqmading.

.

OCHLIK

Usmon Qo‘chqor tarjimasi

Och kelganman, och keturman dunyodan,
Qismatimga tushgan ozdan to‘ymadim.
Bolaridek guldan gulga shoshdim men,
Na tiyramoh, na-da yozdan to‘ymadim.

Jonni yoqdi ushalmagan armonlar,
Tuproq bo‘ldi to‘kilib bu xazonlar,
Mensimasdan kelib-ketdi jononlar,
Na ishvadan, na-da nozdan to‘ymadim.

Qo‘shiq bilan yuragimni oldilar,
Shirin-shirin xayollarga toldilar,
Ming bir joyda ming xil navo chaldilar,
Na baxshidan, na-da sozdan to‘ymadim.

ISLOM TURKOY

Ahmadov Islom Haftik o'g'li (Islom Turkoy) 1950-yilda Qazax tumanining Temirchilar qishlog'ida tug'ilgan. O'rta maktabni tamomlagach, Sumgait kimyo zavodida ishlay boshlagan. 1977-yilda Ozarbayjon davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. "Yozuvchi" nashriyotida kichik muharrir, 1983-yildan muharrir vazifasida ishlab kelmoqda.

"Kecha lavhasi" nomli ilk she'ri 1979-yilda bosilgan. Yozuvchilar uyushmasining a'zosi. "Bir kun kelar" (1981), "Hammasini yangitdan boshlashim kerak" (1985), "Orqada hasrat bor"(1986) kabi o'nlarcha kitobi nashr etilgan.

VATAN

Ko'zimga to'tiyo tuproq Vatanim,
Non chiqqan har joyni Vatan demasman.
Onam aytgan alla yangroq Vatanim,
Meni siqqan joyni Vatan demasman.
G'urbatda Alloh bo'l, kimsa yo'qlamas,
G'urbatni o'limdan battar, deganlar.
Orzular gullar-u ammo shoxlamas,
O't ildizi uzra bitar deganlar.
Ko'rdimki, ko'ksida Vatani borlar
Ko'zlari xayolga to'lgan hamisha.
Vatanida yurib Vatanga zorlar
Ko'rdimki, sarg'aygan, so'lgan hamisha.
Bir parcha Vatandir Fuzuliy qabri,
Chidamay, yonidan o'tgan yig'laydi.
Qo'l qisqa, un yetmas, tugagan sabri,

G‘urbatning qo‘lida Vatan yig‘laydi.
Bu g‘am yuraklarda yongan shamchiroq,
Doim nur taratib sevinch berar ul.
Men qanday izohlay bu sirni biroq —
Vatandan Vatanga ketmoq ham mushkul.
Vatandan gap ochmoq bo‘lgandi yomon,
Vatansiz bo‘lishdan ammo xoliman.
Bul aniq sel kabi oqar vaqt, zamon,
Ilondek tilimni chiqarmaliman.
O‘lka bor, yashar u og‘aga qulday.
“Bu yer adolatli!” “Men ozodman!” der.
Millat bor, uyatsiz, uyatsiz shunday,
Qon to‘kilib turgan yerin Vatan der.
Vatan mol-dunyo deb kezganlar qancha,
Chumoliday izg‘ir, tinchimay joni.
Vatandan to‘yganlar, bezganlar qancha,
Vatan deb bilganlar butun dunyoni.
Birovlar oladi har yoqdan biroz —
Ularning ruhlari ham olaquroq.
Bir elni ikkiga ayirgan Oraz,
Qonli sadolarga bermaslar quloq.
Qadim Savalonning esgan shamoli
Yongan o‘chog‘ining tutuni Vatan.
Sobirning, Jalilning dardi, savoli,
Bulbulning, Jabborning sas, uni Vatan.
Vatandir qilichdek dardli Orazim
Vatanning qalbiga sanchilib yotgan.
Vatandir kuylagan sadafli sozim,
Haq uchun yonayotgan — qorayayotgan.
Ko‘zimga to‘tiyo tuproq Vatanim,
Non chiqqan har joyni Vatan demasman.
Onam aytgan alla yangroq Vatanim,
Meni siqqan joyni Vatan demasman.

MENMI GUNOHKOR, SENMI GUNOHKOR?

Bu ne bir savdoki, bu ne mo‘jiza,
Bir ish qilay deyman, qila olmayman.
Kunim ham mo‘jiza, tunim mo‘jiza,
Yashay ham olmayman, o‘la olmayman.
Umrimga kechikkan ilk bahormisan,
Taqdir gulimisan, yog‘gan qormisan?
Yo‘llar ayrosida daydirman nochor,
Menmi gunohkor, senmi gunohkor?!
Tushganman savdoning ters kamandiga,
O‘zim o‘z o‘timda yoniblar ketdim.
Moslashdim shuhratning fe’li-pandiga,
Aybimni men endi tushunib yetdim.
Ne ham qilolardim, yonaman o‘tda,
Bu achchiq tolega boq, qayta-qayta —
Sening qo‘llaring-la meni quchoqlar,
Menmi gunohkor, senmi gunohkor?!
Siynalar tog‘ingda sarg‘ayib ketar,
Kuzdan gina qilma, kuzda nima ayb?
Umr bog‘imizni qor olib ketar,
Uylik-bolalikmiz, bizda nima ayb?
G‘arib ko‘rinadi aytgan so‘zim ham,
Aksini ko‘rurlar ikki ko‘zim ham.
Seni yo‘qotmisham,
Yo‘qman o‘zim ham...
O‘zimni o‘zimga qaytar, desam zor,
Menmi gunohkor, senmi gunohkor?!
Naylayin, bu umr — bu tole, qismat...
Sochimga yog‘gan qor erigan emas.
O‘rtadagi Oraz soyi bir hasrat,
Million yil oqsa ham qurigan emas.
Aytarding: qo‘l yetmas tog‘san, darasan,
Sof suvsan, havosan, ovsan... ko‘rasan...

Bir payt chaqirganding million karra san...
Orqada hasrat bor, oldinda g‘ubor, —
Menmi gunohkor, senmi gunohkor?!

* * *

Ey umrimning saodati, kezma uzoq,
Hasratingga, malolingga qurbon bo‘lay.
Yo‘llaringda umidlarim chiroq-chiroq,
Jamolingga, visolingga qurbon bo‘lay.
Sen uzoqsan, yuksakdasan, yetmas qo‘lim,
Hasratingdan yurak-bag‘rim tilim-tilim,
Xayoling-la o‘tar kunim, oyim, yilim,
Suratingga, xayolingga qurbon bo‘lay.

ODIL JAMIL

Shoir, adabiyotshunos, tarjimon, falsafa fanlari doktori Jamilov Odil Savalan o'g'li (Odil Jamil) 1954-yil 8-oktabrda Kalbajar tumanining Qilsyali qishlog'ida tug'ilgan. 1977-yilda Boku Davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. Ommaviy axborot vositalarida rahbar lavozimlarida ishlagan. 2002-yildan buyon "Adabiyot gazetasi"da bo'lim mudiri bo'lib ishlab kelmoqda. 1980-yilda birinchi she'riy to'plami nashr etilgan. She'rlari Rossiya, Turkiya, Eron va O'rta Osiyo mamlakatlarida nashr etilgan.

"So'zlamoq istayman", "Tushida kulgan qiz", "Qalbim hayqirig'i", "Tangri menga yor bo'lganda" kabi bir nechta she'riy to'plamlari, shuningdek, monografiyalari chop etilgan. Odil Jamil o'zbek, qirg'iz, rus she'riyati namunalarini, jumladan, "Manas" dostonini Ozarbayjonchaga tarjima qilgan. Odil Jamil Ozarbayjon Yozuvchilar va Jurnalistlar uyushmalari a'zosidir.

AVTOPORTRET

Tangrim o'zi ruxsat berdi
Bir kuni tug'ilmoqqa.
Pokiza yurak-la boshladim,
Boshdan katta bo'lmoqqa.
O'savergach, kuydi yuragim,
Otash ichra kechdi hayotim.
Har narsaga yetgan kuchim,
Yetmadi nodon bo'lmoqqa.
Tilga kirib yurak dedi:
Shu ham yashash bo'ldimi?
"Odamlar'dan qochib endi
Ketaman odam bo'lmoqqa.

BIR KUN QIYOMAT BOR

Yer yuzida yer qolmagan
O‘lganlarni ko‘mmoqqa.
Zulm qilmoqqa hozir inson
Jon koyitmas rahm qilmoqqa.
Gadolar, millionerlar...
Dunyoning sinoatiga boq.
Eski qirriq, muttahamning
Endi olgan nomiga boq.
Yerda yurishni eplamagan
Qanot qoqib ko‘kda uchar.
Ko‘p ko‘rdik bundaylarni
Oriq kelib, semiz ketar.
“Musulmonman” degan kasning
Na imoni, na dini bor.
O‘ylagan yo‘q bu dunyoning
Qachondir qiyomat kuni bor.

VATAN MENGA G‘URBAT BO‘LDI

Ko‘hna dunyo to‘lib ketgan ertakka,
Ertaklarga ishonmagan erkakdir.
Yurtim yondi, xonumonim to‘kildi.
Zahar menga sharbat bo‘ldi, ichaymi?
Ot minganlar otlaridan tushibdi.
Til hurmat, og‘iz doddan tushibdi.
San’at, so‘z degan nazardan tushibdi
Umrim bo‘ldi barbod, endi o‘laymi?
Qalloblar-u, poraxo‘rning keti yo‘q,
Soxtakor-u, muttahamning cheki yo‘q...
Odam ko‘rdim, odamlikdan asar yo‘q,
Vatan menga g‘urbat bo‘ldi, ko‘chaymi?

RAMIZ ASKAR

1954-yilda Omosiya tumanining Qorachanta qishlog'ida tug'ilgan. Qorachanta litseyini tamomlagach, 1972-yilda Boku Davlat universitetiga kirgan, 1975-yilda Moskva Davlat universitetiga o'tkazilib, uni 1978-yilda tamomlagan. Mehnat faoliyatini 1978-yildan Ozarbayjon radiosida boshlagan. So'ngra "Bugungi Ozarbayjon" jurnalida, "O'tlar yurti", "Hurriyat", "XXI asr" gazetalarida, 2000–2006-yillarda Boku Davlat universiteti turkologiya kafedrasida ishlagan. Hozirgi vaqtda shu kafedraning mudiridir.

Ramiz Askar professor, filologiya fanlari doktori, mashhur tarjimondir. Bir qancha monografiyalar, 1500 ga yaqin ilmiy maqolalar muallifi. Turkiya, AQSH, Rossiya, Germaniya, Xitoy, O'rta Osiyo, O'rta Sharq mamlakatlarida o'tkazilgan xalqaro konferensiyalarda ma'ruzalar qilgan. Qardosh turkiy adabiyotlarning eng yaxshi namunalarini, jumladan "XX asr o'zbek she'riyati antologiyasi"ni Ozarbayjonchaga tarjima qilib, chop ettirgan. Bundan tashqari u zamonaviy uzbek shoirlarining asarlarini tarjima qilib, Ozarbayjon matbuotida davomli suratda chop ettirib kelmoqda. 2011-yilda "Boburnoma"ni Ozarbayjonchaga tarjima qilib, nashr qildirdi va O'zbekistonning xalqaro Bobur mukofoti bilan taqdirlandi. Bundan tashqari Ramiz Askar Turkiyaning "Yangi O'rxun", 'Turk dunyosiga xizmat", Turkmanistonning "Oltin asr" mukofotlariga sazovor bo'lgan.

YUBOR

Ustozlarim — turkolog olimlar Bilga xonim va Ahmad Bejon Erjilayevlarga, o'g'illari Sotuq Bug'raning fojiali vafoti munosabati bilan

* * *

Yo‘q bu dardning chorasi,
Dunyoda u bor — bu bor.
Bitmas ko‘ngil yarasi,
Yoqsin, jigarga yubor.
Duo qilib Allohga,
Ohlarni ulab ohga,
Oqshom yubor sabohga,
Tunda saharga yubor.
Nahot cho‘kdi saroyi,
Botdimi quyosh, oyi?
Sotuq Bug‘rəning joyi —
Chinga, safarga yubor.
Bilsam, Ahmadim bejon,
Qanday chidar bunga jon?
Bo‘l darding, yarmin bu on
Ramiz Askarga yubor.

G‘AMI

Do‘stlarim Fikrat Nag‘makor va
Tohir Qahhorga

Bitdi ko‘klam, bitmadi lek gul g‘ami, gulshan g‘ami,
Ketdi do‘st-yor, ketmadi lek el g‘ami — ulkan g‘ami.
Tindi epkin ham bo‘ron-u, tindi dengizda to‘fon,
Ammo tinmas ruxda hech ul yel g‘ami, yelkan g‘ami.
Keldi qahrim, yetmadi chun sevgilimga xatlarim,
Ketdi ul yor, ketmadi lek yor g‘ami, dushman g‘ami.
Botdi oy, lek botmadi zulmatda ruhim yulduzi,
Yetdi tongga yetmagan ul nur g‘ami, ravshan g‘ami.
Ey Ramiz Askar, o‘limga tayyor askar senmisan?
Har zamon tayyormen-u dilda yurt, maskan g‘ami.

YORING SO‘Z BERDIMI?

Yor senga so‘z berdimi?
So‘z berdi, so‘z oldi-da.
Qalbini tez berdimi?
Berdi-yu tez oldi-da.
Yor senga dil berdimi?
Berdi, qaytib oldi-da.
Yashnagan gul berdimi?
Guli so‘lib qoldi-da.
Yor seni yiglatdimi?
Yiglatdi, kuldirdi-da.
Hech seni aldadimi?
Aldadi, o‘ldirdi-da.
Dardingni yor bildimi?
Bildi-yu bildirmadi.
Sen-la olg‘a jildimi?
Jildi-yu jildirmadi.
Qani ishqing gavhari?
Sotdi bilib-bilmasga.
Qani u sevgan yoring?
Ketdi borsa kelmasga.

ASQAR RASULOV

Asqar Odilo'g'li Rasulov 1954-yilda Naxichevanda tug'ilgan. 1976-yilda Ozarbayjon Davlat universiteti Sharqshunoslik fakultetining Turk tili va adabiyoti bo'limini bitirgan. 1980-yilda "Turk filologiyasi" kafedrasida ilmiy faoliyatini boshlagan. Hozirda filologiya fanlari doktori, professor. 1976–1979 va 1989–1995-yillarda Turkiya Respublikasida referent-tarjimon vazifasida ishlagan.

"Turk nasri" (2004), "Tarjima nazariyasi doirasida Turkiya turkchasi va ozarbayjon tili" (2007), "Turk tili" (2007, hammualliflikda), "Turkcha-ruscha-ozarbayjoncha tilchilik terminlari lug'ati" (2010, hammualliflikda) kabi 10 ga yaqin kitobi Ozarbayjon va chet ellarda chop etilgan. "Tilmoch" nomli she'r va poemalar kitobi nashr etilgan (2006). Shuningdek, uning "Raqs ilohasi va shoir" (2008), "Sukutning suiqasdi" (2009), "O'ldirishning hikmati" (2009) dostonlari ham jurnallarda chop etilgan.

HIJRONNING UMRI

"Hijronning umri "muallifi
Teymur Karimliga

Eng uzun tun ham bitar,
Qissalarin boshlar tong.
Shafaq zulmatni tatar,
Zulmat so'nar onma-on.
Inson uchun bekat yo'q,
Sohil yo'q zamon uchun.
Kecha yelda shamini
Eritar inson uchun.

Taqvim-u soat kunning
Tilimlangan zamoni.
Taqvim umr yo‘lining
Vaqtga aylagan oni.
Har bir hijron umrining
O‘z uzun kechasi bor.
Hijron kechasi o‘zga,
Taqvimga boqmas zinhor.
Zamon hayotimizning
Eng keskir qilichidir.
“Har daqiqa yaralar,
O‘ldirgan qirqinchidir.”

YANGI FIKR

Yangi so‘z so‘zlamoq dardi
Seni bezovta aylamasin.
Ilhom parisi charx urar,
Kezsin, qoning qaynamasin.
Toki sening aytilishga
Yangi fikring, so‘zing bo‘lsin.
Bekinib yotgan matlabni
Ko‘ra bilgich ko‘zing bo‘lsin.
Nuqta, vergul, kalom, san’at,
Bokir bo‘lgan fikr, tuyg‘u.
Sen eskidan yangini yarat,
Tafakkurga ko‘rsat qayg‘u.
Fikr duvoqqa burkangan
Qiz-kelin bichimindadir.
Nimdosh qobiqli sadafning
Marvaridi ichindadir.

DENGIZ SUVI KABISAN

Kirib buhron yoshingga,
Qolibsan toq boshingga,
O‘z qo‘ling o‘z boshingga
Yostiq bo‘lgandan beri.
Unutmishsan har neni —
Upa, elik, surmani,
Ko‘zyoshing mujgoningni
Namlik qilgandan beri.
Unut deding, unugdim,
Javoban sen unutding,
Men o‘z so‘zimni tutdim
Bezdik degandan beri.
Dengiz suvi kabisan,
Xayfki, na ichilarsan,
Na-da voz kechilarsan
Do‘stmiz degandan beri.

VALI XROMCHOYLI

1955-yil 27-aprelda Sibirda tug'ilgan. Asli Qazax tumanining Sixli qishlog'idan. Ozarbayjon Davlat universitetining filologiya fakultetini tugatgan. 1985-yildan "Ozarbayjon tabiati" jurnalida bo'lim mudiri, mas'ul kotib, direktor o'rinbosari bo'lib ishlagan. "O'choq" gazetasining Bosh muharriri. 1980-yildan she'rlari chop qilina boshlagan. Yettita kitob muallifi. Asarlari o'zbek, rus, gruzin, nemis, ingliz tillarida chop etilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

UMRIMDAN BIR POYEZD KECHAR

Yo'limga ko'z tikmish bir temir yo'li,
Bu kecha umrimdan bir poyezd kechar.
Yillarim vagonga yo'lovchi bo'lib,
Oh, kechar, umrimdan bir poyezd kechar.
Vagonning birida bolaligimdir,
Ko'nglida o'ksinish — ne iloji bor.
"Ona" vokzalida to'xtaydi poyezd,
Ona allasiga ehtiyoji bor.
Vagonning birida muhabbatimdir,
O'zi o'z yukini ketolmas tortib.
"Hijron" vokzalida to'xtaydi poyezd,
Bir go'zal ko'z yoshin qo'ymagay artib.
Vagonning birida sevinchim, g'amim,
Ikkisi bir joyga sig'ila bilmas.
Bulutga qo'shilib uchgan orzular
Umr poyezdiga yig'ila bilmas.

Shundayin umrimdan kechar bir poyezd,
Izlari ko‘ksimda muvoziy o‘qdir.
Oxirgi vagonda umrimning yo‘li,
Hali manzilimning oxiri yo‘qdir.

QAYDADIR

Qaydadir tog‘lari tog‘ga suyanib
Ufqqa qotilgan bir qishloq yashar.
Men qayda bo‘lmayin, tog‘ning soylari
Fikr-u xayolimni ul tomon boshlar.
Hozir u yerlardą to‘yi ta’jildir,
Tindi qora surnay bahor kechasi.
Qaydadir visolning yo‘li ochildi,
Keldi sevganlarning izhor kechasi.
Unda bir go‘zalning o‘tdim yonidan,
Dedilar: buncha tez yelajakdir bu.
Hali mudrab yotar hissi, tuyg‘usi,
Uyg‘onib, qaytadan kelajakdir bu.

KO‘NGLIM

Bulut o‘tmas, tuman ketmas,
Bu savdoning guli bitmas,
Visolingga qo‘lim yetmas,
Zorima, ko‘nglim, zoriqma.
Qalbimda nag‘mang — og‘rigan,
Hasrat bag‘rimni to‘g‘ragan,
Yetolmading... kim qarg‘agan,
Yoringga, ko‘nglim, yoringga.
Boisi ne — tushunmadim,
Tegib ketmang — ko‘nglim kamdir,
Ko‘ksim ostin yarmi g‘amdir,
Yarmi na, ko‘nglim, yarmi na?

Na iloj, yosh o‘tar beshak,
Yillar ochib borar jo‘yak,
Buni fasli yomg‘ir desak,
Qori na, ko‘nglim, qori na?
Dilimga qayg‘ular solgan,
Avjga chiqib, so‘ng tin olgan
Tegib ketding sen o‘rtangan
Torima, ko‘nglim, torima.

ZIRADDIN QAFARLI

Ziraddin Qafarli 1955-yilda Ozarbayjonning To'viz tumanida tug'ilgan. O'rta maktabni bitirgandan keyin 1972–1973-yillarda ishchi bo'lib ishlagan, harbiy xizmatdan so'ng 1983–1989-yillarda M. Gorkiy nomidagi Dunyo adabiyoti institutida o'qigan.

"Yozuvchi" nashriyotida (1989–1993), Ozarbayjon TVda (1993–1997), Adabiy targ'ibot byurosining Sumgait bo'limida (1998–2008) ishlagan. Hozirda Ijtimoiy TVda ishlaydi. Adabiy faoliyatini 70-yillarda boshlagan. Bu kungacha uning beshta she'riy kitobi chop etilgan. "Dunyo bilan yuzma-yuz"(1989), "Haqdan kelgan og'riqlar" (1991), "Seni kutaman"(2002), "Bu yo'ldan o'tgan otliq" (2005), "Qaydasan umrim kunim" (2008).

DUNYO TAMIZLANAR, DUNYO POKLANAR

Ne-ne yo'llar yurib horidi dunyo,
U ham o'z otini minmoq istaydi.
Shunday yona-yona qovrildi dunyo,
Suvlarga otilib cho'mmoq istaydi.
Bevaqt erkimizdan bu dunyo bezdi,
Olisda gizlanmak istaydi yana.
Uni chirk qopladi, uni kir ezdi,
Dunyo tamizlanmak istaydi yana.
Balki jonga tekkan odamlar bari,
Horg'in, xafasidir vaqtning, asrning.
Yozda gul-chechagi, yonbagri, jari,
Qishda ko'rpasidir vaqtning, asrning.
Axir yurt — uyadir bu yer kurrasi,
To'g'ri bo'larmi hech yonmoq bu Yurtga?!

Der edik: jonimiz har bir zarrasi,
Biz yomon, xor boqdik ammo bu Yurtga.
Go‘yo jim har narsa, jimjitdir ellar,
Hayot boshdan oyoq achidi shunday.
Gullamaydi gullar, o‘smaydi gullar,
Bizning dunyomiz ham ranjidi shunday.
Kiftida ne uchun yuk bo‘ldik uning?
Toshib dengizlanmak istaydi dunyo.
Bu mening so‘ngimdir, bu sening so‘nging,
Bizdan tamizlanmak istaydi dunyo.

TERMA

Men-ku seni hech unuta olmayman,
Xotiralar, bas, ne uchun yig‘laydi?!
Yerda, ko‘kda qaror tuta olmayman,
Qolgan heching, ketgan ko‘ching yig‘laydi.
Bo‘m-bo‘sh qoldi o‘ng-u so‘lim, kel ko‘ray,
Ayt, qaydasan, sirli gulim, kel ko‘ray.
Bosdi uyim, sindi qo‘lim, kel ko‘ray,
Hiq-hiq etib sensiz ichim yig‘laydi.
Bu yolg‘izlik yuragimga dard bo‘ldi,
Ziraddinman, uvol ko‘zim to‘rt bo‘ldi,
Bir ortga qayt, ohlarimga ko‘k to‘ldi,
Yo‘llaringda bir ko‘karchin yig‘laydi.

DARDIM

Ne-ne yerga bo‘lingansan,
Bu yoz dardim... bu qish dardim...
Bir olam dunyong bor sening,
O‘z dunyongga sig‘ish, dardim!
Na ketarsan, na qolarsan,
Yana qayga bosh urarsan?!

O‘zing to‘lib bo‘shalarsan,
Bulut dardim, yog‘ish dardim.
Bir oh tortar ko‘k terandan,
Ko‘klarim suv, ko‘klarim nam,
Hasratimning ko‘klaridan
Bulut dardim, yog‘ish dardim.
Uzma safni siyraklatib,
Qatorlarni zaiflatib,
Ko‘zlarimga to‘lma yotib,
Yuragimga yig‘ish, dardim!

RUSTAM BEHRUDIY

Almammadov Rustam Hidoyat o'g'li 1957-yilda O'rdubod tumanining Behrud qishlog'ida tug'ilgan. 1979-yilda Naxchivon Davlat pedagogika institutining tarix-adabiyot fakultetini tamomlagan. Oldin maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan, keyin "Yozuvchi" nashriyotida kichik muharrir, muharrir bo'lgan, 1990-yildan "Ozarbayjon" gazetasida bo'lim mudiri. Adabiy faoliyati 70-yillardan boshlangan. Shoirning ikkita she'riy to'plami nashr qilingan. "Shomon duosi" kitobi turkiy davlatlarda shuhrat qozongan. She'rlari Turkiya, Eron, Avstriya, Germaniya, Belgiya mamlakatlarida nashr qilingan.

SHOMON DUOSI

Bu kunim ham shunchaki
o'tadi, kechib ketar,
Shu yoshgacha ne qildim,
ey Tangrim, umr — yarim.
Meni hech tinch qo'ymaydi
ichimdagi g'am-kadar,
tinch qo'ymas shahidlarning
tunda kezgan ruhlari.
Termular ezgin-ezgin
kechalar bosh ustimdan,
cheksizlik — Tangri kabi
oyi, yulduzi bilan.
Shomon kabi ko'klarga
yuz tutib turibdirman,
turibdirman yuzma-yuz
ko'kning yolg'izi bilan.

Bundoq g‘arib chog‘imda
kelib men-la tillashgan
Og‘ochning yaprog‘iga,
guliga ishonaman.
Yurtim uzra tayanib,
so‘ngan o‘choqlarning man
Ichida qo‘r saqlagan
kuliga ishonaman.
Yaramga tuzdek bosar
savdolar o‘z o‘tini,
Hademay kul bo‘laman...
qolmishman yona-yona.
Tavba duosi ķabi
pichirladim otingni,
Tovshim senga yetdimi,
eshitdingmi, ey ona?!
Tangri bo‘lmoq istayman,
aytgan har bir so‘z — bandam,
So‘zga tilsim etmishman
yuragimning ohini.
Men jonimni bergali
bir yangi so‘zga bandman.
Ey menga jon bergan zot,
kechirgil gunohimni.
Shomon kabi so‘zlardan
men tole to‘qiydirman,
Yuragimda talotum,
ruhimda bir zilzila...
Har kecha osmonlarga
men duo o‘qiydirman —
Ilohim, bu millatni
yo‘q bo‘lmoqdan hifz ayla.

GUNOHKOR JONIMDA, MENDAN XABARSIZ

Ruhim vujudimda aziyat chekar,
Tilimda so‘zlarga chevrilar ohi...
Gunohkor jonimda, mendan xabarsiz,
Qafasda qolgandir ruhim, Ilohi!
Gunohkor jonimda gunohsiz ruhim
Negadir hamisha ko‘klarga boqar.
Ne uchun meni tinch yashashga qo‘ymas,
Men ham o‘zgalardek odamman, axir!
Men ham o‘zgalardek odamman, axir...
Mening ham jonimda hasrat, sevgi, g‘am...
Bu maskan qayg‘usi, bu uy, bu farzand...
Nahotki ruhimga qo‘shilib uchsam.
Nahotki ruhimga qo‘shilib uchsam...
Yuksalsam, poklasa meni bu falak.
Meni qo‘yib yubor, gunohkor jonim,
Poklikdan ne uchun qo‘rqasan, yurak?
Poklikdan ne uchun qo‘rqasan, yurak,
Nega odamlarning har yuzi shundoq?!
Bu dunyo, bu dunyo o‘zidan qochar,
Gunoh ichidadir yer yuzi shundoq.
Ey ruhim, yashama gunoh ichida...
Shundoq ham yuzlaring qancha sarg‘aydi.
Ey meni o‘ldirmoq istagan odam,
Ruhim falakdadir, jonim aldaydi.
Ruhim vujudimda aziyat chekar,
Tilimda so‘zlarga chevrilar ohi.
Gunohkor jonimda, mendan xabarsiz,
Qafasda qolgandir ruhim, Ilohi!

AJDAR O‘L

Sabiyyev Ajdar Fayzulla o‘g‘li 1958-yilda G‘ozimammad shahrida tug‘ilgan. 1979-yilda Ganja Davlat pedagogika institutini tamomlagan. Maktabda o‘qituvchi, “Ishiq” (Nur) nashriyotida musahhih, kichik muharrir, “Nur” nashriyotida bosh muharrir bo‘lib ishlagan. Hozirgi vaqtda moliya vazirligi matbuot xizmati boshlig‘i. She’r, hikoya, pyesa, badia janrlarida ijod qiladi. Yigirmadan ziyod kitob muallifi. Asarlari Turkiyada, Eronda, Polshada nashr etilgan.

ISTIQLOL

Hammaga faxr bilan so‘ylaganim Istiqlol!
Erkimizning rangi deb o‘ylaganim Istiqlol!
Qizargan tong o‘xshaydi bayrog‘im ol qoniga.
Na qilar qonsiz o‘lim maslagim galtoniga.
Ko‘ksimni qalqon qilib kirdim jang maydoniga,
O‘z ichimdan tug‘ilib etdi zuhur Istiqlol!
So‘zda ish, ishda g‘urur, ma’no shudir Istiqlol!
Bizlar seni kutgandik behuda to‘kmadik qon,
Boshini asraganga dedik bosh eg, har qachon.
Qon rangda Kura, Araz, moviy Hazar, yer-osmon,
Ey Yonartog‘da yongan mash’alimiz Istiqlol!
Ey Gobustonda to‘ngan haykalimiz Istiqlol!
Aytaman men uzoqqa, ham yaqin, ham o‘zimga,
Bermayman qo‘ldan uni, diqqat qilgin so‘zimga,
Ammo sherik qilgayman Zanqonim, Tabrizimga,
Mayli o‘tsin Arazni surgun bo‘lgan Istiqlol!
Ey mening erkim bo‘lgan, ko‘rkim bo‘lgan Istiqlol!
Tildan qolar yog‘iylar, soqov kabi, qor kabi,
Ajratolmas bayrog‘im uch rangini ko‘r kabi.
Shonlidir o‘tmishimiz — yigirma yanvar kabi.

Ey shahid o‘g‘li shahid, mangu hayot Istiqlol!
Qahramonlik ishimiz, obihayot Istiqlol!
Toki qonxo‘r yovuzlar makrli, hiylasi bor,
Bu go‘zal mamlakatga g‘animlar tahlikasi bor,
Garchi dunyoning azizim quruq bir haq sasi bor,
Milliydir, milliy bo‘lib, milliy qolar Istiqlol!
Balli[1] dir, balli bo‘lib, balli qolar Istiqlol!
Vatani hur bo‘lganning fikri, so‘zi hur bo‘lur,
O‘zini hur qilganning o‘g‘li-qizi hur bo‘lur,
Qaddini tik tutadi, demak o‘zi hur bo‘lur,
Aytaverayinmi yana naylayajak Istiqlol!
Ajdar O‘l der: — bizlarni biz aylayajak Istiqlol!

CHAPAQAY

O‘ng qo‘limni yo‘qotdim Qorabog‘ savashida,
Qo‘lim uzilib qoldi yurtimning u boshida.
Xushlamay har narsani ellik bora chizishni,
Bir amallab o‘rgandim chap qo‘limda yozishni.
Chapaqayman, desangiz, yarashmas, bu boshqacha,
O‘ng qo‘l bilan ko‘rishish lazzati ham boshqacha.
Kechikkan chapaqaylik yomon bajaradi ish,
O‘ng qo‘l o‘tmishin eslab battar ortadi tashvish.
Na to‘yda o‘ynay olgum, na mashina suraman,
Tobutning ostiga ham chap tomondan kiraman.
Nima qilay, na chora, ko‘nglimni ko‘tarishdi,
Bir qo‘l bajaradigan mosroq bir ish berishdi.
Maqtangulik joyi yo‘q, na bedarak yitganman,
Na-da Vatan yo‘lida qurbon bo‘lib ketganman.
Bir qo‘l — yolg‘iz qanotdir yetmasa ham uchmoqqa,
Lekin kifoya qilar bir bolamni quchmoqqa.
Alam qilgan tomoni — na yara, na xastalik,
Qo‘ldan ketdi Qorabog‘, o‘ng qo‘lim ham ustalik[2].

[1] **Balli** — aniq, belgili.
[2] **Ustalik** — ustiga ustak.

QASHAM NASAFZODA

Qasham Nasafzoda 1959-yilda Ozarbayjonning Imishli mintaqasida tug'ilgan. Ta'lim fakultetini tamomlagan. Tafakkur universitetida katta muallim vazifasida ishlagan."Ozarbayjon" jurnalining she'riyat bo'limini boshqargan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining Boshqaruv hay'ati a'zosi, Bolalar adabiyoti seksiyasining rahbari bo'lgan.

"Sevgining so'ngini so'ylamang menga", "Uxlayotgan dengiz rasmi", "Bir kelin dolga bilan yonma-yon", "Sevishni istayman yangidan", "Kulimsagan daraxt", "She'rimning dastasi", "Seni eslaganimda", "Alvido, dunyoga kelgunga qadar" kabi va boshqa kitoblari nashr etilgan. She'rlari rus, ingliz, fransuz, golland, turk va boshqa yigirmadan ortiq tillarga tarjima qilingan. 2004-yilda Madridda "Xalqaro Qizil Priz" mukofotiga, 2006-yilda Tavfiq Mahmud mukofotiga, 2008-yilda Rasul Rizo Xalqaro she'riyat mukofotiga loyiq ko'rilgan.

O'G'LIM, ESHIKNI OCH, ESHIKDA BIR SHAMOL O'LDI

Balki kecha butoqni sen sindirgandirsan...
O'g'lim, eshikni och, eshikda bir shamol o'ldi.
Balki kecha sen bir daraxt ekmagandirsan,
Bas nega o'lmasin eshigimizda shamol?
Balki bir daraxtning kamaygandir yaprog'i
Oyog'ini qayerga tirasin shamol?
Shamolning suvrati edi — qizlarning sochlari...
Qani sochlar?
Uchib ketmish shamolning tirgagi.
Shamol kerak otga tegsin uchun, ot qani?
Shamol kerak sochga tegsin uchun, soch qani?

Sevishganlar orasidan o‘tish uchun shamol kerak,
O‘tib bo‘ldi deysan o‘g‘lim, oh, eshikda bir shamol o‘lgan.
Shamol odamga tegar, o‘sa boshlar
Chaqaloq bir kurtak kabi
Ustki butoqlari chiqar.
Shamol kerak qo‘ldan tutib turg‘azishga,
O‘tdan yuksalar,
Dunyoga bir yashil yaproqdan esar.
Kerak deraza oynasiga shamol,
Cho‘qqiga intilgan bir bola paypog‘iga tegar.
Esdi, esdi tayanishga qo‘l topmadi.
Biroz ko‘rinishga bir qil topmadi,
Atrin tashimoqqa bir gul topmadi,
Bir paypoq ko‘rmadi cho‘qqida siypalashga,
Qani, qani bolalar?
Bir yo‘l topmadi to‘zini to‘zg‘itishga
Yo‘lni bosibdi o‘tlar.
O‘tlarning ustida surishdi shamol
Tura olmadi oyoqqa.
O‘glim, eshikni och, eshikda bir shamol o‘ldi ...
U shamolni yig‘latgan eng ko‘p sening
Shamol kabi yuksalgan toring bo‘lajak.

IKKI SAHIFA

Qishloq yonidagi eski tegirmon
Ko‘z o‘ngimda hamon,
Yodimda qolgan yomon.

OMON, OMON, VOH OMON

Otam-la keltirgandik bug‘doy torttirishga,
Endigina o‘tgandim yettinchi sinfga,
Qo‘limda adabiyot kitobi,

Bir varag‘ini qat-qat qilib buklagandim
Yangi darsning joyini.
Tirik bir soat chirillardi
Qat-qat buklaganim varaqdan.
Bir kelin ham bor edi qishloqlik, ersiz.
Qo‘llari bug‘doy toylari-la band
Biroz hadikli
Yuzlari oq, ko‘ylagi chitdan.
Tegirmonchi
Don qabul qiluvchi bobo,
Oriq, mo‘ylovli
Qora chigirtka kabi kishi
Chiqar yuqori, sakrar quyiga.
Mo‘ylovi, qoshini qoplagan un
kun shu’lasida yiltillaydi,
Ko‘zlari kalamush ko‘zlariday miltillaydi.
Tegirmonchi
Don qabul qiluvchi bobo,
U yoqqa chopdi,
Bu yoqqa chopdi,
Birdan pastlikka yotdi,
Atrofni kuzatdi,
Kutilmaganda pastdan tepaga
Kelinga tikildi.
Bir ko‘zining ajinlari
oq varaq kabi qat-qatlandi.
Bas, ne edi u ko‘zlarni qat-qatlagan?
Kelin yerga kirib ketgudek edi.
Yuragim baliq kabi tipirlardi.
Uyga qaytdim
Qulog‘imda tegirmon ovozi
Yodimda esa ikki sahifa:
Biri adabiyot kitobimda qat-qat buklangan varaq.
Ikkinchisi tegirmonchining varaq kabi
qat-qatlangan ko‘zlari
Erotikaning ilk sahifasi.

KATTALAR SANAMASI

Yaxshiyamki, men senga telefon qildim,
Yaxshiyamki, telefonni o'chirib qo'yding,
Yaxshiyamki, sababini surishtirmadim,
Yaxshiyamki, endi meni sevmasligingni,
Ayta qolding...
Yaxshiyamki, men seni o'ldirmadim,
Yaxshiyamki, yaqinimga kelmading sen ham,
Yaxshiyamki, men ham seni quvib solmadim,
Yaxshiyamki, sen ham qochmading,
Yaxshiyamki, men chiqib bu tarafga ketdim,
Yaxshiyamki, sen ham chiqib u tarafga ketding.

OZOD YASHAR

Ozod Ilyos o'g'li Farajov 1961-yilda tug'ilgan. Ilk she'ri 1998-yilda bosilgan. Asarlari Moskva, Istanbul, Kiyevning nufuzli adabiy jurnallarida chop etilgan. Dunyo adabiyotining 150 dan ziyod yozuvchilar asarlarini ozarbayjon tiliga tarjima qilgan. Shular orasida Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy"sidan hikoyatlar, G.Mopassanning "Tanlangan asarlar"i, Y. Kapettining "Ko'rlashma" romani, absurd teatr namunalari, rus postmodern antologiyasi bor.

KICHIK SHE'RLAR YOZISHIM BOISI

Kichik she'rlar yozishimning boisi
Aslida ularni
Kichik qog'ozlarga she'r yozishdandir.
Kichik qog'ozdagi kichik bo'sh joyni
She'rim yozib tor joyni
Kichik ash'or bilan to'lg'azishdandir.
Keyin esa ayni shu kichik she'rlarim
Kichik kitoblarda chop etiladi.
Bularning hammasi tuzatiladi,
Chunki o'quvchimning yuragi meni
Tushuna olmas darajada kichik,
Ko'zi esa tor bo'ladi.
Hattoki egnimga kiyganim ko'ylak
Yashab turgan mo'jaz manzilim kabi
Murg'ak fikrlarimga ham tor keladi:
Bu qog'oz,
Bu dunyo,

Bu ko‘k yuzi,
Bu yer yuzi,
Joy yo‘qligidan.
Hali mo‘jaz-mitti rasmlar
Chizganimni aytib nima qilaman.
Joysizlikdan hech qanday rasm
Chizmaganimni ham faqat o‘zim bilaman.

QOG‘OZ PUL VA PUL QOG‘OZ

Ora-sira do‘kondan
Uyga narsa olganda,
Cho‘ntagimdan qog‘oz pul
Izlagan paytim
Puldan ham ko‘proq
Qo‘limga qisqa she’rlar yozganim
Qog‘oz pul ilashganin
Yaxshi farqlay olaman.
Shu boisdan ham,
Anovi juft old tishi
Yirik va siyrak bo‘lgan
Sotuvchi qizning har safar
“Piq-piq” kulishlariga
Chidamoqdan boshqa
Choram qolmaydi.
Chunki moddiylikka
Asoslagan ushbu dunyoda
She’r yozilgan qog‘oz parchasining
Bir panjacha qog‘oz pul o‘rnini
Bosa olmasligini o‘sha qizchalik
Men ham bilaman.
Lekin oramizda bitta farq bor:
U bu ahvolga kuladi shirin-shirin,
Men bo‘lsam achchiq-achchiq.

Aslida esa,
U menga kulganchalik
Men ham har borada
Tuzalib ulgurmagan
Zamonaga kulaman.

MUSHKUL MASALA

Sendan nima istaganini
O‘zi ham bilmagan kimsaga
U istagan narsani berish
Juda-juda mushkul masala.

HA BILAN YO‘Q

Hayot —
Tangri bizga bergan
Ajib bir ne’mat,
Chunki yashab bo‘lmas
Xotinlar bilan,
Lekin ularsiz ham
Yashab bo‘lmaydi.

ELSHON AZIM

Elshon Azim 1975-yil Ozarbayjonning Kalbajar tumanida tug'ilgan. U tavallud topgan joy shoir o'smirligida bosqinchilar tomonidan istilo qilingandi. U yerdagi ozarlarga nisbatan tazyiq, moddiy va ma'naviy ta'qiblar, xususan, tinch aholining uy va mol-mulklari sababsiz yoqib yuborilishi shoir oilasi va boshqa kalbajarlik ozariylarni Bokuga kelishga majbur qiladi.

Elshon Azim o'z she'rlarida Vatan sog'inchini kuylaydi, ota yurtdan ketish iztirobini tiniq va quyuq bo'yoqlarda, xalqona tilda tasvirlab beradi.

QULF

Rustam Kamolga

Bizlarda qolmishdir bir dasta kalit,
Darvoza kaliti, uyning kaliti.
Kayfim o'chib ketdi —
Qulflanib qolib,
Uyimiz ichida qolmish kaliti.
Boshimiz aylandi, qanotlar sindi,
Xotiralar qoldi yilning ortida.
Bilaman eshiklar, uylar yonida
Kalitlar qolgandir kulning ostida.
O kalit, yaxshi bir kunning birida,
Jimjitlik qo'lida zanglardi tunlar.
Tuproqqa qo'shilgan kalit o'rniga,
Har bahor bir sog'inch chechagi unar.
Eshikni ko'rmadim o'sha vaqtdan so'ng,
Bu dardning achchig'i ichimga tushdi.

Endi men ne qilay?
Boshqa eshikka —
Bizning kalitlarning tushmadi mushti.
Har taraf yuzlandim. Javdirab boqdim,
Umid qulflari qulfladi meni.
Ochilar o‘n yil berk turgan eshikni.
Qulflanib qolgandi qurollarimiz,
Bog‘langan qo‘limda tirildi titroq,
Boshim omon qoldi — turganim-chun jim.
Og‘zim qulflangan, tilim ham qulfloq.
Bir kunda tark etdik ota yurtini,
Dardni ko‘ch ustiga yashirib keldik.
Holimizga qara, ota yurtini —
Chirigan qulfga topshirib keldik.
Joylar qoyalardan ko‘rinar xira
Buloqlar yig‘ladi dilga solib cho‘g‘,
Bu qadar hasratim, bu qadar dardim —
Eshigimiz bor-u kalitimiz yo‘q.

* * *

Bir hovuch tuproq
Menga ketma, dedi —
Vatan tuprog‘i,
Yolvorib yopishdi,
Oyoqlarimga
Yopishib ortimga
Tuflilarimning
Keldi bu shaharga...
Oyoqlarimni artdim
Qayta va qayta —
Kiraverishdagi yo‘lak oldida.
Tog‘ oshib kelmishdim,
Havoyi emasdim axir.
Tosh-tuproq ichindan

To‘sdim yo‘lini.
Artdim oyog‘imni,
Qoqdim ustimni,
O shunday yo‘qotdim undin,
Vatan tuprog‘ini.

Qarang ko‘rinar
Onaning quchog‘inda
Otaning o‘chog‘inda
Umrning pichog‘inda —
Qarang, ko‘rinar o‘lim.
Kuning oq yuzindadir,
Suting ham og‘zingdadir,
Qanding qog‘ozingdadir —
Shirin ko‘rinar o‘lim.
Bir ishning o‘rtasinda,
Kuning kun o‘rtasinda,
Umrning o‘rtasinda
Yering ko‘rinar o‘lim!

* * *

Yo‘l topa bilsam
Qadamimni bosmam sen bo‘lgan yerga,
Sen bo‘lmagan yerga yo‘l topa bilsam.
Uyimdan quvaman Hayollaringni —
Sen yetib bormagan cho‘l topa bilsam.
Sening biror kasga minnating yo‘qdir,
Meni ham yondirgan hasratim yo‘qdir.
Balki unutmoq ham qiyin emasdir,
Agar yuragimga til topa bilsam.
Chekkan bu g‘amlarim oz deyolmayman,
Elshanni yiqitdi ko‘z deyolmayman.
Sana, guldan og‘ir so‘z deyolmayman,
Sana, so‘zdan og‘ir gul topa bilsam.

ALISH AVAZ

Alish Avaz — ozarbayjon she'riyatining mumtoz va zamonaviy ohanglarini omixta qilgan holda ijod qilayotgan shoirdir. U 1956-yil 1-iyulda tug'ilgan. Moskva universitetining jurnalistika fakultetida tahsil olgan. Bugungi kunda Rossiya davlat tarix muzeyida ish olib bormoqda.

BORAMIZ

(Taronayi turki g'amxo'rona)
Kelajakka biz shiddat-la yota-yota boramiz,
Mardimizni nomardlarga sota-sota boramiz.

Ketar yo'lning so'ng manzili — Yaratganning devoni,
Bila-bila, gunohlarga bota-bota boramiz.

Sabr etganning sabri pinhon edi, bo'ldi chorasiz,
Toq sabrni juft sabrga chata-chata boramiz.

Yumilgandir ko'zlarimiz, uyqudamiz, azizim,
Hunarga boq, ki havodan tuta-tuta boramiz.

Qo'shnilarning atom, lazer quroli bor, biz esa
Kamon cho'zib, qush-qumursqa ota-ota boramiz.

Haqli bo'lib, taskin topib o'zimizga o'zimiz
Yolg'onlarni xayollarga qota-qota boramiz.

G'aribimning qabrin zolim shayton kerib qazarkan,
G'urbatlarga, musofirga keta-keta boramiz.

Ketgan o‘g‘uz tuproqlari bizga kerak emasmi,
Shirin Turon orzusini tota-tota boramiz.

Ikki so‘zi ikkimizning bir bo‘lmadi, ko‘p hayf!
Birlik so‘zin holva kabi yuta-yuta boramiz.

Sen yigitsan, men — qahramon,
yo‘qdir bizga barobar,
Havo yig‘ib bosh ichinda, ota-ota boramiz.

Insof ayla, kel Alishning so‘zin solma gunohga,
Shundoq ketsa millat, oxir bota-bota boramiz!

19-yanvar, 2013-yil

KEL, BIRGA KETAYLIK

Ketaman...
Kel, birga ketaylik.
Ketaylik.
Ufqlarga, zamonlarga
Yetaylik.

Ketaman...
Kel, birga boraylik.
U yerda bog‘chalar, gulzorlar
Chechak-chechak,
Ketaylik, chechaklar teraylik
Etak-etak.

Ketaman...
Kel, birga ketaylik.
Ketaylik bo‘ynimiz qotmagan,
Yo‘limiz botmagan
So‘ngsizlikka o‘taylik.

Dunyomiz kechguvchidir,
Umrimiz ko‘chguvchidir,
Boqishlar o‘tguvchidir,
Ketaman...
Meni qoldirma yolg‘iz,
Kel, birga ketamiz.

1-mart, 2018-yil

MUNOJOT

(“Ilohiyalar” turkumidan)

O‘zgardi zamona, o‘zgardi inson,
Har kimning qalbida bor o‘z ilohi.
Xudoyo, Sen o‘zing yetgin har kimga,
Chiqmoqda falakka bandaning ohi!

Bir g‘animga do‘ndi insonga inson,
Ko‘plari chiqardi Seni yodidan.
Tirildi Ibrohim sindirgan butlar,
Ilohlik qilarlar Sening otingdan.

Ilohlik qilarlar mening asrimda,
Sha’r amallardan qayta qurganlar.
Sendan uyalmaslar, qo‘rqmaslar sira
Yolg‘onchi “dindor”lar, dinsiz turganlar.

Haqiqat o‘zi bir mutlaq nizomdir,
O‘zga qoidaga men inonmasman.
Shundoq o‘zgararmi charxning nizomi,
Balkim, matlabi ko‘p, Tangrim, ko‘nmasman?!

O‘zingga ayondir: o‘zgadir iloh
Hindistonda, Rusda, Yaponda, Chinda...
O‘zing madad bergin, la’nati inson,
Yotibdi, botibdi butlar ichindi!

Qodirsan, odilsan, maslahat sening,
Yerni ham, ko‘kni ham sen yaratgansan!
Ko‘rib muhabbatsiz amalimizni,
Balkim, nazaringdan bizni otgansan?!

Yopiqdir eshigi yurakning, qalbning,
Vaqtida ko‘rmaymiz haqni, ayonni.
Shubhasiz, ichingda iblis hukm etar,
Til yolg‘on deganda yurak deganni!

Dinlar — dargohingga eltuvchi yo‘llar,
Muqaddasdir to‘g‘ri yo‘lda jangimiz.
Birdir so‘ng manzili barcha yo‘llarning,
Afsus, anglamadi buni ongimiz!

Musulmon, xochparast, yahudiy, budda...
Yana to‘g‘ri bilar o‘zini qarab.
Dinlar, tariqatlar hisobi bitmas,
Vohid inonch bergin basharga, yo Rab!

Bilaman, ishingga qo‘l uzatdim men,
Afg‘onim socharman o‘tli ohimdan.
Bir munojotimdir bu she’r, Ilohim,
Vohid Yaratganim, kech gunohimdan!

27.12.2009

YUZI BOR

(“Ilohiyalar” turkumidan)

Dunyo bino bo‘lgan kundan
Kular yuzi, sart yuzi bor,
Odam va Nuh tarixidian
Nomard yuzi, mard yuzi bor.

Jafosi ko‘p safosidan,
To‘yinmadik vafosidan.

Havvo — Qobil g‘avg‘osidan
Meros qolgan dard yuzi bor.

Alish, baxting shunday tushdi:
Bir yuzi toq, biri beshdir.
Yashamoqlik qiyin ishdir,
Zorning hali to‘rt yuzi bor...

6.11.2013

QORONG‘ULIK O‘TGUNICHA

Ibn Sino, Navoiy yurtining haqiqat jarchisi, talabalik do‘stim, taniqli o‘zbek shoiri va yozuvchisi Karim Bahriyevga bag‘ishlayman.

* * *

Tangrim, menga bir umr ber
Dardlarimni chekkangacha.
Zahar ichdim, mo‘min bo‘lib
Shirin sharbat ichgangacha.

Ketar qishlar, kelar yozlar,
G‘arib ko‘nglim chalar sozlar.
Sorbon yig‘lar, nori bo‘zlar,
Qachongacha, qachongacha?!

Haq buyuk, bosh kichiklandi,
Baxtim bo‘yga bichilgandi.
Qoradan oq archilgandi,
Oqi bo‘zdan bichilgancha.

Azoblardan o‘tajakman,
O‘lsam yana bitajakman.

Haq yo‘lida ketajakman
Dunyodan dard ko‘chgunicha.

Dard muhimdir, chekib ketgum,
Qadim tugun — yechib ketgum.
Ko‘kka yulduz sochib ketgum
Qorong‘ulik kechgunicha.

27.04.2013

AKIF AZALP

Akif Azalp (Akif Bagirov) shoir, olim, tarjimon bo'lib, filologiya fanlari doktori hamdir. Naxichevanning Shohbuz tumanidagi Nursu kentida o'rta maktabni tugatib, Boku universitetida va Toshkent universitetida tahsil olgan hamda Til va adabiyot institutida ilmiy izlanishlar olib borgan. U ozarbayjoncha, turkcha va o'zbekchada erkin yozadi.

Akif Azalpning "Turk tilli poeziyada tuyuq (janr poetikasi va tarixi)", "Badiiy ideal va tarixiy haqiqat (muammoning nazariyasiga doir)" singari ilmiy tadqiqotlari mavjud. Qator she'riy va tarjima kitoblarining muallifi.

ABDULLA QODIRIY SURATI O'NGIDA

Qachondir gal yetib mangu firoqqa,
Jon talvasasida yo mahshar kuni
Tutguday bo'lishsa qaltis so'roqqa:
"Haqiqat nima u, ko'rdingmi uni?!
Payqadingmi uning o'tli kurashin
Yolg'onlarga qarshi qatorasiga,
Nafratin baralla tuflab tashlashin
Yovuz saltanatning basharasiga?!
Hech ko'rdingmi uning jar yoqasida
O'limning ko'ziga tik qaraganin,
Mag'rurona turib dorlar ostida
Toptalgan yurt uchun xun so'raganin?!
Kuzatdingmi uning erk tug'in tutib,
Zulmatga yog'dular taratganini,
Yonar so'z ishqida o'zni unutib,

Qanday mo‘jizalar yaratganini?!
Nihoyat, bormidi uning chindan ham
Odamzod qavmidan biror timsoli,
Cho‘kkanida unga cho‘p ham tutmagan
Olomon nazdida yorqin misoli?!
Ko‘rgan bo‘lsang, ayt, bosmasdan titroq,
Qayda ul durri haq, kim u azamat?!” —
Deyishsa, bariga javob o‘laroq,
Men Sizni ko‘rsatgan bo‘lardim faqat!

1994

UMMON

Kom istab to‘rt ummon ihotasida,
Zamin ko‘z tutganda cheksizlik tomon,
So‘nggi mingyillikning qoq o‘rtasida
Guvullay boshladi boshqa bir ummon.
Sarkash to‘lqinlari ko‘klarga tutash,
Cho‘ng xazinalari so‘zda namoyon,
Qit’alar quchgancha ulg‘aydi yakkash, -
To‘rt ummon bir yon-u u o‘zi bir yon.
Bashar zor qolganda nurga, ziyoga,
Asov daryolari qo‘ynida suron,
Uni berish uchun bir kam dunyoga
Besh asr to‘lg‘andi dard tutgan Turon.
So‘ng besh yuz yil uning noyob durlarin
Kuylab yuksalsa-da tengsiz ovozlar,
Oqibat yecholmay o‘tdi sirlarin
Qancha sayyohlar-u ne-ne g‘avvoslar.
Shu bo‘yi bilmasdan makon va zamon,
Yangi ufqlarga solgancha tug‘yon
Mangulik yog‘dusin taratar hamon
Alisher Navoiy atalgan ummon!

1991

OQ QOG‘OZGA

Yodlarman sening-la o‘tgan yillarni,
Omonsiz yo‘llarda yolg‘iz yo‘ldoshim!
Tug‘gandan, qardoshdan, do‘stdan yaqinroq
Qalam orqadoshim, ko‘ngil sirdoshim!
Og‘ushing sehrlar chog‘da har safar
Chevriladi bari she’rga, g‘azalga,
Men sening yuzingga bog‘ganim qadar
Hali boqmaganman hech bir go‘zalga!
Bo‘lgandir, hushimni boshdan olganda,
Seni gul o‘rnida hidlaganman men!
Bo‘lgandir, charchoqda qo‘lim tolganda,
Bosh qo‘yib yuzingga uxlaganman men!
Haqning, adolatning g‘amin yeganda,
Kimlarni yop-yolg‘iz eshitganding sen.
Yuzingga bog‘gancha yolg‘on deganda
Kimlarni kafanga o‘ratganding sen.

Omon bo‘l. Men senga hayron bog‘ganda,
Sen meni ishvali bag‘ringga tortding.
Men sening yuzingni qora qilganda,
Sen mening yuzimni xalqqa oq etding!

1987

MAMMAD ISMOIL

Mammad Ismoil 1964-yilda Ozarbayjon Davlat universitetini, 1975-yilda Moskvada Oliy Adabiyot kursini tamomlagan. 1998-yilda filologiya fanlari nomzodi bo'lgan. Qazax tumanlararo "Qalbiyat bayrog'i" gazetasida musahhih, Ozarbayjon Teleradio qo'mitasida muharrir, bo'lim mudiri, "Adabiyot va injasan'at" gazetasida muxbir, "Ozarbayjonfilm" kinostudiyasi ilmiy-ommabop filmlar studiyasida bosh muharrir, "Tenchlik" jurnali Bosh muharriri, Ozarbayjon Teleradioeshittirishlar shirkatining raisi bo'lib ishlagan. Hozirgi vaqtda Turkiyaning Chanoqqal'a universitetida o'qituvchilik qilmoqda. 14 yoshidan boshlab badiiy ijod bilan shug'ullanadi.

Ozarbayjon Yozuvchilar va Jurnalistlar uyushmalarining a'zosi. Ozarbayjon, rus, turk, qozoq va boshqa tillarda o'ttizdan ortiq badiiy va ilmiy kitoblari nashr etilgan. Mammad Ismoil o'tgan asrning 70–80-yillarida o'z she'riyati bilan ozarbayjon xalqining milliy mustaqilligi uchun qattiq kurashgan shoirlardan biridir.

KIMNI GELLAYAPSAN?

Hech anglab yetmadik sen qanday sirsan,
Ishchisan, dehqonsan, yana nozirsan.
Kimning ulushiga nozir-hozirsan,
Kimni gellayapsan, ey zolim o'g'li?
Quloqlar limmo-lim to'ldi yolg'onga,
Uyatmi — berganga? Uyat — olganga!
Qanday yedirasan barin bolangga,
Kimni gellayapsan, ey zolim o'g'li?
O'rgangan nafsingni kattaroq ochma.
Tuproqning tagini ustiga sochma.

Senga savolim ko‘p, to‘xtab tur, qochma,
Kimni gellayapsan, ey zolim o‘g‘li?
Kaliso, machitdan kelmas bu sado,
Bu yel ham bizniki emasmidi yo?
Tillaring bamisli bulbuli go‘yo,
Kimni gellayapsan, ey zolim o‘g‘li?
Bizlarni sotgan kim, sotilganlar kim?
Tosh otgan, tosh bo‘lib otilganlar kim?
Qashshoq kim va boylik orttirganlar kim?
Kimni gellayapsan, ey zolim o‘g‘li?
Qo‘l qo‘lni moylasa kulgili emas,
Aftidan har mato ulgilik emas,
Sen aytganday dunyo tulkilik emas,
Kimni gellayapsan, ey zolim o‘g‘li?
Ochdingmi ochilmas sirni sen o‘zing,
Qayga boshlayapsan yerni sen o‘zing,
Yebto‘ymas yuhoning qornisan o‘zing,
Kimni aldayapsan, ey zolim o‘g‘li?
Na tilni, na haqni o‘rtoq bilasan,
Yaqin manzilni ham uzoq qilasan,
Xalq seni anglasa, qandoq qilasan?
Kimni gellayapsan, ey zolim o‘g‘li?

BU XALQ QARS URISHNI O‘RGANAR HALI

Kelajak she’rxoni! Tushun bu vaqtni...
Qishloqda o‘tkazmas qo‘shin bu vaqtni.
Eshikni qor bosmish, qishning bu vaqti,
Hozir ish vaqti...
Bu xalq qars urishni o‘rganar hali.
Oyoqqa qalqmoqni ko‘pdan unutgan,
Mazani, chaqmoqni ko‘pdan unutgan,
Tonglarga boqmoqni ko‘pdan unutgan, —
Bu xalq qars urishni o‘rganar hali.

Boshining ustida haq duosi yo‘q,
To‘yda raqs, azada diydiyosi yo‘q,
Balki millat bo‘lmoq alifbosi yo‘q,—
Bu xalq qars urishni o‘rganar hali.
Tushmish orqasiga savlatli o‘tmish,
Navbatini sotmish, navbati — o‘tmish,
Ko‘voni talatgan, asosi bitmish,—
Bu xalq qars urishni o‘rganar hali.
Bugungi ishini so‘ngga qo‘ygan xalq,
G‘azab qilichini qinga qo‘ygan xalq,
Qon oqqan qo‘liga xina qo‘ygan xalq, —
Bu xalq qars urishni o‘rganar hali.
Sandig‘i ochilgan, ipagi — qo‘lda,
Tilingan terisi, suyagi — qo‘lda,
Qo‘ldadir, dirijor cho‘pchasi — qo‘lda...
Bu xalq qars urishni o‘rganar hali.
Balki g‘azabiga, kiniga chalar,
Yuzsiz, sharafsizning sha’niga chalar,
Biluvchi yo‘q, qaysi kuniga chalar, —
Bu xalq qars urishni o‘rganar hali.
O‘z mag‘zin tepganning tepkisini chal,
Pullarin tortib ol, eshigini chal,
Shoir, sen o‘z yering chapagini chal,—
Bu xalq qars urishni o‘rganar hali.

MEN SHOIR EMASMAN...

Bu xalq yetti yoqdan zavola keldi,
Men xalqning so‘zamol tili bo‘lmadim.
Bu xalqning boshiga ming balo keldi,
Men faqat to‘zidim, dali bo‘lmadim,
Men shoir emasman, otman, jigarim.
Ne holga soldilar tuproqni, toshni,
Yovlashdi amiri, fuqarolari,
Qancha boy berildi necha xalq boshi,

Ne aqli o‘tkir-u ne yaktolari...
Men shoir emasman, otman, jigarim.
Yozganlarim bari — qalampir, qo‘rqma,
O‘lim edi umrim so‘ngidagi g‘am.
Sen gul-u bulbulni ko‘zimga suqma,
Men guldan, bulbuldan she’r yoza olmam,
Men shoir emasman, otman, jigarim.
Jigari uyida jigar g‘aribdir,
So‘zimdan kuch olmas yetim-yesirlar.
Evohki, Alloh ham yuz o‘giribdir,
Qachondan beri hech ochilmas sirlar...
Men shoir emasman, otman, jigarim.
Dilimdan chiqqan so‘z jilvagar emas,
Kim ham oshiq bo‘lar qora qoshimga.
Har oti Muhammad — payg‘ambar emas,
Otimga aldanib boqmang boshimga...
Men shoir emasman, otman, jigarim.
Vatan tilka-tilka bo‘linib yotsa,
O‘tgan umring nuqul qarzlarga botsa,
Imoning uyquda, qalb to‘la gumon,
Daraning ahmog‘i, cho‘lning telbasi,
Yurtning qo‘rqoqqina gung talabasi,
Bir chumchuq bolaman, ne desang shuman, —
Men shoir emasman, otman, jigarim.
Uyidan haydalgan chollar — ko‘chada,
Bo‘sh qolgan yurtlarda uvlashar itlar...
Shoir Qorabog‘da, shoir Go‘yjada,
El uchun bermoqda jonin shahidlar...
Men shoir emasman, otman, jigarim.
Kim ochdi? Ochilgan bu qanday bozor?
Kim qoldi, kim oldi, sotdi, ne bilay?
Hammaning jonini qonatdi ozor,
Mukofotni olgan zotmi, ne bilay?
Men shoir emasman, otman, jigarim.
Qismatim ilohiy nurdan demadi,
Nafsim qayg‘ularning talab maydoni.

El meni o‘ziga qurbon demadi,
Yo‘limni ko‘zlamas Halab maydoni,—
Men shoir emasman, otman, jigarim.
Arzon qayg‘ularga qorishdi boshim,
Kamfursat baxtimning qulog‘i karmi?
Men shoir emasman, otman, qardoshim,
Men shoir emasman, otman, jigarim.

ELCHIN ISKANDARZODA

1964-yilda Ozarbayjonning Shusha shahrida tug'ilgan. 1986-yilda Ozarbayjon Texnika universitetining Mexanika fakultetini tugatgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. Dunyoning turli mamlakatlarida o'tkazilgan ellikdan ortiq xalqaro ilmiy qurultoy, kongress, simpozium va konferensiyalarda ishtirok etgan. Qator xalqaro miqyosdagi yirik adabiy, madaniy tadbirlarning tashkilotchisi hisoblanadi. Bir qancha xalqaro mukofotlarga sazovor bo'ldi.

YOMG'IR QO'SHIG'I

Tohir Qahhor tarjimasi

Yana iliq yomgirlar
Hayotimga yog'moqda
Muhabbating malagi
Ko'zlarimga boqmoqda.
Oppoqoy... Derazada
Yashil bir kaktus o'sar.
Hech so'zlama! Biroz kul.
Kulging dunyoni bezar.
Qo'y, to'kilsin yulduzlar
Pari tun etagidan...
Yolg'iz seni tilarmen
Muhabbat malagidan.

YOLG'IZLIK QO'SHIG'I

Tohir Qahhor tarjimasi

Yana yoz yomg'irlari
Derazamni chertadir.

Ayriliqning o‘tlari
Borlig‘im eritadir.
Yana seni afv etdim,
Kirding oq xotiramga.
Yozdim qayg‘ularimni
She’rimda har satrimga.
Jimdir oppoq telefon,
Yulduz foli yolg‘ondir.
U yozning yomg‘iridan
Bir xotira qolgandir...

G‘URBATDA BAHOR

Alisher Tursunov tarjimasi

Tashqarida yoz issig‘i,
urug‘lar homilador...
Har lahzam aylanar yilga
kutmoqdaman bahorni.
Bir kun qanot yozib uchsam agar
Tug‘ilgan maskanim sari
shoxdan uzaman bir chechak
hamda uzib olgan gulimni
yuborajakman senga...

SHOIRLAR

Alisher Tursunov tarjimasi

Qushlar ozod,
daraxtlar baxtiyor.
Parvoz etgan qushning, chechak ochgan
daraxtning
o‘z hayoti, tushlari bor.
Hamda yulduzlarning bog‘ida
shoir umri, dunyosi bor
ozod baxtiyor.
Shoirlar sevgan ayollariga
yulduzlardan toj yasaydi.

Shoirlar parvozlagan qushning, chechak
ochgan daraxtning
tushlarini ko‘radi.
ozodlik
Keng osmonda uchgan qush,
uchgin — qo‘ngin yelkamga
Men ham bugun ozoddirman sen kabi.
Guldan gulga uchib yurgan kapalak,
uchgin — kelgin mening qalbimga
men ham bugun ozoddirman sen kabi.
Olislardan kelmoqdaman olislardan,
chiqqin peshvoz tong yulduzi
men ham bugun ozoddirman sen kabi.
Chiq to‘lqinlar qo‘ynidan
chiqqin dengizning qizi
men ham bugun ozoddirman sen kabi.

KAPALAK UMRI

Alisher Tursunov tarjimasi

Sochlaridan
ko‘ksiga
ipak parda tutgan qiz
o‘n yettida hanuz.
Insonlar orasida
malak yanglig‘ yoppa-yolg‘iz ...
Tunlari falakka qaytmoqni,
yulduzlardek nur taratib so‘nmoqni
o‘chmoqni, nur sochmoqni
va barcha insonlardan qochmoqni
o‘tkazadi dilidan...
Turkular aytar,
ko‘ngli hech to‘lmas,
Duolar aylar,
ijobat bo‘lmas.
Yomg‘irli oqshomlarda qilgan

duolari mahzun,
hayotimiz kapalak umri qadar qisqa,
qayg‘u yo‘llari esa uzun,
juda uzun.
Gulim, chechagim,
oppoq malagim,
Aslo osmonga
va yulduzlarga
umidlaring bog‘lama,
umidingni bog‘lab so‘ng
azob chekib yig‘lama...

* * *

Alisher Tursunov tarjimasi

Ahmadning yurti bor,
Sunaning uyi,
Natashaning Moskvasi!
Xo‘sh, mening Shusham qayda?!
Sen Shushani ko‘rsat menga,
Vatanimni ko‘rsat, ota...

* * *

Alisher Tursunov tarjimasi

Kipriklaring har on
sening ko‘zlaringni o‘padi faqat ...
O‘lim qosh-la ko‘z orasida
qosh-la ko‘z orasida kechadi
bir tush kabi bu hayot ...

* * *

Alisher Tursunov tarjimasi

O‘zlari she’rlaridan oldin
mashhur bo‘lgan shoirlarning
qora malaklari kulmoqda —
She’rlari o‘zlaridan avval o‘lmoqda ...

QULU OQSAS

Qulu Oqsas Ozarbayjonning Oqtom viloyatida 1969-yilda tug'ilgan. "Ulduz" ("Yulduz") jurnalining bosh muharrir o'rinbosari. Prezident stipendiati. "Sensan har yer", "Nuqtalar" nomli she'riy to'plamlar muallifidir.

URUSH ŅOGIRONI

Uzdi oyoqlarimni Vatan yo'li,
Qaytdim ming tirilib ming o'lib...
Qaytdim kamarimning yuqorirog'i bilan,
Qaytdim
Invalid aravasining toychog'i bilan.
Ikki bolamning ko'zlari yoshli.
Xotinimning boshi toshli:
Har amrimni maromiga yetkazar.
Ham meni kezdirar,
Ham o'zi... kezar...
Suframda harom bor —
Tinmayman.
Ikki och bolam bor —
Tinmayman. *
Tinmayman
Gul og'zi ochilganda hayratning:
"Vatanni qo'riding, bas,
qani u g'ayrating?!"
Uzdi oyoqlarimni Vatan sarhadi,
Bu albatta menga "rahmat"i.

* * *

Ko‘rsangki, qorong‘ilik cho‘kar olama,
Ko‘rsangki, shom bu chog‘...
Fikr aylama.
Qush uyqusi bo‘lsa-da bu xufton palla
Naqadar imkon bor
Rohatlan, uxla.
G‘aflatan bu tunga hashir soladi:
Tug‘iladi sahar — Quyosh bolasi.
Uni ovutmoqqa shoshilar hamma,
Chop-chop bilan kelar yana oqshoma.
Yangitdan zulumot bosar dunyoni...
Qani tug‘gan Quyosh?
Bolasi qani?
... Qayon boqsang,
ko‘zyosh qoplar ko‘zingni,
Ko‘rib sovqotasan...
Yondir o‘zingni...

* * *

Balki bu bir
qonundir,
kim bilar?! —
Doim:
jasurlar sevarlar,
qo‘rqoqdar sevilar...
Nima tortar
yuksakka,
nima tortar —
Odamni bo‘ynidan ip kabi...
Qayerdir
dunyoning
avvali, oxiri?

Azonda
bir do‘stni
ko‘makka chaqirdim...
Ayt ko‘ramiz, na qilamiz,
Na qilamiz, ayt ko‘ramiz?
Na o‘lamiz, na bo‘lamiz,
Na bo‘lamiz, na o‘lamiz...

ULVIY YUSUF O‘G‘LI BUNYODZODA

(1969–1990)

1969-yil 23-sentabrda tug‘ilgan. O‘rta maktabni tugatgach, 1987-yilda Ozarbayjon Xorijiy tillar institutining ingliz tili fakultetiga o‘qishga kirgan.

U 1990-yil 20-yanvar tunida — Ozarbayjondagi milliy ozodlik harakatini bostirish uchun kirgan sobiq Sovet armiyasiga norozilik bildirib ko‘chaga chiqqan insonlar safida halok bo‘lgan. Ulviy Bunyodzodadan 200 dan oshiq she’r, bir poema, bir qissa, bir necha hikoya, uch pyesa, ko‘plab maqolalar, ingliz tilidan qilingan tarjimalar meros bo‘lib qoldi.

* * *

Men yonganim o‘tda bir kun
Sen ham tushasan, yonasan.
Aylanib bir oq kaptarga,
Kelib yelkamga qo‘nasan.
Yoshlik edi boshda tojim,
Endi oppoq bo‘ldi sochim.
Sen, ey, ko‘zlari qiyg‘ochim,
Qo‘limga qo‘ygan xinosan.
Dedim: “Gulim, ketma zinhor,
Baxtim, yotma, bo‘lgin bedor,
Bu dunyodan ketishim bor”,
Nega sen yig‘lab yonasan?
Bu savdoda jo‘shdi qonim,
Yurakda qaynar armonim.
Sen o‘zgaga emas, jonim,
Bir Ulviyga jononasan.

XOTIRALAR

Shabi hijron yetgan sari
Qochib bo‘zlar xotiralar.
Visol umri bitgan sari
Yaxlab-muzlar xotiralar.
Umrning go‘zal onidan,
Hayotning qiyl-u qolidan,
Yorning hajr-u visolidan
Nelar so‘zlar xotiralar.
Qaytar xayol ilk yillarga,
Ilhom berar ko‘ngillarga.
Uzun-uzuṇ bu yo‘llarga
Solur izlar xotiralar.

CHEKAR

Titragan dudog‘ing she’rlar istaydi,
Tamannongga boqib oy hasad chekar.
Ko‘zlaringdan hasad chekadi yulduz,
Qoshlaringga boqib yoy hasad chekar.
Ginali ko‘zlaring shundoq boqurkim...
Seni o‘ksitganni andoq yoqurkim...
Sochlaring yelkangda tel-tel oqurkim...
Shalolalar qurib, soy hasad chekar.
Qalbimda bir go‘zal she’rlar paydokim —
Aytay, yuraklaring gul ochsin tokim.
Sen o‘zing shundoq bir she’ri tanhokim,
Shoirlar holiga voy, hasad chekar.

NOZILA GULTOJ

1969-yilda G'arbiy Ozarbayjonda tug'ilgan, Qazax tumanida o'sib-ulg'aygan. Boku Davlat tibbiyot universitetini tamomlagan. Kasbi doktor. 1996-yildan matbuotda she'r va hikoyalari muntazam chop etib kelinmoqda. 2004-yildan buyon Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi. "Suvga berilgan savdo" va "Yashil pichilti" nomli she'riy kitoblar muallifi.

VATAN XARITASI

Qizim chizdi Vatan xaritasini.
Ozarbayjon so'zini ammo
Sig'dira bilmadi xarita ichra.
"Ozar" yozdi,
"Boy" yozdi.
So'ngra dedi: "onajon
"Jon" so'ziga
Joy yetmay qoldi".
Mendan yordam kutar.
Boqdim ona yurtning
Parchalanmish bag'riga.
Sarhaddagi tog'lar, nahriga.
Temir eshik Darbandning
Darvozasin ochmadim.
Yozdim "J" ni janubga.
Dedim: jonimiz yonar,
Vatandan kim ham tonar?
Bo'rcholiga "O" yozdim.
Otalar yeri dedim.
"N" ni qo'ydim G'arbiga,

Irivanga bir nuqta.
Unda nidomiz qolgan,
Nola, sadomiz qolgan.
Qizim, endi boq, dedim.
Buyuk Vatanimizning
Baxtsiz xaritasiga.

BU YO‘LLARNING UZUNI

Bu yo‘llarning uzuni —
Qorabog‘ga ketgan yo‘l.
Bu yo‘llarning uzuni
Barobardir eniga.
Bu yo‘llarning uzuni —
So‘ngsiz orzu karvoni.
Yo‘llar daladan tog‘ga
Ketar Qorabog‘ sari.
Bu yo‘llarning uzuni
Qayda gullar tizimi.
Izlar o‘chib ketibdi,
Toshlar qiynar tizzamni.
Bu yo‘llarning uzuni
O‘tar Jidar yurtidan.
Yuragimga taqqanman
Yo‘llarning uzunini.

SHOHIN QODIROV

1969-yilda Lochin tumanida tug'ilgan. 1989-yilda harbiy xizmatni o'tagan. Birinchi Qorabog' urushi qatnashchisi. 1990-yildan davriy matbuotda chiqishlar qila boshlagan. Ixtisosi filolog-psixolog. Psixologlar assotsiatsiyasining a'zosi. Ozarbayjonda va chet ellarda o'tkazilgan qator adabiy-badiiy musobaqalarda qatnashib, faxriy unvonlarga loyiq ko'rilgan. Beshdan ortiq almanaxlarda she'rlari nashr etilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi.

"Muhabbatning so'ngi yo'qdir", "Quyosh chiqar botgan yeridan", "Ikkinchi Qorabog' urushi" kabi she'riy kitoblar muallifidir.

SHU TUPROQQA QURBON DE

Indamasang, botmas emish shu kema,
Indamasang, yonmas bu yerlar dema,
Qurbonlik deb nazar tashlading kima?
Ota, meni shu tuproqqa qurbon de!
Yig'lash bilan na izlab, na toparsan,
Bir jonim bor, bir o'q otsa otar-da,
Sen ahd ayla, bizni da'vo qutqarsin,
Ona, meni shu tuproqqa qurbon de!
Yurtimizga qora boyqush qo'nmasin,
Xush tabassum dudog'ingdan do'nmasin,
Qo'y, ayriliq ko'zingdan yosh ummasin,
Opa, meni shu tuproqqa qurbon de!
Xazon bo'lsam, senki, bir ilk bahorsan.
Istagimga yugurarsan, choparsan,
Men o'lsam-da mendan keyin sen borsan,
Uka, meni shu tuproqqa qurbon de!
Na yig'arsan yer chopmasang, ekmasang?

Toleyingni ro‘molingga tugma, san,
Ko‘zlaringni yo‘llarimga tikma san.
Gulim, meni shu tuproqqa qurbon de!
Uzoq qilgin yomonini — pesini,
Yo‘qot yurtdan gina-gidir isini,
Balki Tangri tinglar qalbing sasini,
Vatan, meni shu tuproqqa qurbon de!

QORABOG‘IM

Qorabog‘im, changaldasan, g‘amlisan,
Xunuklashding, usti-boshi changlisan.
Ne asosda so‘lar qo‘yningda gullar,
Nega sayrolmaydi shaydo bulbullar?
Ustingdan tez tarqar qora tutunlar,
Bu suyangan kimga soxta ustunlar,
Seni yuragingdan chaqmoq istarlar,
Yulib qo‘limizdan olmoq istarlar.
Haq yo‘lga, yo‘q, to‘siq bo‘la bilmaslar,
Qo‘limizdan seni ola bilmaslar.
Men ham Go‘ro‘g‘lining nevarasiman,
Titrar yuraklari zo‘r na’rasidan.
Bunda mening bobom ot o‘ynatgandir,
Bunda mening otam qilich chopgandir.
Yodimga qay nomard qo‘yar oyoqni?
Toptolmas hech kimsa bu gul tuproqni!

BILMAYMAN

Er yigitlar ot belida, yaroqda,
Uzun sochlar nozlanardi taroqda,
Bizning qizlar gilam yuvgan buloqda
Kimlar yuvar, kimlar yoyar, bilmayman...
Oqizaman ko‘zlarimning selini,

Yashayman bu umrim qora yilini,
Tog‘larimning chechagini, gulini
Kimlar uzar, kimlar terar, bilmayman.
Yaralidir bir millatning qo‘llari,
To‘kilibdur otlarining taqalari,
O‘quvchilar darsga borar yo‘llarni
Kimlar bosar, kimlar borar, bilmayman.
Xalqimizning azasi bir diyorda,
To‘yi boshqa, qazosi bir diyorda,
El-qarindosh hammasi bir diyorda,
Kimlar o‘lar, kimlar qolar, bilmayman.
Qorabog‘im, sensiz hayot zulmdir,
Har tarafing bir bezangan kelindir.
O‘g‘il uchun qochqin bo‘lmoq o‘limdir,
Kimlar bilmas, kimlar bilar, bilmayman...

TOHIR TOIS

1950-yilda Shamaxi shahrida tug'ilgan. O'rta maktabni tamomlagach, Shamaxi qand zavodida ishlay boshlagan. 1969-yilda birinchi she'ri "Adabiyot va injasan'at" gazetasida bosilgan. 1983-yilda Moskvadagi Adabiyot institutini tamomlagan.

Ozarbayjon teleradiosining muxbiri, "Qishloq hayoti" jurnali muharriri bo'lib ishlagan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi.

POYEZD OVOZI

Kungaboqarlar quyoshga
bo'ylanur kunduzi,
kechalar poyezd ovoziga.
Makkayilar og'ushida so'tasi —
yo'rgakdagi go'dagi kabi.
Poyezd shu'lalari yuziga
tushmasin deya
go'dagi ustiga yoymish sochini.
Bo'g'zi chilvir bilan bog'langan
oshqovoqlar yotar bemalol-behol —
poyezd ovozini bir pulga olmas.
Chetan devorlarga chiqqan qovoqlar
Ba'zan ochib-yummas ko'zlarini
Poyezd ovoziga,
shu'lalariga.

SALIM BOBULLO O‘G‘LI

Salim Bobullo o‘g‘li hozirgi Ozarbayjon modern she’riyatining yorqin vakillaridan biri, shoir, essenavis. U 1972-yilda tug‘ilgan. Ko‘plab she’r va hikoyalar muallifi. Turk, rus, o‘zbek, ingliz, gurji shoirlarining asarlarini tarjima qilgan. O‘rxon Vali, Iosif Brodskiy, Cheslav Milosh kabi shoirlarning kitoblari uning tarjimasida chop etilgan. Bir qancha xalqaro va milliy mukofotlar sovrindori. “Dunyo adabiyoti” jurnalining Bosh muharriri, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a’zosi.

DO‘STLARIMGA

Biroz olislardan axtaring meni,
Suhbatlar quraylik bu yerdan uzoq.
Biroz xayollardan axtaring meni,
Bu loyqa suvlardan ketaylik yiroq.
Oydin saboqlardan axtaring meni,
Unda quyosh boshqa, sezim boshqadir.
Tangri gunohlarni afv etgan yer,
Xayolim u yerda kezinmoqdadir.
Umr vafo qilsa, yozgayman, biling,
Bugunning, ertaning qo‘shiqlarin men.
Meni o‘z ichimdan axtaring faqat,
Bir kun o‘z ichimdan ozgayman, biling.
So‘niq satrlardan so‘ramangiz meni,
Yonurman Karam[1]dek o‘tda tobora.
Dalli fikrlardan axtaring meni,
Bir kun aqlim kirsa mening ham zora.

[1] **Karam** — “Asli va Karam” xalq dostoni qahramoni.

OTAMGA

Sen mendan ancha ko‘rkamsan,
Men sendan ancha asabiy...
Sen — hassos,
Men biroz ulfatkash,
biroz isrofgar,
o‘zidan rozi.
Biroz baxtsizman —
Ki, sen mendan norozi.
Mening umidsiz xun onlarim ko‘p...
sendan uzoqqa,
bu ma’nosiz — ulkan shaharda
Tentirayman — yuragim qiyma-qiyma,
gunohlarim ko‘p...
Tongda suratingga,
oqshomlar ko‘zguga boqurman.
bormoqdaman kundan kun qarib.
ko‘paymoqda sochlarimda oq...
Ko‘p narsaga erisholding sen —
Yo‘qotmoqqa hech bir narsang yo‘q.
Men hech narsa qozonolmadim,
biroz o‘zimni yo‘qotdim,
Qo‘ridim sening yaxshi nomingni,
to‘rt xonali uyni qo‘ridim,
kitoblaringni...
Sen juda ham yaxshi otasan,
men — yomon o‘g‘il.
Bo‘larkan-da shunaqasi ham...
Ammo vaqtdan o‘zib, ayta olurman:
sen juda zo‘r bobo bo‘lasan,
jumladan, men ham...

BA'ZI KO'RINISHLAR

Qo'llarni ko'ryapman, qo'llarni,
Do'st qo'li bo'sh qolmas havoda,
Yig'layotgan yuzlarni to'sar
Qo'llarni ko'ryapman, bilaklarni
Bilaklardagi kishanlarni parchalamoqda
Qullarni ko'ryapman, kaftlarni,
Baxtlarni, baxtsizliklarni,
Taqdir chiziqlari, umr bitiklarini
Xiromantiya bilan mashg'ul bo'lmasang hamki
Qadoqlarning baxtdan xabar berishi ayon.
Qo'llarni ko'ryapman, mushtlarni
Ko'ngilni sindiruvchi bosh suyagiga urilayotir.
Qo'llarni ko'ryapman, barmoqlarni
Usta pianinochinikiga o'xshab ketsa-da,
Bezbetlarcha kimningdir cho'ntagiga tushayotir.
Qo'llarni ko'ryapman, silashlarni,
Sho'rlik bir kimsaning sochlariga qo'nib
Bir lahza bo'lsa-da foniylikni unut aylagan.
Qo'llarni ko'ryapman, ajinzorlarni,
Keksalar kulbasiga borguvchi unutilgan, to'zonli
Yo'llarni yodga soluvchi.
Qo'llarni ko'ryapman, barmoqlarni
Tirnoq-la et bitgan joyi yorilib ketgan
Avitaminoz tashxisi qo'yilgan hayot tarzidan so'zlar.
Titroq dudoqlarni qimtibon qattiq
Favqulodda hodisalarni abadiy berkitgan
Qo'llarni ko'ryapman, nozik bellarni quchib
Sevgi haqidagi eng shirin so'zlarning
Haqiqiy ma'nosin anglatmoqdadir.
Qo'llarni ko'ryapman, qo'llarni,
Iyaklar ostida qadalib,
Odamlarni o'z asl shaklidan rozi qilmoqda.
Qo'llarni ko'ryapman, oyoqlar ostida toptalgan

Katlarning[1] ustidan osilib tushgan
ushbu kun bola-chaqasidan uzoqda
bir ona tushida bosinmoqdadir.
Qo'llarni ko'ryapman, qo'llarni
kesilgan barmoqlar tushlarida o'z egasi tomon uchmoqda
Qo'llarni ko'ryapman, amallarni
har ilinjga uzangan,
sevgi maktublarini yozgan,
eshiklarni zarb bilan qoqqan,
ko'chat ekish uchun yasalgan belkurak sopidan tutgancha
jasadni ko'mmoqqa yer qaziyotir.
Qo'llarni ko'ryapman, barmoqlarni
umidsiz orzularga qarshilik kabi,
Ul barmoq qovushgan nuqtada eng qo'pol rad javobi
berilayotgan.
Qo'llarni ko'ryapman, qo'llarni
qimmat kursilarning kimxob jildiga
mahliyo bo'lgancha farog'atli turmush tarzin yaratarkan
katta pullardan —
demakki jinoyatlardan
qaltiroq va qo'rquvlardan so'zlastir.
Qo'llarni ko'ryapman, barmoqlarni
eng arzon fotoapparat tugmasini bosarkan,
eng qimmatli onlarni — abadiyat elchilarini suratga olayotir.
Qo'llarni ko'ryapman, ko'klarga uzangan, ochiq
duo qilayotir.
qo'llarni ko'ryapman, bu duodan tug'ilajak do'mboq qo'lchalarni
bir ko'ring, havo xil'atini tutgani kabi
malaklarning etagidan tutmoqda ular.
Qo'llarni ko'ryapman, qo'ng'ir sochlarni taroqlab
qora ko'zlardan uyquni quvayotir.
chakkasini changallab turgan qo'llarni ko'rayotirman
so'nggi sigareta qolgan quti uzra.
Tinchib qolur tong nasimida
Voz kechadi nuqta qo'ymoqdan...

[1] **Kat** — so'ri, karavot (mahbuslar yotadigan nard).

RASMIYA SOBIR

Rasmiya Sobir (Ashrapova Rasmiya Sobir qizi) 1973-yilda Masalli tumanining Erkivan qishlog'ida tug'ilgan. Inshoot muhandislari universitetida iqtisodchi-muhandislik ixtisosligi bo'yicha ta'lim olgan. Hozirda Ozarbayjon Fanlar akademiyasining Iqtisodiyot universitetida ilmiy xodim.

Rasmiya Sobir Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. "Qamalgan sukunat" "Rangsiz ko'zyoshlar", "Unutding meni", "Sohilsiz odam" nomli she'riy kitoblar muallifi. She'rlari bastalanib, kuyga solingan va "Seni izladim" nomi bilan to'plam holiga keltirilgan. Shoiraning she'rlari Turkiya, Iroq, Olmoniya kabi xorijiy mamlakatlarda chop etilgan.

* * *

Alisher Tursunov tarjimalari

Ozodlik!
Manim abadiyatim.
Xayol qadar uzoqsan,
Fojia qadar yaqin.
Ozodlik!
Yengilmas maglubiyatim.
Ozodlik!
Eh... Har ondagi
Yarim g'alabam.

* * *

Umr
Bu dunyoga
Kirish bileti

* * *

Yuragimni maktubga solib
Yo‘lladim Senga.
Qo‘llaring titramasin ochar vaqtingda...

DUSHMANIMGA

U ham mening kabi,
Ikki qo‘lli, ikki ko‘zli.
Faqat yo‘qdir yuragi...

MAHBUS QUVONCHI

Qo‘llarimni qo‘llaringga qamagin
Qo‘llarim sevinsin.
Ko‘zlarimni ko‘zlaringga qamagin
Ko‘zlarim sevinsin.
Yuragimning eshigini ochgin sen
Chang bosgan xotiralar
Sevinsin...

* * *

Biz ketgan yo‘lning
Keldik so‘ngiga.
Ammo
Senga “ket”, demoqqa
Chidolmas hech yuragim.
Shuning-chun
Yashagin ko‘zlarim tubida.

* * *

Rahmat Bobojon tarjimasi

Bizning oramizda ming yillik yo‘l bor,
O‘zimga yaqinsan mandan, Xudoyim.
Ham dard-u azobli dunyo berding san,
Ruhim go‘zal qilding tandan, Xudoyim!

G‘am yaqin do‘stimdir, azob — sevgilim,
So‘z-la to‘g‘ralaman, oh, tilim-tilim,
Yerdan oyoqlarim uzilib, qo‘lim
Osilgum samoga sandan, Xudoyim!

Yo‘limni ko‘klardan yerga do‘ndirdim,
Har aytgan so‘zingni durga do‘ndirdim,
Men seni milyondan birga do‘ndirdim,
Sen meni ayirding mingdan, Xudoyim!

Biroz kech angladim, biroz ertadan,
Hattoki sabrimdan yuragim ulkan,
Senga to ko‘ksimdan yo‘llar bor ekan,
Ko‘prik nega lozim dindan, Xudoyim?!

ILOHIY SEVGI

Rahmat Bobojon tarjimasi

Men so‘lgan chechaklarning,
G‘amgin kapalaklarning,
O‘limi-chun yig‘ladim.
Onajonim, sen esa
    mening ko‘zyoshlarim deb...
Men qaqragan ko‘llarning,
Yarim qolgan dillarning,
O‘limi-chun yig‘ladim.
Onajonim, sen esa
    mening ko‘zyoshlarim deb...

Azob tug‘gan onlarning,
Kimsasiz oqshomlarning,
O‘limi-chun yig‘ladim.
Onajonim, sen esa
mening ko‘zyoshlarim deb...
Men suvsiz sahrolarning,
Eriyotgan qorlarning,
O‘limi-chun yig‘ladim.
Onajonim, sen esa
mening ko‘zyoshlarim deb...
Yig‘ladim...
Onajon, yig‘ladim...
Yomg‘irning ko‘z yoshi-la,
G‘am yeli beboshi-la,
Chaqmoq g‘azab toshi-la,
Yig‘ladim...
Yuragim hayqirig‘i bilan!
Sen esa, faqat sen,
ko‘zyoshlarim deya
yig‘lading, Onam!

FARID HUSAYN

Zamonaviy Ozarbayjon sarbast she'rining o'ziga xos uslubga va iste'dodga ega yosh namoyandasi Farid Husayndir. Uning "Samarqand devoni" nomli turkumi bir necha jihati bilan ajralib turadi. Yozuvchi Anorning fikricha, "Samarqand devoni" turkumi Sharq Rimi deya vasf etilgan bir shahar, ya'ni Samarqandning tarixiy joylarini ziyorat qilish jarayonida tug'ilgan shaxsiy, ijtimoiy, falsafiy tuyg'u va tushunchalarni, shuningdek, adabiyot, foniylik va mangulik bilan bog'liq fikrlarni she'rxon bilan o'rtoqlashgan shoirning hayajonli monologidir".

SAMARQAND DEVONI

(she'riy turkum)

Bir o'yla, bu ayyomdir, fikr ayla, nazar sol, ko'r,
Dargoh o'sha dargohdir, maydon ham o'sha maydon.
Derlar, o'ylab qadam bos, o'z holingga ko'zyosh to'k,
Biz tuproq bo'lib ketdik, sen ham tirik tuproqsan.

("Madoin xarobalari"dan)
Xoqoniy Shirvoniy

Men endi to'rt yoni tarixga to'la,
arvohlar qamali ichra yashagan,
otlar kishnashi-yu qilich jarangin
tilini yutgan bir shahar ichraman —
nafas olmoqdaman oh-u vohlardan.
Kunlarning birida
kuladir tole,

muloyim egilar ko‘ksiga bosh ham —
inson kirib borar ko‘ngil uyiga,
kirishar e’tirof ibodatiga;
qalban sajda aylar,
tavbalar aylar.

Tarix odatidir jim-jit yashamoq.
Bizning odat esa,
yitgan odim tovushlarin tinglamoq
bo‘g‘ilgan na’ralardan,
u qongli saroylardan,
bitmagan yaralardan...

Ko‘p narsalar,
ko‘p gaplar
bizlar eshitgandan boshqacha asli,
boqurman dunyoga o‘yim chuvalib,
ko‘zlarim to‘ladir mavhumliklarga...

Odamzod tarixin o‘rganmoqdaman;
shunaqa payt kelarki, inson
ko‘zdan chet bir burchakni istar,
o‘zicha o‘zini his etsam deydi,
chiranib yetgani mansabdan qochar —
erishgani shondan,
kelajagidan,
jannatidan...
hatto qo‘rquvsi qolmas,
qo‘rqmas u tog‘larga zanjirlanishdan.

Devorning sirtiga yozilmish nomlar;
oltin harflar bilan bitilmish oyat;
qal’a, minorlarga boqurman hayron,
insonning tirnoq-la qazib, yuksaltib,
o‘zini yuksaltmoq istaganiga,

Mangulikka havasiga,
Uzoq yashash xohishiga,
Nafsiga qoyil qolib, o‘yga botaman...
Foniylarning
Abadiyat tama’si,
O‘chgan inson izlarining qo‘llari
Qo‘yvormasmi
Shu o‘tkinchi odamlarning yoqasini?!

Na suls-la,
Na kufiy-la,
Na nastaliq-la
Yozma mening ismimni
Teriga, Xattot.
Men nomimning unutilishin
Hamma yerga bitib qo‘yganman.
Diqqat bilan bog‘ganlar ko‘rar.
Meni yoqtirmagan,
Kechirmaganlar
Nomimga duch kelar har bir lavhada.

Endi oltin hal bilan bezangan saroylarda
O‘tib ketgan asrlar allasining toti-la
Yangi asr vijdoni mast-u mustag‘riq bo‘lar.
Sen o‘tmishning qo‘shiqlarini
Shundoqqina ko‘chirma, Xattot —
Balki faqat unutilganlar
Chin iqbolga erishgandirlar.

Bayramlarda uyma-uy
Borib ko‘rgan odamlaringni,
Shundayin kun kelarki,
Mozorma-mozor yurib
Ziyorat etadirsan.
Beshikdan qabrgacha

yo‘l ko‘rsatgan o‘q ishorasin
na suls-la,
na kufiy-la,
na nastaliq-la
devorlarga chizolmassan,
varaqlarga yozolmassan, ey, Xattot!

Dunyo kezib,
ko‘rib-bilgach bo‘lib-bitgan narsalarni,
tarixning tajribasi degan so‘zdan xijolat bo‘ldim.
Angladimki, inson o‘z kuch-qudrati ila,
qilichi-la,
safsatali “zafarlari”-la
sirka ichirtirgan
qalbidagi adolatiga.

Tarix o‘tmish vujudidagi
yaralarni kecha-kunduz qashib,
qonatar.
Qonli qo‘li,
kesik boshli tepalari-la
g‘o‘daygan u saltanatlar
tarix kiyib olgan
xarita ko‘ylakdagi
qora dog‘lar kabi yashaydir.
Tarixning yuragi siqilar qattiq,
urishtirolmasa hukmdorlarni,
qo‘chqorday urishsa ular, yayraydi.
Takabbur, vosvos xonday
ba’zilarni ezib-yanchmasa,
hech o‘ziga kela olmayli.

O‘ylaysanki, yolg‘on bilan haqiqat
bir vujudli egizakdir,
biri o‘lsa, birisi-da yashamas.
Unday emas,

har davronning o‘z yolg‘oni bor.
Har zamonning haqiqati
sug‘oradi ko‘ngildagi cho‘llarimizni,
uyimizni,
ko‘yimizni,
qarovsiz tole mozorini,
baxt-u qut xarobazorini.

Yurak sariq simga aylangan,
yuzlar ko‘lkalangan,
qo‘llar ho‘ngrab yig‘layotgan,
sabr yer birla yakson bo‘lgan yerda yotibman.
Bundan keyin yashab tursam odamday,
sabablarga tashlamasman ko‘z qirimni ham,
kaltakesak ko‘zlarida o‘lib yotibdi
zamonaning qora borlig‘i,
kelajak-la g‘oyib bo‘libdir
kunimizning bor barokati.

Piramida qurmishlar odamlarning boshidan.
Haramxona qurmishlar
so‘yilgan tuyg‘usidan.
Saroylarga naqsh etmishlar
“Olloh” so‘zini.

“Bizning kuchimizga inonmaganlar
qurib qo‘ygan shahrimizga boqsin” degan hukmdor,
tinch uxlayver mozoringda,
yotgan yeringda
zamonlarning unutmoqlik ixtiyorini
kelajakning qo‘llarindan ol.

Endi shu shoirlarning yolg‘on maorifchiligi,
olimlarning shubhali,
zanjirli ta’rifchiligi,
g‘ijimlangan fikrlari munajjimlarning,

saroy ayonlarining bulbuligo‘yoligi
tarixlar oynasini qoraytirgan qoradir,
bir qora bulutdirki,
barcha uning ichida;
bari xatto sig‘inibdir
qiyomat kunidagi Vatansizlikka.

Munchoqdayin ipga tizilgan,
jimirlagan g‘olibiyat saroblari
zamon hokimining qo‘linda sinmish...
Insonlar
hukmdor,
mo‘min kishilar,
olimlar qabrini ziyorat etib,
ko‘milmish foniylik sajdalariga.

Bu tilsiz mozorga,
shu jimjit qora toshga qarayman.
Menga guvoh bo‘lar mangu falaklar,
u zotning ustiga yog‘ilgan yomg‘ir,
u zotni isitgan quyosh issig‘i,
u zotni qoplagan tuman tilidan
aytinglarki,
biz yog‘ilgan tuproqlarga,
sahrolarga kelding sen;
aytinglarki,
qizil g‘ishtli saroylar,
oltin suvi yuritilgan qilichlar,
ol ipaklar
shu qora tosh qarshisida
tiklangan bir haqiqatning obidasidir;
aytinglarki,
shu do‘ppaygan mozorlar
qahramonlik vujudining shonli boshiga
bo‘rk kiydirgan ilohiy qo‘ldir.

Quyrug‘ining ostida nashtari bor aridek,
ajal so‘nggi qadamimiz to‘xtatib qo‘ya olar
hayot bilan to‘lib-toshgan shu kunimizda.

Zotan hayot umrimizga
bir sig‘noq bermish
shu foniylik Vataninda.

Tarix selin ehtirosi o‘ldirganidek
o‘ldirarlar
hayotning shu qari-quruq basharasinda.
Tug‘iladir tag‘in ajib
mag‘lubiyat taronalari.
Tushar boshimizga bir kun musibat,
bizni siltalamoq,
uyg‘otmoq uchun.
Sizning o‘yingizga hecham kelmagan
o‘limlar borligin eslatmoq uchun,
boshqa yo‘qotishlar mavjudligin ham.
Hali siz bilmagan qancha og‘riq bor,
mashaqqat,
musibat kelar nogahon,
dard bilan baxtsizlik qo‘sh-qo‘sha kelar,
orzu, umidsizlik to‘sh-to‘sha kelar,
shahar darvozasining g‘ichirlashi-la
insonning yuziga ters yopiladir
zamonaning eshigi birdan,
shunda dunyo yuragiga
Shohizinda jimligi cho‘kar.

Cheksizlikka shaydolikni o‘rgatgan
falaklarga qarab tolaman,
ko‘zim yetgan yulduzlar-la sirlashib,
tikilaman bosh-keti yo‘q qo‘rqinch ko‘klarga...
Qanday sokin
bu indamas,

bu sir bermas
Eng Ulkan Shohid!

Yulduzlarning sayyorligini,
turg‘unligin sayyoralarning,
ilmi nujum muhabbatini
o‘rganib-da,
yilning bir kunin,
sal yanglish-la bitgan bandalar,
xujralarda umrini ilm-u fanga berganlar,
sizlar tikkan ibrat ko‘ylagi
johillar jasoratin egniga tordir,
endi ko‘kka qarashga vaqt ajratmas odamlar,
jim turishni osmondan o‘rganmas biror kimsa.

Bosh egilgan eshiklarning ortida
bo‘yin egdirmaganlar o‘tirmas ekan,
tuzalmaydir bukilgan qadlar,
kesilgan tovushlar eshitilmaydir...

So‘zlarning mahshari bor
chin shoirning qalbida:
u so‘zlarki — ayta bilmadik,
u so‘zlarki, beshigida bo‘g‘dik biz,
u so‘zlarki, ko‘mdik lolligimizga;
biroq o‘sha go‘dak so‘zlar
chiqajakdir qo‘ndoqlarindan,
bilaklarin chiqararlar iplarni yechib,
bo‘ynimizdan mehr-la quchib,
yashab kelganimiz yolg‘on o‘ramidan
tortib olarlar.

Zamon zindonlarida
fitna zanjirlari-la
kishanlangan qo‘limiz,

oyoqlar ham bo‘g‘ovda;
orzu daryolarimizni quritib,
bizni sahrolarga ko‘niktirdi u
qumlar qadar gunohlarimiz.

Na boshni og‘ritib,
na-da chaqib miyani,
na-da zo‘rlab aql-u zakoni
anglab bo‘lmas dunyo ma’nosin,
maqsadini umrning hatto;
bu mushkul tiriklik suvin topishdek,
Temurning shaxmati kabi murakkab —
hayotda o‘sganing sayin tobora
yarasi hech eskirmayotgan,
og‘rig‘i hech ozaymayotgan
vijdonga qayrilmoq kabi muammo.
Yulduzlar tepkisidan rosa ezilgan,
quyosh toptab tashlaganlar ichida
g‘aroyib bir sarkardalarmiz:
go‘yoki jang qilamiz,
qonlar to‘kamiz,
tarixlar yozdiramiz,
axir o‘z dunyomizda
biz ham qahramonlarmiz,
aslida-chi,
zamoniga zahar pishirgan oshpaz,
taqvimlarni qizil-u qoralarga bo‘yagan
noshud bo‘yoqchilarmiz.

To‘lgan idishga oqqan
suv tovushi kelar o‘tmishdan,
kechagina bu kunlarni yashamoqdan,
shunday kunda qarimoqdan ming tavba qilib,
u o‘zining xilvatiga —
tarixning bir hujrasiga chekilgan edi.

Ajdodlardan xabarsiz bir kelajak esa,
o‘z-o‘zi-la ovunadir kunning lazzatiga g‘arq,
tomog‘ida toti siljir yashalmagan
kunlarning ham...

Yasanishdan, bezanishdan sira to‘ymagan,
upa-elik surib sira zerikmagan bir
jononaga o‘xshaysan, shahar;
o‘tmishda qoplamish balki gunohlar,
g‘orat liboslarni kiygansan balki,
endi tomoshaga chorlaysan elni,
istarsan — foniylik ko‘zgularida
odamlar yanada ko‘proq ko‘rinsin.
Dunyo bir Xonaqoh mehmonxonasi,
uning laziz yemaklari,
shirinliklari
xurram etar mehmonlarini,
parvardasi,
xolvolari,
no‘xat taomi
ko‘rki bo‘ldi bizni yig‘gan dasturxonning ham.

To‘y nonin mazasi og‘izda qoldi.
Yumshoq ko‘rpachalar,
parqu yostiqlar
kezib horgan tanimizga jon, orom berdi.
Xuddi shunday jonlantirdi qondoshlikni ham,
chin yurakdan suhbatlashdik,
dardlashdik og‘ir,
haqni haq dedik va
zulmni zulm,
ayni zum jonlandi moziy, foje, shon.
Yanoqdagi chuqurini jilmayishining
vafo qudug‘iga aylantirolgan
bir juvonning o‘ylari kabi.

Ko‘ngli o‘ksik, ichiga botgan,
mevasiz bir xotin bor ekan,
xomila yukini ko‘kka yo‘llagan,
chorasizligini qondosh,
tolesizligini yo‘ldosh deb bilgan,
afsonaga aylangan xotin.
Mish-mishlar tarqalmish xalq orasida,
hayosizlar uni hayosiz demish,
zamon esa yolg‘onga to‘la,
u bechora yo‘l izlar emish.

Doniyolning mozoriga o‘xshaydi dunyo,
qarich-qarich yerda yotmas adolat,
boshqa-boshqa yerlardadir uning makoni.

Shu suv ichgan qushlardan
ne’mat qayda deb so‘rdim,
ko‘rdimki, u ko‘klarda ekan.

Qaynab yotgan bir bozorga o‘xshaydi dunyo,
har kim unda topganin sotar.

Bir mehnatkash ayoldir Siyob,
u har sahar bezanadi zahmat rangi-la,
oqshomgacha tinmay tashir kun zanbarini,
shomda yashar qo‘li bo‘m-bo‘sh
qolmoq shavqini.

Qur’on tovushlarini simirgan bu devorlar,
oyatlar-la nafas olgan,
bo‘yalgandir hadislarning rangiga,
naqshlangan unga ibrat hikoyatlari,
shu ibodat saroyiga boqaman o‘ychan.
Shu payt bitta g‘ofil xotin o‘tar qarshimdan,
men hech qachon ovozini eshitmaydirgan xotin,

uzoqlashar tuproqni ham avaylagan yurishi-la
va gunohlar astari chok-chokidan
so‘kiladir xotirotimda,
ayni asno ayqash-uyqash bo‘lib ketar ruh-u tan.

Boshimni ko‘tarib, ko‘kka qarayman,
bizniki bo‘lmagan,
faqat biz bilan
mavjud shu dunyoga tikka qarayman,
kelajakka tomon shoshar soatim,
yoqamdan tutgancha silkalar kimdir,
egriqo‘l yillarning barchadan pinhon
umrimdan o‘g‘irlagan kunlarni ko‘rsatadir.

To‘tiqushga so‘kishni o‘rgatgan sho‘x bolaning
esiga kelmagan ko‘p so‘zlarga botmish kechmish.
Shahar havaslidir
uzoq yashashga,
yosh jononni sevgan keksa oshiqday.
O‘tmishning o‘tli dardin sovitadir xayollar,
ilk sevgi unutilmas,
ilk muhabbat abadiy;
shahar xotirotida yashagan baxt tuyg‘usi
zafar sevinchidan ilk mujda bergan
choparlarning yo‘lda o‘lgan
otlarining jasoratiydi.

Ey, Sharq Rimi,
ey, qonli urushlarning
qovurg‘asidan yaralgan zafar Momo Havosi,
xo‘jasini kutayotgan
faytonchidek taraddudda boy berding
butun topgan-tutganlaringni,
yuqi ham qolmadi xazinalarning,
ayrilding seniki bo‘lmaganlardan...

Dunyoni aylantirib avval jannat bog‘iga,
so‘ngra kiyintirdilar jahannam ko‘ylagini,
chuv tushgan boylarning qora kunlari kabi
oqardi shaharning qop-qora sochi;
qudrat g‘ijimlarini tekislab, yerga ko‘mdi
yondirilgan saodat uylarining ustunlari va
taxtalari ko‘miri-la qizdirilmish o‘tliq-dazmollar.

Menga o‘gitnomalardan misol keltirmang,
ular
qamish qalamlar-la behuda zahmatlarning
terli yolg‘onlariga botirib yozilgandir;
o‘ymakor hirgoyisi bilan devorga singgan
g‘oliblarning ibratli so‘zlari,
ot yo‘qolgan bog‘larda allaqchonlar
zafar chirog‘ining shu’lasi so‘ngan.

Vaqt bir bozor,
har zamon ochiq,
unda har kim umrini sotar
o‘zi ma’qul ko‘rgan narhida.
Hayot
tijoratga tashviqchi hukmdor kabi
istaydir bozorda mol ko‘p bo‘lishini.
Shu tarzda, eng shitob odimlari-la
o‘z ko‘lkasin bosolmaganlar
ulovlarin bog‘laydirlar ajalning ko‘lkasiga.
Har kimning qo‘ynida bitta maktub bor,
bir choparday oshiqadir u o‘z yo‘lida
zavol shamollarini ortida qoldirgancha,
“kecha-kunduz qo‘shig‘i”-la uxlatadir quyoshni,
undan qolar o‘tmishga
ot jasadlari,
sovrilmagan tuztepalar —
peshana sho‘ri,

Horg‘inlikka ko‘milgan umr.
Shunday har kim manzilga shoshar,
o‘z-o‘ziga rahm etmas aslo
qo‘ynidagi
maktubdagi
azroilning mujdasi
to‘xtatib qo‘ygungacha uni bir kuni.

AKBAR QO'SHALI

Akbar Qo'shali 1973-yilda tug'ulgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi (1998). "O'limlar narisi" nomli she'riy kitobi mashhur. Qozog'istonda nashr qilinadigan "Oqin" jurnalining Ozarbayjondagi vakili. "Yoshlar mukofoti" va Shaxmar Akbarzoda nomidagi Xalqaro mukofot sohibi.

KECHMADIM

Alisher Tursunov tarjimasi

Harom chiqdi yo'limdan,
Halolimdan kechmadim.
Bir qayg'usiz bor edi,
Balolimdan kechmadim.
O'z qalbimga gul bo'ldim,
Urug', so'z-u ishq edim.
Men o'zimni unutdim,
Xayolimdan kechmadim.
Aytganing uzoq edi,
Yaqin edi sevinchim.
Men qo'limda elagan
Malolimdan kechmadim.

* * *

Alisher Tursunov tarjimasi

So'z toparman
Bo'sh beshikka
Cholg'u chalgan
El qiziga.
Tangrim,
O'zing sabr bergin
Bo'sh tobutning onasiga.

* * *

Alisher Tursunov tarjimasi

...Men
Toshlarni sevmadim gullardan kamroq,
Toshlar bu dunyoda
Eng go‘zal obida sanalar, balki —
KUNTEGIN misoli.
Toshlar Vatanga qardoshdir —
Timsoli VATANDOSHdir.

* * *

Shahlo Qosimova tarjimasi

Oltoylardan yelgan otlar
Ketgani ko‘k yo‘li edi.
Oltoylardan kulgan oylar
Biz chiqqanda to‘lin edi.

Oltoylardan yelgan otni
Boshqa birov minmadi,
Oltoylardan yelgan otlar
Oq ko‘pikli dengizlarga
Yetguncha churq etmadi.

Biz chiqqanda Oy to‘lgandi,
Biz ketgancha Oy yo‘li
Oyog‘imiz uzangida qayrildi,
O‘q-yoyimiz sinib bitganda,
Oy samoda yoy misoli kerildi.

Biz chiqqanda Oy to‘lgandi,
Chiqdik, bo‘ldi yarimoy.
Oy Oltoyda to‘lin oydir,
Ovrupoda yarimoy.

Oltoylardan yelgan otni
Yana, yana minarmikanman?!

Oltoylardan yelgan otning
Oq ko‘pikli dengizgacha
Sokinligin ko‘rarmikanman?

Oltoylardan yelgan otlar
Ovro‘poni qachon otlar?!

* * *

Shahlo Qosimova tarjimasi

Tuproq —
og‘ir kunda qo‘lida bayroq,
manglayi darddan bujmaloq,
qaddi dol kishilarning
qadamidan topgay
huzur-halovat.
Tuprog‘i
har yerda
shahid mozori ila
muhrlangan millatning
bayrog‘i yashagay
abadul-abad...

QARDOSH

Shahlo Qosimova tarjimasi

Xush kunim ko‘rolmading,
O‘lsam, ko‘rarsan, qardosh.
Menga uy qurolmading,
Qabr qurarsan, qardosh.

Yuragimiz sof bo‘ldi,
Yo‘limiz sof chiqmadi.
Bahor ham sarob bo‘ldi,
Bizga oftob chiqmadi.

Bir qorinda yotgandik,
Bir qabrda yotmaymiz.
Bir odamning o‘g‘limiz,
Bir hovlida qolmaymiz.
Menga uy qurolmading,
Qabr qurarsan, qardosh.
Qo‘y, men o‘lay, ko‘rmayin
Nogoh o‘lganing, qardosh.

Qishimiz muzdan o‘tdi,
Bahor bahor bo‘lmadi.
Yozimiz o‘tdan o‘tdi,
Kuzdan qo‘ngil to‘lmadi.

Bir onadan bo‘lgandik,
Hech qayta tug‘ilmaylik.
Bir ota o‘g‘li edik,
Ketsak-da, ayrilmaylik.

Bunda bir kun ko‘rmadim,
Unda ko‘rarman, qardosh.
Qo‘y, men o‘lay, ko‘rmayin,
O‘lsang, o‘larman, qardosh.

* * *

Shahlo Qosimova tarjimasi

Men
toshlarni chechaklardan kam sevmadim,
Toshlar bu dunyoda, ehtimol,
Eng go‘zal xotiradir —
Gultakin misoli.
Toshlar Vatanga qardoshdir —
Vatandosh timsoli.

OG‘A JA’FAR HASANLI

1954-yilda Ozarbayjonning Lerik tumanida tug‘ilgan. Adabiyotga o‘tgan asrning 70–80-yillarida kirib kelgan. O‘ttizga yaqin she’riy va publitsistik kitoblarning muallifi. “Oltin kalima” va xalqaro “TURKSO‘Y” mukofotlarining sovrindori. Asarlari rus, ingliz, fransuz, fors, nemis, ukrain va boshqa tillarga tarjima qilingan.

MUZLAGAN QABR YERIMAN

Bir yerda dunyoga keldim,
Bu tuproqning bir yeriman.
Har qarichin ma’bad bildim,
Avliyo-yu pir yeriman.

O‘rlarda horimas tizim,
Kun hech so‘ldirolmas yuzim,
Yomg‘irlar yuvolmas izim,
Tosh uzra izlar yeriman.

Taqdir meni hech egolmas,
Oyog‘imdan-da chalolmas,
Dalli shayton to‘r sololmas,
Azaldan sirlar yeriman.

Quritdim manglay terimni,
Shunda bildim had, yerimni.
Anglamadilar qadrimni,
Qadr-qiymatlar yeriman.

Men oshmagan sad qolmadi,
Ko‘nglimda hasad bo‘lmadi,
Menda jon-jasad qolmadi,
Muzlagan go‘r, qabr yeriman.

MENIM EMASMISH...

Ishonardimki, bu dunyo meningdir,
Ko‘pirib, hayqirgan daryo meningdir,
Har kuz meningdir, yoz chog‘i meningdir,
O‘rog‘-u ketmon-u chalg‘i meningdir,
Qarangki, hech biri menim emasmish.

Yomg‘irlar yog‘madi istaganimdek,
Bulutlar qamradi lazzat, zavqimni.
Shamollar qo‘ymadi boqib to‘ymakka,
Qo‘limda so‘ndirdi titroq shamimni.
Tunda oy to‘lmadi istaganimdek,
Qarangki, hech biri menim emasmish.

Quyosh kunduzlari o‘z nurin sochdi,
Kumush jilvasidan ufq voz kechdi...
Sahroning yuziga kun tushganida,
So‘z ochdi hamisha to‘kisligidan,
Qarangki, hech biri menim emasmish.

Boshimni chalg‘itdi oila-ushoq,
To‘zdim har jafoga men ko‘ngli yumshoq.
Avlod shirinligi — bol shirinligi,
Kazzob jigarning ayyor shirinligi,
Sarqitga o‘chlik, yaloq shirinligi,
Qarangki, hech biri menim emasmish.

Haromtomoqlarni yog‘ bosib ketdi,
Halol non topganni qashshoqlik egdi.

Ko‘p daraxt gerdaydi mo‘l bahrasi-la,
Boshi tanasiga og‘irlik etdi,
Qarangki, hech biri menim emasmish.

Botdi kuragimga vaqtning ignasi,
Malham — o‘t-o‘lanning dimog’da isi...
Bir tarafda qolsin dushman fitnasi,
Dol etdi qaddim do‘stning yaramasi,
Qarangki, hech biri menim emasmish.

Xotira muz bo‘ldi yoz havosida,
Yo‘qotdim o‘zimni el orasida.
Folchilar og‘zim poylar qayta-qayta —
Yurakdagi sir-u asrorlarim-da,
Hech biri, hech biri menim emasmish.

GANIRA PASHAYEVA

Ganira Pashayeva — Ozarbayjon Respublikasi Milliy majlisi deputati, siyosatchi, shoira va jurnalist. U 1975-yil 24-martda tavallud topgan. Ozarbayjon Davlat Tibbiyot universitetining pediatriya fakulteti va Boku Davlat universitetining xalqaro aloqalar fakultetini tamomlagan.

ONA

Samodil Norqobilova tarjimasi

Bu kecha uxlamadim, ona,
36 yoshning vahimasi bor ichimda...
Meni 37 yoshga ko'chirgan kechaning
tongida sovuqlik bor...
Saharida qor.
Sovuq qotyapman, ona!
Tun bo'yi sasing quloqlarimda
juda olislardan keladi ovoz:
"Uxla, qizim,
O'z qizim,
Damingni ol,
Ulg'aygin".
Mana, o'sdim ham, ona,
taqdirning eng beomon
yillarida o'sdim men.
Dilimni ochdim, ona,
bu hayotning eng qattiq
yo'llarida o'sdim men.
O'ydim-chuqur yo'llarda
Yiqilib-turdim qancha.
Yuragim ko'p og'ridi,

Jonim ko‘p yondi, ona...
Sen menga bu dunyoda
vijdonsizlar borligi,
Ayol bo‘lish qiyinligi haqida
Gapirmaganding-ku, onajon.
Oyog‘ingning ustida turmoq,
Nomus, ibo bilan yashamoq,
Faqat haqiqatni so‘zlamoq...
Onajon, buncha qiyin.
Har narsaning badali bormish,
Hammasidan ayol bo‘lmoqlik
og‘irmish!
Axir gapirmaganding-ku, onajon...

Ko‘rsatmadim hech kimsaga ko‘zyoshim,
Ichimga yutishni o‘rgandim, ona.
O‘zni baxtli qilib ko‘rsatdim,
Azoblarni yengdim ro‘yirost.
Yuragimni kaftimga olib,
Boshlarimni ko‘tarib baland
Yurmoqni o‘rgandim, onajonim.
Meni sevmaganlar sevmasin, deb
Yiqilmaslikni o‘rgandim,
Ijro etdim baxtiyorlikni,
Shunday ijro etdimki rolni,
Asl baxtning nima ekanin,
Baxtiyorlik nima deganin
Unutdim...
Bu kecha, yana shu kecha
Sasing keldi quloqlarimga,
Bir nimani tushuntirasan:
“Yaxshilik hamisha g‘olib keladi”.
Ammo, 36 yildir, ko‘rmadim,
Kuzatmadim bunday holatni...
Seni tingladim,
“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan...”

Biroq, mening hayotimda
"Yo'q"lar juda ko'p ekan, ona,
Bugun ancha ulg'aydim, ona,
Endi u qiz emasman.
Senga juda yaqinman bugun.
Ko'zyoshlarda ulg'aygan xotin...
Xotirangdami, ona,
Yo'lda ketayotgandik,
Pichirlab duo qilding.
Kechirgin, birdan senga,
"Kim uchun duo", dedim?
"Tushunasan, ona bo'lsang",
Deding menga jilmayib.
Ammo...
Men ona bo'lmadim, ona.
Lekin seni angladim ozroq.
Ortimdan tosh otgan do'stlarni,
Yuragimni olgan sevgini
Ola qarashlaridan
O'rgandim, ona!
"Hech kimim emassan", dedi sevgilim,
Besh daqiqa o'tar-o'tmasdan,
"Sen mening hamma narsamsan," — deding, ona.
Ammo, men noshud sening emas,
Uning hamma narsasi bo'lishni,
Uning ko'ngliga yo'l topishni
Istayotgandim, ona.
Buncha tez o'tdi fursat,
36 yil bo'yi
Sen men bilan yonma-yon.
Kimdir meni yig'latganda ham,
Aldaganda va yana kimdir...
Sevgi? Boshqa yo'ldan o'tib ketdi,
Yaproqlar kabi uchib ketdi.
Men sevgini tanlaganimda
Sevgi mendan qochib ketdi.

37 yosh bilan ko‘rishdim, ona,
Otashi o‘t-olov Jannadan,
Vatan uchun boshini tikkan To‘marisdan,
Iskandarga saboq Nushobadan,
Sevgiga qurbon bo‘lgan Laylidan
Juda ko‘p yashadim, ona.
Ammo, na To‘maris bo‘ldim,
Na Janna,
Na Nushoba bo‘ldim,
Na Layli.
Qancha yillar o‘tib ketsa ham,
Hamma narsang bo‘ldim Sen uchun.
Ona, meni qaytar bolaligimga,
Baxt haqida aytib ber ertak.
“Bor”lari ko‘p bo‘lsin ertakning,
“Yo‘q”larini ot uzoqlarga.
Yuragimni oldirib qo‘ydim...

OCH ESHIKNI BU QULINGGA, YO RABBIM!

Xosiyat Rustamova tarjimasi

Senmisan har kecha tushimga kirgan,
Senmisan, ayrilib ketgan tong sahar.
Senmisan kechasi derazalardan,
Soya kabi uchib ketgan har safar.

Subhidam quyoshin ilk nurlarida,
So‘yla, senmi axir meni uyg‘otgan?
Har oqshom ko‘klardan kelgan bu sas ne?
Senmi suhbat qurgan men bilan?

Menga ilhom bergan, menga jon bergan,
So‘yla, yo senmisan men olgan nafas.
“Dunyo”da sevgidan buyuk yo‘q degan,
Senmisan, ruhimga aylangan har sas.

Sevgi, sog‘inch meni dog‘laganida,
Oh, men-chun kuyungan senmisan aytgin,
Xo‘rsinib-xo‘rsinib yig‘laganimda —
Ko‘zimdan sizilgan yoshmisan qadim?

Mening ishq yulduzim yonayotgan payt,
Sengami, Tangrining nazari tushgan?
Bir juft ko‘zmi yorug‘ qilgan dunyoni —
Kunduz quyosh, kecha oyim — uyushgan.

Ruhimga yoyilgan sevgi otashi,
Senmisan, ko‘zimga ko‘ringan ey ishq?
Senga qurbon bo‘lsin mening shu boshim,
O Yusuf siymoli sevgilim, qo‘shiq.

* * *

Xosiyat Rustamova tarjimasi

Sevging hasratinda beruh ko‘nglimning,
Boshqa uzilajak yeri qolmadi.
Yo‘lingga ko‘z tikib horg‘in ko‘zimni,
Yig‘latma, ishonki nuri qolmadi.

Kimning asiriman, qaysi zolimning?
Kimdir egasimi zabun holimning
Na yoshli ko‘zimning na-da qo‘limning
Dardimni yozajak holi qolmadi.

Seni deb qarigan g‘arib ko‘nglimni,
Va senga baxsh etgan jon-u dilimni,
Dunyo alishsa ham ko‘ngil yerimni,
Yuragim sevmoqdan beri qolmadi.

* * *

Xosiyat Rustamova tarjimasi

Ko‘z qidirar, men har yerda qidirdim,
Qo‘shiqlardan, ash’orlardan qidirdim.
Oqshom tundan, kunduz yerdan qidirdim,
Ey sevgilim, bunday jimlik ne uchun —
Qaysi bir kun mendan hol so‘r, so‘ragin,
Dard to‘kmoqqa bir varaq ber, so‘ylayin.
Men yillarcha kelar deya o‘yladim,
Ey, sevgilim, bunday jimlik kim uchun,
Bir javob ber, jim o‘tirma men uchun.

So‘zlaringga to‘ymasimdan ayrildim,
Ko‘zlaringga to‘ymasimdan ayrildim.
Men bir tushdan uyg‘onmasdan ayrildim,
Ey sevgilim, bunday jimlik ne uchun,
Bir javob ber, jim o‘tirma men uchun,
Eshitsayding faryodimni ko‘klardan,
Bir ko‘rsayding o‘lishimni o‘qlardan.
Men o‘lganman sen unutgan kunlardan,
Ey sevgilim, bunday jimlik ne uchun,
Kel, javob ber, jim o‘tirma men uchun.
Meni menga olib kel
Aslo kutilmagan mehmonday kelding,
O‘zgardi hayotim — o‘zgardim men ham.
Kutib olinmagan sevgiday yondi —
Olovga tashlangan umrim — jahannam!

Qop-qora ko‘zlarning sirli boqishi,
Bir Majnun otashda qovurding mani.
Sen jinni bir shamol, men yaproq kabi
Umrimni yellarga sovurding mani.
Sevgi g‘arib qoldi, hayotim, qol, san!
Kel, meni yo‘llarda qo‘ymagin tashlab.
Yolg‘iz seni sevdim, yolg‘iz sen borsan!

Va bor otashingda kuyib bitgan qalb!
Yo Rabbim

Men "borlik"dan "hechlik" yo'liga tushdim,
Men ishq otlig' sherning qo'liga tushdim.
O'zni tashlab ketib Senga yetishdim,
Eshiging och, bir qulingga yo Rabbim!

"Nafs" atalgan u shaytonni tark etdim,
Hayot nima? Kech bo'lsa ham farq etdim.
Eng buyuk ishq ... Sen ekansan yarq etdi,
Och eshikni, bu qulingga yo Rabbim!

Muhammadga dil to'kmoqqa zor bo'ldim,
O'zim ishqning tegrasida xor bo'ldim.
Xato yo'ldan ketib Sanda bor bo'ldim,
Och eshikni, bu qulingga yo Rabbim!

Erta tongdan azon sasin tingladim,
Yunusdayin qul sevgisin ilg'adim.
Shamsda yongan Mavlonoga yig'ladim,
Och eshikni, bu qulingga yo Rabbim!

SO‘NA VALIYEVA

1962-yilda tug‘ilgan. Ozarbayjon Davlat san’at institutini bitirgan. 1999-yildan “Kaspiy” gazetasining ta’sischisi va rahbaridir. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a’zosi, Ozarbayjonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist, falsafa fanlari doktori, ko‘plab ilmiy hamda badiiy kitoblar muallifi. Asarlari Tehron, Istanbulda fors, turk tillarida chop etilgan.

QOR YOG‘AR

(Kichkina Sattor uch kunlik ukasini erkalab, qor yog‘ayotganini aytardi: “Tashqarida qor, sen qor nimaligini bilasanmi, mittivoy?”)

* * *

U qaydan ham bilsin, qor nima, o‘g‘lim,
Ko‘zlarida dunyo ona bag‘ridir.
Na qorni biladi, na sovuq ma’lum,
Hayot bu sut isi, ona atridir.

Ruhiga bitilgan qadim yodnoma,
Yuvilib, yangidan yozilur endi.
Gar aniq bor bo‘lsa hayot u yoqda,
Uyquda yig‘latgan, kuldirgan kimdi?

Eshikda qor yog‘ar, beshigi issiq...
Tomlardan, dillardan chakka o‘tmoqda.

Arshning barakoti, tuproq ulushi,
Bandaga savob-u gunoh to‘kmoqda.

Sen uchun qor odam, qor to‘pi bu qor,
Mening hasratimga qorlar yog‘ardi.
Shushaning, Lochinning umidi so‘nib,
Yo‘llar ko‘zini ham oq qor bog‘lardi.

Tuproq hasratining toleda aksi,
Zirqiroq qalbimga asta qor yog‘ar.
Bu yerda tinch hayot o‘limdek asli,
U yerda bizsiz xarobalar yig‘lar.

Dunyo chayqalarkan beshigi chil-chil,
Qori ham avvalgi qordek yog‘maydi.
Musht haqiqat bo‘lar, haqiqat-chi, jim,
Haqlining kuchini shayton yamlaydi.

Uyg‘ot xotirangni, qo‘yma mudrashga,
Tor-mor tuprog‘ingga o‘zing tole yoz.
O‘g‘il o‘z g‘ururin to‘siq aylasa,
Sarhadi buzilmas, yurti bosilmas.

Oppoq bir chechakdir bu qor tuhfasi,
Tuproqning dardini avaylab o‘rar,
Qor yog‘ar, birlashar bo‘lingan Vatan,
Qor shunday yog‘arki, sarhad yo‘qolar.

Xandaqda askarning orzusi olam,
Bayrog‘i Shushadan Ko‘ksoyga qadar.
Qor yog‘ar kechaning qora yuziga,
Zafar madhiyasi qalbimda yangrar.

Umidim yurakda so‘nggi tor, Alloh,
Yetolmay qolishdan andog‘ qo‘rqaman.
Qorabog‘ bag‘rimning qora sabridir,
Qor yog‘ar, muzlasa, chatnar sabrim ham.

Sen uchun qor odam, qor to‘pi bu qor,
Mening hasratimga qorlar yog‘ardi.
Shushaning, Lochinning umidi so‘nib,
Yo‘llar ko‘zini ham oq qor bog‘lardi.

HOY, ESHIK QULFLAGAN

(Taqdiri yopiq eshik orqasida
hal etilgan millatlarga)

Bu tarafda men ocharman,
U tarafdan kim qulflagan?
Tangri qo‘li-la ochyapman,
Shoshma, hoy, eshik qulflagan!

Kimgadir bir salomdir bu,
Kimga manglaydagi yozuv,
Qanday ozor, ne darddir bu,
Yetar, hoy, eshik qulflagan!

Allakim bir bong-la ochdi,
Boshqasi duo-la ochdi,
Birov oh-fig‘on-la ochdi,
Kimsan, hoy, eshik qulflagan?

Bu eshikning g‘ijirlashi,
Ming yillik dil zirqirashi,
Darband, Ganjaning ingrashi,
Ochaylik, eshik qulflagan...

Bu eshik ko‘zim qovog‘i,
Ichi Vatanim tuprog‘i,
Yuragim toptadi yog‘iy,
Sen ham ko‘r, eshik qulflagan.

Kirmadim eshik bo‘lsa-da,
Dardi dushman chorasida,

Tuproq eshik orasida,
Jon berar, eshik qulflagan.
Och, ko‘raylik, qayda yo‘llar?
Ovunsin g‘am o‘ynatganlar,
Yuzimga yopiq qarsillab,
O‘ldim-ey, eshik qulflagan!
U oq ro‘molli kim edi?
Duolari Haqqa yetdi.
Yomg‘irlar-la kalit endi,
Olib och, eshik qulflagan.

TELLI PANOH QIZI

Iste'dodli telejurnalist, shoira, publitsist. G'arbiy Ozarbayjonning Vedibasar tumanida dunyoga kelgan. Ozarbayjon Davlat universitetining jurnalistika fakultetini va Davlat Boshqaruv Akademiyasini tugallagan. Uzoq yillar mobaynida Ozarbayjon Davlat televideniyasida ishlab keladi. "Umrning qo'sha izi", "Tangrim-la suhbat", "Sasingda oy shu'lasi bor", "Qatl kundasi" va boshqa ko'plab kitoblarning muallifidir.

BASIMDIR, BASIM

Na bir umidvorlik, na tasallim bor,
Yolg'iz xush boqishing basimdir, basim.
Istasang qoya bo'l, bitay bag'ringda,
Bil, issiq og'ushing basimdir, basim.

Qor bo'lib elansang nogoh boshimga,
Baxtiyor avzoda chiqsang qarshimga,
Ishonsang soddadil aldanishimga,
Jo'ngina olqishing basimdir, basim.

Yo'qmish bu dunyoning haqqi-karami,
Hasrating soyada qo'ydi Karimni.
Dilingning kaliti — "Kuygan Karimi",
So'zingning bir naqshi basimdir, basim.

Qo'y, kelib dardingni olayin o'zim,
Mayin sochlaringga gul-chechak tizgum,
Nogahon buloqdek jo'sh ursa ko'zim,
Yoshlaring yog'ishi basimdir, basim.

Sen bo‘lding doimo orzum, tilagim,
Elanar bu umr, qolmas hech neyim.
Kechikdi nolishim, ta’nam andog‘ kim,
Allohning qarg‘ishi basimdir, basim...

SHUNDAY UZOQDASANKI...

Shunday uzoqsanki... sasim ham yetmas,
Shunday yaqinsanki... tuymaysan meni.
Ko‘zlaring ko‘zimdan hech nari ketmas,
Ko‘zingdan uzoqqa qo‘ymaysan meni.

Ko‘z qorachig‘imni zabt aylading sen,
Sening ko‘zingda-chi, yo‘q mening joyim.
Ko‘zlarim nuriga soya bo‘lding sen,
Ayt, senga dunyomni qanday ko‘rsatgum?

Shunday uzoqsanki... tasalliga boq:
Sen bu shaharni tark etmagansan-ku!
Ayt, nega yo‘limiz kesishmas hech vaqt,
Axir uzoqlarga ketmagansan-ku...

Shunday yaqinsanki... juda yaqinsan,
Nafasing yuzimda kezar har kecha.
Turib derazamdan boqay, balki san
Birdan qaytasan sassiz, yashirincha.

Manzilim topmasang, bir zanging yetar,
Yelaman shaharning u boshiga man.
Agar uzoq bo‘lsang... tasallim bitar...
Agar yaqin bo‘lsang... so‘yla, qaydasan?

FIRUZ MUSTAFO

Mashhur dramaturg, tarjimon, faylasuf, professor. 1952-yilning 18-fevralida Ozarbayjonning Kedabek tumanida tug'ilgan. Ozarbayjon Davlat pedagogika universiteti filologiya fakultetini tugatgan. Falsafa fanlari doktori. Ko'plab ilmiy va badiiy asarlar muallifi. O'ttizdan ziyod asari Ozarbayjon va boshqa davlatlarda sahnalashtirilgan. Ja'far Jabborli nomli va "Humoy" kabi nufuzli mukofotlarga sazovor bo'lgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi dramaturgiya bo'limining rahbari, "Toj" gazetasi va "Teatr" jurnalining ta'sischisidir.

* * *

Vaqt kelar, olamga cho'kkan zimiston
Sening ham qalbingga ilondek kirgay.
O'grilib, ortingga bog'ganda bir on,
O'tli nigohingni ko'zlaring ko'rgay.

Ta'nali boqishlar qovurar seni,
Kulingni ko'klarga sovurar sening.

Yillar g'alviridan o'tkazar bizni,
Tuyarmish barchani vaqt tegirmoni.
Ko'nglimga go'zallik singdirgan ko'zim
Bir kuni bo'z ko'rgay moviy dunyoni.

* * *

Faqir faqirlikning tortar dardlarin,
Badavlatga esa har tiyin g'animat.
Hali ham idroki yetmas ko'plarning,
Falokat keltirgay o'zi-la sarvat.

Faqirlar hech nega solmas bad nazar,
Sariq chaqaga ham shukur etar ming bor.
Ba'zisin kissasi to'la siym-u zar,
Yayrab kula olmas yurakdan zinhor.

Bittasi to'qlikka borar yo'qlikdan,
Boshqasi ochlikka borar to'qlikdan.

* * *

Hech o'ziga tortmas meni mol-dunyo,
Hasham turgan yerda ma'rifat bo'lmas.
Gulgun chehralarga men doim shaydo,
Ochiq yuraklarda xiyonat bo'lmas.

Dard-u hasratlarim menga boylikdir,
Illo, faqirlikning o'zi ham davlat.
Insondek yashamoq farovonlikdir,
Insondek o'lmoq — bu beadad sarvat.

Ko'z-ko'z qilma menga mol-u davlatni,
O'ylab ko'r, ne-la lol etarsan meni?

* * *

Saodat uyimning ichida ekan,
Saodat burnimning uchida ekan.

Sening qadringni men bila oldimmi,
Tuydimmi ko'nglingdan nelar kechganin?
Oqqan ko'z yoshingni quritoldimmi,
Quvdimmi yo'lingdan tumanni, changni?
Ba'zan mahv etadi yolg'on to'g'rini,
Betavfiq oldida oqil cho'kar tiz.
O'zimiznikining bilmay qadrini,
O'zgalardan nedir axtaramiz biz.

FIKRAT MURSAQULOV

Iste'dodi shoir, jurnalist, publitsist Fikrat Yunus o'g'li Mursaqulov 1955-yilning 10-iyunida Gruziyaning Bo'rchali tumani Marneuli shahrida dunyoga kelgan. 1964–1975-yillarda ko'zi ojiz bolalar internatida, 1975–1980-yillarda Boku Davlat universitetining jurnalistika fakultetida tahsil olgan. 1989-yil 31-mayda bevaqt vafot etgan. 2007-yilda uning "Tasalli" nomli she'riy to'plami nashrdan chiqdi.

TASALLI

O'qib-o'qib,
yozib-yozib,
Nur alifbosin o'rgatmoqdaman
barmoqlarimga.
Xush ko'rdik, ko'zlarim,
xush ko'rdik!

* * *

Bebosh tuyg'ularim she'rlashganida,
Badan zirqirog'i yodimga tushmas.
So'z-so'z, misra-misra qorayar qog'oz,
Jismim uvushtirar qora varaqlar.

She'r yoza-yoza, dard torta-torta,
Ustma-ust chekishdan tutab ketaman,
Horg'in yuragimning tugar madori,
Boshimga qor yog'ar pastdan yuqori,
Sochim oqartirar qora varaqlar.

Sillasi qurigan ojiz qalbimga
Anduhning og‘riqli yuklari to‘lar.
Meni tiriklikda tuymaganlarga
Ko‘nglimni tanitar qora varaqlar.

XOTIRALARIM

Hammadan qadrdon, har nedan aziz,
Hammadan yaqindir xotiralarim.
Xotiralar ila qalbim limmo-lim,
Demangiz, hech yo‘qdir xotiralarim.

Qurib ulgurmadi diydasin nami,
Hali ham titraydi kiprikda yoshi.
Ulardir qalbimning yaqin hamdami,
Ulardir qalbimning aziz sirdoshi.

Bol kabi shirindir, og‘udek achchiq,
Nechun bunchalar tez yurak to‘libdi?
Xotiralarimdir ko‘nglimning toji,
Yaxshiki, qalbimda bo‘sh yer qolibdi.

Hali necha shunday o‘tgan kunlarim,
Xotiraga do‘nib, tanho qolajak.
Hayotim-la bog‘liq ko‘p qahramonli
Bir xotira nomli asar bo‘lajak.

GUNAY UMID

1984-yilning 26-aprelida Ozarbayjonning Lankaron shahrida dunyoga kelgan. Ozarbayjon Davlat sa'nat institutini tugatgan. Hozirda Boku Slavyan universitetining ijodiyot fakultetida tahsil olmoqda. Oilali. Bir qiz, bir o'g'li bor.

MENGA YOLG'ON SO'ZLA

O'yinchog'i olib qo'yilgan
Go'dak kabiman.
Behudadir oqayotgan
Ko'z yoshim,
G'alabasizdir olishganim
Hayot kurashi.

Menga yolg'on so'zla!
Yelkamga yuklangan
Ma'nosiz to'g'rilarning
Yuzimga yopilgan
Eshiklarida qolganman.
Bu yolg'onchi dunyoda
Yo'q narsani axtarib
Umrimni o'tkazganman.

Menga yolg'on so'zla!
Qo'y, minba'd qismatimning
Ho'ngragan kulishini
Tuymayin.
Oyog'imni kishanla!
Qo'y, minba'd qadamimni

Ilojsizlikka qo‘ymayin.
Indamayman,
Men ko‘naman.
Sen menga yolg‘on so‘zla.
Ag‘dargin mo‘rt ishonchimni
Yuragi tosh, yuzi xush
Qoya yolg‘onlaring-la,
Oq-qora hayotimni
Bo‘ya yolg‘onlaring-la.
Ey hayot,
Uydir yolg‘onlaringni,
Ko‘z yoshlaring
Sevinchdan degil menga!
Kulishlaring
Ich-ichdan degil menga!
Orzularing to‘siqlarni
yengar de!
Bu hayot yashamoqqa arzir de!
Yolg‘onlaringning shirin tili
Inontirsin borlig‘imni,
Jim turma....
Chinlarimga qorish, jim turma,
Yashamoq istayman,
Menga yolg‘on so‘zla.

EPLAMADIM

Avval o‘zimdan uyaldim!
So‘ngra esa hislarimdan...
Sevgimdan uyaldim,
Uyaldim yuragimning
Saslaridan....

Seni hislarimda bo‘g‘moqqa urindim!
Yashirmoq istadim...

Muz o‘ragan tuyg‘ularim
Isinmoq uchun yondirgan
Orzularda o‘rtandim.
Eplamadim!

Seni hurkak dadilligimning
Orqasiga yashirdim.
Qo‘rquv tindirdi ko‘z yoshim,
Hadik siypaladi boshim.
Eplamadim!

Seni she’rlarimda
Yashirmoqqa urindim!
Har satrning ohida, faryodida,
Har misraning gunohida
O‘ldirmoq istadim seni,
Ammo eplolmadim.

Seni yashirmoqqa urinarkanman,
Kirib qalbimda yashirinding...
Endi chiq qalbimdan!
Chiq hayotimdan!
Qalbimning butun borlig‘iga singgan
Nolasi, ohi....
Chiq umrimdan!
Hayotimning eng pokiza gunohi,
Chiq!
Chiq umrimdan!

AHMAD O‘G‘UZ

Karimov Ahmad Musa o‘g‘li, shoir, ssenariynavis. 1961-yilning 13-noyabrida Ozarbayjonning Kalinino tumanida ishchi oilasida tug‘ilgan. Ozarbayjon Davlat pedagogika institutining til va adabiyot fakultetini bitirgan. Nufuzli “Humoy” mukofotining sovrindori, 1993- yildan Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a’zosi.

OQ SAHRO

Yer yuzining kir-g‘ashligin
Oppoq qor obdan yopibdi.
Unnuqqan ko‘ylagim kabi
Ko‘k yuzi xira tortibdi...
Qor — tiz bo‘yi, havo go‘zal,
Men kimman — bir parcha sabiy.
Soyamga maftun ketarman —
Qo‘lim, oyoqlarim moviy.
...Bu oq sahroning yuzida
Na xushbaxtlik bor, na o‘lim.
Zax yerdan silqigan suvdek,
Qiziq, qayga ketar yo‘lim?
Balki ketgan bu dunyodir,
Turgan yerim toptayapman.
Bo‘sh izlarimni o‘q kabi
Kuragimda his etyapman...

* * *

Yana sarxush kabiman,
Boshimda g‘urbat dami.
Yellarda yurt atri bor,
Bulutda Vatan nami.

Ko‘rfazdan ketgan kema
Olib ketmaydi mani.

Tushimga tog‘lar kirar
Ko‘zimni yumgan zamon.
Alloh olmas jonimni,
Avaylar meni hamon.
Ildizlar qurib bitar,
Ko‘zimda ingrar zamin.

...Nurab ketgan to‘rt devor,
Kun qoqar derazamni.
Qayga boray, nimam bor,
Kimga yuklayin g‘amim...

Istamayman o‘lmakni,
Bunday umr surmakni,
Bumi Alloh ko‘magi,
Yo Tangrining sitami?..

AYRILIQLAR

Suvimiz yana bulg‘andi,
Ko‘r bo‘lsin ayriliqlari.
Ko‘z yoshi-la tiniqlashsa
Tinisin ayriqlari.
Bu yoshgacha nelar ko‘rdim,
Endi sevmak pesha bo‘ldi.
Uloqtirgil shisha kabi,
Qirilsin ayriliqlari.
Meni chunon zirillatdi,
O‘ydi, ichim zirqiratdi,
Qayta sevmakni o‘rgatdi —
Bor bo‘lsin ayriliqlari.

QASHAM NAJAFZODA

Qasham Najafzoda 1959-yilda tug'ilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, Bolalar adabiyoti bo'limi rahbari, "Ozarbayjon" jurnali she'riyat sho'basi mudiri. Hozirgacha 24 ta kitobi chop etilgan.

OLIB KETMANG MENI URUSHGA

Olib ketmang meni urushga, yov qotili emasman,
Menga qurol bermang, sotib kitob olaman.
Menga yovni ko'rsatmang, do'st bo'laman,
She'r o'qiyman askarlarga tongdan oqshomga qadar.
Olib ketmang meni urushga...

Daf'atan okopdan chiqib qichqiraman dushmanlarga:
Hoy, orangizda shoir bo'lsa, kelsin bu yerga.
Kimki kelsa yuz-ko'zidan, soqollaridan o'paman,
yemak-ichmagini surishtiraman,
Siz tomonda bolalar ham o'ldimi deyman,
Uzr so'rab mayiblardan, bevalardan, yig'layman...
Muhorabani o'yinga aylantiraman,
Olib bormang meni urushga.

Oling qancha istasangiz qurol,
beraman deyman,
Issiq kiyimingiz yo'q bo'lsa, oling,
yemak-ichmagingiz oz bo'lsa, oling...
Bizda soat 3, sizda soat necha bo'ldi?
Ayting, soatimni to'g'rilab olay.

Balki siz ham Viktor Gyugoning
"Daydilar"isiz,
Sizni to'yimga aytaman, keling...
Ogoh qilib qo'yay, qoching,
Bu kecha sizlarni qiramiz.
Keling, so'nggi bor o'pishaylik,
Siz yashamog'ingiz kerak, deyman!
Olib bormang meni urushga,
Urushlarni kuldiraman.
Urushni gugurt qutilaridan yasalgan
uychadek buzib tashlayman.
Urushdan ko'zlarni uzaman,
Istasangiz...
Yo'qsa,
Yaxshisi, borib urushavering bemalol,
Meni olib ketmang urushga...

HAYOTIM HAQIDA BIR NECHA SO'Z

Cho'ntakdagi hujjatlarni metro poyezdlari ostiga uloqtirib,
Borib bir gul yaprog'i ostida yig'lamoq istayman,
Qo'ymaslar,
Derlarki, gullarni biz ekkanmiz.

Bokuning eng chekka kentlaridan biriga bosh olib ketib,
Kichkina bir kulba solmoq istayman,
Quvarlar,
Derlarki, tuproqni biz yaratganmiz.

Baliq tutmoqchi bo'laman dengizdan,
Devor olarlar.
Cho'milmoq bo'laman,
Pul so'raydilar.
Deydilarki, dengiz bizniki...

O‘rmonda ko‘lkani ham sotarlar...
Derlarki, bizning daraxtlarning ko‘lkasi.

Imkonlari bo‘lsa havoni ham ballonlarga to‘ldirib sotadilar.
Bir marta nafas olmoq 10 tiyin,
Bolalarga 5 tiyin,
Keksalarga 3 tiyin,
Yetim bolalarga 18 yoshgacha tekin...

Xudoyim,
Menga gullar ber,
Menga o‘rmon ber,
Menga dengiz ber,
Menga uy ber,
Menga havo ber...

YUNUS O‘G‘UZ

Yunus O‘g‘uz (Yunus Isaxon o‘g‘li Aliyev) 1960-yil 22-iyunda Shirvon shahrida tug‘ilgan. 1983-yilda Rostov Davlat universitetining falsafa fakultetiga o‘qishga kirib, 1988-yilda uni bitirib chiqqan. Bir qancha ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ilmiy, publitsistik kitoblar muallifi. Uning “Nodirshoh”, “Tahmosibshoh”, ikki jildli “Amir Temur”, “Malika va jodugar”, “Sulton Alp Arslon” kabi romanlari jahonning ko‘pgina tillariga tarjima qilingan.

NARIDA

Kiprigingda shabnam qator,
Kipriging ko‘zdan narida.
Yurakkinang sovuq qotar,
O‘chog‘ing ko‘zdan narida.

Bu dard seni o‘rtar takror,
Goh so‘nib, goh yonursan, yor,
Isrof etma so‘zni bekor,
Tushganda so‘zdan narida.

Qoyadir tog‘ning tamali,
So‘zdir insonning amali,
Dalimisan, yo‘qsa dali
Xatosi bizdan narida.

Ko‘z tan olmas, noz aylagay,
Yonoqlari fosh aylagay,
Chehrang o‘ziga chorlagay,
Yonog‘ing yuzdan narida.

Yunus qilmas janjal-da'vo,
Bu na jangdir, na-da g'avg'o,
Men bunda, sen unda tanho,
O'zing o'z-o'zdan narida.

TO'ZA-TO'ZA

Bu ajoyib ko'lda so'nam
Noz aylagay yuza-yuza.
Ko'ngil berib, qalbim ovlar,
Jonim olur suza-suza.
Bu olmaning qani yarmi,
Ko'ngil berdim, bo'lgil yorim,
Ishqim ummon, men sen sari
Yo'lga chiqdim keza-keza.
O'rtanursan nega hanuz,
Ko'ngil, undan umidni uz,
Ishq bog'iga yog'ildi kuz,
Men qolurman to'za-to'za.
Vaqt barchasin otdi yelga,
Yuz tutarsan yurtga, elga,
Seni izlab tushdim yo'lga,
Dardlarimdan o'za-o'za.

XAYOL RIZO

Xayol Rizo shoir, jurnalist. Xalqaro turkiyzabon jurnalistlar uyushmasi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi va Yevrosiyo Yozuvchilar uyushmasining a'zosi. Besh kitob, uch she'rlar to'plami muallifi. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi matbuot xizmati rahbari.

SARIQ GULLI MOTAM BAYROG'I

Ertaga bir shamol esadi...
Vido shamoli.
Quritish uchun osib qo'yilgan
Bir go'dak libosi tebranar dorda,
Etagining gullari sariq.

Motam bayrog'iga o'xshatgan edi
bundan o'ttiz uch yil avval
bu libosni bir shoir...
shudir shoirning
rangin hayot haqidagi
hikoyasining yakuni —
sariq gulli go'dak libosi...
hilpiragan motam bayrog'i...
va boshqa... va boshqa...

Va yana
Tor quduq —
Osti zulmat, rutubat...
Qayg'usiz, g'amsiz

Jinday uxlamoqchi bo‘lgan shoirni
Abadiy uyquga jo‘natdik bu dam...

Yoqing bu g‘am ichidagi
Chiroqlarni...

Ko‘taring bayroqlarni,
Shoir... o‘ldi!

TESKARI

Yo‘llar teskari...
Umidlar, orzular teskari...
Dard esa qat-qat,
Botmon-botmon...
Terilgan bir-birin ustiga...
Bir o‘g‘lon lozimdir olib o‘tgali!
Nafslar bichimga tushgan,
Miyalariga
Modern baxillik viruslari yuklangan...
Taqlid raqobatga aylangan...
Rusum bo‘lgan tovlamachilik,
Birov birovning qasdida!
Ko‘zlar o‘zin cho‘ktirgan,
Tikilmaslar yo‘llarga endi...
qo‘llar kuzatib qo‘yar,
qullar quchoq ochmas kelganga.
Yurak dukullab urmas,
Bir ohangga mos kelmas endi...
Kuya tushgan hirsiga!
Shahar sa’jiyasi o‘zgargan,
Yozi yoz emasdir, qishi qish emas,
O‘zgargan romantik nigohlari ham,
Boqishlari o‘zgacha endi!
Endi odam bo‘lmoq ham mushkul

Ushbu yozda, ushbu qishda...
Ya'nikim, unga naqsh bermoq kerak.
Tuxumi teskari kelgan
Tovuqqa o'xshar dunyo.
Chiroq yoqib izlar odamni odam
Kuppa-kunduzi, ayni tush payti.
Hamma narsa boshqacha...
Hammasi teskari...
Xo'sh... o'zimiz-chi?!

AYOZ ARABACHI

Ozarbayjon adabiyotida o'ziga xos o'rni bor, taniqli, iste'dodli shoir Ayoz Arabachi 1967-yilda ziyoli oilasida tug'igan. Tug'ilib o'sgan qishlog'i nomini o'ziga adabiy taxallus qilgan. O'rta maktabda o'qib yurgan yillarida she'rlari "Ozarbayjon yoshlari" gazetasida, "Yulduz" jurnalida hamda radio eshittirishlarida e'lon qilingan. "Idrok" gazetasida Bosh muharrir, "Diplomat" nashriyotining direktori, Yevrosiyo Universiteti ijro apparatining rahbari, "Xudofarin" jurnalining muharriri bo'lib ishlagan. Bir necha she'riy kitoblarining muallifi. 1999-yildan Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi.

INSON

G'oyat buyuk yaratmish Parvardigorim,
Shuning-chun buyukdir ko'zimda inson.
Chekar dunyoning eng og'ir dardlarin,
Tog'larga tenglashar to'zimda inson.

Madadman yiqilsa, suyayman ming bor,
To'ymayman, u haqda so'zlayman ming bor.
Bu o't, bu o'choqda yongayman ming bor,
Alangam insondir, cho'g'im-da inson.

Bu nomdan mening ham o'z yukim bor, o'z,
Achishar qalbimning yarasi jiz-jiz,
Yarashmas har kimga, to'g'risi, bu so'z,
Tilimda insondir, so'zimda inson.

Hech ne kutmagayman xayoliy nomdan,
Muqaddasroq ne bor hayoli nomdan,
Men qanday bezayin bu oliy nomdan,
O'zim-da insonman, o'zim-da inson.

SHUBHA

Yigit ont ichar xo‘b, tilar marhamat,
Qur’ondan so‘z ochar u yuz martalab,
Eshitmak istamas bir kalima-da,
Qiz ikki soatki, tinmasdi so‘zlab.

Seni falon vaqtda ko‘rganlar bor, der,
Boshqa birovni ham sevar ekansan.
Yigit toqati toq, ich-etini yer:
Qo‘y, bo‘lmagan gap, ishon Allohga san.

Unut bo‘ldi nogoh mehribonlik ham,
Sevgan qalblarni qahr vayron ayladi.
Zig‘irdek bitta cho‘g‘, behuda shubha
Asl muhabbatni yolg‘on ayladi.

Hasadgo‘ylar bilan to‘lgan bu dunyo,
Mish-mish uydiribdi qaysi nobakor.
Ostin-ustin endi bir issiq oshyon,
Qizning ko‘z yoshlari oqar shashqator.

Nikoh uzugin ham qadri qolmadi,
Goh u, goh bunisi otdi necha bor.
Olmoqqa hech biri kuch topolmadi,
Ammo irg‘itmoqqa kuchlari bisyor.

IBROHIM ILYOSLI

1963-yilda Ozarbayjonning Qozox tumanida tug'ilgan. Ozarbayjon Texnika universitetini tugatgan. 1990-yildan buyon Ali Karim nomli Sumgait "Poeziya" klubining rahbari bo'lib ishlab kelmoqda. Uch she'riy kitob muallifi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi, "Ulug'-chinor" adabiy jurnali tahrir hay'ati, Mahmud Koshg'ariy xalqaro jamiyati boshqaruvi a'zosi. Prezident stipendiyasi, Mahmud Koshg'ariy mukofoti bilan taqdirlangan.

MEN BIR SO'Z BILAMAN...

Men bir so'z bilaman — tilimga kelsa,
Sadosi qonimga belaydi meni.
Shohlar tars chatnagay yetti yeridan,
Odamlar toshbo'ron aylaydi meni.

Men bir so'z bilaman — uni so'ylasam,
Kofirlar gulxanga otarlar meni.
Mo'minlar boshimni uzarlar, so'ngra
Boshlaridan yuksak tutarlar meni.

Men bir so'z bilaman — tilimga olsam,
Olimlar tilimni kesarlar mening.
So'zimni osarlar eng baland dorga,
Ustimda quyundek esarlar mening.

Men bir so'z bilaman — og'zimdan chiqsa,
Oqillar nomimni dalli degaylar.
Darvishlar u so'zga qolib hayronlar,
Oshiqlar tan berib, "balli" degaylar.

Men bir so‘z bilaman — ne qilay axir? —
Daraxtda uyam bor, ichida bolam.
Hech neni bilmayman, ey do‘stim, biroq,
Men bir so‘z bilaman — yaxshiki, lolman.

MENI BU QALAMDAN ASRAGIN, ALLOH!

Alhazar kufrdan... Astag‘firulloh! —
Senga intilaman, senga, Allohim!
Shayton uya qurib vujudimizga,
Hech qo‘ymas kelmoqqa dinga, Allohim!

U yondan haydasang, chiqar bu yondan,
Kor qilmas dag‘dag‘a, doim hozirdir.
Kecha o‘zim ko‘rdim, xontaxtamda u
O‘tirib, o‘rnimga she’rlar yozardi.

Ishga yugurasan — u ish joyingda,
Do‘konda senga peshtaxtadan kular.
Choyxonadan quvib qutulganingda,
Masjidning yonida yuzma-yuz kelar.

Goh aziz do‘st kabi tutar qo‘lingdan,
Goh dushman tarafdan to‘pin o‘qtalar.
Goh daydi gadodek chiqar yo‘lingdan,
Goh badavlat qul qiyofasin olar.

Osmono‘par saroy qurar bir qo‘li,
Bir qo‘li choh qazir senga bildirmay.
Ag‘darib yetti qat avra-astarin,
La’natlayman uni, boshqa ne qilay.

Andog‘ qamrabdiki bu yer kurrasin,
Biror- bir burchagi qolmagan chetda.

Sharqda asta yoqar jang alangasin,
G‘arbda esa u “sulhparvar farishta”.

Soldi izmiga ko‘p ixtiyorlarni,
Mohiyat — ul iblis, zohir — ul jindir.
Shohlar — eng sevimli qo‘g‘irchoqlari,
Qo‘lida fuqaro bir bo‘lak gildir.

Nahot bu gardishning yo‘qdir adog‘i,
Qaytishning bir yo‘li yo‘qmikin, Alloh?!
Bu she’rda bo‘lsa gar shayton barmog‘i,
Meni bu qalamdan asragin, Alloh!

HAZILNAMO

So‘rabsan sen — “qachon kelay,
Tongdami yo namozshom?..”
Shu ham gapmi, darding olay,
Ham sahar kel, ham oqshom.

Kel, shunchaki ko‘ray seni,
Ko‘zimga ko‘rin-u, ket.
Hasratdan men yondim lov-lov,
O‘timga o‘ran-u, ket.

Hech farqi yo‘q, kel yo choshgoh,
Ertalab yo kechki payt.
Sensiz qaydan bilay, axir,
Tunmi yo tong, o‘zing ayt?!

* * *

Meni olamlardan ogoh bilursan,
G‘aflatda g‘ofilman, xabaring yo‘qdir.

Bilganlar qul derlar, sen shoh bilursan,
Sargardon safilman, xabaring yo‘qdir.
Qarshingda aybdorman, budir ilojim —
Oyog‘im yetgancha o‘zimdan qochgum.
Ayrildim taxtimdan, olindi tojim,
Talonda qoldim men, xabaring yo‘qdir.
So‘rmagil, ne uchun oshiqman senga,
Najot tilab topindim etagingga,
Sohib bo‘l telbangga, ol yetagingga,
Asiring bo‘ldim men, xabaring yo‘qdir.

OQIL KANGARLI

1972-yilning 1-sentabrida Go'ychay shahrida tug'ilgan.

1995-yil Boku Davlat universitetini, 2002-yilda Ozarbayjon pedagogika institutini tugatgan. Ixtisosi tarixchidir. Go'ychay shahar 7-sonli o'rta maktabda tarbiya ishlari bo'yicha direktor muovini bo'lib ishlaydi. Yetti kitob, sakkiz yuzdan ortiq maqola muallifidir.

QO'Y, SHUNDAY YOG'SINKI BU ABRI NAYSON...

Qo'y, shunday yog'sinki bu abri nayson,
O'zi-la nur to'ksin, sevinch keltirsin.
Yuvilib qalblardan nafrat-u armon,
O'rnida gul unsin, chechaklar bitsin.

Qo'y, shunday yog'sinki bu abri nayson,
Nopok xayollarning kiri to'kilsin.
Birlashsin qardoshdek barcha yonma-yon,
Mamlakatlar aro sarhad so'kilsin.

Qo'y, shunday yog'sinki bu abri nayson,
Yerda g'alla o'ssin, boshoqlar duv-duv.
Onalar to'kmasin ko'zyosh hech qachon,
Go'dak chehrasida bo'lmasin qo'rquv.

Qo'y, shunday yog'sinki bu abri nayson,
Balki orzularim nish urar yerdan.
G'am-g'ussa ko'rmaylik, har qadam, har on,
Nariroq bo'laylik darddan, kadardan.

Qo‘y, shunday yog‘sinki bu abri nayson,
Odamlar muattal qolsin sasiga.
Yuvilsin g‘uborlar, poklansin dunyo,
Balki g‘usul bo‘lar yer kurrasiga.

SEVMAY BO‘LARMIKAN OZARBAYJONNI

Har toshi, qoyasi muqaddas, aziz,
Har o‘g‘li, har qizi bir jo‘shqin dengiz,
Nechalar jonimga jodir, bilsangiz,
Uningsiz kechmagay umrim bir oni,
Sevmay bo‘larmikan Ozarbayjonni?

Cheksiz samosida bir qushman uning,
Qo‘ynida qanotim qoqmisham uning,
Halol non-tuzini totmisham uning,
Udir in’om etgan menga ot-nomni,
Sevmay bo‘larmikan Ozarbayjonni?

Hayqirib keldi bu yurtga yot ellar,
Bo‘zqurdga dag‘dag‘a qildi qashqirlar,
Chidadi, egilmay so‘ng nafasi qadar,
Singdi bu tuproqqa pok shahid qoni,
Sevmay bo‘larmikan Ozarbayjonni?

Tarix sahifasin bir-bir varaqla,
Xiyonat necha dard keltirdi xalqqa,
Bir kuni otilib turgay oyoqqa,
Yoqgay xoinlarni g‘azab vulqoni,
Sevmay bo‘larmikan Ozarbayjonni?

OFOQ SHIXLI

1969-yilning 25-iyunida Boku shahrida ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Asarlari ingliz, fransuz, rus, turk va boshqa tillarga tarjima qilingan. Moskva shahrida yashaydi. Ozarbayjon, Rossiya, Yevrosiyo yozuvchilar uyushmalari, Ozarbayjon jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

ONALAR E'ZOZLANMOQ UCHUNDIR

(Onamga...)

Onalar
bag'irlarida bekinishimiz uchundir
yolg'izlikdan junjikkanda...
Onalar
erkalanib, e'zozlanishimiz uchundir
dunyodan ranjiganda...
Onalar
qo'llarida o'zimizni,
qalblarida yukimizni tutadilar...
Onalar
erkak dadilligi ila
ayol umrini yashab o'tadilar...
Ko'zlarining qo'ri ila
umrimizning chirog'ini yoqadilar onalar.
Soflikda,
poklikda ko'kdan tushgan malakni
yodga soladilar onalar.
Mashaqqatlarda

Nushoba, Hojar bo‘larlar,
Xush kunda — Nigor...
Sut hidi,
Alla sasi,
ham muhabbat qoldirarlar yodgor...
Onalar
dono nigohlarida
tiniqlashib, tozalanmoq uchundir!
Onalar
cheksiz muhabbat-la sevilib
e’zozlanmoq uchundir!

BIR KUN KELAR...

Vatanimsiz men chalajon kezaman,
Yot yo‘llarda yo‘qotganman izimni.
Yona-yona bu hasratga to‘zaman,
Bildirmayman qalbdagi jiz-jizimni.

Gumonim yo‘q,
hech ne kelmas qo‘limdan,
Dardim misra-misra tomar tilimdan,
Uzoqdaman o‘z shahrimdan, elimdan,
Kimga aytay suhbatimni, so‘zimni?

Qalbim qoldi tuprog‘ida, toshida,
Yel bo‘lsaydim tog‘larining boshida,
Sel kuchi bor ko‘zlarimning yoshida,
Tuganmasdir yuragimning to‘zimi.

Bir kun kelar, g‘urbat eldan qochaman,
Sevinchimdan qanot yozib uchaman,
Do‘stlarimga yuragimni ochaman,
Yot yonida sindirmasman o‘zimni.

SIZDA TOG‘OLCHA GULLABDI...

Jon kadarga bo‘yin egdi,
Tole qalbim giryon etdi,
Sizlarda tog‘olcha qiyg‘os,
Bizda esa qor, qardoshim.

Hayot shunday g‘urbat elda,
Yular umidingni dildan,
Ko‘zlarimda bahor abri,
Ko‘ksim esa qo‘r, qardoshim.

Dardga sirdosh bo‘ldi uyqum,
To‘rt tarafim to‘la mardum...
Bu qafasga sig‘gan ruhim
Dunyolarga tor, qardoshim.

Hayotmidi o‘tib ketgan?
Ko‘zim to‘lur bir jumladan...
Unutmaki, ona Vatan —
Davlat hamda or, qardoshim!

NILUFAR SHIXLI

1991-yilning 1-aprelida Boku shahrida tug'ilgan. Moris Torez nomidagi Moskva Davlat lingvistika universitetini, M. Lomonosov nomli Moskva Davlat universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan. Moskva shahrida yashaydi. She'r, hikoya va qissalari turk, ingliz, fransuz, rus tillariga tarjima qilinib, Ozarbayjon, Rossiya, Turkiya, Chexiya, Latviya matbuotlarida chop etilmoqda.

KECHA O'YLARI

Bir kechaning etagida
Necha ko'zning uyqusi.
Ko'kda yulduz naqshlari,
Havoda gulning isi.

Oy suvlarga noz etarkan,
Shu'la sochardi yuzi.
Suvning sokin mavjlarida
Ko'k yuzining egizi.

...Maftun bo'lib, qalamni
Sochlaringga taqasan.
Bir muhabbat filmi kabi
Tabiatga boqasan.

Ruhing tark etib tanangni,
Subhgacha raqs etgaydir...
Ozodlikdan kafting ko'kda:
"Qaydasan, kel, ketaylik!"

Sukunat seni rom etar,
Na kecha bor, na bu kun.

(Ko‘p narsani o‘z nomi-la
Xotirlamoq xo‘b mushkul!)

...Shu asnoda bitadi tun,
Soyalar ham chekinar...
Ol shafaqlar asta-asta
Yer yuziga sepilar...

Samo shundayin yorishar —
Kitob kabi o‘qilur...
Yaratganning o‘zi chevar,
Sabohlarning sharafiga
So‘zdan she’rlar to‘qilur!

SEVGI SHE’R BO‘LSAYDI...

Sevgi nag‘ma bo‘lsaydi,
Har satri sen bo‘larding.
Tomib dudoqlarimdan,
Yuragimga to‘larding.

Sevgi shamol bo‘lsaydi,
Men qanotlar taqardim.
Parvozda, xayolimda,
Ko‘zlaringga boqardim.

Sevgi hayot bo‘lsaydi,
Yashardim chin yurakdan,
Qovushardik bir umr,
Tuproq, quyosh, san va man!

Sevgi dengiz bo‘lsaydi,
Sohilida kezardim...
Sevgi she’r bo‘lsaydi,
Uni senga yozardim.

AYTEN TAHMASIB

1987-yilning 13-iyulida Shamahida dunyoga kelgan. Turli adabiy tanlovlarning sovrindori bo'lib, qator diplom, mukofotlar bilan taqdirlangan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi hamda "O't parchasi" adabiy jamiyati a'zosi.

TIZLARIN QUCHGAN AYOL

Xonaning bir burchida
Tizin quchgancha
Yig'lagan ayol!
Nelar o'yga toldirdi,
Andog' xo'rliging keldi?!
Aldanishdanmi?!

Bir vaqtlar sevganing
Xushro'y yigitning
Yuzingga tushdimi soyasi?!
Qalbing tilkalagan
Oshiqona, teran
Boqishlardanmi?!

O'sha, sen sevmagan ering qo'lidan
Chiqib ketmakka joy
topmadingmi yo?!
Ich-ichingdan yig'la,
ho'ngrab-ho'ngrab,
Ko'nglingni bo'shat,
Tizlarin quchgan ayol!

YANA KECHIKAMAN

Ruhim ko‘rishmak-chun kelajak.
Umr karvonining so‘ng bekatida
Uchrashaman sening-la.

Go‘zal ko‘rinmoq istagida
Kechikaman yana.
Ayollar mamnundir
Tengi topilmas bo‘lganidan.

Vaqt ham to‘xtab qoladi
Senga yetgan zamoni.
Yuragim vaqtdan ildam,
Mendan avval senga yetar.

O‘y-fikrimni shamollar,
Ruhimni hur-g‘ilmonlar
Uchirajak sen tomon.
Men yana kechikaman.

ALAMDOR JABBORLI

Alamdor Jabborli 1980-yilda tug'ilgan. Oltita she'riy, bitta hikoyalar to'plami muallifi. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi, 2014-yildan esa Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi Yoshlar kengashi a'zosi.

OLLOHGA SHUKUR

Xudoyim, bergan kuningga,
Ne'mat-u ehsonga shukur!
Olib turgan nafasimga,
Sen baxsh etgan jonga shukur!

Charchadim nodon ichinda,
Jon qon-u qurbon ichinda.
Shuncha olomon ichinda
Bir nafar insonga shukur!

Shukur so'zing bitgan qo'lga,
Shukur so'zing aytgan tilga.
Ko'rganim avval-azalga,
Kelar so'ng zamonga shukur!

DUNYO SO'ZGA QOLAJAK

Dunyo inson ko'nglini
Buza-buza qolajak.
Insonlar chor-u nochor
To'za-to'za qolajak.

Ko‘p yo‘qotdi, oz topdi,
Ilinj ortidan chopdi.

Dunyo it bo‘lib qopdi,
Dardi bizga qolajak.

Bir tegirmon, doni yo‘q,
Dardining darmoni yo‘q
Va ketar zamoni yo‘q,
Aksi yuzda qolajak.

Kim yaxshi niyat bilan,
Kim kelar nafrat bilan.
Avvali jo‘mard bilan,
So‘ngi bezga qolajak.

Kim cho‘qqidan yer olgan,
Kim o‘rada o‘ralgan.
Dunyo so‘zdan yaralgan,
Tag‘in so‘zga qolajak.

BOLAYOR SODIQ

Bolayor Sodiq 1965-yilda tug'ilgan. Ilk she'ri 1983-yilda e'lon qilingan. Xalqaro Rasul Rizo mukofoti laureati. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi va Ozarbayjon jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

OLLOH TABASSUMI

Vaqt eshik qoqadi eski alifboda.
Yuziga Ollohning tabassumi
tushmagan so'zlar
ko'cha o'rtasida
yirtar yoqasin...
Nomus bilan vijdon
sovqotgan yerlardan
ketmoq vaqtidir.
Bu sahar
so'zlarni, suhbatlarni yuvdim
xotira daryosida.
Umrni suvga emas,
toshlarga aytdim
daraxt tilida.
Sukutni otdim
Ollohning sabriga qo'ngan
Qushlarga.
Ko'rdim, bir qush
qanotidan yaralandi,
tuki qilt etmadi vijdonning...
Sevinchlar, g'ussalar
ko'hna ashyoga aylangan
yerlar atri dimog'imda.

Endi ketmoq vaqtidir,
Daraxtlar tik oyoqda
turmoqni
rad aylagan yerlardan
ketmoq vaqtidir...

QO‘RQUV

Tiz cho‘kib oldi,
yig‘lab bo‘lmas,
bu shahar vahimasi beayov.
U ayolning ko‘z yoshlari ham
bir tomondan sabrimni ivitar.
Ishontirib bo‘lmas
ko‘chalarni
haqiqatning fohisha ekaniga...
Ko‘ko‘par binolar shahrida
bo‘yi ko‘rinmas ozodlikning
Umidi o‘lmagan.
Kunlarning
aksi tushar ko‘lmakchalarga.
Zamonning qadam tovushidagi
qo‘rquv
rasmin chizmoq istayman,
barmoqlaringni ber...

RUBOBA SOHIB

Qosimova Ruboba Sohib qizi 1989-yilda Tovuz tumanida dunyoga kelgan. "Imzo" nomli she'rlar kitobi muallifi. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

TAG'IN SOVQOTYAPMAN, NAFASSIZMAN MEN

Bitta navozish basdir yonmoq uchun,
Bitta ertak basdir quvonmoq uchun,
Sochlar bir-biriga chirmashmoq uchun
Ham epkinim yo'q, ham sansizman men.

Kechalar iforing tarar tabiat,
Ochiq derazadan o'qrayar xiffat.
Sevgisiz dunyoning ismidir nafrat,
Sensiz oyga, yilga havassizman men.

Yitmish dudog'imning zamzamasi ham,
Bahor yonog'imning gul g'amzasi ham,
Ishqimning adoli andazasi ham
Ruhimda bo'g'ilmish, yor, sassizman men.

Nafas ilitganni quyosh ilitmas,
Hech narsa ozurda dilni ovutmas,
Ishq yaxshi-yomoning farqiga yetmas,
Tag'in sovqotyapman, nafassizman men.

OTAJON

Men bilan ulg‘ayar kadarim, g‘amim,
Ba’zida issiqdan yonadi tanim,
Bormi bir novdadan umid kutganim?
Ilohim, to‘zim ber, to‘zim, otajon!

Tun-u kun, oh, mening ko‘zlarimda yosh,
O‘ksik yuragimga cho‘kib qolgan tosh,
Bu bir sinov deysan, aylagil bardosh,
Nomingni takrorlar so‘zim, otajon!

Ko‘nglim Ka’basisan, tilimda Qur’on,
Sen, ey qiblagohim, dilimda har on,
Sening xizmatingga shaydirman, ishon,
Boshingda parvona o‘zim, otajon!

DIYONAT USMONLI

1965-yilda tug'ilgan. Boku Davlat universitetining jurnalisitika fakultetini tugatgan. Uchta she'riy kitobi chop etilgan. She'rlari bir necha tillarga tarjima qilingan.

ODAM O'ZIN TANISIN

Yo'lsiz bir sayyohman,
o'z ko'lkamni axtaraman.
Qaddim kabi egik bir so'roq
ustimdan kuldirar zamonni rosa,
qahri bilan meni yig'latar,
jannat va jahannam nomidan
Tangridan hisob so'rar.

Shoshaman manzilni tanlamay,
intihosiz yo'llar so'ngiga yetsin.
Hayot tirikni, qabriston o'likni,
odam o'zini tanisin mozorda.

Tangriga tavsiyam bor:
ming yillarning sinovida yutqizgan
manglayimdagi ma'nosiz jumlaga
qora bir nuqta qo'ysin.

Ushalsin barcha umidlarimiz,
bitsin bu sabrning tilsim azobi.
Sen ming xil ta'birlangan so'zingning,
men sho'rlik jonimning sohibi bo'lay.

O‘Z JONIMNI KUYLAGAYMAN

Ichib haqning sharobini,
qayta uyg‘onolmasam,
uyg‘onib ruhimni sodiq,
o‘zimni sog‘ ko‘rolmasam...

Umrim ari dudog‘inda,
atri qolmish qor chechagin.
Uyimizning adog‘inda
tanho daraxt butog‘idir
so‘nggi manzilim ustuni.

Yarador yerimga boqib,
sog‘ joyimni qonaturman.
Taqdir kitobini yopib,
O‘z jonimni kuylagayman.

Berk yo‘llarim ochilganda
Yurgali holim qolmadi.
Uchmoq payti yetib keldi,
ammo qanotim chiqmadi.

Men ketaman,
dardim qolar,
tortar bo‘lsang,
halol bo‘lsin.
Boshtoshim yo‘q,
bosh ustimda
bitar bo‘lsang,
halol bo‘lsin.

ELSHOD ARSHOD O‘G‘LI

Elshod Arshod o‘g‘li 1986-yilda tug‘ilgan. 2007-yilda “Yorsang mening yuragimni”, 2010-yilda “Kalavaning uchi”, 2014-yilda esa “Ishq sari” she’riy kitoblari chop etilgan. 2009-yildan Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, Yoshlar kengashi raisi.

O‘Z ICHIDAN CHIRIB BORAR ODAMLAR

Na ona qursog‘i va na-da qabr,
U dunyo boshqadir, juda go‘zaldir,
Yig‘lab-yig‘lab o‘sha dunyodan kelur,
Dunyodan jimgina ketar odamlar.

Ko‘pincha Azroyil jonini olmas,
O‘lib ketganlarni sanab yetolmas,
Umrin so‘ngigacha ko‘plari qolmas,
O‘z ichidan chirib ketar odamlar.

Axir, yolg‘on so‘zlab, xayrin kutganlar,
Aqlsiz kallalar, jonsiz badanlar,
Insofingiz bo‘lsin, ta’rif etganlar,
Qarang, axir, erib ketar odamlar.

Tili bilan dili boshqa-boshqadir,
Yuragi boshqadir, ishqi boshqadir,
Yashamas, ruhining toshi boshqadir,
Quruq loshin surib ketar odamlar...

SOCHLARINGDA CHECHAK OCHAR GULLARIM

Yana bahor keldi, ey mening umrim,
Kun chiqar, tarqagay bu dardi sarim,
Nafasimdan yonoqlaring ollanur,
Sochlaringda gul ochadi qo‘llarim...

Kuzlarda sarg‘ayib-so‘lgan tabiat
Yashillik libosin kiyar har bahor.
Odamlarning qo‘llarida gul-chechak,
Dillarida sevgi undirar bahor.

Qish uyqusi bug‘lanadi tuproqdan,
Halizamon oy izidan kun chiqar.
Chumolining qayg‘usi ham nish urar,
Kapalakning gul tushlari chin chiqar.

Bahorning eng go‘zal nag‘makorlari...
Tabiat ularning nag‘masin xushlar,
Ishga tushib ketar chirildoqlar ham,
Kechalar yakkaxon konsertin boshlar.

Qo‘ng‘izlar uxlagan hur chechaklarga
Mushtariy ko‘z bilan boqar arilar.
Har gulning boshiga nechasi qo‘nar,
Salib yurishiga chiqar arilar...

Biz ham tabiatning bir parchasimiz,
Uning ohangiga qorishganmiz biz.
Bahor chechak ochar, kuz hosil berar,
O‘tgan bahor kurtak yozgan sevgimiz...

Yana bahor keldi, ey mening umrim,
Kun chiqar, tarqagay bu dardi sarim.
Nafasimdan yonoqlaring ollanur,
Sochlaringda gul ochadi qo‘llarim...

EMIN PIRI

Emin Piri 1986-yilda tug'ilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi va Yoshlar kengashi a'zosi. She'rlari turk va rus tillariga tarjima qilingan.

BOLALIK YILLARIM OSON KECHMAGAN

Qiyin kechgan bolaligim,
Boshmoqlarim yirtilardi
Kattarganda oyog'im.
Oyoqlarim kattarmasin deya
Duo qilganmisiz hech?!
Bolalik yillarim oson kechmagan...
Xiyla qiyin kechgan bolalik davrim.

Chegaraning
Tikanli simlari kabi tuyulardi
Qashshoq bolalarning ko'ziga
Maktab bufetining eshigi.
Bu sarhadni kechib o'tish,
Ehtimol, hayotimizning
Eng buyuk inqilobi,
Manglay yozuviga qarshi
Eng buyuk isyon edi.

Onamning erta oqargan sochlarida
Ko'rinardi ololmagan o'yinchoqlari.
Taqdir o'yinchog'iga aylangan edik.

Qayda edi o‘shanda
Bolalarni sevgan Tangri?!

Hindu bo‘lmasak hamki,
Otamizning cho‘ntagiga ko‘ra
Bizni bo‘lgan edilar
Kastalarga.
Dengiz suvlari ummon suvlariga
Qorishmagandek,
Bizni qorishtirmasdilar...
Sevgani uchun yutmas
Ummon baliqlari
Dengiz baliqlarini.
O‘ynaganda, ul boyvachchalar
Bizni o‘zlaridan tutardi yiroq.
Boyvachchalar ko‘zidan
Kiyimin yamog‘in yashirmoq edi
Qashshoq bolalarning o‘yini.
Erkak yig‘lamaydi der edi onam,
Men uchun ham o‘zi yig‘lardi.
Ertak aytardi,
Ko‘kdan uch olma tushmasdi ertaklarida,
Bu ertakni aytmasdi onam —
Bolam olma so‘ramasin deb...

FARG‘ONA MEHDIYEVA

Filolog. “Chekkanlarim yetar endi”, “Dunyo shirin deydilar”, “Kuz yonida kutasan meni” va “Ikkimiz sog‘insak” she’riy kitoblarining muallifi. Prezident mukofoti sohibi. Xalqaro Rasul Rizo mukofoti bilan taqdirlangan.

TANGRIDIR EGA CHIQQAN

Aslo bekor vaqti yo‘q,
Lol-hayron qotar odam.
Bozori kasod bo‘lsa,
Odamni sotar odam.

Qo‘l tinmas, odim otar,
O‘t tutib, sovuq qotar.
Bas, nega bedor yotar,
Bas, nega yotar odam?

Aytadi rost so‘zini,
Yashirmaydi yuzini,
Hammadan ko‘p o‘zini
Shundoq aldatar odam.

Yuksakka to‘zib chiqar,
Dunyoni kezib chiqar,
Suvlardan suzib chiqar,
Sayozda botar odam.

Tangridir chiqqan ega,
Boriga shukur deya,
Ichini yeya-yeya
Qanday zavq totar odam?

MENDAN ISHQIY SHE'RLAR SO'RAYDI QIZIM...

Boqib jilmayadi qizaloq chog'i,
Ajrata oladi qorani, oqni.
Tushadi qo'lidan kitob, varag'i,
Mendan ishqiy she'rlar so'raydi qizim...

Bahordan zeb berib o'zi o'ziga,
Qo'llarini cho'zib ko'kning yuziga,
Har kun necha bora boqib ko'zguga,
Mendan ishqiy she'rlar so'raydi qizim.

Va'dalar qilaman, bu qiz istamas,
Uzib beray deyman yulduz, istamas.
Mol-u dunyoni-ku hargiz istamas,
Mendan ishqiy she'rlar so'raydi qizim.

Nafis yonog'ida ochilar chechak,
Ko'zlari quyoshdan shu'la terajak,
Ajabo, u kimga o'qib berajak?
Mendan ishqiy she'rlar so'raydi qizim.

Bu yo'l boshlab ketar qayoqqa, bilmas,
Qayerdan chiqibdi bu tog'ga, bilmas,
Qo'nibdi qush qo'ngan butog'ga, bilmas,
Mendan ishqiy she'rlar so'raydi qizim.

Men, bas, bo'ldi, desam, u, tag'in deydi,
Ayt o'sha qadimlar ertagin, deydi,
"Jon ona, otamga aytmagin", deydi,
Mendan ishqiy she'rlar so'raydi qizim.
Mendan ishqiy she'rlar so'raydi qizim.

GIYA PACHXATASHVILI

Giya Pachxatashvilining millati gurji bo'lsa-da, ozarbayjon tilida she'rlar yozadi. Ko'zi ojiz bo'lgan bu inson saraton xastaligiga yo'liqib yotib qolgan umr yo'ldoshi Lamaraga boqib g'ussali she'rlar bitdi, uni yo'qotgandan keyin bu qayg'u yanada kuchaydi. Biroq bu she'rlarda sevgi, vafo, inson matonati, hayotga muhabbat, foniy dunyoga faylasufona nazar yaqqol sezilib turadi.

LAMARANING GULLARI

Qishni sabot bilan kechirardilar,
Umiddan yashil to'n bichirardilar,
Bahorni yurakka ko'chirardilar —
Lamaraning gullari...

Tongning shabnamida cho'milardilar,
Quyoshdan miriqib nur emardilar,
Oyning shu'lasiga ko'milardilar —
Lamaraning gullari...

Pinhona ariga noz otardilar,
Kapalaklarga so'z otardilar,
Xush iforlar taratardilar —
Lamaraning gullari...

Sevgili yurakdan suv olardilar,
Bokira qiz misol ollanardilar,
To'ylar, bayramlarga yo'llanardilar —
Lamaraning gullari...

Qaychini ko'rganda injimasdilar,
Huda-behudaga ranjimasdilar,

Lamara ishqida tinchimasdilar —
Lamaraning gullari.

U ketdi... egasiz qoldi bu gullar,
Yetimdek sarg‘ayib so‘ldi bu gullar,
Mozori tomon yo‘l oldi bu gullar —
Lamaraning gullari...

Angladilar bu dunyo, ushbu olamni,
Men bilan teng bo‘lishdilar alamni,
Sog‘indilar ul mehribon sanamni —
Lamaraning gullari...

Yig‘ladilar so‘lgan gulning jismiga,
Marsiyalar kuyladilar ismiga,
Aylandilar Lamraning rasmiga —
Lamaraning gullari.

O‘LIMGA

Dildorimni yomon xabar kutgaydir,
Umri dori-darmon bilan o‘tgaydir,
To tonggacha bedor bo‘lib yotgaydir,
Chidolmaydi og‘riq degan zulmga.

Umr bergin bevaqt so‘lgan gulimga,
Sevinmagin mening qolgan kulimga,
Asli odam quli bo‘lgay hayotning,
Men sho‘rlik qul bo‘ldim ajal, o‘limga.

Lamaradan nigohingni ol, o‘lim,
Evaziga meni ola qol, o‘lim,
Bu ko‘nlimga o‘zing umid sol, o‘lim,
Nur to‘shalsin bu qorong‘i yo‘limga...

HAYOT SHOMIY

Hayot Shomiy "Tokchadagi gul" degan ilk she'rini to'qqiz yoshida yozgan. Uning uchta she'riy, ikkita tarjima kitobi chop etilgan. Ko'pgina jahon shoirlarining asarlarini ozarbayjon tiliga tarjima qilgan.

SUNAMI

Gohida
chiqaman shahardan...

Xazarning oldiga boraman,
Kestiraman oyog'i ostini.
U ham daryodir, ham bitta tomchi...
qalqib yuzimga suv urar ba'zan.

Seni so'rayman,
Endi tegmas menga,
aqli kirgan, der...

So'nggi bor sunami bo'ldi,
yuvib ketdi hamma narsani:
seni va meni...
sening sevmagan telefoningni,
mening sevimli aravamni,
qulog'imdan dudoqlaringni,
toshimni, xotiramni,
fikrlarimni,
o'y-xayollarimni...
Shu qadar yengil tortdimki,
bor-yo'q narsam Sen eding...

Ozod bo‘ldim bu dunyodan,
Sendan va mendan...
yo‘q bo‘ldik...
Turib uyga qaytdim,
qarasam, uydasan...
Voy-dod!!!
sunami bo‘lsin
bu Sevgiga!

SENGA YANGI SHE’RLARIM BOR

Senga yangi she’rlarim bor,
Kecha bir bola — qo‘lda o‘chirg‘ich —
Kel, ko‘z yoshing artayin, dedi.

Tungi soat 10 larda
bir avtomobil falokatga uchradi
aeroport yo‘lida...
ichida yo‘lovchi ham bor edi,
najot edi oti...
eshitdim,
yuragim yorildi.

Bugun havom yaxshi bo‘ladi,
efirda ko‘rdim seni.

Bor umidlar uzildi...
Ertaga men bo‘lmayman...
Bugun ham o‘tdi...
Uchrashmaganimizdan beri!

HIJRON HUSAINOVA

Hijron Husainova 1970-yilda tug'ilgan. Boku Davlat universitetining jurnalistika fakultetini tugatgan. Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. "Yulduz" jurnalida muharrir bo'lib xizmat qiladi.

KULRANG QAYIQ

Seni ko'ryapman, kulrang qayiq —
uyda, ko'chada, kitoblarim orasida.
Jonli-jonsiz odamlarning jonli-jonsiz so'zlari,
turfa odamlarning turfa qayiqlari ichida.
Yodimga tushasan, kulrang qayiq.
Yodimga tushadi kechagi,
ertangi kunlarim.
Hozir ham tushasan yodimga,
yodimga tushar,
seni har kun ko'rsam-da, unutmoq istayman.
Seni ko'raman, kulrang qayiq, sassiz,
so'zsiz orzularimning qayg'usiz dengizida...
Orzuyim neligini-da bilmayman,
bilmaymanki, istagim nima,
ko'zlarimni o'yib olaman seni ko'rmaslik uchun!

ODAMLAR O'LAR BUNDA

Odamlar o'lar bunda —
shundoq ko'zim oldida,
shundoq quchoqlarimda.
Aksari juda ham yosh,

aksari ko‘p cho‘zilgan
og‘ir xastalikdan so‘ng.
Ko‘zlarini yopib bo‘lmas,
qovushmaydi sira kichik qo‘llari,
qip-qizil tillari,
yuragi esa tingan allaqachonlar.
Aldanib jannatning nomiga,
o‘zini o‘ldirgan odamlar,
endi qiyin tirilmog‘ingiz,
tuproq yumar ko‘zingizni,
quloqlaringizni ham bir “rahmatlik” so‘zi,
va bundan so‘ng tirilmoq yo‘q.
Bilaman, sen nedan o‘lding,
seni ham bilaman,
do‘stim, seni ham,
seni ham, seni ham.
Sensan o‘lik tug‘ilgan o‘lik otadan,
Onadan, bir kun ham yashamading —
tug‘ilgandan tilingda edi qabr, kafan.
...Odamlar o‘lar bunda,
Shundoq ko‘zim oldida,
shundoq quchoqlarimda.
Biri o‘lik tug‘ilar,
biri o‘zin o‘ldirar,
birini o‘ldirar o‘liklar!
Odamlar o‘lar bunda,
qo‘llarim jasadga to‘lgan...

NEKBIN SHE’R

Bir kun bu kun ham o‘ladi
Boshqa o‘lgan kunlari kabi.
Yuragingni siqma bundoq —
barcha tug‘ilganlar o‘ladi.
Bir kun o‘ladi bu kun ham,

o‘lib kechaga aylanar
yoki buyuk, shonli tarixga,
yoxud kichik bir xaritaga,
nima farqi bor buning?
O‘ldi, qutuldi bu kun!
O‘lguncha yashaylik faqat,
kel, shoshmaylik ertaga.
O‘ltirib to‘yguncha boqaylik
bu shan, g‘ussali tongga.
Eng go‘zal so‘zlarni tanlaylik,
boqaylik eng go‘zal ko‘zlarga.
Gohida jim, sassiz turaylik —
Farishtalar o‘tsin o‘rtadan.
Cho‘zilsin bu kunning umri...
nima bo‘pti bitta kun o‘lsa,
biz dunyoga kelganmiz-ku
“bugun”ni keltirmoq uchun!

IRODA OYTEL

Iroda Oytel (Aliyeva Iroda Ramazon qizi) bir necha she'riy kitoblar muallifi. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi, Ozarbayjon Jurnalistlar uyushmasi, Xalqaro Faol san'atkorlar uyushmasining a'zosi, www.kultur.az veb jurnalining bosh muharriri.

ONA, AYTING

Ona, ayting, qismatdagi
Dardni ham sevar bo'ldim.
Ko'zimdan dardni uqqan
Mardni ham sevar bo'ldim.

Ona, ayting, ajal ham
Mendan yuz o'giribdi.
Ko'ksimning taxti bo'lgan
Otashlar ham so'nibdi!

Ona, ayting, bahorga
Yetmayman!
Hatto qishga.
Ona, ayting, arzirmanmi
Meni kechir deyishga,
Ona, kechir deyishga!

ATIRGUL

Yuragimda tugilgan bu dardimni
Aytmagayman... aytmagayman, Atirgul!..
Hasratimning gina to‘lgan yo‘liga
Qaytmagayman... qaytmagayman, Atirgul!

Bo‘ylanaman bo‘y bo‘libon bo‘yingga,
Hayronman bu taqdir degan o‘yinga,
Men bir kunlik yor bo‘libon qo‘yningga
Yotmagayman... Yotmagayman, Atirgul!

Yonginangda tog‘lar qorga qorildi,
Visol kutib ko‘zim yo‘lga zor bo‘ldi,
Desang, dilga bir vafodor yor bo‘ldi,
Buni bovar etmagayman, Atirgul!

BILASANMI

Seni sevdim qor ustidan
don izlagan qush kabi.

Romiz Ravshan

Bilasanmi, Uni sevardim qandoq,
Ona farzandini sevgani kabi.
Chumchuq qor ustida donni sevgani,
Ari asalini sevgani kabi.

Bilasanmi, u — nihonim, u sirim,
U sirni yashirgan qal’a bo‘ldim men.
Yolg‘iz qovjiradim, g‘amda qoldim jim,
Lolasi to‘kilgan dala bo‘ldim men.

Bilasanmi, unga intiqman qandoq,
Yot elda yurti deb entikkan kabi.
Yorin urush olib ketgani kundan
Kelinlar yo‘llarga ko‘z tikkan kabi.

Bilasanmi, usiz yonurman qandoq,
U kecha Xo‘jalim yongani kabi.
Sahro kechasida bamisli chiroq,
Olisda ajalim yongani kabi.

Bilasanmi, bog‘bon o‘rtanur qandoq,
Bog‘da suvga tashna qolganida, bas.
Bilasanmi, inson o‘rtanur qandoq
Sochiga tekkanda begona nafas.

Bilasanmi, u deb so‘nganman qandoq,
Bolam deb onaning so‘ngani kabi.
Bilasanmi, unga singganman qandoq,
Qo‘shig‘im tuproqqa singgani kabi.

Bilasanmi, Uni sevardim qandoq,
Ona farzandini sevgani kabi.
Chumchuq qor ustida donni sevgani,
Ari asalini sevgani kabi.
Bilasanmi, Uni sevaman qandoq...

NURONA NUR

Nurona Nur Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi, Prezident stipendiyasi sohibi.

FOTO

Nima kerak edi ko'zlaringdan kelajakni o'qimoqning,
O'tmishini xotirlamasa edi,
Bundoq yaqin turmasa edi,
Nimanidir uydirmasa edi...
O'zidan yashirinmasa edi bu nigohlar.
Xayollar bo'shatmas o'z og'ushidan
Bu tirmizak bolani.
Qo'yib bersa, tog'ga tirmashar.
Xastalanib yotib qolsa bu tirmizaklar,
Onalari yolvorishar Ollohga,
Tezroq tuzalsin,
Mayli, uyni ko'tarsinlar boshlariga.
Yaxshi ko'rgan, asrab kelgan narsalarini beradilar bolalariga.
Men ham shunday dil bergandim o'sha yigitga,
Faqat o'zim bilaman,
Eng yaxshi surati —
Umr bo'yi chekkanlari bu yigitning.

ASLIDA

Birov birovni tark etmas aslida,
Yolg'izlik — fursatning ishidir.
Shoirlarning bo'lisha olmagan bad duosini,

Har kuni yonidan kechib o‘tganing
qush uyasini
bugun ko‘rmoq payti.
Bo‘y otdi yana so‘zlar —
ushalmagan sevgilarga yozilgan she’rlar qadar...
Bo‘y otdi yana sevgilar
nigohing yulduzlarni so‘ndiradigan qadar...
Uryon bir faslda zamonning oyoqlariga tiz cho‘kmoq,
Yalinib-yolvormoq,
Mumkin bo‘lsa, oppoq libos kiyingan qadar...
Yolg‘izligini bosib bag‘riga,
Bu shaharning eng qorong‘i ko‘chasida
Yashrina olmaslik saharga qadar...
Engil-boshdan tozalamak sevgilarni,
Ustida bitta umid ham ko‘karmagan
Kelajakka ko‘ngil bermoq o‘lgunga qadar...

ONOR AMIN

Quliyev Onor Abdulla o'g'li (Onor Amin) 1984-yilda tug'ilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi. 2014-yilda "Ottaqadan Oqpoychaga" nomli ilk she'riy to'plami chop etilgan.

BARCHA AYRILIQLAR...

Fikr bokiradir,
uni zo'rlab bo'lmaydi.
Barcha ayriliqlar fikr ayrilig'idan boshlanar,
fikr ayrilig'idan.
Ayriliq.
Nomingni zulmatda,
seni yorug'da yo'qotdim...
Axtaraman.
Qachondir bir kun
seni topgayman,
biroq nomingni-chi?..

QO'LLARIMDA... TIYRAMOH

Qishda sovqotaman,
Bahorda bo'y otaman,
Yozda bog'da
kitob o'qib yotaman.
Atrofim yam-yashil,
qo'llarimda... tiyramoh.
Oyoqlarim ostida Osmon,
Bosh ustimda yer,
xayolimda o'sha qiz...

QILMON IMON

Qilmon Imon 1986-yilda tug'ilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. Asarlari bir qator tillarga tarjima qilingan.

* * *

Safarimiz uzoq bo'lgay,
Manzilga yo'limiz yetmas.
O'zimizni tasdiqlovchi
Imzoga qo'limiz yetmas.

Sirtmoq dorlarga ilindi,
O'lim arqonda silkindi,
Sotganimiz umr endi,
Olmoqqa pulimiz yetmas.

Ko'rdik dardlarning battarin,
Dunyoning qazo-qadarin,
"Bo'l"dik asli o'lmoq uchun,
Va o'ldik, "bo'l"imiz yetmas.

* * *

Yashadik dunyodan bo'lib umidvor,
Maosh olganimiz ish o'rni kabi.
Umrimiz ichida shunday kunlar bor —
Torttirib tashlangan tish o'rni kabi.

Hoy bulut, yig'lama, yig'lab bo'lmaydi,
Yig'lasang, bu yoshni saqlab bo'lmaydi,

Ollohni bu qadar dog‘lab bo‘lmaydi,
Osmonlar qoraygan shish o‘rni kabi.

Nisbiydir zulm ila adolat so‘zi,
Dunyodan baxt topgan bormi hech o‘zi?
Bizsiz onalarning yo‘l ketar ko‘zi —
Sayyora qushlarning bo‘sh o‘rni kabi.

* * *

Shu osmonning osti — uyim,
Usti-chi, eshik kabidir.
Yulduzlari — o‘yinchog‘im,
Kechalar beshik kabidir.

O‘yindir, o‘yin bu hayot,
Beshikdan ol, mozorga sot.
Biz keshikchi, jon omonat,
Dunyo ham keshik kabidir.

G‘aflat ketmas loshimizdan,
Darak yo‘q quyoshimizdan!
Suvlar to‘kar boshimizdan,
Osmoning teshik kabidir.

RAMIL AHMAD

Ramil Ahmad 1994-yilda tug'ilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi va Yoshlar kengashi a'zosi. 2015-yilda "Zamon tunneli" nomli she'riy to'plami chop etilgan.

NEKBINLIK

Yulmangiz
Qoqio'tning gunohsiz gulbarglarin,
Qiynamang ayni savollar bilan uni:
— Sevadi, sevmaydi...

Javobini o'zingiz bilgan
savollarni boshqadan so'rmang.
Chechaklar bolalar kabidir,
yolg'on gapirolmaydilar...
Jo'natmangiz xol-xol qo'ng'izni
sevganingiz ortidan,
tushuning.
Ehtimol, barmog'ingiz uchidagi qo'ng'iz
kelgandir sizni ham olib ketmoqqa...

AMERIKA

Har bir ayol badani
erkak uchun yangi bir qit'a...
kashf etilur
oza-oza, keza-keza,
o'pa-o'pa, suza-suza.

Hamma kishi Kolumbdir balki?
Sevgi — ishonmoqdir o'lganga qadar.
O'lganga qadar
Bilmakdir Amerikani Hindiston deb.

URUSHDAN SO'NG

Urushda qo'l-oyoqlarini
yo'qotgan kishilardan qo'rqib qochardik hamisha...
Nogoh tushimga kirdi ibtidoiy odamning changak qo'llari,
tutib bo'g'ardi meni.
Katta bolalar
o'lim nima ekanini bilganlari uchun ham
anglardilar otalari o'lganligini.
Yashirardi onalaridan
Ko'chada yegan kaltaklarini.
Yog'ochdan to'pponcha yasar edilar
otalar qasosin olmoqlik uchun...

Yolg'izoqlar Qorabog'da qoldi,
har biri qo'lida bir hovuch tuproq,
og'zida bir qultum suv,
ko'kragida bir yutum havo olib keldi u yerdan.
Va'dalashgan qizlar yigitlarini
yo'qotdilar qoch-ho-qochlarda.
Har shahid umidi edi bir onaning,
xushxulq qizlar, do'mboq bolalarning otasi edi...
Kattartib ishlangan askar surati
qoldi har xonadonda
va qizlar tug'dilar shu suratga boqib...
bu go'daklar —
suratdagi otalarining
o'gay bolalari edi...
Na qo'ni-qo'shnidan bir xabar bor,
na xesh-tabordan.

Necha kunkim, bolalari och qolgan beva Surayyo
deraza oldidagi ustunga suyanib
tez yordamni kutgani-kutgan...
Qurtlagan jigar, qoraygan go‘sht,
hidlangan yurak sotuvchi qassob G‘ulom der edi:
“Bu uch yetmini qandoq boqadi,
balki bizga aytmay yuragin sotgan?..”
Jajji qizaloq
bekinmachoq o‘ynardi —
ko‘zini ochganda otasini topmoq uchun...
Surayyo der edi:
“Bo‘yi uzun buroy qizim,
sochi uzun suroy qizim,
Uch kecha uxlab tursang, so‘ngra otang keladi”.
U uch kecha tamom bo‘lmadi,
sanamoqni bilmasdi qizcha...

SAHAR AHMAD

Sahar Ahmad 1972-yilda tug'ilgan. "Ko'zlarimning ichiga boq", "Ruh nafasi", "Ko'nglim ko'chalari" va "Uchrashmaguni-mizcha" nomli she'riy to'plamlar muallifi. Esse va lavhalari bilan davriy matbuotda doimiy chiqib turadi.

* * *

Barcha dardlar bitganda
To'zim ham tugab bo'lar.
Daraxtlarga, qushlarga
So'zing ham tugab bo'lar.

O'shanda
Maktublar nomini,
Ko'zgular yuzini unutganingda
Ishqiy she'rlar kabi bahorni
Ruhing o'qiy olmagay.
Ayriliq kunini anglatmagay kuz,
Qishdan o'lim hidi ufurmas.

Ko'klardan to'ygandek ruhing
Yillar o'tgan sari o'limdan to'yar.
Bir paytlar sevmaganing hayotni
Telbalarcha sevmoq kechar ko'nglingdan.

* * *

Mavsumlar qayg'u kabi
Aylanar tegramizda.
Yangi sahfa ochmoq uchun
Joy yo'q xotiramizda.

Uyg‘onib bir ko‘rsakki,
Yoshimizga yarashmas.
Umr motam namoyishidek
O‘tganda qarshimizdan.
Mayin-mayin xazon yog‘ar,
So‘lar ust-boshimiz-da.
Qorto‘p o‘ynaydigan yo‘q,
O‘tgan bu yoshimizdan.

Suratini chekmoqchi bo‘ldim
Hayotning.
Sevinchning, umidning,
Hayajonning.
O‘ltirib yolg‘izlikning
Rasmini chizdim.
Hasrating chang bosmish yuzingda
Uzun bir ko‘z yoshining shakli.

SAXOVAT SOHIL

Saxovat Sohil 1982-yilda tug'ilgan. "Har zamon va hech vaqt" she'riy to'plami (2009), "Isoning xotini" (2013) va "Isoning qaytishi" (2015) romanlarining muallifi. Avangard.net adabiyot portali va "Avangard" adabiy-badiiy jurnalining bosh muharriri.

ISO QO'LLARINI XOTIRLAGAYMAN

Yaproqlari to'kilgan
anor butog'ida
yetim qoldi qush uyasi —
Isoning boshidagi
tikanlarni xotirlagayman.

Chumchuq cho'qilagan yerdan
tomchi-tomchi oqar anor shirasi —
Isoning qo'llarini xotirlagayman.

Yaproqlari tillaga aylanib
xiroj bergan anor daraxti
kutar bahorni —
Isoning ko'klarga tikilgan
ko'zlarini xotirlagayman.

Anordan sizilgan sharobni
lazzat-la simirar yosh bir hukmdor,
sharob mening qonimdir —
Isoning so'zlarini xotirlagayman.

ANOR DARAXTINING TANTAL AZOBI

Kuz yelining ohanglarida
sarg‘aygan anor yaproqlari
to‘qingancha bir-biriga
qo‘shiq aytar.

Titray boshlar yaproqlar
anorzorga qo‘rquv tushar —
Isrofilning suri kabi
yoyilar o‘lim sadosi.

Bu yam-yashil yaproqlarga
ayriliqning rangi cho‘kar,
novdalari uryon qolar,
bo‘zarib ketgay tanasi.

To‘shagay oyog‘iga
anor o‘z yaprog‘ini.
Yolvorar, nido chekar,
tebranar xazon-xazon.

Anor azoblar chekar —
qo‘llari yetmas yerga;
zolim shamol omon bermas
yaproqning qaytishiga.

SOLMON ARUZ

Shoir. Asli Janubiy Ozarbayjondan. Hozir Bokuda yashaydi. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasida xizmat qiladi.

YO‘LLAR SENGA YAQIN KELAR

Yo‘llar senga yaqin kelar,
ammo hali xo‘rozlar jim.
Polis mashinlar anglamas
bizning sevgimizni, gulim!

Anglamas, mahbus tushasan
qafasda gul undirgali...
tuproq aro qorishasan
bir dasta gul undirgali...

Ko‘chalardan uy kunjiga
surgun bo‘lgan odamlarmiz.
Anglamaslar, qabrimiz ham
ayri bo‘lgan odamlarmiz.

Anglamaslar, charchaganmiz
yengiltak bu kafelardan.
Hijrondan so‘ng, vaqting bo‘lsa,
kelib turgin biz tomon ham.

Sen va mening visolimiz...
Sohil bog‘ining kadari...
Rafiq Tog‘i qabri uzra
yutindim men bu shaharni...

Ishqiy she'rlar berma menga,
bu hayot sinov baytidir!
Uzoqdan bir poyezd kelar,
ayni suiqasd paytidir...

Biz sovrilgan orzularmiz,
chala qolgan hikoyatmiz.
Ul muqaddas kitoblardan
ko'chib kelgan rivoyatmiz...

OLTMISH MILYON BO'SH KALLA, BO'SH QO'L...

Sevgilim, kel, mening qalbimga dard sol,
Kel, meni tashlab ket, qolayin tanho.
Kel, menga tikilgin, men ko'zlaringning
Qa'riga cho'kibon bo'layin daryo!

Mayli, ta'nalar qil, yetkazgil alam,
Inson shod bo'lganda Vatansiz qolgay!
Ishongil, men kulib turganimda ham
G'ussalar yurakka chirmashib olgay.

Sen kelib-ketib tur, bu ko'chamizda
ahyonda Tangrining izlari qolsin!
Xayollar o'z naqshin topsin bu izda,
yuzimda falakning ko'zlari qolsin!

Kel, tupur yuzimga, aytkim, hoy ahmoq!
Nimani izlading! Erkmi yo vafo?
"To'ylar" o'lkasida shodlik yo'q mutloq,
Seni tushunmaydi ichi bo'sh qovoq.

Menga nima kerak bu uy, bu o'choq?
Ushbu oltmish milyon bo'sh kalla, bo'sh qo'l.

Bizning shodligimiz o‘tkinchi, o‘rtoq,
Shamoldir, manzilga topolmagan yo‘l.

Kelgin, qalamimni sanch yuragimga,
Sevgi ham, qayg‘u ham kerakmas endi.
Men bu dardlarimni aytayin kimga,
Qog‘ozlarim yondi, qalamim sindi.

Mayli, ta’nalar qil, men kimman, axir!?
Sultonmi, qirolmi, qanday mashhur zot?
Bu shodlik, bu farah mendek bir faqir
Vatansiz insonga yarashsa nahot?!

Vatan deganimda o‘rtanur yurak,
Bitta so‘z aytmoqqa tillarim tugun.
Men nahot shu yo‘lni o‘tmog‘im kerak,
Aytgin, kimlar uchun, ayt, nima uchun?

Kelgin, bu tuproqdan oyog‘imni uz,
Barcha bu qayg‘ular, qo‘y, manim bo‘lsin.
Ustimga tort uni, zotan bu tuproq
Vatanim bo‘lmadi, kafanim bo‘lsin...

VUSOL NURU

Vusol Nuru — Quliyev Vusol Viloyat o'g'li 1981-yilda tug'ilgan. 2007-yildan Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. Hozirda Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining organi bo'lmish "Yulduz" jurnalining nasr va she'riyat bo'limi mudiri vazifasida ishlaydi. "Yomg'ir tomchisiman" she'rlar to'plami, "Nogironlar oroli", "999", "Prezident qizi", "Do'rontog'" romanlarining muallifi.

JAHANNAM QO'SHIG'I

Yog'ar boshingga oy shu'lasi,
egningdan ko'lkang tushar.
Sug'rilib tushgandek joning,
qo'rqasan,
farishtalar senga kulishar.

Tushar o'lim vahimasi,
devorlarga uriladi duolar.
Yuzini bir kunjga burib
ichingda tebranar ruhing,
ravvin kabi
iltijolar qilar:
Eloxa!
Eloxa!
Hoy inson,
sen bir sinagog kabisan!
Shamdonda yonar hislaring.
Sevging ikonalashar Yahudo shaklida.
Og'zing kalisoning zangidir go'yo,
soxta marhamating bong urar.

Ichingda yangraydi jo‘rovoz nafrat:
Haliluya!
Haliluya!
Hoy inson,
sen bir kaliso kabisan!

Qonda tahorat olib,
imoning namoz o‘qir ichingda.
Jannat xulyolari ko‘zingni yopar,
g‘azabing bosh kesar har muyulishda.
Tilingda:
Ollohu akbar!
Ollohu akbar!
Hoy inson,
sen bir masjid kabisan!
Ichingdan husn olgan jahannam,
Shayton qo‘rqar chiroyingdan.
Mahkam tut egningda ko‘lkani, sho‘rlik!
Qoch, qoch, qoch,
bekingin oy shu’lasidan!

KUN PORTRETI

Xiyobonda portretga aylanar
bu kun.
Sohilda odamlar suzar,
dengizda sayr etar baliqlar.
Sohilda uchib yurar
chag‘alayga o‘xshash yaproqlar.
Chag‘alaylar dengizga to‘kilib tushar,
Daraxtlar sohilga langar solgan.
Dengizga cho‘kkan kemalar.
Dengizda quyosh bor bugun,
Sohilda quyoshi botgan bir odam.

AKIF AHMADGIL

1960-yilning 26-fevralida Ozarbayjonning Tovuz tumanida tug'ilgan. M.V. Lomonosov nomli Moskva Davlat universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan. Ikki she'riy va o'ttizga yaqin tarjima kitoblarining muallifi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi. She'rlari turk, ingliz, rus, qozoq, makedon tillariga tarjima qilingan.

O'LIMNING QARDOSHLIGI

Qorabog' urushida shahid bo'lgan Ozarbayjonning milliy qahramoni Allohberdi Bag'irovga

Shahid bo'lgan qardoshin koyigandi bir zamon,
Abad dard toshi bo'ldi endi gina-o'gitlar.
O'z kenja qardoshini tuproqqa topshirgan on,
O'lim-la qardoshlikni har nedan ustun tutar.

Yelkalarda tobuting kiygaymi ol-qirmizi?
Haqning hukmi bor bo'lsa, so'roq-savol ne kerak?
Shirin jon bu tuproqning qarichiga arzirmi?
O'lim ishqi muqaddas, o'limimiz muborak!..

Qalbin esankiratgan qardoshining ruhimi?
Turar botib qon-terga, palapondek talpinar.
Dafn aylabon nafsini, daf aylabon qo'rquvni,
U o'lim-la ont ichar, u o'limga topinar.

O'z kenja qardoshini koyigandi bir zamon,
Zirqiratar ko'ksini so'z dog'i, hech tuzalmas.
Endi tushunib yetdi, hayotning azobidan,
O'limning qardoshligi azaliy va muqaddas.

CHANOQQAL'A, KECHIRGIL, MEN SHUSHADAN KELGANMAN

(Chanoqqal'a urushining yuz yilligiga)

Chanoqqal'a, kechirgil, men Shushadan kelganman.
Ko'ksingga bitildi qahramonlik dostoni.
Bilaman, hech kechirmas to'kilgan shahid qoni —
U dostonni unutdim...
O'z yurtimda qochqinman.
Chanoqqal'a, kechirgil, men Qal'adan kelganman,
Qaytar meni Qal'aga — qaytar meni Shushaga.
Chanoqqal'a — qal'amsan! Yubor meni urushga!
Bir zamonlar der eding: Chanoqqal'a egilmas!
Bas, Xo'jali, bas, Shusha
Qandayin zabt etildi?
Botirlar qirildimi, odamlar kichraydimi?!
Umidlar parcha-parcha, umidlar singan shisha.
Chanoqqal'a, kechirgil, huzuringga kelgandim.
Boshimgacha gunohim aybimdan ham kattadir...
Yurak berolmas bardosh
Qorabog' ingrog'iga.
Huzuringga kelgandim,
Oq fotiha ber menga, qabul et tuprog'ingga.
Ber g'alaba darsini!
Suvingdan qo'sh suvimga,
Qoningdan qo'sh qonimga!
Tur oyoqqa, mudrama!
Boshimni tik tutayin, qo'y, qorishsin qon terga!
Men ham aytay so'ng karra...
Chanoqqal'a, kechirgil, men otlandim urushga,
Men otlandim Shushaga!..
Gunohimni yuvishga...

VAFO MURSAL QIZI

1981-yilda Sumgait shahrida tug'ilgan. Ozarbayjon Pedagogika universitetini bitirgan. Bir qator adabiy tanlovlar g'olibi. Prezident stipendiyasi sovrindori, uch she'riy va bir publitsistik to'plamlar muallifi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

ONA HASRATI

Bir kichkintoy qo'llarida hasratni,
Tutib ketar, tashlamoqqa yeri yo'q.
Sochlarini silab-siypab, erkalab,
Yuragini ovutguvchi biri yo'q.

Hovuchlab dard ta'min totgandan beri,
Ko'rsa ham hovchida holva, ishonmas.
Boshqa bolalarga ayting ertakni,
Endi u ertakka hech parvo qilmas.

Ona qo'llarining taftini izlar,
O'zgalar kokilin o'rgandan beri.
Murg'ak chehrasida kadar soyasi,
Bu dunyo yuzini ko'rgandan beri.

Jajji yelkasida og'ir yuki bor,
Ona hasratidan zirqirar axir.
Bir issiq po'stinni qizg'anmang undan,
Sovuqdan to'rt fasl diydirar axir.

Izlar bekinmoq-chun ovloq joy ba'zan,
Qizcha bolalarga qo'shila olmas.

Sochini kim, qanday tarab, o‘rsa ham,
Ko‘zguga bog‘ganda hech ma’qul bo‘lmas.

Axir qaylardadir yashar onasi,
Undan ancha nari, undan uzoqdir.
Naylasin, na ranjir, na bor arazi,
Birgina tasalli — onasi sog‘dir.

Ey ona, qaydasan, eshitgil, hayhot,
Xayolda yetishsa senga farzanding,
Surating ko‘ksiga bossa dilbanding,
Sen uxlay olasan xotirjam, nahot?!

IRODA ALILI

1965-yilning 20-aprelida Ozarbayjonning Sobirobod tumanida tug'ilgan. Boku Davlat universitetida tahsil olgan. Hozirda mazkur universitetda muallima bo'lib ishlaydi. Ozarbayjon jurnalistlar uyushmasi a'zosi, 40 dan ortiq maqola, 8 ta kitob muallifi.

EY, SARIQ YAPROQ

Derazamga tushgan, ey, sariq yaproq,
Bilsayding, nelarni yodimga solding.
Yolg'onchi sevgimning shohidi bo'lgan
O'sha kuzni eslab, xayolga toldim.

Nega derazamga tushding, bu ne hol,
Uyg'ondi qalbimda mudragan dardim.
Buncha beayovsan, darddan qaddim dol,
Sevgidan so'ng xazon gulini terdim.

Toleyim ham o'zi bir sariq yaproq,
Nasibam taqdirdan achchiq iz menga.
Sevdim, andog' sevdim, bilmadim biroq,
Bu sevgi za'faron so'nggi kuz menga.

O'tmishning bu qaytmas xotiralari
Yomg'ir loyqalatgan bir toshqin daryo.
Bitar so'zlarim, lek qalbim torlari
Mudom hasratlardan chekadi faryod.

KAMOLA ABIYEVA

Ozarbayjonning Astara tumanida muallim oilasida tug'ilgan. Ozarbayjon Davlat pedagogika universitetini bitirgan. Beshta badiiy kitob, o'nlab ilmiy maqolalar va qo'shiqlarning muallifi.

BALKI

Uyalib hammaga inson demakka,
Xilma-xil nomlarni o'ylab topamiz.
Balki nelarnidir yashiray deya,
Har kimni turli nom ila ataymiz.

Hammaga ayni ot qo'ysak agarda,
Merovni ziyrakdan ajratib bo'lmas.
Qiynab qo'yamiz-ku biz o'zimizni,
Nodondan oqilni ayirib bo'lmas.

Har kimning qiymatin bila olsaydik,
Nomlar ham ehtimol kamroq bo'lardi...
Faqat loyiqlarga INSON desaydik,
Qiziq, nom olmagan qancha qolardi?

Vaqtida ozgina o'ylab ko'rsak gar,
Ololmaymiz hech ne foniy dunyodan.
Shunday yashaylikki, so'ngra desinlar:
Inson kelib... ketdi oliy dunyoga.

SENGA ZORLIGIM

Boqma ko‘zlarimdan oqmagan yoshga,
Uni quritmoqqa kuching yetmagay.
Bir umr mening-la yo mensiz yasha,
Senga zorligim hech qachon bitmagay.

Esgan shamolni ham sevaman, bilsang,
Qaydadir sochingni silaydi, deya.
Yog‘gan yomg‘irni ham sevaman, bilsang,
Sen nomli qo‘shiqni kuylaydi, deya.

Ey sen, chin xayolim, zumrad ko‘zligim,
Dunyom ko‘zlaringga joylashib oldi.
Ayta olmagan son-sanoqsiz so‘zim —
Bedor yuragimda yig‘ilib qoldi.

Har yerda, har doim, bil, yonimdasan,
Yaqinmi, uzoqmi, farqi bormikin.
Mening ko‘zlarimda yashamoqdasan,
O‘sha, SEN ularni tark etarmikin.

Sensiz o‘tgan yillar menga na darkor,
Senli bir onning ham o‘rnin bosmagay.
Ehtimol, ko‘zlarman bir umr tanho,
Senga zorligim hech qachon bitmagay.

MAMAD QODIR

1960-yilda Ozarbayjonning Xachmaz shahrida tug'ilgan. To'rt she'riy to'plam, qator qo'shiqlar muallifi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi.

GILOS DARAXTI

Assalom alaykum, gilos daraxti,
Yuraging nechukdir, nechukdir boshing?
Ey, menga bobomdan meros daraxtim,
Butog'ing nechukdir, nechada yoshing?
Bag'ring yonmoqdami naf keltiray deb,
Bobom, momomga ust-bosh bergan daraxt,
Bizlarga soyangda jannat yaratib,
Urug'-aymog'imga osh bergan daraxt.
Tutding, tirmashganga bahrang ilinib,
Na bezding, na ketdi hafsala-mayling,
Shoxlaring kesilib, tanang tilinib,
O'z o'tingda pishdi murabbolaring.
Hosil bergan sayin unib-o'sarsan,
Egil, qulog'ingga bir sir aytayin.
Turgan-bitganing chin saxovat ekan,
Bundan buyon noming men pir atayin...

ARG'IMCHOQ

O'tganlar kirdi tushimga,
Unda onang hayot edi,
Bolalarimning onasi
Shirin qizaloq edi.

Arg‘imchoqda uchirardim,
Yel ham senga oshiq edi.
Qahqahangdan titrab novda,
Gul ham senga oshiq edi.

Har gal ortga qaytganida,
Quchog‘imda bir to‘xtarding.
Kelganingda uxlab qolib,
Ketganingda uyg‘onardim.

...Uyg‘ondim, ota, ona yo‘q,
O‘tmishda xush damlarimiz.
Endi o‘sha arg‘imchoqda
Uchardi farzandlarimiz.

— Rostini ayt, sevardingmi?
Bu bir tush, kim ham biladi?!
Uyqudan uyg‘otma meni,
Uyg‘onsam, onang o‘ladi....

MAORIF SULTON

1956-yilning 10-aprelida Ozarbayjonning Ismoilli tumanida muallim oilasida dunyoga kelgan. Moskvadagi M. Gorkiy nomli Adabiyot institutining poeziya bo'limida tahsil olgan. Bugungi kunda "Gobuston" san'at majmuasida Bosh muharrir o'rinbosari hamda hozirgi zamon shoirlarining asarlaridan iborat bo'lgan "Poeziya kuni" majmuasining tuzuvchisi va muharriridir. Ilk she'rlari 1973-yilda Ismoilli tumanining "Zahmatkash" gazetasida chop etilsa-da, jiddiy ijod bilan 1976-yildan buyon shug'ullanib keladi. Asarlari Respublika va Sobiq Ittifoq respublikalari matbuotida muntazam e'lon qilib boriladi. She'rlari ko'plab qardosh tillarga tarjima qilingan. Bir qator ijodiy seminar-mushoiralar va xalqaro adabiy tadbirlarning ishtirokchisi. Ko'pgina adabiy mukofotlarga sazovor bo'lgan. Rus adiblari asarlaridan tarjimalar qilgan. "Dunyo nur bilan to'la", "Dunyomga ochilgan eshik" kitoblarining muallifidir.

* * *

Deydilar,
vaqt keladi...
U Vaqt qay vaqt keladi?
Bir ko'klam saharimi —
quyosh kulib boqqanda?
Bir zimiston kechami —
kadar meni bo'qqanda?
Nastarin faslidami,
Umrim sevgi chog'imi?
Hozirdan isitaymi
balki xonadonimni —
kelganda sovqotmasin...

Xayollarga botmasin:
Kutmapti-ku, deb, meni —
sevgili mehmonini.
Uni qarshi olmoqqa
balki vaqt topolmadim —
ish-la andarmon edim.
U Vaqt qay vaqt keladi?
U Vaqt qaydan keladi?
Uzoqlardan keladi.
Yulduzlarning yonidan,
Kelajakdan keladi!..
U Vaqt qachondir meni
Albatta solgay yoda.
Bexos kelib, ko‘rsaki —
Men...
yo‘qman bu dunyoda...

* * *

Ayrildik,
Ayriliq tushdi oraga...
Ayriliq mavridi sovuq bir o‘pish...
O‘zi uchrashgandik ayrilmoq uchun —

G‘alati tasodif, ajib ko‘rishish...
Xo‘b qiziq, bilolmam, bilolmam nechun
Men seni hali ham yodga olaman,
Men seni hali ham unutolmayman...

Manzil ham olmadik bir-birimizdan —
Qalbimiz, tuyg‘umiz tosh edi xuddi.
Bunchalar begona, bunchalar sovuq,
Dushman ham dushmandan ayrilmagandi.

Bu ham bir ko‘rgilik, bir qismat ekan...
Mening ham yuzimga baxt kularmikan?

Ko‘zlasam umrimning oxiri qadar,
U karvon ortga qaytib kelarmikan?

Demasman, ko‘ksimda zirqirar yaram,
Demasman, men sensiz tosh bo‘lib qoldim.
Shunchaki bilolmam, bilolmam, nechun
Men yodga olaman seni hali ham,
Men seni hali ham unutolmadim...

Umrdan nechalab odamlar kechar,
Ko‘rdingki, yodingda biri ham qolmas.
Naq o‘tingdan kirib, kulingdan chiqar,
Ayrilar, hech qanday o‘rni ham qolmas.

O‘zi uchrashgandik ayrilmoq uchun...
Xo‘b qiziq, bilolmam, bilolmam nechun
Men seni hali ham yodga olaman,
Men seni hali ham unutolmayman...

NIZOMIY ZO‘HROBIY

(1955–2016)

Turkshunos, shoir, publitsist, tarjimon Musayev Nizomiy Zo‘hrob o‘g‘li 1955-yilda Ozarbayjonning Yordimli tumanida dunyoga kelgan. Mirzo Fatali Oxundov nomli Ozarbayjon Davlat rus tili va adabiyoti pedagogika institutini tugallagan. Jahon xalqlari Yozuvchilar uyushmasining a’zosi, ushbu jamiyatning Ozarbayjondagi Bosh vakili hamda Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, o‘nlab tarjimalar, tarix va madaniyatga oid maqolalar, uch tarixiy poema muallifi. 2016-yilda vafot etgan.

SO‘RAGIL OYOG‘ING IZIDAN MENI

Ko‘rmadim to‘yguncha bir zavq-u safo,
Nechun nari etding o‘zingdan meni?
Hijroning chektirdi bunchalar jafo,
O‘tkazar ignaning ko‘zidan meni.

Ko‘nglim yor dastidan dod solib yig‘lar,
Qalandi tog‘ misol ko‘ksimga dog‘lar,
Ketmas xayolimdan qaymoq dudog‘lar,
Ayirding totidan, so‘zidan meni.

Toleyimga chizgan naqshlaring mudhish,
Qoldi na o‘sha qalb, na o‘sha boqish.
Bahorning o‘rniga keldi qorli qish,
Osding yuragingning muzidan meni.

Sensiz Oyim botdi, so‘ndi Quyoshim,
Qoldi zimistonda bu mushkul ishim.

Sig‘dira bilolmas ruhimni loshim,
Siqadi qabr misol bu zindon meni.

Ko‘rmadi parvona mendayin bir sham,
Ishqim doston etdi dunyoga pesham,
U gul yonog‘ingda bo‘sa bo‘lmisham,
O‘chira olmassan yuzingdan meni.

Oshiq bo‘ldim senga nihol yoshingda,
Kechsa-da zamonlar, umring qishida
Ko‘rsang — o‘choq yonur bir tog‘ boshida,
Tani olovidan, cho‘g‘idan meni.

Tortarsan zulfing-la meni dorga sen,
Ketarman ortingdan ketsang qayga sen,
Bir kun rahming kelib meni izlasang,
So‘ragil oyog‘ing izidan meni.

ODILA NAZAR

Odila Hasan qizi Nazarova, Naxichivon Muxtor Respublikasining Sharur tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori. Besh she'riy, ikki ilmiy kitob muallifi. Ozarbayjon Respublikasi Tahsil masalalari institutida katta ilmiy xodim lavozimida ishlab kelmoqda.

ORZULARIM BOR EDI...

Orzularim bor edi —
Qo'l ushlashib kezsaydik.
Ruhimning odamidek,
Bir jonga jo bo'lsaydik.

Etsaydik visolni toj,
Armonlilar xotiriga.
Chulg'asaydik dunyoni
Muhabbatning atriga.

Xush sayr etib, xush kezib,
Hayot gashtin sursaydik.
Hasratdan nari bo'lib,
Biz qo'sha qarisaydik.

Koshki sen-la bir umr
Davr-davron sursaydik.
Ayni kunda jon berib,
O'limni o'ldirsaydik.
Orzularim bor edi...

BIR SHE'R YOZAMAN

Bir she'r yozaman bu kecha senga,
Lek kunduz o'qima, qurbon bo'layin.
Junjikib qolaman sovuq to'shakda,
Sevsang, to'g'ri emas, o'qi mendayin...

O'qi, tush kechaning siri-sehriga,
Xayol bo'l tumanli boshim ustida.
Titroq qo'llaring-la siypala sochim,
Bo'shliq ezar meni, ko'nglimni ista.

Seniki bo'lsin Oy, yulduz bas menga,
Uni ham sen bilib, chiroq aylayman.
Misralarga tizib barcha yaxshini,
Yomonni o'zimdan yiroq aylayman.

Yopig'liq qutida saqlayman yig'ib,
Toleyimga bo'lgan shikoyatimni.
Bir she'rga bitaman bor tuyg'ularim,
Ishqqa taslimlikning hikoyatini.

Sig'dira bilmasam hijolarima,
Bu ishqni bag'ishla kechalarima.
Bir she'r yozadirman bu kecha senga,
Lek, qurbon bo'layin, kunduz o'qima.

OYBENIZ ALIYOR

1980-yilda Ozarbayjonning Shabran shahrida tug'ilgan. Hozirda Shabran shahri Xoqoniy nomli She'riyat uyining rahbari vazifasida ishlaydi. Oilali. Ikki farzandi bor. Besh she'riy kitob muallifi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi.

KO'ZLARIN BOG'LAGAN GO'DAK

(Xo'jaylida bir go'dak yuzini qo'lchalari bilan pana qilgancha jonsiz yotardi)

Ko'zlarin bog'lagan go'dak,
Onam deb yig'lagan go'dak,
Yurtingga yukmish kulishing,
Tuproqqa yukmish yurishing,
Olamga yukmish boqishing.

Ko'zlarin bog'lagan go'dak,
Qalblarni dog'lagan go'dak,
Ustingga tuman keldimi?
Onang sochlarin yuldimi?
Alloh senga yod bo'ldimi?

Ko'zlarin bog'lagan go'dak,
Pokligin saqlagan go'dak,
Yotishing shirin buncha ham?
Axir sovqotasan, bolam...
Tur, yopib ol yerni, erkam.

AYRILIQ

Alloh, bundoq ham ayriliq bo‘larmi?
Yo‘llarga to‘shalgan xazon ayriliq.
Har kecha bir she’r yozdirur menga,
Ishvali ayriliq, tannoz ayriliq.

Kimgadir uzangan yo‘llar boshqa bir
Kimsaga tolemi, qismatmi, nadur?
Pokiza sevgilar bo‘lganda ado,
Butun ayriliqlar bir bahonadur.

Ayriliq nomi-la chiqibdi yo‘lga
Yana bir hayotning g‘am-ozorlari.
Oq kokillar aro yig‘ib asrayman
Ayriliqdan tushgan oh-u zorlarni.

Sevgilar andog‘ kim, oddiy va siyqa,
Sevganga hammaning kulgisi kelar.
Eng uzun ayriliq shu bo‘lsin deya,
Odamning til tortmay o‘lgisi kelar.

RAFIQ HUMMAT

1965-yil 13-fevralda Gruziyaning Bo'rchali tumanida dunyoga kelgan. Tbilisi Davlat pedagogika universitetini tamomlagan. Prezident stipendiyasi sohibi. Asarlari matbuot sahifalarida muntazam e'lon qilib boriladi. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi Gruziyadagi bo'limining rahbari. 2001-yilda "Salom, dunyoning egasi" kitobi nashrdan chiqqan.

SEN KETDING...

Abri nayson misol yog'ar ichimga,
Qaylarga sig'diray bu kadarni man?
Ko'chalar nogahon qoldi huvullab,
Sen ketding, naylayin bu shaharni man?

Yulduzlar botmasdan jonim chiqsaydi,
Koshkiydi ko'rmasam bu saharni man.
Qo'qqisdan zimiston qa'rida qoldi,
Sen ketding, naylayin bu shaharni man?

Nafasi siqilgan bemordek tentib,
Ketaymi saqlab dilda bu qahrni man?
Uff... men bu shaharni qanday sevardim!
Sen ketding, naylayin bu shaharni man?

Bunchalar zaifman, Alloh!..
Yashadim...
Shu kichik hasratda bir mahsharni man.
Shimol o'rmonidek qahraton har yon,
Sen ketding, naylayin bu shaharni man?

Dallidek kezarman bo‘sh ko‘chalarda,
Ishqning tilanchisi, bir sarsariman.
...Qaytgil, ko‘ksimga sen uch chinnigul qo‘y,
Qayt, yana sevayin bu shaharni man...

SEN UCHUN

Biroz aqlim ila, ham devonavor,
Naylayin, men bunday sevaman seni.
Ikki farzandingni sen qanday sevsang,
Men ham xuddi shunday sevaman seni.

Biroz himoyaching, biroz shohingman,
Ishqing qarshisida qulday titray man.
Sen ikki bolangga qanday titrasang,
Men ham sening uchun shunday titrayman.

Ishqimni umringga saroy etganman,
Kerila olmasman mol-davlatim-la,
Sen ikki bolani avaylagandek,
Men seni qo‘riyman duolarim-la.

Oylarim yil bo‘ldi. Va... angladimki,
Umrimning tayanchi, o‘zagisan sen.
Bu ellik yoshimning ostonasida
Bu shoir umrimning bezagisan sen.

SAGIF QORATUPROQ

1963-yil 26-oktabrda tug'ilgan. "Husayn Orif" adabiy uyushmasi rahbari, bir qator she'riy to'plamlar muallifi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi.

* * *

Yashil yaproq edim,
Qolmadi mador,
Yo'lingga ko'z tikib
Rangim za'faron.
Yulindim butoqdan,
Shamol sovurar
Bu ojiz tanamni
Goh u, goh bu yon.
Yomg'irlar quyadi,
Qish qahratonda
Junjikarman men
G'arib, notavon.
Otilib, urilib
devordan devorga
Tentirman sarson,
bekordan bekorga...
Eh... sen...
Balki buning hech senga
Yo'q bir zarracha farqi.
Har kun bosib o'tarsan jim
Oyog'ing ostida ingragan bargni...

* * *

Qanday kirding yuragimga,
Men bexabar qoldim-ku.
Ko‘zimni ochdim-u ko‘rdim,
Ming yillik joyingdir u...

Axir, kim o‘rgatdi senga
Bu joduni, afsunni?!
Sen kelib anglatding menga
Ishqdek go‘zal fusunni.

Shunday uvushib qoldim,
So‘z topmadim demakka.
Men senga qandoq “ket” degum,
Joying bormi ketmakka?!

* * *

Hech kimni o‘ylamadim
men umrimda bu qadar.
Qiziq, nechun qadrdon
menga bu g‘am, bu kadar?
Oh, nechun titrar yurak
sendan darak kelganda.
Bu ne sir, sevinaman
sen ozgina kulganda.
Qanday kelding, bilolmam,
Jonimda, qonimdasan.
Uzoqlarda bo‘lsang ham,
Doimo yonimdasan.
Bilsayding zorligimni
qo‘llaringdan tutmoqqa...
Ming yilki, sargardonman
axir senga yetmoqqa.

Oh… men endi naylayin,
O‘z ohimdan yonaymi?
Yo o‘zimni unutay,
Yo bu ishqdan tonaymi?!
Qiziq, buni bilganda
Namlandimi ro‘moling?
Na hasratning so‘ngi bor,
na ayriliq poyoni...

SALOM SARBON

1966-yilning 10-avgustida Ozarbayjonning Jalilobod tumanida dunyoga kelgan. Shoir o'zi haqida bunday deydi: "...O'rta maktabda barcha fanlarni yaxshi o'zlashtirardim, ammo riyoziyotga mehrim bo'lakcha edi. Hatto ba'zan menga shunday tuyulardiki, bolalikda so'zlashishni so'zlar bilan emas, raqamlar ila o'rganganman".

MEN KELAR BO'LMADIM, YO'LNI QARSHILA

Manglay yozuvida imzo yeri bo'sh —
qatl farmonidir, qo'llamoq bo'lmas.
O'sha nafratlangan oyog'ingni ham
Bir qadamdan uzoq tashlamoq bo'lmas.

Bir daqiqa to'xtab, "yo'q" degil menga,
har kecha uyqumga kirayotgan qiz.
Odamni orqadan chetlab o'tarlar,
Hoy, mening qarshimdan o'tib ketgan qiz.

Endi bu qish umrda sirpanmoq kerak,
Bizni qor kuzatar, do'llar qarshilar.
Bu esa mendan eng oxirgi noma:
Men kelar bo'lmadim, yo'lni qarshila.

KOKILING QO‘LIMDA TASBEH O‘RNIGA

Kokiling qo‘limda tasbeh o‘rniga...
tepangda duomni o‘qidim, uyg‘on.
Sening muhabbating mening ko‘zimda
tersiga yo‘yilgan tush edi, uyg‘on.

Endi sen men uchun hech ne emassan,
endi na nash’amsan, na dardim, ayol!
Men seni sevmayman, sening bag‘ringga
sendan bekinmoq-chun kirgandim, ayol...

Hali zimdan asta yemirib seni,
gohi tosh tashiyman, goh qum tashlayman.
Seni tashlamayman, sendan qochmoqqa
umr uzunligida lahim tashlayman.

KECHIR, XONADONIM CHORDEVOR ENDI

Uyam tumshug‘imda kezarman hali,
Sensiz yer ham yo‘qdir darbadar menga.
Kelgil, kel, uzilib bir chetga tushgan
Ul shox-butog‘imdan meva ter menga.

Bilmayman kechirgum qaysi holingni —
O‘ynaymi to‘yingga, yo aza libosi?..
Har kun necha maktub yozib, yirtaman,
Yirtib to‘ldiraman... xabar qutisin.

Ko‘zlamakdan ko‘zim ichiga cho‘kdi,
Ko‘r, hech so‘raysanmi, bu ne cho‘kindi?
Senli xotiralar quladi uyga —
Kechir, xonadonim chordevor endi.

SAODAT ALAKBAROVA

Alakbarova Saodat Muzaffar qizi 1971-yil 24-fevralda Ozarbayjonning Ganja shahrida tug'ilgan. OzR Qishloq xo'jaligi akademiyasini tugatgan. Asarlari davriy matbuot sahifalarida muntazam e'lon qilib boriladi. "Turk dunyosi shoirlari" antologiyasi (2013), "Turk dunyosi Oltin qalamlar" antologiyasi (2014) hamda 2015-yilda "Qorabog'noma" she'rlar antologiyasida she'rlari chop etilgan.

MEN HAYOTDAN KO'CHGANDA

Istamayman men hayotdan ko'chganda,
Armonli orzular yurakda qolsin.
Istaymanki, baxt yulduzim o'chganda,
Allohim ruhimni huzur-la olsin.

Bir olam sevinchni baxsh etsin o'lim,
Sevinch bulog'iga cho'mib, yuvinay.
Bo'lib chaqaloqdek begunoh, ma'sum,
Gunoh libosimni men uloqtiray.

Kechganda ustimdan o'lim karvoni,
Malak qanotida ko'kka ketayin.
Chalinsin umrimning nozik torlari,
Rabbim sevgisi-la men jon berayin.

So'ralmasin bahorimning yillari,
Yozimning qish isi ichimda qolsin.
Zeb-ziynatsiz, befayz o'tgan kunlari
Yig'ilib, qalbimning burchida qolsin.

MAKTUBLAR

Maktublar topardi so‘nggi manzilin,
Tortinchoq savdoning saroyi kabi.
Maktublar ichida uchgan onini
Tuyardik qalblarning faryodi kabi.

Kelgan maktublarda sirli sevgilar
G‘arib ishqlariga qo‘noq bo‘lardi.
Goho satrlarda mahzun yuraklar
Bir o‘choq o‘tiga chiroq bo‘lardi.

Ularda dillarning hayqiriqlari,
Ularda insonning viqori bordir.
Sirli umidlarning nozik izlari,
So‘zlarning ma’sumlik gunohi bordir.

SOBIR SARBON

1956-yilning 5-martida Ozarbayjonning Pirhasanli qishlog'ida tug'ilgan. Ozarbayjon Davlat madaniyat institutini bitirgan. 1996-yildan hozirgacha Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi Sumgait shahri bo'limining raisi bo'lib ishlab kelmoqda. Bir necha she'riy kitoblar muallifi.

O'LGAN MING DAF'A TIRILDI

Mavlono Jaloliddin Rumiyga

Yo'qoldim dunyo ko'zidan,
Ko'zdan u yonda
Men borman.
Eng birinchi ham eng so'nggi
Izdan u yonda
Men borman.

Dema, qubbasi qurildi,
O'lgan ming daf'a tirildi.
Yuz bekinmoq-chun berildi,
Yuzdan u yonda
Men borman.

Ruhimning binosi yo'qdir,
Turarga xonasi yo'qdir,
So'zdan u yonasi yo'qdir,
So'zdan u yonda
Men borman.

BIR CHUMOLI OZOR CHEKSA

Do‘llar tuysa bir chamanni,
Manim chechagim undadir.
Tog‘ni kesib, toshni yoray,
Manim cho‘ragim undadir.

Qoradir baxtimning yuzi,
Manglayda shum taqdir izi,
Ko‘r bo‘lsin osmonning ko‘zi,
Manim falagim undadir.

Yigit o‘ngdan ortga tushsa,
Bir chumoli g‘ovga tushsa,
Qayda haqqa ko‘lga tushsa,
Manim yuragim undadir.

SULAYMON HUSAINOV

1949-yilning 19-sentabrida Ozarbayjonning Lenkoran rayonida dunyoga kelgan. Ozarbayjon Neft va kimyo institutini hamda Moskva Xalq xo'jaligi akademiyasini bitirgan. Qator kitoblari ozarbayjon va rus tillarida Ozarbayjon va Rossiyada chop etilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi, xalqaro "Qilich va qalam" mukofotining sovrindori.

QAYDASAN

O'zgardi zamona, boshqadir davron,
Qachondan halolga qo'shildi harom,
Osiyning qo'liga tushibdi Qur'on,
Qaydasan, qaydasan, haqning qilichi?!

Jondan to'ydirganda g'am-dard shoirni,
Sut ko'lida suzar saroy shoiri,
Yulduzga do'nibdi, axtar shoirni,
Qaydasan, qaydasan, haqning qilichi?!

Buncha shirin bo'ldi yolg'onchi tillar,
Yashirdi atrini chechaklar, gullar,
Uy yiqar bir vaqtlar uy qurgan qo'llar,
Qaydasan, qaydasan, haqning qilichi?!

Men qondan qo'rqsam ham, ko'rurki Alloh,
Dunyoni ol rangga bo'yadi gunoh,
Seni chorlagayman, sendadir panoh,
Qaydasan, qaydasan, haqning qilichi?!

* * *

Jimib ilhom parim, ko‘zi ko‘r bo‘ldi,
Oqarib sochlarim, oppoq qor bo‘ldi,
Sensiz dunyo menga zulmat go‘r bo‘ldi,
Hasrating eshigim qoqqandan beri.

Ayira bilmasman do‘st ila yotni,
Tilimdan qochibdi nonimning toti,
Dard ko‘ksimga enib, bag‘rim qonatdi,
Hasrating eshigim qoqqandan beri.

Visoling qo‘limdan uçhgan qush emish,
Bilmadim, yuraging qandog‘ tosh emish!
Ko‘zlarim sen ketgan yo‘lda qolibmish,
Hasrating eshigim qoqqandan beri.

Hayotda hammadek bir inson edim,
Yuragi ishq to‘la Sulaymon edim,
Hasrating o‘tida shamdek eridim,
Hasrating eshigim qoqqandan beri...

SULTON MERZILI

Shoir, noshir, tarjimon, adabiy tanqidchi. 1948-yilning 1-iyulida Tog'li Qorabog'ning Xojavand tumanida tug'ilgan. Ozarbayjon Davlat universitetini bitirgan. Bir necha she'riy kitoblar muallifi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi, Shoirlar va publitsistlar assotsiatsiyasi a'zosi. Hozirda Moskva shahrida yashaydi.

IKKI YO'L ORASI

Bilsaydim xushbaxtlik nadur,
baxtli bo'lardim.
Xushbaxt bir olamga tushib qolardim.
qo'ng'iroqgulmi yo
bir qadah misol,
Ichimga xushbaxtlik quyib, to'lardim.
Xushbaxtlik pul bo'lsa,
men pul bo'lardim,
Xushbaxtlik yo'l bo'lsa,
men yo'l bo'lardim.
Bilsaydim xushbaxtlik sening ishingdir,
Senga do'st bo'lardim yo qul bo'lardim.
Tole yozmishini bilmagan kasga,
Hech yoqmas, handasa ters kelib qolsa.
Xushbaxtlik Allohning maxfiy siridir,
Inson tushunmas, gar jo'n banda bo'lsa.
Jarliklar ustida bir taxt tiklanmish,
Tepadan sel bosar, ostdan esa vaqt.
Ikki yo'l o'rtasi — arosatdaman,
Bilmam, baxtlimanmi yoki
bir badbaxt?!

YASHATAR MENI

Bu kuz yomg‘iridan bo‘salar oldim,
Xotirlatdi sening ko‘z yoshlaringni.
Har daf’a yangidan dunyoga keldim,
Yuzimda tuyganda boqishlaringni.
O‘p meni, o‘p meni, yomg‘ir tomchisi,
Umr deganlari bu bir tomchi suv!
Mening muhabbatim yurakdan kelur,
Qurit yoshlarimni, ko‘zda qolmasun.
Ol yuragimni, bir yaproqqa o‘ra,
Isming muhrlangan dudoqqa o‘ra.
Men seni ishqimga Vatan bilganman,
Sen uni bir siqim tuproqqa o‘ra.
Yuvar yuz-ko‘zimni bu kuz yog‘ishi,
Malak navozishli bir qiz boqishi,
Kuzdan meni olgil, yetkaz bahorga,
Unutay hasratni, unutay qishni.
Yaproqlar to‘kilib, to‘zg‘itar meni,
Tomchilar tomchilab muzlatar meni,
Bu begona yurtda o‘lib ketardim,
Sening muhabbating yashatar meni!

TAVFIQ NURALI

1953-yilda Qo'noqkent tumanida tug'ilgan. N. Narimonov nomli Ozarbayjon Tibbiyot institutini imtiyozli diplom bilan bitirgan. Turli tibbiyot idoralarida rahbar lavozimida ishlagan. Ilk ommabop "Shafqat", hozirgi "Tib gazeti"ni ta'sis etib, Bosh muharriri bo'lgan. To'rt she'riy kitob muallifi. She'rlari Tabriz, Moskva shaharlari hamda Turkiyada chop etilgan.

* * *

Istamayman endi, qaytsin u kunlar,
Yurak olovlansin, qalblar isinsin.
Sen qo'y u kunlarning yaxshisin, gulim,
Eng yomoniga ham men degum esiz.

Esiz o'shal kunlar, seni sevgandim,
Afsuski, aldandim men ham hayotda.
Afsus, unutgandim, eng tik daraxtning
Egri ildizi bor tuproq tagida.

Saodat bilardim u vaqt har neni,
Dunyo — ko'zlarimda o'yin-o'yinchoq.
Afsuski, kech tuydim, kech ko'zim ochdim,
Sevgi ham saodat emasmish biroq.

Yurakni aldamoq, ko'zni bog'lamoq,
Ko'ringki, sevgida bir odat ekan.
Esiz o'sha kunlar, endi bilaman,
Muhabbat yolg'onchi saodat ekan.

Minba'd istamayman — qaytsin u kunlar,
Qaytgan saodatdan qalblar isinsin.

Sen qo‘y u kunlarning yaxshisin, gulim,
Eng yomoniga ham men degum esiz.

* * *

Ranjima dunyodan, injima mendan,
O‘tgan turnalarga qo‘l silki yana —
Kuz osmoni ila ketgan turnalar
Eng so‘nggi maktubim o‘qiydi senga...
Unda yozilganki, ko‘zlaringni art,
Meni ham qalbingdan yul —
yula bilsang....
Men uchun sen nomli bir go‘zal bo‘lgan,
Senga juda o‘xshar,
U sen emassan...
Meni ham dunyoda ruhim yashatar...
Cho‘kkan bir orolman, xun bo‘lgan dengiz...
Sochlar oqarsa ham, ko‘ngil so‘nsa ham,
Ko‘ryapsan, yashay olmasman sensiz...
Mening maktubimdir turna sadosi...
Bu sasdan ko‘nglingda qalanar o‘choq...
Intihosi yo‘qdir bu maktublarning —
Qolar uzuq-yuluq... yarim qolajak...
Ranjima dunyodan, injima mendan,
O‘tgan turnalarga qo‘l silki yana —
Har kuzda... har kuzda o‘tgan turnalar
Chala bir maktubim o‘qiydi senga...

* * *

Sarg‘ayib so‘ligan chaman ichida
Uzoqdan ko‘rinar bir dasta chechak...
Bunchalar umidli, barra edilar —
Tuyularmidiki, bahor kelajak?
O‘ylaydilarki, hayot oldinda...

Bitmas-tuganmasdir saodat, farah...
Kuz quyoshi ila isinolmagan
Tuman bosib kelur har yonni faqat...
Ming bir azob ichra so'lajak ular...
Hech ne anglamasdan, hech ne bilmasdan...
Sochim qirovi-la umrim bu chog'i,
Bir kuz chechagiga o'xshayman men ham...
Hayot tumanlarda o'tdi shundayin,
Bitta-bitta so'ldi umrim kunlari....
Qamradi to'rt yonni kadarli tuman,
Tumanning ostida kuzning gullari...

ULVIYA VOHID

1978-yilning 28-noyabrida Boku shahrida tug'ilgan. Oliy ma'lumotli. Bir farzandi bor. Badiiy adabiyot, she'riyatga qiziqishi juda erta boshlangan. She'rlari ko'plab gazeta va jurnal sahifalarida e'lon qilib boriladi. Turli yillarda yozgan she'rlari bugungi kunda ham o'quvchilar tomonidan iliq qarshilanmoqda.

YIG'LAYDI YOMG'IR...

Osmonning ham ko'zi to'libdi yana,
Mening oyinamda yig'laydi yomg'ir.
Sokin, mayda-mayda, yanada og'ir,
Ko'ngil oyinamda yig'laydi yomg'ir.

Nedan u ranjidi, nedan g'amlidir,
Havo ham o'zgardi, tuman, changlidir.
Yog'yaptimi, demak, yana dardlidir,
Ko'ngil oyinamda yig'laydi yomg'ir.

Har umrning o'zgacha naqshi bo'larkan,
Yo'l so'ngida gohi yoshlar to'karkan,
Kulgan ko'zlar ham bulutdek to'larkan,
Ko'ngil oyinamda yig'laydi yomg'ir.

Yuragimdan tomchi-tomchi sizilar,
Kiprigimga munchoq kabi tizilar,
Bevaqt yog'ar, qalbim muzlab izillar,
Ko'ngil oyinamda yig'laydi yomg'ir.

SO‘YLA...

Ne uchun bunchalar sen jimsan, gulim,
So‘yla, sof qalbingni nolitgan nedir?
Shundoq ham dunyoga mehmonmiz, gulim,
Seni bu hayotdan sovitgan nedir?!

Qish ko‘klamdan xafa, quyosh hiloldan,
Yo‘l izdan arazda, dengiz daryodan,
Kim ne anglar qalbingdagi faryoddan,
Seni bu hayotdan sovitgan nedir?!

Tole o‘yini goh shafqatsiz bo‘lur,
Sevimli chechaklar ham vaqtsiz so‘lur,
Bu go‘zal ko‘zlaring nechun tez to‘lur?
Seni bu hayotdan sovitgan nedir?!

Oh, yana sovuqdir nozik qo‘llaring,
Tikilar menga ma’noli ko‘zlaring,
Nega jimsan, ayt dildagi so‘zlaring,
Seni bu hayotdan sovitgan nedir?!
Seni bu hayotdan sovitgan nedir...

SEVGI ERTAGI

Bir sevgi ertagi aytib ber menga,
Unda hasratlardan so‘z ochilmasin.
Baxtiyor sevgilar yorti qolmasin,
Bir sevgi ertagi aytib ber menga.
Unda ham saodat, ham vafo bo‘lsin,
Sevinch yoshlari-la diydalar to‘lsin.
Yashalgan har sevgi bir o‘rnak bo‘lsin,
Bir sevgi ertagi aytib ber menga.

Majnunlar Layli-chun hasrat chekmasin,
Farhodning azobi zoye ketmasin,

Zulayho Yusufsiz g‘amga cho‘kmasin,
Bir sevgi ertagi aytib ber menga.

Azroil eshikni bevaqt ochmasin,
Fariza ishq uchun kafan bichmasin,
Sevgilar hech qachon bunday bitmasin,
Bir sevgi ertagi aytib ber menga.

Ishonchli tog‘larni qorlar bosmasin
Xiyonat degan so‘z yodga tushmasin,
Visolning yo‘lini hech ne to‘smasin,
Bir sevgi ertagi aytib ber menga.

Ertak olamiga mehmon bo‘lsam ham,
Bir kun bu hayot-la vidolashsam ham,
Endi ertaklarga ishonmasam ham,
Bir sevgi ertagi aytib ber menga.

TARLON ABILOV

1968-yilning 20-iyulida tug'ilgan. Ozarbayjonning Lenkaran shahrida yashaydi. "Ziyoratga ketgan nafas", "Yashil yog'duda bitgan yo'l" nomli ikki she'riy kitob muallifi, Prezident stipendiyasi sovrindori, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

XARITA

Yuzi dardning, g'amning xaritasidir,
Har yoni ajinli yirik bir o'lka.
Kezarman yuzining ajinlarini,
Deyman, kezmakka hech arzimas balki...

Ko'zlari oroldir, yashil bir orol,
Yashili quruqlik, oqi tamom suv.
Uning ko'zlarida yashamoq menga
Endi bir qo'l yetmas orzudir, orzu.

Tikilgan sukutning ko'zlari yerga,
Kel endi, uning ham tomirini tut.
Balki men bilmasdim, bu yer yuzida
Inson shaklidamish eng buyuk sukut.

Uning ko'zlarida, uning yuzida,
Eh, necha dengizning bor to'fonlari.
Uning yuragining sarhadlarini,
Insonmas, tanisa bir U tanirdi.

Kezarman, kezarman bu xaritani,
Barmog'im xuddi bir toshga tegadi.

Bilmadim, ne gunoh sohibimanki,
Qo‘lim toshdan oqqan yoshga tegadi.

Yo bu xaritadir tosh bo‘lgan mensiz,
Yoki men tosh bo‘ldim, toshga aylandim.
Yoki o‘sha, bir vaqt ota deganim,
Ul toshning ko‘zida yoshga aylandim.

Osganman ko‘zimdan bu xaritani,
Balki bir ajini o‘ygay meni ham.
Boshimga uraymi shoirligimni,
Gar bu xaritaga tusha olmasam.

JUDA HAM O‘RGANDIM BU TANHOLIKKA

Bilmadim, aybim ne, meni sevganlar
sevib ham umrimdan hamon chekinur.
Yuzimga do‘st kabi kulganlar mendan
dushmandek qayrilib, yomon chekinur.

Qiziq, sabab nedir, besh-olti so‘zmi,
yo‘qsa bu dunyoga yondashma tarzim?
Meni yuksaltmoqqa urinma, Alloh,
o‘zim bilmasam gar hali kimman, kim?

Juda ham o‘rgandim bu tanholikka,
yopildim, yopildi o‘zimga ko‘zim.
Qalbim shoshilsa-da sening yoningga,
Qalbimga yetmadi, hayallab ko‘zim...

Hayallab ko‘zlarim, hayallab qo‘lim,
o‘zdi, o‘zdi mendan ko‘zyoshlarim-da.
Yo Rabbiy, ko‘k yuzi biram sirpanchiq,
yiqilsam, yopishma ko‘zyoshlarimdan.

Bezdi, bezdi mendan sevgan ayolim,
bezdi tug‘ishganlar, kim bo‘lsa, bezdi.
Dunyoning suvtekin o‘limlari ham
mendan uzoqlashdi, bir chetda kezdi.
Juda ham o‘rgandim bu tanholikka,
bekindim, ko‘zgular yuzimdan tushdi...
Chopdim, yetolmadim ko‘zyoshlarimga,
ul ko‘zyoshlarim ham ko‘zimdan tushdi....

SHOHMAMAD TOG‘LAR O‘G‘LI

Sultonov Shohmamad Nurulla o‘g‘li 1956-yili Ismoilli tumanida tug‘ilgan.

1991-yilda Novosibirsk Xalq xo‘jaligi institutini iqtisodchi-muhandis ixtisosligi bo‘yicha bitirgan.

2005-yilda bir yillik jurnalistika kursini tamomlagan. Besh kitob muallifi. She’rlari “Turk dunyosi shoirlari antologiyasi” va boshqa almanaxlardan o‘rin olgan.

2014-yildan o‘zi ta’sischisi bo‘lgan “Ismoilli yozuvchilari” adabiy-ijtimoiy uyushmasining rahbari, 2008-yildan boshlab nashr bo‘layotgan “Ismoilli xabarlari” gazetasining ta’sischisi va bosh muharriri. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.

ONADIR

Sen uchun jonim fido bo‘lsin, Vatan,
Sen va onam menga bir jon-u bir tan,
Yurakdan, yurakdan, sof, chin yurakdan
Ul men sevgan inson onadir, ona.

Sochlarida qirov farzand yo‘lida,
Yosh o‘tgach panadir qiz-u kelindan,
Aylanay men uning shirin tilidan,
“Jonim bolam!” degan onadir, ona.

Allasi yoqimli buloq kuyidan,
Tuyib, bahra olar farzand bo‘yidan,
Orziqib kutilgan o‘g‘lin to‘yidan
Gohida so‘z ochgan onadir, ona.

SO‘YLAYDI

“O‘chmas hech bag‘rimdan sen
chekkan zahmat” , —
Bu so‘zni chamanim, gulim so‘ylaydi.
“Zahmatni sevmagan insonga nafrat”, —
Bu so‘zni dudog‘im, tilim so‘ylaydi.

Hayotda xo‘b qiyin kunlar ko‘rmisham,
Ammo har zarbaga ko‘ksim kermisham,
“Kuchim, quvvatimni elga bermisham”, —
Bu so‘zni qadoqli qo‘lim so‘ylaydi.

El meni sevsa gar bir shoir qadar,
Bo‘lmoq istamasman besar, darbadar,
“Intil, o‘tmasin kun bekor, besamar”, —
Bu so‘zni oylarim, yilim so‘ylaydi.

MAHZUN TUYG‘ULAR

Go‘zallar ichinda sendan go‘zalni,
Kimki ko‘rdim desa, men ishonmasman.
Kuydirib kul qilsin alangalaring,
Hech kimning dardida buncha yonmasman.

Umrning kuz chog‘in haroratin ko‘r,
Gul ochmoq istaydi ko‘hna orzular.
Dunyoning eng baxtli ayollaridir —
Onaizorim va men sevgan dilbar.

To‘ymoqqa, tolmoqqa bormikan haqqim,
Barchasin sevmakka yuragim tayyor.
Mening azizlarim, jigargo‘shamdir,
Kim ishq-muhabbatda pok va vafodor.

Hayotning negizi, mag‘zi sevgidir,
O‘lmakka hozirman sevmagan kunim.
Dunyoda so‘nggi nafasim qadar
Qul bo‘lay sevgiga bag‘ishlab umrim.

Quyoshdan o‘rganing qanday sevmakni,
Oyning nurida ham sevgi bor, biling.
Tirikman mehrli insonlar-la men,
Gar o‘lsam, sevgi bor yerda dafn eting.

ELMON TOVUZ

1961-yilning 10-aprelida Ozarbayjon Respublikasi Tovuz tumanining Shixhaybat qishlog'ida tug'ilgan. Ozarbayjon Xalq xo'jaligi institutini (hozirgi Iqtisodiyot universiteti), ayni vaqtda jurnalistika (kechki) fakultetini bitirgan. 1998-yilda og'ir avtomobil halokatiga uchrash natijasida mehnat qobiliyatini yo'qotgan. Oilali, Boku shahrida yashaydi. Talabalik chog'laridan ijod qilib kelmoqda. Asarlari Ozarbayjon matbuotida muntazam e'lon qilib boriladi.

Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, besh she'riy kitob muallifi.

* * *

Mening she'r kitobim varaqlagan qiz,
Taassuf, sen aslo sevinmagaysan....
Bir visol nag'masin so'roqlagan qiz,
Yuz hasrat nolasin sen tinglagaysan.
Yozgan ash'orlarim fig'onli, dog'li,
O'qisang, muzlatar misoli ayoz.
Yarador burgutman — oyog'i bog'li,
Sen-chi, qaldirg'ochdek etarsan parvoz.
Ohim samo bag'rin yorib o'tsin deb,
Men dardni kuylayman har kecha, har kun.
Bir qoni qaynoqqa ma'qul bo'lsin deb,
Sen she'r axtaryapsan "xotira" uchun...
Kadar uyum-uyum, g'am to'da-to'da,
To'fon-u sellar-la bitgandim g'azal.
Sening izlaganing yo'q bu kitobda.
Alloh haqqi, meni afv etgil, go'zal.
Hali vaqt keladi vasfing kuylashga,

Ey visol nag‘masin so‘roqlagan qiz.
Dard berding,
Qo‘ymading ozayishiga,
Kitobim beparvo varaqlagan qiz.

YURAGIMDA

Menga “tosh yurakli” degan baxtiyor,
Bilsayding, nelar bor kosh, yuragimda.
Sening kaklik ishqing uya quribdi,
O‘sha, cen aytganing tosh yuragimda.

Bilmadim, mendagi bu shoshish nedan,
Bahor ko‘zlarga qish ko‘rinish nedan,
Hijronga bunchalar xush yoqish nedan —
Chekkan dog‘laring ham xush yuragimda...

Avvalgi Elmonman, toshmi yoki qish,
Joizmikan Tangri izniga nolish?!
Suzsin deb sen — ko‘nglimdagi oqqush,
Oqqancha ko‘l bo‘ldi yosh yuragimda...

Bildingmi nelar bor “tosh yuragimda”?!

MUNDARIJA

Jaholatga qarshi ma'rifat (*Karim Bahriyev*) 3

Mirza Hasan Qorabog'iy. *Muhiddin Omon tarjimalari* 9

Mirzo Aliakbar Sobir. *Karim Bahriyev tarjimalari* 19

Ali Nazmiy. *Tohir Qahhor tarjimasi* 24

Ahmad Javod. *Tohir Qahhor tarjimalari* 27

Sulaymon Rustam. *Maqsud Shayxzoda, Zulfiya, Shuhrat, Oydin Hojiyeva tarjimalari* 30

Mammad Rahim. *Fayzi Shohismoil tarjimalari* 33

Muhammadhusayn Shahriyor. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 36

Mikoyil Mushfiq. *G'ulom Ismoilov tarjimalari* 49

Rasul Rizo. *Nosir Muhammad, Shahlo Qosimova, Karim Bahriyev tarjimalari* 52

Nigor Rafibeyli. *Xosiyat Rustamova, Karim Bahriyev tarjimalari* 57

Bolosh Ozaro'g'li. *Fayzi Shohismoil tarjimalari* 61

Nabi Hazri. *Mirtemir, Nosir Muhammad, Fayzi Shohismoil tarjimalari* 64

Otif Zeynalli. *Usmon Qo'chqor tarjimalari* 70

Madina Gulgun. *Fayzi Shohismoil tarjimalari* 74

Qobil. *Usmon Qo'chqor tarjimalari* 78

Ali Karim. *Usmon Qo'chqor tarjimalari* 82

Narimon Hasanzoda. *Miraziz A'zam tarjimalari* 86

Jobir Navro'z. *Razzoq Abdurashid tarjimalari* 92

Qosim Qosimzoda. *Tohir Qahhor tarjimalari* 96

Fikrat Quja. *Fayzi Shohismoil, Ikrom Otamurod tarjimalari* 100

Mammad Oraz. *Usmon Qo'chqor tarjimalari* 105

Maston Guner. *Xosiyat Rustamova tarjimalari* 112

Ibrohim Go‘ychoyli. *Fayzi Shohismoil tarjimalari* 113
Qachay Ko‘charli. *Tohir Qahhor tarjimalari* 116
Muso Yoqub. *Usmon Qo‘chqor, Karim Bahriyev tarjimalari* 119
Ramz Mammadzoda. *Nosir Muhammad tarjimalari* 122
Voqif Samad o‘g‘li. *Rauf Parfi, Usmon Qo‘chqor,*
Xosiyat Rustamova, Karim Bahriyev tarjimalari 124
Firuza Mammadli. *Miraziz A’zam tarjimalari* 129
Ofeliya Boboyeva. *Rahmat Bobojon tarjimalari* 132
Iso Ismoyilzoda. *Usmon Qo‘chqor tarjimalari* 135
Zohid Xalil. *Miraziz A’zam tarjimalari* 138
Hidoyat. *Usmon Qo‘chqor tarjimalari* 141
Voqif Ibrohim. *Miraziz A’zam tarjimalari* 144
Nusrat Kasamanli. *Xosiyat Rustamova,*
Shahlo Qosimova tarjimalari 148
Og‘amali Sodiq. *Miraziz A’zam tarjimalari* 153
Eldor Boxish. *Usmon Qo‘chqor tarjimalari* 156
Tohir Tolibli. *Usmon Qo‘chqor tarjimalari* 158
Voqif Bayotli O‘dar. *Miraziz A’zam tarjimalari* 161
Zelimxon Yoqub. *Miraziz A’zam, Usmon Qo‘chqor tarjimalari* 164
Islom Turkoy. *Miraziz A’zam tarjimalari* 169
Odil Jamil. *Boboxon Sharif tarjimalari* 173
Ramiz Askar. *Tohir Qahhor tarjimalari* 175
Asqar Rasulov. *Miraziz A’zam tarjimalari* 178
Vali Xromchoyli. *Usmon Qo‘chqor tarjimalari* 181
Ziraddin Qoforli. *Miraziz A’zam tarjimalari* 184
Rustam Behrudiy. *Usmon Qo‘chqor tarjimalari* 187
Ajdar O‘l. *Fayzi Shohismoil tarjimalari* 190
Qasham Nasafzoda. *Miraziz A’zam tarjimalari* 192
Ozod Yashar. *Fayzi Shohismoil tarjimalari* 196
Elshon Azim. *Sevinch Norqobilova tarjimalari* 199
Alish Avaz. *Karim Bahriyev tarjimalari* 202
Akif Azalp. *Karim Bahriyev tarjimasi* 208

Mammad Ismoil. *Miraziz A'zam tarjimasi* 211
Elchin Iskandarzoda. *Tohir Qahhor, Alisher Tursunov tarjimalari* 216
Qulu Oqsas. *Miraziz A'zam tarjimalari* 220
Ulviy Yusufo'g'li Bunyodzoda. *Usmon Qo'chqor tarjimalari* 223
Nozila Gultoj. *Nosir Muhammad tarjimalari* 225
Shohin Qodirov. *Miraziz A'zam tarjimalari* 227
Tohir Tois. *Usmon Qo'chqor tarjimalari* 230
Salim Bobullo o'g'li. *Usmon Qo'chqor tarjimalari* 231
Rasmiya Sobir. *Alisher Tursunov, Rahmat Bobojon tarjimalari* 235
Farid Husayn. *Tohir Qahhor tarjimasi* 239
Akbar Qo'shali. *Alisher Tursunov, Shahlo Qosimova tarjimalari* 253
Og'a Ja'far Hasanli. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 257
Ganira Pashayeva. *Samodil Norqobilova, Xosiyat Rustamova tarjimalari* 260
So'na Valiyeva. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 267
Telli Panoh Qizi. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 271
Firuz Mustafo. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 273
Fikrat Mursaqulov. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 275
Gunay Umid. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 277
Ahmad O'g'uz. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 280
Qasham Najafzoda. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 282
Yunus O'g'uz. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 285
Xayol Rizo. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 287
Ayoz Arabachi. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 290
Ibrohim Ilyosli. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 292
Oqil Kangarli. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 296
Ofoq Shixli. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 298
Nilufar Shixli. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 301
Ayten Tahmasib. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 303
Alamdor Jabborli. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 305
Bolayor Sodiq. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 307

Ruboba Sohib. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 309
Diyonat Usmonli. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 311
Elshod Arshod o'g'li. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 313
Emin Piri. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 315
Farg'ona Mehdiyeva. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 317
Giya Pachxatashvili. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 319
Hayot Shomiy. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 321
Hijron Husainova. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 323
Iroda Oytel. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 326
Nurona Nur. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 329
Onor Amin. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 331
Qilmon Imon. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 332
Ramil Ahmad. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 334
Sahar Ahmad. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 337
Saxovat Sohil. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 339
Solmon Aruz. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 341
Vusol Nuru. *Usmon Qo'chqor tarjimasi* 344
Akif Ahmadgil. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 346
Vafo Mursal Qizi. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 348
Iroda Alili. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 350
Kamola Abiyeva. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 351
Mamad Qodir. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 353
Maorif Sulton. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 355
Nizomiy Zo'hrobiy. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 358
Odila Nazar. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 360
Oybeniz Aliyor. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 362
Rafiq Hummat. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 364
Sagif Qoraturpoq. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 366
Salom Sarbon. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 369
Saodat Alakbarova. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 371
Sobir Sarbon. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 373
Sulaymon Husainov. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 375

Sulton Merzili. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 377
Tavfiq Nurali. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 379
Ulviya Vohid. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 382
Tarlon Abilov. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 385
Shohmamad Tog'lar o'g'li. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 388
Elmon Tovuz. *Shahlo Qosimova tarjimasi* 391





OZARBAYJON ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI

70-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Zulfiya G'ulomova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 25,0. Nashriyot-hisob tabog‘i 17,53
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 137-1/22 Buyurtma raqami № 22-353

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
“O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

O-33 Ozarbayjon zamonaviy she'riyati antologiyasi [Matn]: nazm / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Karim Bahriyev. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 400 b.
ISBN 978-9943-8733-7-7

UO'K 821.512.162-1
KBK 84(5Ozar)-5

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

OZARBAYJON ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI